

# **O‘QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO‘LLANMA**

**Qadimgi dunyo tarixi  
6-sinf**

*O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan*

*Yangi nashr*

**Toshkent – 2022**

**UO‘K 94(100)(075.3)**

**KBK 63.3(0)**

**S 16**

***Mualliflar:***

**Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, Kostetskiy Vasiliy Anufriyevich**

***Taqrizchilar:***

- O. P. Kobzeva** – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi, tarix fanlari doktori.
- T. M. Bagdasarova** – Toshkent shahridagi 49-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi.
- V. A. Sergeyeva** – Toshkent shahridagi “Smart school” boshlang‘ich ta’lim muassasasi-ning tarix fani o‘qituvchisi.
- M. Yunusova** – Toshkent shahridagi 44-sonli umumiy o‘rta ta’lim maktabining tarix fani o‘qituvchisi.

Ushbu metodik qo‘llanma 6-sinf Qadimgi dunyo tarixi darsligi (mualliflar: A. S. Sagdullayev, V. A. Kostetskiy) asosida tayyorlangan bo‘lib, tarix o‘qituvchilari tomonidan darslarga tayyorlanish va to‘garak ishini o‘tkazish uchun foydalanishga mo‘ljallangan. Keltirilgan ma’lumotlar darslarni o‘tkazish uchun kerakli ma’lumotlardan ancha ko‘proqdir, chunki ham umumiy o‘rta ta’lim sinflari, ham tarix fani chuqur o‘rganiladigan sinflar uchun mo‘ljallangan. Sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qarab, o‘qituvchi keltirilgan ma’lumotlardan zarurini tanlab olishi kerak.

Darslar uslubiyati O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlar tarix fani o‘qituvchilarining ish tajribasidan olingan innovatsion usullarga asoslangan holda ishlab chiqilgan.

*Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.*

*Orginal maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.*

ISBN 978-9943-8350-4-7

© Respublika ta’lim markazi, 2022

## KIRISH

Bilimlar jadal sur'atlarda yangilanib borayotgan hozirgi davrda o'qituvchi dars o'tishning eng zamonaviy usullaridan imkon qadar samarali foydalanishi zarur, chunki hech bir darslik, hech bir metodik qo'llanma turli dars shakllarini o'tkazish bo'yicha mufassal tavsiyalar bermaydi.

### ZAMONAVIY DARSGA TALABLAR

#### Zamonaviy darsning asosiy belgilari quyidagilardir:

1. Axborot yangiligi.
2. Mantiqiy tugallik va ma'lum bir rejaga amal qilish.
3. Dars oxirida yakun chiqarish.
4. Ish sur'atini tezlashtirish, o'quvchilarda mavzuga nisbatan diqqat va e'tibor ko'nikmalarini hosil qilish.
5. Darsning barcha bosqichlarida muloqot qilish orqali o'quvchilarda fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish.
6. Ma'lumotni hissiy, ta'sirchan (emotsional) tanishtirish: hissiyotlar qanchalik turli-tuman bo'lsa, dars shuncha samarali bo'ladi. O'qituvchi o'z darsini mustaqil tahlil etolmas ekan, u darslarning bir butun tizimini tuzish va rejalashga, o'z pedagogik mahorati saviyasini tanqidiy baholashga erisholmaydi.

#### O'qituvchi o'z darsi bo'yicha o'zini o'zi tahlil qilishi (nazorat qilishi) uchun savollarning variantlaridan birini taklif etamiz.

1. Mazkur darsning mavzu, bo'lim bo'yicha darslar tizimida tutgan o'rni qanday, ya'ni, mazkur dars avvalgi va keyingi darslar bilan qanday bog'langan, ularning qaysi jihatlariga tayanadi?
2. Darsdan maqsad nima?
3. O'rgatuvchi, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifalarning mantiqiy birligi qanday amalga oshiriladi:
  - Dars turi va tuzilishi to'g'ri tanlanganmi?
  - O'quv (dasturiy) va qo'shimcha didaktik ma'lumotlar to'g'ri tanlanganmi?
  - Dars vazifalari, tuzilishi va turiga muvofiq qo'llanadigan o'qitish usullari va shakllari majmuasi qanchalik maqbul?
  - Dars samaradorligini oshirish uchun nimalar qilindi?
4. Sinf xususiyatlari qanday hisobga olindi?
5. O'quvchilarga haddan tashqari vazifalar yuklab yubormasdan, qo'yilgan vazifalar hal qilindimi?
6. O'quvchilarning bilimlarini nazorat qilish bo'yicha qanday usullar qo'llanildi? Natijalar qanday?
7. O'qituvchi o'tgan darsi bo'yicha o'zini o'zi qanday baholaydi? Darsni yana qanday tashkillashtirish mumkin edi?
8. Keyingi darslarga qanday o'zgarishlar kiritishni xohlaringiz va buning uchun nima qilish kerak?

#### Bilimlarni tekshirish usullari turlicha bo'lib, o'quvchilarning tayyorgarligi va dars shakliga bog'liq. Bu usullar quyidagilardan iborat:

- to'liq javob uchun doska yoniga chaqirish;
- qisqa javob uchun joyidan chaqirish;
- sinfdoshlarining javoblarini tuzatish va to'ldirish;
- oldindan berilgan savol yuzasidan kichik ma'lumotlar;

- vazifalarni kartochkalar bo'yicha hal qilish, hujjat yoki rasmni tahlil etish;
- dars mavzusining asosiy mazmunini doskada reja ko'rishida yozish;
- chiziqli (kontur) xarita bilan amaliy ishlar, boshqotirmalarni yechish va h.k.;
- tarix fani bo'yicha daftarlarni ularga kiritilgan yozuvlarni baholagan holda tekshirish;
- butun sinf uchun yozma nazorat ishi;
- ijodiy insholar;
- tarixiy atamalar va tushunchalar bo'yicha bilimlarni tekshirish uchun so'rov o'tkazish;
- o'tilgan mavzu bo'yicha o'zlashtirishni baholash.

### DARS TUZILISHI

Har bir dars bir nechta bosqichga bo'linadi, ularni ma'lum ketma-ketlikda o'tkazish kerak.

O'qituvchilar ishini qulaylashtirish uchun mazkur bosqichlar ketma-ketligi va vazifasini keltiramiz:

- I. Dars maqsadini belgilash.
- II. Materiallar va jihozlarni tanlash.
- III. Asosiy tushunchalar va atamalar bilan tanishtirish.
- IV. Tashkiliy ish.
- V. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.
- VI. Yangi mavzuning mazmunini aniqlash.
- VII. Dars mavzusi ustida ishlash.
- VIII. O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash.
- IX. Darsga yakun yasash.
- X. Uy vazifasi.

### DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

T/r	Dars bosqichlari	Didaktik maqsad	O'qitish usullari	O'qitish shakllari
1.	Tashkiliy	Darsda ishlashga motivatsiya	Evristik (esga soladigan savollar usuli, o'quvchi qo'yilgan masala yechimini mustaqil topishiga mo'ljallangan).	Hikoya
2.	Uy vazifasini tekshirish	Avvalgi dars mavzusi o'zlashtirilganligini nazorat qilish	Evristik	Mustaqil ish. Suhbat
3.	Yangi ma'lumotni o'rganish	Yangi ma'lumot mazmuni bilan tanishtirish	Tushuntiruvchi-ko'rgazmali	Hikoya, suhbat
4.	Mustahkamlash	Asosiy voqea-hodisalarni mustahkamlash	Evristik	Suhbat. Mustaqil ish
5.	Tashkiliy	Uy vazifasi bajarilganligi haqida yo'l-yo'riq	Evristik	Hikoya

6.	Nazorat	Darsda o'quvchilarning ishini baholash	Evristik	Suhbat
7.	Tashkiliy	Darsga yakun yasash	Evristik	Suhbat

Tarix fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish hamda ularni rivojlantirishdek bir-biri bilan uzviy bog'liq vazifalarni hal etishi kerak.

Bilimlarni chuqur egallash esa faktlarni tahlil qilish va umumlashtirish, voqea va hodisalarni taqqoslash, ularni mustaqil baholash hamda xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishni, shuningdek, tarixiy manbalar, xaritalar bilan mustaqil ishlash bo'yicha amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishni taqozo etadi.

**Bu maqsadda o'quv materiallarini bayon qilishning turli shakllari va usullaridan foydalanish kerak:**

- rasm bo'yicha hikoya;
- “o'tmishga sayohat” shaklida hikoya;
- tasvirlanayotgan hodisalarda “qatnashish” taassurotini hosil qilish;
- aniq tarixiy shaxs misolida ko'rsatish (personifikatsiya);
- tarixiy voqealarni dramalashtirish, masalan, tarixiy va to'qima shaxsning bahslashuvi yordamida birinchisining xatti-harakatlari to'g'riligi yoki noto'g'riligi aniqlanadi;
- qiziqarli tafsilotlarni bayon qilish;
- o'qituvchining jonli va qiziqarli hikoyasi;
- muammoli vaziyatlarni yaratish va muammoli vazifalarni qo'yish;
- ma'lum mantiqiy ketma-ketlikda qo'yilgan savollar guruhidan iborat mantiqiy “sxema-eslatma” asosida o'quvchilar tomonidan tarixiy faktlarning mustaqil tahlili.

**O'rganilgan ma'lumotni muntazam takrorlash, umumlashtirish chuqur va mustahkam bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradi.**

**Qadimgi dunyo tarixi darslarida yangi ma'lumotlarni o'rganishning quyidagi usullari ta'sir kuchiga ega bo'ladi.**

**I. “Arxeologiya qazishmalari joylari bo'ylab sayohat” o'yin-ekskursiyasi.** O'qituvchi aytgan arxeologiya yodgorligi qaysi davrda qurilganini aniqlash, unga qisqacha tavsif berish, xaritadan topish vazifasi beriladi.

**II. “Qadimiy bayramlarga tashrif” o'yin-ekskursiyasi.** O'rta Osiyo xalqlarining bayramlaridan biri aytiladi. Bu bayram an'anaviy nishonlanadigan joyni aniqlash, marosimlar, udumlar va hokozolar haqida hikoya qilib berish kerak.

**III. “Odamlar va voqealar” o'yini.** Biror bir voqea-hodisa qaysi tarixiy arbobning nomi bilan bog'liqligini ma'lum bir vaqt ichida aytish vazifasi beriladi.

**IV. “Uchinchisi ortiqcha” o'yini.** O'quvchilarga uch shahar (predmet, voqea) nomlari aytiladi, bu nomlardan biri o'rganilayotgan mavzuga aloqador emas. O'yin ishtirokchilari raqamli (1, 2, 3) kartochkalarni ko'tarib, nomlardan birini istisno etishlari kerak.

**V. “Voqeani ayt” o'yini.** O'qituvchi voqea haqida so'zlay turib, javobga to'g'ri ishora qiluvchi joy, nom va yillarni aytmaydi. O'quvchilar qanday voqea haqida so'z borayotganini topishlari kerak.

**VI. “Bu yerda qanday voqea ro'y berdi?” o'yini.** O'qituvchi (yoki boshlovchi) shahar yoki joyni, yil yoki davrni aytib, u yerda shu vaqtda ro'y bergan voqea haqida hikoya qilishni so'raydi.

**VII. “Nimasi bilan mashhur?” o‘yini.** Tarixchi, arxeolog, jamoat arbobining ism-sharifi aytiladi. O‘quvchilar u tarixda nimasi bilan mashhurligi, buning mamlakatimiz tarixiga aloqasi bor yoki yo‘qligi haqida savolga javob berishi kerak.

**VIII. Dars o‘yin shaklida o‘tiladi** (“Baxtli voqea” o‘yini kabi savollarga javoblar va h.k.).

## TARIX DARSLARIDA INTELEKT-XARITALAR YARATISH USULI

Amaliyot ko‘rsatishicha, intellekt-xaritalar yaratish tarixni o‘rganishning eng samarali usullaridan biridir.

Bosma matn mazmunini tushunish kuchli diqqat-e’tiborni talab qiladi. Bunday matnni eslab qolish va unda asosiy narsani ajratib ko‘rsatish qiyin, eng noxush jihati esa – yozilgan matnga qiziqish shunchalik yo‘qolishi mumkinki, bu g‘oya amalga oshmay qoladi.

Bu usuldan bosh maqsad – bola o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar rasmlar, jadvallar, kartochkalar, grafiklar, kichik matnlar va hokazolar shaklida taqdim etilishi kerak. Ya’ni, intellekt-xaritalarni yaratish chog‘ida bosh vazifa – o‘quvchilar yordamida matnli axborotni vizuallashtirish, ya’ni, ko‘rinarli, ko‘rgazmali qilishdir. Shundagina o‘quvchilar ma’lumotni oson o‘zlashtirib, mavzuni o‘rganishda bevosita o‘zlari qatnashadi.

O‘qituvchi bu ishda yo‘riqchi vazifasini bajaradi. U axborot manbayi emas, shunchaki o‘quvchiga yordam berib, uni yo‘naltirib turadi, xolos. Bu usul o‘quvchilarga o‘z ijodiy va izlanish qobiliyatlarini namoyon etish imkonini berib, dars ma’lumotlarini estetik qabul qilishga o‘rgatadi. Quruq matn va jadvallar zerikarlidir. Intellekt-xaritalar yaratishda shunday vositalar qo‘llanadiki, ular yozuvni imkon qadar boyitishga va shu orqali o‘zlashtirishni faollashtirishga imkon beradi.

Turli qalinlikdagi chiziqlar, turli rangdagi shoxchalar, aniq tanlangan tayanch so‘zlar, shaxsan sizga ahamiyatli obrazlar va ramzlar – bularning bari yorqin ko‘rgazmali vosita bo‘lib, o‘quvchini befarq qoldirmaydi.

Miyaning faqat bitta, chap yarim shari tomonidan bajariladigan fikrlarni ifodalashning chiziqli shaklidan farqli ravishda, intellekt-xaritalar yaratish usuli qo‘llanganda miyaning bir yo‘la ham chap, ham o‘ng yarim sharlari ishlaydi. Shu tufayli mental xaritalar usuli axborotni tashkillashtirish va tartiblashtirishga yordam beribgina qolmay, balki uni yaxshiroq his etish, tushunish, eslab qolish va fikran bog‘lashga imkon yaratadi.

### **Intellekt-xaritalarni qo‘llashning quyidagi asosiy sohalarini ajratib ko‘rsatish mumkin:**

**1. Aqliy hujum.** G‘oyalarning erkin tug‘ilishiga yordam berib, fikran bog‘lanishlar (assotsiatsiyalar) orqali yangi fikrlar uyg‘otadi.

**2. Yozuvlar kiritish.** Mental xaritaga yozuvlar kiritish ancha samarali bo‘lib, ularni ko‘rib chiqish va eslab qolish osonroq.

**3. Rejalash.** Loyihalar rejalarni tuzish, tadbirlarni rejalash va boshqa ko‘p ishlar uchun xaritalardan foydalanish mumkin.

**4. G‘oyalarni boshqarish.** Intellekt-xaritalar yordamida g‘oyalaringiz tez tug‘iladi, ularni oson boshqarasiz. Ishtirokchilar fikrlarini to‘plang, ovoz bering va mavzularni sharhlang.

**5. Bilimlarni boshqarish.** Intellekt-xaritalar tashkilotlarga o‘z jamoaviy bilimlarini markazlashtirilgan holda va ishonchli tarzda saqlash, almashish hamda boshqarishga imkon beradi.

### **Intellekt-xaritalar quyidagi o‘ziga xos jihatlarga ega:**

1. **Yaqqollik.** Murakkab, ko‘p qirrali muammoni bir qarashda qamrab olish mumkin.
2. **Jozibadorlik.** Yaxshi intellekt-xaritaning o‘z estetikasi bor, uni tomosha qilish nafaqat qiziq, balki yoqimli.
3. **Esda qolishlik.** Miyaning ikkala yarim shari ishlashi, obrazlar va ranglardan foydalanish tufayli intellekt-xarita oson esda qoladi.
4. **O‘z vaqtidalik.** Intellekt-xarita qanday axborot yetishmayotganini aniqlashga yordam beradi.
5. **Ijodkorlik.** Intellekt-xarita ijodga turtki beradi, vazifa yechimining nostandart yo‘llarini topishga ko‘maklashadi.
6. **Qayta ko‘rish imkoniyati.** Oradan bir muddat o‘tib, intellekt-xaritalarni yana ko‘rib chiqish butun rasmni o‘zlashtirishga, eslab qolishga hamda yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga yordam beradi.

### **Intellekt-xaritalarni tuzishga doir maslahatlar**

1. Jonli, ijodiy tafakkurni va fikran bog‘lanishlarni ishga soling. Bu miyangizga muammoga turli tomonlardan yondashishga va g‘aroyib, ammo samarali yechimni topishga yordam beradi.
2. Ishni yo‘nalishlarga ajratish uchun turli rangdagi shoxchalardan foydalaning. Loyihaning har bir ishtirokchisi uchun shoxchalarni aniq bir rang bilan belgilang. Chalkashib ketmaslik uchun ranglar soni sakkiztadan ko‘p bo‘lmasin. Qizil, sariq va to‘q sariq ranglar eng tez o‘zlashtiriladi.
3. Shoxchalar soni – ikkita, keyingi sathlardagi shoxchalar soni – besh-yettitadan ko‘p emas.
4. Xarita fikrlash uslubini aks ettiradi, shu sababli uni standartlashtirishga harakat qilmang.
5. Bo‘rttirib ko‘rsatilgan misollar yaxshiroq esda qoladi. Shu sababli qo‘rqmay g‘aroyib rasmlar chizavering.
6. Qo‘lda chizish fikrlashga turtki beradi. Turli qulay servislar borligiga qaramay, oq qog‘oz va flomasterlardan voz kechmang.
7. Obrazlarni yorqin va esda qoladigan qilib chizing, ular sizda hissiyotlar uyg‘otsin. Bu miyaga to‘g‘ri yo‘nalishda ishlashga yordam beradi.
8. Obrazlarni ierarxiyaga ko‘ra joylashtiring: muhim tushunchalar markazda, tafsilotlar – chetqonda bo‘lsin. Zarurat tug‘ilganda shoxchalarni raqamlash mumkin.
9. Kamroq so‘z, ko‘proq rasm. Agar bir nechta so‘z bo‘lsa, ularni bir chiziqqa yozing, shunda ko‘z ortiqcha harakatlar qilmaydi.
10. O‘z ramziy belgilaringizni o‘ylab toping: “chaqmoq” – tezlik, “ko‘z” – nazorat, “chiroqcha” – muhim narsa va h.k.
11. Birinchi sath chiziqlarini qalinroq chizing, shunda harakatlar muhimligini ko‘rasiz. Chiziq uzunligi so‘z uzunligiga teng. Shoxchaning muhimligini ta’kidlab ko‘rsatish uchun harflar o‘lchamlarini o‘zgartiring.
12. Shoxchalarni bloklarga joylashtirib, ajrating. O‘zaro aloqani ko‘rsatish uchun strelkalar bilan birlashtiring.

**Intellekt-xaritalarning tayyor namunalarini internetda quyidagi saytlardan topishingiz mumkin:**

1. <http://www.mind-map.ru/>
2. <https://www.mindmeister.com/ru>
3. <https://texterra.ru/blog/obzor-15-besplatnykh-programm-dlya-sozdaniya-intellekt-kart.html>
4. [http://e-asveta.adu.by/index.php/distancionni-vseobuch/obuchenie-online/sredstva-vizualizatsii-informatsii/59-mind\\_maps](http://e-asveta.adu.by/index.php/distancionni-vseobuch/obuchenie-online/sredstva-vizualizatsii-informatsii/59-mind_maps).

## Intellekt-xarita namunasi



## Tarix darslarida filmlardan foydalanish chog'ida ayrim o'yin usullari

Zamonaviy darsdagi o'quv jarayoni uchun filmni shunchaki ko'rish zerikarli va samarasizdir. Darsda video bilan ishlash uchun o'yin topshiriqlarini taklif etamiz.

### 1. Oldindan aytish.

Odatda tomosha qilishdan oldin o'quvchilarga film nomini aytib, "Bu film nima haqida, topinglarchi?" deb savol berish mumkin. Bir og'iz so'z bilan, qisqa ta'riflab javob berishsin. Bu topshiriq ularni videofilmni o'zlashtirishga tayyorlaydi.

### 2. Filmga ovoz berish.

Bu usulni ham film boshida, ham uning istalgan lavhasi vaqtida qo'llash mumkin. Mos lavhani oldindan tanlab oling, tovushni o'chiring va o'quvchilarga shu lavhaga ovoz berishni taklif eting. Keyin lavhani yana bir marta ko'ring va ekrandagi voqealarga ovoz berishlarini so'rang.

### 3. Keyin nima bo'ladi?

Bu topshiriqni filmning turli parchalarida ketma-ket bir necha marta bajarish mumkin. Filmni eng qiziq joyida to'xtating va o'quvchilardan: "Keyin nima bo'ladi?" deb so'rang.

### 4. Tasvirsiz.

Eshitish mumkin bo'lgan film parchasini tanlang. Ishchi guruhlarga birlashtirilgan o'quvchilar aktyorlarga aylanishadi: ular eshitgan gaplariga qarab lavhaning voqealar silsilasini o'ylab topib, sahnalashtirishadi.

### 5. Qahramonlar tavsifi.

Har bir o'quvchidan (yoki jamoadan) bir qahramonni tanlab, ikki daqiqada uning tashqi qiyofasini, tabiatini yoki biror odatlarini tavsiflashni so'rang. O'quvchilar kim haqida gap borayotganini payqashlari kerak.

### 6. Men aktyorman.

Bu topshiriq oxirida xohlovchilardan qahramon xatti-harakatlarini takrorlash, taqlid qilishni so'rang.

## 7. Stop kadr.

Bu filmdagi bir yakka bilan tasvir bilan ishlashdir. Filmni goh bir joyda, goh boshqa joyda to'xtatib, umuman kutilmagan, lekin ancha oddiy savollardan birontasini berish mumkin. Masalan, filmning mana bu qahramoni qayoqqa otlanyapti? Keyin nima bo'ladi? Uning cho'ntagida nima bor, topinglarchi va h.k. Sinf guruhlariga bo'linib ishlaganda ish samarasi ortadi. Natijada sinf bir nechta versiyani ko'radi, bu esa unda ijodkorlik muhitini kuchaytiradi.

**8. Lavhani sahnalashtirish...** Filmni (yoki uning parchasini) tomosha qilgandan so'ng kichik guruhlariga bo'lingan o'quvchilar (3–6 kishi) o'zaro lavhalardan birini sahnalashtirishadi. Tomoshabinlar qaysi lavha ekanligini topishadi.

Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						

## 1-DARS. KIRISH DARS

### Dars maqsadlari:

- o'quvchilarni joriy yilgi predmet dasturi, maqsadlari va vazifalari bilan tanishtirish;
- Qadimgi dunyo tarixi bo'yicha manbalar va adabiyotlar sharhini o'tkazish;
- o'z mamlakati uchun vatanparvarlik va g'urur hissini shakllantirishni davom ettirish;
- tarixiy voqealarni tushunish va uni mantiqiy izchillikda izohlash, shuningdek, o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish – o'z fikrini tarixiy xaritalar va qo'shimcha tarixiy ma'lumotlar bilan tushuntirish, qo'shimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 5–6-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 3-b. Jahonning ilk sivilizatsiyalari.
3. “Qadimgi dunyo tarixi” konturli xaritalari, 6-sinf.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

Qadimgi dunyo tarixi, epigrafika, numizmatika, sivilizatsiya, yilnoma, solnoma, qonunlar majmui.

### Tashkiliy ish.

1. O'qituvchi salomlashadi, murakkab ijodiy mehnat uchun ishchan muhit va kayfiyatni yaratadi.
2. O'qituvchi navbatchini eshitib, jurnalda kelmaganlarni belgilaydi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish chog'ida egallaydigan bilimlar va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Predmet maqsadlari, vazifalari va mazmuni.
2. Tarixiy manbalar va adabiyot.
3. Darslik matni bilan ishlash va Qadimgi dunyo tarixini o'rganishga oid talablar.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

Qadimgi dunyo tarixi fanini o'qitishni boshlay turib, o'qituvchi shuni yodda tutishi kerakki, 6-sinf o'quvchilari aniq va jonli fikrlaydi, o'qituvchidan ham xuddi shunday hikoyani kutadilar. Bundan tashqari, 11–12 yoshli o'quvchilar faoliyatsizlikka chiday olishmaydi. Ular o'qituvchining istalgan topshirig'ini bajarishga shay, o'qituvchi ham bu shaylikni har taraflama rag'batlantirishi kerak.

## **DARSLIK BILAN ISHLASH XUSUSIYATLARI**

Uy vazifasini tayyorlayotganda o'quvchilarga darslikda bayon qilingan voqealarning ma'lum izchilligiga rioya qilishni tavsiya etish kerak (6-betga qarang).

O'quvchilarni yangi mavzu ustida ishlashga ham muntazam jalb etish: xarita, darslik matni, doskaga bo'rda chizilgan rasmlar bilan ishlash chog'idagi mantiqiy yoki muammoli masalalarni qo'yish; ularning ijodiy tasavvuridan ko'proq foydalanish zarur.

Kirish darsida o'quvchilarning umumiy bilim saviyasi va tayyorgarligiga asosiy e'tiborni qaratish hamda mavzuni yoritib, sinfga savollar bilan muntazam murojaat qilib turish kerak.

O'quvchilarga "Tarixdan hikoyalar" fanining asosiy mavzulari bo'yicha savollar berib, 5-sinfda egallagan bilimlarini eslashni taklif eting.

O'qituvchi fanning bir jihatiga: jahon tarixini O'zbekiston tarixi bilan bog'lashga e'tibor qaratishi zarur. Bu omildan har bir darsda foydalanish kerak. Qadimgi dunyo tarixidan istalgan mavzuni o'rgana turib, O'rta Osiyo tarixida voqealarning bir vaqtda kechishini aniqlashtirib borish zarur.

### **E'tibor bering:**

1. Har bir bo'lim boshida xarita berilgan, unda bayon qilingan voqealar Yerning qaysi qismida sodir bo'lgani ko'rsatilgan.
2. Har bir dars oxirida QR-kod berilgan, unga ko'ra mavzuga oid hujjatli videofilmni ochishingiz mumkin.

Videomateriallardan foydalanishga oid tavsiyalar mazkur darslik boshida berilgan.




### **Darsga yakun yasash.**

O'qituvchi darsga yakun yasab, savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

**Darslik bilan tanishish jarayonida o'quvchilar bilan birgalikda quyidagi intellekt-xaritani yaratish mumkin**



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## I BO'LIM. Eng qadimgi tuzum

### 2-DARS. QADIMGI TARIX – TARAQQIYOTNING BOSHLANISHI

#### Dars maqsadlari:

- eng qadimgi tuzum va uni davrlashtirish haqida tasavvur berish;
- ibtidoiy odam qanday sharoitlarda rivojlanganini ko'rsatish;
- tabiiy sharoitlarning odam rivojlanishi uchun ahamiyati haqida hikoya qilish.
- tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda izohlash, shuningdek, o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lash ko'nikmalarini hosil qilish;
  - o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
  - tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish – o'z fikrini tarixiy xaritalar va qo'shimcha tarixiy ma'lumotlar bilan tushuntirish, qo'shimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
  - umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

#### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 1-§, 7–10-b.

2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 3-b. Jahonning ilk sivilizatsiyalari.

3. “Qadimgi dunyo tarixi” konturli xaritalari, 6-sinf.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Arxeologiya** – yunoncha “qadimshunoslik” ma’nosini anglatadi.

**Etnografiya** – yunoncha atama bo‘lib, “xalqlar tavsifi” ma’nosini anglatadi.

**Moddiy manbalar** – inson qo‘li bilan yaratilgan hamma narsalar.

**Yozma manbalar** – qadimgi yozuvlar, qo‘lyozmalar va kitoblar.

**Xronologiya** – tarixiy voqealar ro‘y bergan, davlatlar vujudga kelgan va madaniyat rivojlangan davrlarni aniqlash.

**Davrlashtirish** – tarixni yillar, asrlar, yuz yilliklar va mingyilliklarga bo‘lish. Ibtidoiy jamoa tuzumi, ibtidoiy to‘da, urug‘, matriarxat, patriarxat, paleolit, mezolit, neolit, eneolit.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki uning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.


### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish chog‘ida egallaydigan bilimlar va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Qadimgi tarixni o‘rganish.
2. Qadimgi tarix bo‘yicha manbalar.
3. Eng qadimgi tuzumni davrlashtirish.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**



**1. Yangi ma’lumotni o‘rganishni** kirish hikoyasidan boshlab, xaritada O‘rta Osiyo hududini va ibtidoiy odam manzilgohlari topilgan joylarni ko‘rsatish kerak. Eng qadimgi davrda O‘rta Osiyoning tabiiy sharoitlarini tasvirlay turib, quyidagilarda to‘xtalib o‘tish zarur. Bu hududda ibtidoiy odamlar yashagan davrda tabiiy sharoitlar bugungidan farq qilgan. Bu davrda tog‘ muzliklari betinim harakatlanib, iqlimga katta ta’sir ko‘rsatgan. Pomir va Tyan-Shan muzliklari Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi daryolarga suv berib, bu hududda hayot paydo bo‘lishi uchun qulay sharoitlar yaratdi.

Bu vaqtda iqlim nam va iliq edi. Shu sababli bu yerda bug‘u, arxarlar yashab, tekisliklarda yovvoyi otlar va buqalar podalari, har xil turlarga mansub karkidonlar, uzun shoxli bizonlar, fil va mamontlarning qadimgi turlari kezib yurgan. Hozirgi vaqtga qaraganda haroratning kamroq keskinlikdagi o‘zgarishlari, yomg‘ir va qorning ko‘p yog‘ishi boy hayvonot va o‘simlik dunyosi rivojlanishiga turtki bergan. Bunday tabiiy sharoitlar ibtidoiy odamlarning butun O‘rta Osiyo hududi

bo‘ylab keng tarqalishiga ham yordam bergan.

**Qadimgi jamiyatni davrlashtirish sxemasidan foydalanib va har bir davrga xos mehnat qurollarini tasvirlab, “taraqqiyot” tushunchasini izohlash mumkin.**

**2. Davrlashtirish – o‘quvchilar idrok etishi uchun eng qiyin masala ekanligi sababli unga asosiy e‘tibor qaratish zarur.**

O‘quvchilar ma’lumotni osonroq tushunishlari uchun quyidagi davrlashtirishni berish kerak (ular buni daftarga yozib qo‘yishsin):

**paleolit** – qadimgi tosh davri;

**mezolit** – o‘rta tosh davri;

**neolit** – yangi tosh davri;

**eneolit** – mis-tosh davri;

**bronza davri;**

**temir davri.**

Olingan bilimlarni mustahkamlash uchun o‘quvchilar mazkur davrlashtirish qaysi belgiga ko‘ra (ko‘pgina mehnat qurollarini yasashda ishlatilgan materialga ko‘ra) tuzilganligi haqida savolga javob berishlari kerak.

**1-topshiriq. Quyidagi atamalarning to‘g‘ri ta‘riflarini yozing.**

<b>Atamalar</b>	<b>Javoblar</b>
Arxeologiya	“qadimshunoslik” haqidagi fan
Etnografiya	“xalqlar tavsifi”, dunyo xalqlarining kelib chiqishini va hayotini o‘rganadigan fan
Moddiy manbalar	inson qo‘li bilan yaratilgan hamma narsalar
Yozma manbalar	qadimgi yozuvlar, qo‘lyozmalar va kitoblar

3. Kirish hikoyasida insoniyat uzoq mingyilliklar davomida anglismovchiliklar va xatoliklarni yengib o‘tib asta-sekin, ammo sabot bilan tabiat kuchlaridan o‘z ehtiyojlari uchun foydalanishni o‘rganib, madaniyat asoslarini yaratgani haqida so‘zlab berish kerak. Ibtidoiy odamning hayoti og‘ir bo‘lgan. U “oltin davr”da yashagan degan afsona allaqachon eskirgan. Ammo ibtidoiy odamlar mashaqqatli mehnat evaziga tabiat kuchlari bilan kurashda g‘alaba qozonishdi.

Qadimgi tarix nomsiz. U na shaxslarni, na “qahramonlar”ni, na muhim sanalarni biladi. Shunga qaramay, u ibtidoiy madaniyatni yaratgan noma’lum odamlarning haqiqiy qahramonligi bilan yo‘g‘rilgan, ular kelgusi madaniylashgan jamiyatning asosiga aylandi.

Kirish so‘zidan so‘ng “ibtidoiy jamoa tuzumi” tushunchasi ochib berilib, uning insoniyat tarixida mehnat qurollariga umumiy egalik qilish va jamoaviy mehnat bilan ifodalangan ilk davr sifatidagi o‘rni ko‘rsatiladi.

O‘quvchilar ibtidoiy jamoa tuzumining belgilarini daftarlariga qisqacha yozib qo‘yishlari mumkin: hamma narsa umumiy, hamma birlashib mehnat qiladi.

**O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash.**

Darsda o‘rganilgan atamalar va davrlashtirishni takrorlab, mavzuni mustahkamlash zarur. 10-betdagi savollarga javob berish kerak.

## 2-topshiriq.

Rim raqamlari tagiga tegishli arab raqamlarini yozing.

I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII	XIII	XIV	XV

## 3-topshiriq.

Quyidagi ro'yxatdan moddiy tarixiy manbalarni tanlab oling va ularni chap ustunga, yozma tarixiy manbalarni esa – o'ng ustunga yozing: munchoqlar; odamlar oyoqlari izlari; sopol haykalcha; g'ordagi rasmlar; odam suyaklari; nayzaning uchi; tosh, sopol, qamish poyalaridagi yozuvlar.

Moddiy tarixiy manbalar	Yozma tarixiy manbalar

### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 1-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

*Qo'shimcha ma'lumot*

## IBTIDOIY ODAMLAR HAYOTI

Tobora avj olayotgan ayoqqa qarshi chorasizligini idrok etgan odamlar boshpana topish maqsadida uzoq-uzoqlarga ketib qoldilar. Mana, ko'p kunlardan buyon yo'talayotgan qariya jamoadoshlaridan ancha ortda qola boshladi. U juda betob, bazo'r sudralib borardi.

Odamlar uzoq vaqt to'xtash mumkin emasligini, bir kishini deb hamma halok bo'lishini tushunishardi. Qariya yana qolib ketgach, ular orqaga ham qaramay, uni kutmasdan oldinga yo'l olishdi. Qariya qattiq ingradi, ammo hech kim na parvo qildi, na to'xtadi. Uning achchiq nolalari asta-sekin quloqqa chalinmay qoldi.

Keyinroq aynan shu yo'ldan yurgan boshqa odamlar sovuqdan qaltirayotgan, sheriklari unutgan va tashlab ketgan qariyani ko'rishdi. Ammo bu qabila ham uni qutqarish uchun to'xtamadi, chunki o'zlari ham halok bo'lishlari mumkin edi. Qor tinmay yog'ar, kuchli sovuq hukm surardi. Oldinda kishilarni yangi, kutilmagan sinovlar kutardi. Insoniyatning ilk tarixi shu tarzda boshlangan.

O'zbekiston hududida odamlarning joylashishi ilk paleolit davriga, taxminan mil. avv. 700–500 mingyilliklarga to'g'ri keladi. Olimlar taxminiga ko'ra, O'zbekiston hududida o'rtnashgan ibtidoiy odamlar asosan Janubi-sharqiy va Sharqiy Osiyoda yashagan sinantropolar bilan qondosh hisoblanadi.

O‘zbekistonda toshdan yasalgan qadimiy mehnat qurollari Farg‘ona vodiysidagi Selengur va Angren shahri yaqinidagi Ko‘lbuloq manzilgohlaridan topilgan. Bular qo‘pol tosh qurollar bo‘lib, ularning bir tomoni urib o‘tkirlangan. Arxeologiya fanida bu tosh qurollar chopperlar deb nomlangan.



### **Ilk paleolit davrida bu joylarda yashagan odamlarning tashqi ko‘rinishi qanday edi?**

Tasavvur qiling, mana u tog‘ bulog‘iga yaqinlashmoqda. Tor peshanasi ko‘zlari ustidan bosib tushgan, turtib chiqqan jag‘ida o‘tkir tishlari ko‘rinib turibdi, iyagi deyarli ko‘zga tashlanmaydi. U hali gapirishni bilmaydi, faqat ayrim tovushlar chiqaradi, xolos. Odam buloqqa kelgach, qo‘lidagi toshni boshqa toshga uradi. Qarabsizki, ish quroli – toshbolta tayyor. U yo‘lda davom etadi. Oldinda g‘or ko‘zga tashlandi, u yerda yoqilgan gulxan o‘ziga o‘xshagan odamlarni yorishtirib turibdi.

Mehnat qurollari odamlarga yegulik topish uchun kerak bo‘lgan. Dastlabki mehnat qurollari sodda edi. Uchi o‘tkirlangan tosh va tayoq bilan qurollangan odam hayvonlarni ovlagan, uchi o‘tkir tayoq yordamida o‘simliklarning iste‘molga yaroqli ildizlari va ildizmevalarini kovlab olgan.

Tabiat insonga nimani in‘om etsa, odam shuni olgan, topgan yeguligi bilan qanoatlangan. Shuning uchun ham kishilarning eng qadimiy mashg‘uloti bo‘lgan termachilik va ovchilik o‘zlashtiruvchi xo‘jalik deb ataladi.

Odamning mehnat qurollarini yasay olishi uning hayvonot dunyosidan ajralishiga sabab bo‘ldi. Shunga qaramay, uning hayoti og‘ir edi. Hamma joyda uni xavf-xatar ta‘qib etardi. Har doim ham yetarli miqdorda yegulik topa olmasdi. Yovvoyi hayvonlar ko‘pincha hamla qilar va oqibatda ko‘pchilik odamlar halok bo‘lardi.

Odamning yirtqich hayvonlarniki kabi changali va o‘tkir tishlari bo‘lmaganligi bois u hayvonlarning tishlari va tirnoqlariga qaraganda ancha mustahkam tosh qurollardan foydalanardi. Hayvonlardan himoyalaniish va birgalikda yegulik topish uchun ular katta jamoalarga qo‘shilishardi. Chunki har bir odam alohida yashasa, u holda odamlar ochlikdan halok bo‘lishi yoki hayvonlarga yem bo‘lishi mumkin edi.

Tasavvur qiling: gulxan yonida to‘planib o‘tirganlar yoniga sher yaqinlashmoqda. U daraxtlar va butalar orasidan tovush chiqarmay pisinib keladi. Odamlar orasidan kimdir uni nogahon ko‘rib qoladi va qichqirib yuboradi. Hamma hushyor tortib o‘giriladi. Sher esa shunchalik yaqin kelib qolgan ediki, hech kim qochishga ulgurmasdi, chunki sher ularga bir sakrashdayoq yetib olardi.

Odamlar yirtqichga ko‘zlarini tikkancha bir joyga g‘uj bo‘lib, bir-birlarining pinjiga kirib ketishdi. So‘ng hamma ovozi boricha qichqirdi va qo‘llarini silkitganча hayvon tomon yo‘naldi.

Sher o‘zini yo‘qotib qo‘ydi. Odamlar qo‘rqib qochish o‘rniga unga tomon yopirilib kelishdi. Ular uchun omon qolishning yagona yo‘li – birgalashib harakat qilish edi. Eng kuchli hayvonlarni bo‘g‘izlagan va tevarak-atrofnı dahshatga solgan sher chekina boshladi. Odamlar esa battar baland ovozda qichqirib, qo‘rqmay olg‘a yurishdi. Shu vaqtdan e‘tiboran odamlar katta to‘da bo‘lib harakatlana boshladi, endi ularga hujum qilishga hech qaysi yirtqich jur‘at qilmasdi. Ular faqat jips holda omon qolishlarini tushunib yetdilar.

O‘zbekiston hududida paleolit (qadimgi tosh davri) yodgorliklari ko‘p topilgan. Bular nafaqat ochiq havodagi makonlar, balki g‘orlardir. Boysun tog‘laridagi Teshiktosh g‘orida o‘rta paleolit

odami – neandertal odami qoldiqlari topilgan. Makonlardan tashqari arxeologlar qadimiy ustaxonalar – tosh konlarni aniqlashgan.

Bu vaqtga kelib ibtidoiy odamlar Xo‘jakent, Obirahmat (Toshkent vohasi), Omonqo‘ton va Takalisoy atroflaridagi g‘orlarda yashay boshladi, Zarafshon vodiysidagi Uchtut va Ijont ustaxonalari-tosh konlarini o‘zlashtirdi.

## Teshiktosh



## Surxondaryo viloyati

Teshiktosh g‘ori o‘rta paleolit davri madaniyatining jahonga mashhur yodgorligi hisoblanadi. G‘ordan 3000 ga yaqin tosh qurollar, tog‘ echkisi, kiyik, yovvoyi ot, qoplon, quyon, mayda kemiruvchilar, shuningdek, qushlarning talay suyaklari topilgan.

G‘or devorlari tagida uning istiqomatchilari archa va boshqa shox-shabbdan gulxanlar yoqishgan. Paleolit davri odami olovsiz yashay olmasdi. Olovni so‘ndirmay saqlab turish, bolalar parvarishi ayollar zimmasida edi. Erkaklar ov qilib, o‘ljani g‘orga keltirishgan. Olov yonib turgan o‘choq ibtidoiy odam hayotida ulkan ahamiyat kasb etgan. U odamlarni birlashtirgan, o‘choq yoniga o‘lja va termachilik mahsulotlari keltirilgan, bu yerda ovqat pishirilgan, yirtqichlar olovdan qo‘rqib, g‘orga yaqinlashtirmagan.

Teshiktosh g‘orida topib tekshirilgan, tosh asriga mansub 8–9 yashar neandertal bolaning suyak qoldiqlari eng mashhur topilmadir. Uning pastki jag‘i mavjud bo‘lgan kalla suyagi saqlanib qolgan. Bu arxeologlar tomonidan kamdan-kam topishga muvaffaq bo‘lingan neandertal odamining kalla suyagi va qadimgi tosh davri qabrlaridan biridir.

O‘rta paleolit davri odamlari toshdan katta qurollar yasashni va o‘ldirilgan hayvonlar suyaklarini qayta ishlashni bilganlar. Ularning texnik usullari qanchalik oddiy bo‘lmasin, baribir neandertal odamlarning katta mahorati va mehnat ko‘nikmalarini aks ettiradi, shunga yarasha ularning ongi ham o‘sgan va rivojlangan.

Mehnat faoliyati, tevarak olam haqida to‘plangan bilimlar asta-sekin insonning fikrlash qobiliyati va tafakkurini o‘zgartirib bordi. Odamlar tushunarsiz hodisalar haqida o‘ylay boshladilar: kun bilan tun, yil fasllari almashishi, vulqonlar otilishi, yer qimirlashi va boshqa tabiat hodisalari odam e‘tiborini o‘ziga tortgan. Ana shu hodisalarning sabablarini tushuna olmagan inson momaqaldiroq, yashin, shamol, yomg‘ir kabi tabiat kuchlariga sig‘ina boshladi.

Ovchilik va termachilik rivojlangan davrda inson o‘zini tabiiy muhitdan hamda o‘rab olgan hayvonot va o‘simliklar olamidani ajratmagan. U tabiatni jonli deb hisoblagan. Odamlar tabiatdagi turli hodisalar negizida g‘ayritabiiy kuchlar yashiringan deb o‘ylaganlar. Ular ana shu kuchlarga e‘tiqod qilishgan.

Ibtidoiy odamlar tasavvuriga ko‘ra, agar sovuq tushsa yoki jala quysa, ov baroridan kelmasa, kasalliklar yoki o‘lim ta‘qib etsa, demak, ular tabiat kuchlarini nima bilandir achchiqlantirishgan va ular odamlarni jazolashmoqda. Asta-sekin ularda odam vafotidan so‘ng o‘zga dunyoga yo‘l olib, u yerda yashashda davom etadi, degan e‘tiqod paydo bo‘lgan.

Teshiktoshdan topilgan bola bilan nima bo‘lganini taxmin qilish mumkin, xolos. Ehtimol, unga yirtqich hamla qilgandir, ehtimol, ovga berilib ketib, qoyadan qulagandir yoki jarohat va kasallikdan jon bergandir. Axir u davrlarda istalgan jarohat odamni nobud qilgan.

Bola jasadi qabrga ko‘milgan. Jasad atrofiga tog‘ echkisi shoxlari qadab chiqilib, ular doira shaklini hosil qilgan. Ibtidoiy odamlar e‘tiqodiga ko‘ra, bu shoxlar marhumni narigi dunyoda himoya qilgan.

Odamni o‘rab turgan muhitda jonlar va ruhlarning mavjudligiga e‘tiqod fanda animizm nomini

olgan.

Soʻnggi paleolit davriga oid gʻorlar devorlarida topib tekshirilgan rasmlar ham qadimgi odamlarning diniy tasavvurlari toʻgʻrisida hikoya qiladi. Bu kabi rasmlardan eng qadimiylari Ispaniyadagi Altamir, Fransiyadagi Lasko va Boshqirdistondagi Kapova gʻorlaridan topilgan. Oʻzbekistonda esa Zarautsoy darasida (oʻrta paleolit) mavjud. Odamlar mazkur rasmlar boʻlajak ovda ularga yordam beradi, deya ishonishgan. Rasmlar qarshisida hayvonlar harakatlariga taqlid qilib, raqsga tushishgan, ov manzaralarini tasavvurga keltirishgan, nayza uloqtirishni mashq qilishgan.

Olimlar faraziga koʻra, bunday sehr-jodu yordamida odamlar tabiat kuchlariga va hayvonlarga taʼsir koʻrsatmoqchi boʻlgan. Bu ularga tushunarsiz tabiat hodisalari qarshisida qoʻrquvni yengishga, oʻziga ishonishga yordam bergan. Odamlar sehr-jodu bilan soʻnggi paleolit davrida shugʻullanishni boshlashgan, eng qadimgi qabrlar esa oʻrta paleolitda paydo boʻlgan, bu esa diniy eʼtiqodlar vujudga kelgani haqida dalolat beradi. Bularning bari soʻnggi paleolit davri odamlari ongining sezilarli rivojlanganini koʻrsatadi.

### Intellekt-xaritani yaratish va tarix boʻyicha sinfdan tashqari toʻgarak ishi uchun qoʻshimcha maʼlumot

#### Qadimgi tarix – taraqqiyotning boshlanishi

Arxeologlar
Antropologlar
Etnograflar
Avesto
Behistun yozuvlari
Matriarxat – patriarxat
Paleolit – mezolit – neolit – eneolit



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja boʻyicha sana						
Amalda						



## 3–4-DARS. ENG QADIMGI ODAMLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

### Dars maqsadlari:

- odamning kelib chiqishiga oid mavjud qarashlar haqida hikoya qilish;
- aniq misollarda ibtidoiy odamning mehnat qurollarini hamda uning mahorat va koʻnikmalari takomillashuvini taʼriflab berish;
- tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda izohlash, shuningdek, oʻz fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni oʻrganish orqali olingan bilimlardan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bogʻlash koʻnikmalarini hosil qilish;
- oʻzini oʻzi kamol toptirishga – ruhiy, maʼnaviy, intellektual va ijodiy oʻsishga, oʻz ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash koʻnikmalarini hosil qilish;
- oʻz fikrini tarixiy xaritalar va qoʻshimcha tarixiy maʼlumotlar bilan tushuntirish, qoʻshimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 2-§, 11–16.
2. Mavzuga oid multimedia vositalari.
3. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 2-b. Ibtidoiy odamning eng qadimgi manzilgohlari.
4. “Qadimgi dunyo tarixi” konturli xaritalari. 6-sinf, 2-b. Ibtidoiy odamning eng qadimgi manzilgohlari.
5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**O‘zlashtiruvchi xo‘jalik** – odam tabiatdan tayyor narsalarni olgan (termachilik, ovchilik).

Buyuk muzlik davri – yerni muzliklar qoplashi.

**Neandertal odami** – 40–100 ming yil avval yashagan ibtidoiy odam. Uning suyak qoldiqlari dastlab Germaniyadagi Neandertal vodiysidan topilgan.

**Kromanyon odami** – Fransiyadagi Kromanyon g‘orida bundan 12–40 ming yil avval yashagan hozirgi qiyofadagi odam.

**Chopperlar** – bir tomoni urib o‘tkirlangan qo‘pol tosh qurollar.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki uning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish chog‘ida egallaydigan bilimlar va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Eng qadimgi odamlar.
2. Muzlik davri.
3. Eng qadimgi odamlarning mashg‘ulotlari.
4. Birlashgan – o‘zar.
5. Diniy e‘tiqodlarning vujudga kelishi.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

Mazkur darsda ibtidoiy odamlar va ularning turmush tarzi bayon etiladi. Odamning hayvonot olamidan ajralib chiqishidan muzlik davri boshlanishiga qadar bo‘lgan ulkan vaqt davri ko‘rib chiqiladi.

## **1. Eng qadimgi odamlar**

Ibtidoiy odamning yovvoyi hayvonlarga o‘xshashligini o‘quvchilar tez payqaydi (qiyofasi, gapira olmaslik, yegulik topish usullari). Muhim vazifa – uzoq davom etgan evolyutsiya jarayonida ibtidoiy odamlarni qolgan hayvonot olamidan ajratgan mehnat qilish qobiliyati paydo bo‘lishini ko‘rsatishdir.

Charlz Darvin odamning maymundan paydo bo‘lishi haqida g‘oyasini ilgari surgan paytdan olimlar bu aylanish izlarini qidirmoqda. Paleontolog olimlar oldida turgan asosiy vazifa – maymun bilan odam o‘rtasidagi oraliq davrda yashagan va oyoqlarida tura olgan, ya‘ni, tik yurgan, nafaqat tosh va tayoqlarni ushlashga, balki boshqa, ancha murakkab harakatlarni bajarishga, eng oddiy mehnat qurollarini yasashga qodir mavjudotni topishdan iborat. Bundan tashqari, bu mavjudotning miyasi hajman insonnikiga yaqin bo‘lishi kerak.

Yerda yashagan eng qadimgi odamni izlash boshlandi. Odam nomiga munosib nomzodlar ko‘p topildi. Avval “piteklar” – eng qadimgi qazilma odamsimonlarni o‘rganishga qaror qilindi, ammo bu asl maymunlar ekanligi ayon bo‘ldi. Xo‘sh, eng qadimgi odam kim o‘zi? Angliyalik paleontolog Luis

Liki, soʻngra boshqa olimlar Germaniyadan kalla suyagi topilgan driopitekni ilk odam deb atashdi. Ammo keyingi qazishmalar ular odamsimon maymunlar – avstralopiteknlarning bir turi ekanini koʻrsatdi.

Faqat 1959-yildagi izlanishlar muvaffaqiyat keltirdi. Luis Liki barcha shartlarga javob beradigan mavjudotni qazib topdi. Bu odam qurollar yasay olgani haqida uning yonida yotgan yorilgan va oʻtkirlangan toshlar dalolat berardi. Bu odam Afrikadagi u topilgan Zinj qishlogʻi sharafiga zinjanthrop deb nomlandi (yunoncha “antropos” – “odam” maʼnosini anglatadi). Uning yoshi qariyb 2 mln yilni tashkil qildi.

Maymun bilan odam oʻrtasidagi bogʻlovchi boʻgʻin topildi, deb taxmin qilinmoqda, ammo olimlar bu haqiqatdan ham eng qadimgi odamligi haqida hanuz bahslashmoqdalar. Jadal qidiruvlar tufayli birin-ketin pitekanthrop va sinantrop kashf qilindi. Pitekanthrop ham Yevropadan, ham Xitoydan topildi. Uning miyasining kattaligi odamnikiga deyarli teng edi. U “homo habilis” (ishbilarmon odam)ga qaraganda ancha mukammal mehnat qurollarini yasagan, olovdan qoʻrqmagan, oʻzi gulxan yoqqan. Sinantrop Xitoyda topilgan. U bundan 500–600 ming yil muqaddam yashagan. Soʻngra yanada mukammal turdagi odam – neandertal qoldiqlari topildi. Uning miyasining kattaligi zamonaviy odamniki bilan teng. U doimiy turar joylar qurgan, mukammal mehnat qurollarini yasagan. Neandertal odamlar 40–100 ming yil avval Yevropada yashagan. Sinantropning zamondoshi – fergantrop Oʻrta Osiyo hududidagi Selengur gʻoridan topilgan.

Oʻrta Osiyo hududida odamlar juda qadim zamonlardan beri yashashgan. Toʻgʻri, bu yerda zinjanthrop qoldiqlari topilmagan, ammo Selengur gʻoridagi makonda ibtidoiy odamlar bundan taxminan 500–600 ming yil avval yashagan, bu esa deyarli sinantrop yashagan davrga toʻgʻri keladi. Bu topilmadan xulosa qilib, Oʻrta Osiyoda ham “aqli odam” – “homo sapiens” shakllangan deb dadil aytish mumkin.

Bu manzilgohdan topilgan odam qoldiqlari koʻrsatishicha, u gʻor ayigʻi, qor qoplani, karkidon va boshqa hayvonlarni ov qilgan, ibtidoiy odamlar bu davrda toʻda boʻlib hayot kechirib, termachilik va ovchilik bilan shugʻullanishgan. Odam olov yoqishni oʻrganib olib, kulda pishirilgan yegulikni isteʼmol qilishni boshlagan.

Toshkentdan shimoldagi Qoratogʻda shu davrga mansub yana bir manzilgoh topilgan. Bu yerda fil, ot, kiyik, bizonlar suyaklari, toshdan, yirik hayvonlarning suyak va shoxlaridan yasalgan mehnat qurollari topildi. Surxondaryo viloyatidagi Boysun togʻlarida bundan 40–100 ming yil avval odamlar yashagan makonlar topilgan. Bu Teshiktosh, Omonqoʻton (Samarqanddan 25 km masofada), Toshkent viloyatidagi Angren daryosi vodiysidagi (Koʻlbuloq) gʻor manzilgohlaridir. Bunday manzilgohlar Chotqol togʻ tizmasining janubiy yon bagʻrida, Fargʻona vodiysida, zamonaviy Toshkent atrofidagi Xoʻjakent va Obirahmatda, katta daryolar sohillarida topilgan. Koʻlbuloq topilmalari dalolat berishicha, bu yerda 200 ming yil avval yashagan odam slanets va chaqmoqtosh (kremniy)dan qoʻpol ishlov berilgan qurollarni yasagan. Omonqoʻtondagi (Samarqand viloyati Urgut tumani) mezolit davriga mansub ibtidoiy odamning gʻor makonida gulxan izlari, hayvonlar (arxar, kiyik, bugʻu) suyaklari, tosh mehnat qurollari topilgan. Neandertal odamlar haqida hozir qizgʻin bahslashuvlar kechmoqda – ular juda qisqa muddatda (bir necha ming yilda) hozirgi qiyofadagi odamlarga aylanishganmi yoki ularni kelgindi kromanyon odamlar surib chiqarishganmi? Fransiyadagi Kromanyon gʻoridan topilgan odamlar shunday atalgan. Ular soʻnggi paleolit davrida, bundan taxminan 40 ming yil avval yashab, hozirgi odamlardan deyarli farq qilmaganlar. Uzoq bahs-munozaralardan soʻng olimlar shunday fikrga keldilar: hozirgi odam qandaydir bir mamlakatda emas, balki Gʻarbiy Yevropa,

O'rta Osiyo va Afrikani qamrab olgan ulkan hududda rivojlangan. Ammo bu qarashni hamma ham ma'qullamayapti. Eng qadimgi odamni izlash va o'rganish davom etmoqda.

### 1-topshiriq.

Quyidagi atamalarning to'g'ri ta'riflarini yozing.

<b>Zinjanthrop –</b>	
<b>Pitekanthrop –</b>	
<b>Neandertal odami –</b>	
<b>Kromanyon odami –</b>	
<b>Chopperlar –</b>	
<b>O'zlashtiruvchi xo'jalik –</b>	
<b>Petrogliflar –</b>	

## 2. Eng qadimgi odamlarning mashg'ulotlari

O'rta Osiyoda paleolit manzilgohlari uzoq vaqtgacha topilmagan. Faqat 1938-yildagina arxeolog A. P. Okladnikov Surxondaryo viloyatidagi Hisor tog' tizmasidagi chuqur darada joylashgan Teshiktosh g'orida shunday manzilgohni topishga muvaffaq bo'ldi. Uning kattaligi 20x21m. Qazishmalar paytida beshta madaniy qatlam ochildi. Demak, bu yerda odamlar tanaffuslar bilan bo'lsa-da, ammo uzoq vaqt – ehtimol, o'nlab yillar yashashgan. Ko'plab tosh qurollari va ot, ayiq, qoplon, sirtlon, quyon, hammasidan ko'proq esa – Sibir tog' echkisining suyaklari bundan dalolat beradi.

Tog' echkilari bizning hududda ham yashaydi. Uni hatto zamonaviy miltiq bilan ham o'ldirish mushkul. Tog' echkilari faqat baland tog'larda yashaydi, qoyalar bo'ylab oson sakrab yuradi va bironta hayvon o'tolmaydigan so'qmoqlardan o'tadi. Vaholanki, Teshiktoshda yashagan ibtidoiy odamlar juda oddiy qurollarni ishlatishgan. G'ordan topilgan o'tkir uchli toshlar yordamida ular echkilarni qanday ovlashgan ekan? Buning yo'li bitta – haydash orqali jamoaviy ovdur. Tog' echkisining iziga tushib, qurshab olib, jarlikka haydab borishgan. Bunday ov uchun yaxshi qurol kerak bo'lmagan. Olovdan va ibtidoiy to'daning shovqin-suronidan qo'rqib ketgan hayvonlar jarlikdan chuqur daralarga qulab, chilparchin bo'lgan. Dunyoning ayrim qismlarida ba'zi qabilalar hamon shu usulda ov qiladi.

## 3. Diniy e'tiqodlarning vujudga kelishi

Teshiktosh g'orida neandertal bolaning qabri ham topilgan. Uni nima halok qilgan bo'lishi mumkin? Uning kalla suyagi parcha-parcha bo'lib ketgan, lekin ular bir joyda yotardi, bu esa o'rta paleolit davrida yashagan odamning tashqi qiyofasini tiklashga imkon berdi. Bola taxminan o'n yoshlarda bo'lgan. Uning tashqi qiyofasi hamon maymunni eslatgan. Iyagi kichkina, qosh usti suyaklari saqlanib qolgan, ammo ularning tuzilishi hozirgi odamnikiga yaqin. Qoldiqlar tashlab ketilmagan, balki dafn qilingan. Bu nimadan darak beradi?

Taxmin qilish mumkinki, qariyb 40–100 ming yil avval ilk diniy tasavvurlar paydo bo'lib, odamlar narigi dunyodagi hayotga ishonganlar. Yana faraz qilish mumkinki, bunday qabrlar diniy e'tiqod uchun emas, balki qardoshining jasadini o'z yaqinida saqlab qolish uchun yaratilgan. Mazkur

davrga mansub barcha qabrlarning turar joylar ichida joylashgani ham bu farazni tasdiqlaydi. Teshiktosh gʻorida bola jasadining atrofiga togʻ echkisi shoxlari juft-juft qilib, uchlari bilan yerga qadab chiqilgan, ular doira shaklini hosil qilgan. Bu esa marhumlar ruhiga sigʻinish vujudga kelgani haqida guvohlik beradi.

### **1-topshiriq.**

#### **Oʻqing va savollarga javob bering**

#### **Diniy eʼtiqodlarning vujudga kelishi**

Teshiktosh gʻorida neandertal bolaning qabri ham topilgan. Uni nima halok qilgan boʻlishi mumkin? Uning kalla suyagi parcha-parcha boʻlib ketgan, lekin ular bir joyda yotardi, bu esa oʻrta paleolit davrida yashagan odamning tashqi qiyofasini tiklashga imkon berdi. Bola taxminan oʻn yoshlarda boʻlgan. Uning tashqi qiyofasi hamon maymunni eslatgan. Iyagi kichkina, qosh usti suyaklari saqlanib qolgan, ammo ularning tuzilishi hozirgi odamnikiga yaqin.

#### **Qoldiqlar tashlab ketilmagan, balki dafn qilingan. Bu nimadan darak beradi?**

Taxmin qilish mumkinki, qariyb 40–100 ming yil avval ilk diniy tasavvurlar paydo boʻlib, odamlar narigi dunyodagi hayotga ishonganlar. Yana faraz qilish mumkinki, bunday qabrlar diniy eʼtiqod uchun emas, balki qardoshining jasadini oʻz yaqinida saqlab qolish uchun yaratilgan.

### **2-topshiriq.**

Ibtidoiy odamlar yakka-yakka boʻlib omon qolishlari mumkin edimi? Nega bunday oʻylashingizni tushuntirib bering.

### **3-topshiriq.**

Javobi toʻgʻri boʻlgan harfni koʻrsating.

Arxeolog olimlar ibtidoiy odamlarda diniy eʼtiqodlar mavjud boʻlgani haqida quyidagilardan bilib oldilar:

- a) but va sanamlarning haykalchalaridan;
- b) mehnat qurollaridan;
- d) gʻor devorlaridagi rasmlardan;
- e) qadimgi qabrlardan.

#### **Darsga yakun yasash.**

1. Oʻqituvchi darsga yakun yasab, oʻquvchilarning yozma ishlari va ogʻzaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni eʼlon qiladi.
2. Oʻqituvchi savollarga javob beradi.

#### **Uy vazifasi.**

1. 2-§ boʻyicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. 2-betdagi konturli xaritani toʻldirish.
3. Oʻrganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
4. Keyingi darsda oʻrganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### **Ibtidoiy jamoa tuzumi va ibtidoiy odamlar**

Keling, ibtidoiy davrga sayohat qilamiz. O‘sha davrda qanday yashashingiz mumkinligini bir tasavvur qiling.

Insoniyatning qadimiy tarixini turli ixtisosdagi olimlar o‘rganmoqda. Arxeologlar ibtidoiy odamlar yashagan manzilgohlar va g‘orlarda qazishmalar olib borishadi. Antropologlar ibtidoiy odamlarning qoldiqlari (ustixoni va kalla suyaklari)ni o‘rganadi, ularning tashqi qiyofasini tiklashga va minglab yillar mobaynida ko‘rinishlari o‘zgarib borishini kuzatishga intiladi. Etnograflar ibtidoiy odamlarning ko‘pgina odatlari, xo‘jalik va madaniy an‘analarini saqlab qolgan qabilalar va xalqlarni o‘rganadi. Tilshunoslar biror bir zamonaviy til qanday shakllanganini tushunmoq uchun qadimgi tillarni tadqiq etadi.

Olimlar o‘z sa‘y-harakatlarini birlashtirib, ibtidoiy odam qiyofasini tiklashga, yoshi va mashg‘ulotlarini, qanday mehnat va ov qurollaridan foydalanganini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi.

Ko‘p mingyilliklar mobaynida ibtidoiy odamlar tabiiy muhitga moslashib, tevarak olam haqida tushunchalarga ega bo‘lgan. Shu bilan birga tabiiy tanlanish ro‘y bergan – eng kuchlilar omon qolgan.

Ha, ibtidoiy odamning hayoti og‘ir kechgan. Ammo tinimsiz mehnat va o‘zaro yordam tufayli insoniyat omon qoldi, tabiat kuchlari bilan kurashda g‘olib bo‘ldi. Hayvonlar oldida ojizlik, qo‘pol mehnat qurollari odamlarni jipslashishga, hamjihatlikda yashash va ov qilishga majbur etdi. Odam yakka holda yirik hayvonlar – mamont, g‘or ayig‘i va hatto uchqur kiyiklarni ham ov qilolmasdi. Birgalikda odamlar ko‘p qiyinchiliklarni yengishga qodir kuchga aylandi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi – insoniyat tarixida barcha mehnat qurollari umumiy bo‘lgan, hamma birgalashib mehnat qilgan va teng bo‘lgan ilk davrdir. Bu davrni dunyoning barcha xalqlari boshidan kechirgan. Ibtidoiy odamlarni katta jamoaga birlashuvi insoniyat taraqqiyotida ilk bosqich edi.

Ancha keyinroq, mehnat qurollari va xo‘jalik yuritish shakllari takomillashgani sayin jamoadagi yetakchilik mavqeyi asta-sekin erkak kishiga o‘ta boshladi, qarindoshlik munosabatlari ota tomondan belgilandi, endi u urug‘ga sardor bo‘lib qoldi. Olimlar insoniyat tarixidagi bu davrni patriarxat – ota urug‘i davri deb atashadi. Patriarxat bilan eng qadimgi tuzum ham yakunlanadi.

Eng qadimgi odamlar dastlabki mehnat qurollarini toshdan yasagani tufayli arxeologlar insoniyat tarixining boshlanishini “tosh davri” deb atashadi. Tosh davri ancha uzoq davom etgan, shuning uchun ham uni quyidagi bosqichlarga ajratishadi, jumladan:

- qadimgi tosh davri – paleolit (yunoncha “paleos” – “qadimgi” va “litos” – “tosh” so‘zlaridan);
- o‘rta tosh davri – mezolit (“mezos” – “o‘rta”);
- yangi tosh davri – neolit (“neos” – “yangi”);
- mis-tosh davri – eneolit (lotincha “eneus” – “mis” va yunoncha “litos” – “tosh”).

Paleolit insoniyat tarixida ulkan davrni o‘z ichiga olgan, bu davr mobaynida mehnat qurollarini yasash usullari va ularning tashqi shakllari o‘zgarib borgan, shu sababli paleolit uch davrga: ilk, o‘rta va so‘nggi davrlarga bo‘linadi.

Qadimgi tosh davri madaniyatlarining barcha nomlari arxeologlar mehnat qurollarini topgan joylarning sharafiga qo‘yilgan. Masalan, Ashel – Fransiyadagi Sent-Ashel shahrining atrofi, Mustye – Fransiyadagi shu nomli shahar yaqinidagi g‘orning nomi.

Ashel davrida (O‘zbekiston hududida odam paydo bo‘lgan vaqt) tabiiy sharoitlar hozirgidan farq qilgan. Yozda havo iliq va quruq, qishda sovuq va nam bo‘lgan. Ashel davrining oxiriga kelib iqlim keskin o‘zgaragan, bunga sabab – muzliklar yopirilishidir. Bu o‘simlik va hayvonot olamiga kuchli

ta'sir ko'rsatgan. Pomir va Tyan-Shan tog'larida ulkan miqdorda qor va muz to'plangan. Ular erib, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon kabi sersuv daryolarni hosil qilgan. Kaspiy va Orol dengizlarida suv ko'paygan. Havo nam va sovuq bo'lib qolgan. Qishki qahraton odamlarni o'rganib qolgan hududlarini tashlab ketishga, tog'lardagi g'orlarni o'zlashtirishga, g'orlarda yashagan qilich tishli yo'lbars va ayiq kabi yirtqichlar bilan olishishga majbur etdi.

Ibtidoiy odamlar qancha umr ko'rgan? Antropologlar qadimgi odamlar yoshini turli belgilarga ko'ra – avvalo, tishlar, suyaklar o'lchami va holati, kalla suyagidagi choklar qanchalik bitganiga qarab aniqlashadi. Natijada ibtidoiy odam 30 yildan sal ko'proq umr ko'rgani ayon bo'ldi. U o'z hayotida xavf-xatar va qiyinchiliklarga ko'p duch kelgani buning sababidir. Aftidan, bunday yoshga yetganlar ham juda kam bo'lgan. Neandertal odamlarda bolalar va chaqaloqlar o'limi 50 foizni tashkil qilgan. Ko'p kasalliklardan vafot etishgan. Olimlar aniqlashicha, neandertal odamlar juda yosh paytidanoq bo'g'imlar bilan muammolarga duch kelishgan – aftidan, ular bolalik chog'larida juda og'ir mehnat qilishgan. Ultrabinafsha nurlar yetishmagan sharoitda yashagan qadimgi yevropaliklar raxit bilan og'rigan. Ibtidoiy odamlar botqoqlarda cho'kkan, jarlikka qulagan, daraxtlardan yiqilgan va h.k. Masalan, Janubiy Afrikadagi Malapa g'orida ayol, o'smir va chaqaloq jasadlari topilgan. Ular tabiiy tuzoq – kamida 30 metr chuqurlikdagi g'or tubida yonma-yon yotishardi. Taxminlarga ko'ra, ular bu jarga qulagach, 2 mln yilgacha loyqa oqimi ostida ko'milib ketishgan. Ehtimol, Iroqdagi Shanidar g'orida yashagan qari neandertal odami g'ordagi o'pirilish sababli halok bo'lgandir, bungacha u chap ko'zi va o'ng qo'lidan ayrilgan, o'ng oyog'i oqsoqlangan.

Ammo muzliklar erigandan so'ng O'rta Osiyo tekisliklarida va daryo vodiylarida ot, karkidon kabi yovvoyi hayvonlar podalari, tog'larda esa kiyiklar paydo bo'ldi. Arxeologlar Farg'ona vodiysida va Toshkent hududida mamont va karkidonlarning suyak qoldiqlarini topishdi. Bunday boy hayvonot olami O'zbekiston hududida yashagan ibtidoiy odamlarning hayotini sezilarli darajada yengillashtirgan. Bizning hudud Yerda ibtidoiy odamlar shakllangan mintaqalar qatoriga kiradi.

### **Ibtidoiy bola sarguzashtlari**

Sovuq, bulutli va yomg'irli bir tongda azim daryo sohilida to'qqiz yashar bolakay o'tirardi. Qudratli oqim jon-jahdi bilan olg'a talpinar, o'zining sariq to'lqinlarida o't-o'lan va shox-shabbalarni, ildizi bilan sug'urilgan daraxtlarni va zilday toshlar yaxlab qolgan ulkan muzlarni olib ketardi.

Bola yolg'iz o'zi, endigina kesilgan qamish bog'lami oldida cho'kka tushib o'tirardi. Uning ozg'in jussasi sovuqqa ko'nikkan, bola unga zarracha parvo qilmaydi. Sal nariroqda, adirning yon bag'rida, daryo uni yuvib o'tadigan joydan sal yuqoriroqda chuqur g'orga olib boradigan ulkan qora teshik ko'rinib turardi. Bu yerda to'qqiz yil avval bola tug'ilgan. Uning ajdodlari ham azaldan shu yerda yashab kelgan. G'orda yashovchi odamlar faqat shu qorong'i teshikdan kirib-chiqishadi, u orqali havo va yorug'likdan bahramand bo'ladilar, u orqali tashqariga o'choq tutuni o'rlaydi. O'choqdagi olovni kunu-tun avaylab saqlashadi.

Bolaning qorni och, ukalari undan ham och. Go'sht bo'lmagan qish faslida o'simliklarning ildizlari bilan och qorinni bir amallab to'ydirsa bo'ladi.

Ular tentirab yuribdi, bolaning ukalari esa bir mo'jiza tufayli sovuq urmay qolgan yovvoyi mevalarni yashirincha uzib olib, yutishga harakat qiladilar. Ularga bunday qilishni taqiqlab qo'yishgan, negaki ularning eng kichkina ukasi bunday mevani yeb, o'lib qolgan. Bundan tashqari, bir o'zi yeyish qat'iyani taqiqlangan. Hamma topgan-tutganini g'orga keltiradi. Bolalar o'ljani kattalar ko'zdan kechirgachgina hammaga taqsimlanishiga ko'nikib qolishgan. Shu sababli ular ochlik qiynoqlariga


chidab, yoʻlda topgan hamma narsalarini qopga solishadi. Afsus! Hozircha ular oʻntacha qurub qaqshagan olma, bir necha qiltiriq, yarim muzlagan chigʻanoq va yoʻgʻonligi odam barmogʻidan oshmaydigan kulrang ilonchani topishga muvaffaq boʻldilar, xolos. Agarda bolalar adir yonlarida chaqmoqtosh parchalarini topishsa, kattalar buyrugʻi bilan ularni ham yigʻishadi. Bolalar koʻtargan qoplar ancha ogʻirlashib qoldi. Eng jajjilar zilday yuk ostida bukilgan qadam tashlaydi. Ammo ular baribir charchoqlarini bildirmaslikka harakat qiladilar.

*E. dʻErvilining “Ibtidoiy bola sarguzashtlari” qissasidan*

### Intellekt-xaritani yaratish va tarix boʻyicha sinfdan tashqari toʻgarak ishi uchun qoʻshimcha maʼlumot

#### Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari:

Avstralopitek – zinjanthrop – pitekanthrop – sinantrop – neandertal odami – kromanon odami;  
 Buyuk muzlik davri;  
 Selengur, Koʻlbuloq;  
 Oʻzlashtiruvchi xoʻjalik;  
 Teshiktosh;  
 Totemizm – animizm – fetishizm;  
 Ispaniya – Altamir gʻori;  
 Fransiya – Lasko gʻori;  
 Boshqirdiston – Kapova gʻori;



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja boʻyicha sana						
Amalda						



### 5-DARS. URUGʻCHILIK JAMIYATI

#### Dars maqsadlari:

- oʻquvchilarda Oʻrta Osiyoning qadimgi tarixi boʻyicha egallagan bilimlarini tartibga solish jarayonini davom ettirish;
- Oʻzbekiston hududida ibtidoiy odamning yashash sharoitlari va xususiyatlari, uning mehnatga layoqati hamda koʻnikmalari haqida hikoya qilish;
- tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda izohlash koʻnikmalarini hosil qilish;
- oʻquvchilarni oʻz fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni oʻrganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bogʻlashni oʻrgatish;
- oʻzini oʻzi kamol toptirishga – ruhiy, maʼnaviy, intellektual va ijodiy oʻsishga, oʻz ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish:
  - tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash koʻnikmalarini hosil qilish;
  - oʻz fikrini tarixiy xaritalar va qoʻshimcha tarixiy maʼlumotlar bilan tushuntirish, qoʻshimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
  - umummadaniy koʻnikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

## **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 3-§, 17–20-b.
2. “Oʻrta Osiyo eng qadimgi davrda” tarixiy xaritasi.
3. Tarqatma material: testlar toʻplami, lugʻat bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 4-b. Oʻrta Osiyo hududidagi paleolit, mezolit va neolit davrlari yodgorliklari.
5. “Qadimgi dunyo tarixi” konturli xaritalari, 6-sinf, 4-b.
6. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

## **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Oʻrganilgan bilimlarni takrorlash.**

Oʻrganilgan mavzuni takrorlash oʻquvchilardan ommaviy soʻrash yoki uning mazmuni boʻyicha savollarga ogʻzaki javoblarni eshitish tarzida oʻtkaziladi.

## **Darsning yangi mavzusi mazmuni.**

Oʻqituvchi dars mavzusi va maqsadini eʼlon qiladi, shuningdek, oʻquvchilar mazkur mavzuni oʻrganish chogʻida egallaydigan bilimlar va koʻnikmalarni sanab oʻtadi.

## **Dars rejasi:**

1. Soʻnggi paleolit davri va uning xususiyatlari.
2. Mezolit davri xususiyatlari.
3. Neolit davrida dehqonchilik va chorvachilik vujudga kelishi.

## **Dars mavzusi ustida ishlash.**

### **1. Soʻnggi paleolit davri va uning xususiyatlari**

Avval quyidagi savollar boʻyicha suhbat oʻtkaziladi:

- Ibtidoiy odam hayvondan nimasi bilan farq qilgan?
- Odam qanday ilk mehnat qurollarini oʻylab topgan?
- Nega ibtidoiy odamlar birgalikda yashab, mehnat qilgan?



Oʻquvchilarning javoblarini umumlashtirib, oʻqituvchi ibtidoiy odam koʻp mingyillik hayoti davomida ilk mehnat qurollarini takomillashtirib, yangilarini oʻylab topgani haqida taʼkidlab oʻtadi. Yerdan sovuq hukmronlik qilgan davrda ibtidoiy odamlarning mehnat qurollarini takomillashtirish borasida erishgan yutuqlari bilan oʻquvchilarni tanishtirish; mehnat faoliyati taʼsirida odamning oʻzi bilan qanday oʻzgarishlar yuz berganini koʻrsatish kerak (uning qoʻllari chaqqonroq boʻlib qolgan, koʻplab mayda qurollar – qirgʻich, oʻtkir tosh pichoqlar va hokazolarni yasashni bilgan). Jismoniy tuzilishiga koʻra soʻnggi paleolit odami hozirgi odamdan deyarli farq qilmagan. Bu fikrni oʻquvchilarga maʼlum boʻlgan Samarqand va Koʻlbuloq qishlogʻidagi yuqori paleolit davriga mansub manzilgohlardagi topilmalar namoyishi bilan tasdiqlash zarur.

Soʻrov jarayonida mavzuni ochib berish uchun eng qadimgi urugʻchilik tuzumi davrida odamning rivojlanishida mehnatning oʻrnini eslatish zarur; ibtidoiy odamning, shu jumladan, Oʻzbekiston hududida yashagan qadimgi odamlarning tarixi oʻrganiladigan manbalarni, ibtidoiy odamni va eng qadimgi urugʻchilik tuzumini davrlashtirishni eslash, Oʻrta Osiyo xalqlari tarixining xususiyatlarini aniqlashtirish kerak. Maʼlumotlar yodda qolishini mustahkamlash uchun soʻnggi paleolit davrida Oʻzbekiston hududidagi “homo sapiens” manzilgohlari xaritada koʻrsatiladi. Avval oʻqituvchi urugʻ soʻziga tavsif beradi (birgalikda yashagan va mehnat qilgan, umumiy mehnat qurollari va qurol-yarogʻlarga ega boʻlgan qarindoshlar jamoasi), soʻngra hikoya qilish jarayonida doskada qabilani boshqarish sxemasini chizadi: sardor – oqsoqollar kengashi – qabila yigʻini. Bunda bir joyda yashagan bir necha urugʻlar qabilani tashkil qilganini taʼkidlab oʻtadi.

Mazkur ma'lumotlarni mustahkamlash chog'ida o'quvchilarga savol beriladi: nega ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamiyatiga o'tish imkoniyati paydo bo'ldi?

1-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering:

Ibtidoiy odam hayvondan nimasi bilan farq qilgan? Odam qanday ilk mehnat qurollarini o'ylab topgan?

Nega ibtidoiy odamlar birgalikda yashab, mehnat qilgan?

Eng qadimgi urug'chilik tuzumi davrida mehnat odamning rivojlanishida qanday o'rin tutgan?

Nega ibtidoiy to'dadan urug'chilik jamiyatiga o'tish imkoniyati paydo bo'ldi? Mezolit davriga mansub mehnat qurollarini sanab o'ting.

## 2. Mezolit davri xususiyatlari

Masalani bayon etishga kirishishdan oldin ibtidoiy jamiyatning asosiy davrlarini ta'riflash kerak. Mezolit (yunoncha "mezos" – "o'rta", "litos" – "tosh"), ya'ni, tosh davri – paleolit va neolit o'rtasidagi o'tish davri (mil. avv. 12–7 mingyillik) ekanligi tushuntiriladi.

Bu davrda o'q-yoy asosiy qurol edi. Ilk uy hayvoni – it qo'lga o'rgatilgan. Mezolit oxirida sopol idishlar paydo bo'ldi. Urug'chilik jamoasi shakllandi, sehrgarlik va afsungarlik paydo bo'ldi. O'rta Osiyodagi ikki daryo oralig'ida 10 ming yil muqaddam muzliklar batamom chekinib, iqlim mo'tadilroq va namroq bo'lib qoldi. Ko'pgina yirik hayvonlar qirilib ketdi. Ov yetarli yegulik keltirmay qo'ydi. Bularning bari odamlarni omon qolmoq uchun ancha kattaroq hududda o'rtnashishga majburladi, bu esa jamoalarning maydalashuviga olib keldi.

Arxeologlarning tinmay izlanishlari tufayli mezolit davridagi manzilgohlar joylari va qabilalarning ko'chib o'tish yo'llari aniqlandi. Bo'zsuv hududidagi Qo'shilish, Farg'ona vodiysidagi Obishir, Surxondaryo vohasidagi Machay makonlari va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Yaxshiroq eslash uchun o'quvchilarga daftarga xarita chizib, yuqorida sanab o'tilgan hududlarda mezolit davrida yashagan ibtidoiy odamning manzilgohlarini belgilashni taklif etish mumkin.

Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida ochilgan ko'p sonli qoyatosh rasmlari (petrogliflar) mezolit davriga mansub. Qo'hitang tog'larida, Zarautsoyning ikkala tomonida qoyalarda oxra (mineral bo'yoq) bilan chizilgan rasmlar saqlanib qolgan. Ular orasida eng rang-barang rasmlar Zaraut-Kamar g'orining shifti va devorlarida aniqlangan.

Zarautsoylik ibtidoiy rassomlar ayrim hayvonlar shakllari va jamoaviy ov manzaralarini chizgan. Ibtidoiy san'at yuksalishi qadimgi sehr-jodu bilan bog'liq. Ayrim g'orlarning devorlari o'nlab metrgacha ovlangan hayvonlarning tasvirlari bilan qoplangan. Ba'zan sehr-jodu maqsadida hayvon tanasida uni teshib o'tgan nayzalar tasvirlangan (bu ovda omad keltiradi, deb hisoblangan). Rasmlarda ibtidoiy odamning qiyinchilik va cheksiz tashvishlarga to'la hayoti ko'zga tashlanadi. Ular qanday so'zlashganini hech qachon eshitmaymiz, ammo nima haqida o'ylashgani, nimadan qo'rqishgani, nimani qo'lga kiritishga ahd qilishgani haqida ularning rasmlari hikoya qiladi. Ammo qoyatosh rasmlarning ko'p qismi hamon o'rganilmagan. Ularni tadqiq etish ustida hozirgacha ko'plab arxeolog va san'atshunos olimlar izlanmoqda.

Insoniyat tarixida ilk rassom – kromanyon odamidir. Uning tirnalgan va bo'yoq chaplangan rasmlari amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan, balki ichki ruhiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga mo'ljallangan. Bug'u, zubr, ot, ayiq kabi hayvonlarning tasvirlari katta mahorat bilan chizilgan va xuddi tirikday tuyuladi. Ularni chizgan odam buni zavqlanib bajargani his etiladi. Uning san'atga muhabbati asrlar osha yashamoqda.

Qadimgi tasviriy san'at yodgorliklari qimmatli tarixiy hujjatlar bo'lib, ibtidoiy odam tafakkuri o'sishini tushunishga, uning fikrini nima egallagani va to'liqlantirgani, uning tevarak olam haqida tasavvurlari, o'sha davrda ishlatilgan mehnat qurollari haqida ma'lumot beradi.

### **3. Neolit davrida dehqonchilik va chorvachilikning vujudga kelishi**

Neolit – yangi tosh davrida o'zlashtiruvchi xo'jalik (termachilik, ovchilik)dan ishlab chiqaruvchi xo'jalik (dehqonchilik va chorvachilik)ka o'tish boshlandi.

Arxeologlar neolit davri boshlanishini sopol idishlar yasashning kashf etilishi va dehqonchilik vujudga kelishi, oxirini esa bronzaning paydo bo'lishi bilan belgilaydilar. O'rta Osiyoda neolit davri miloddan avvalgi 6–4-mingyilliklar hisoblanadi. Bu davrda odamlar yirik tosh qurollarini yasashni o'rganib, toshga ishlov berishning oldin ma'lum bo'lmagan silliqlash va parmalash usullarini kashf qilishgan.

Yupqa tig'li pichoqlar, qirg'ichlar, o'q uchlari paydo bo'ldi, o'q-yoy kashf qilindi, suyak va shoxlarga ishlov berish boshlandi. Neolit davri odamining manzilgohlari: Joytun – O'rta Osiyoda eng qadimgi (mil. avv. 5-mingyillik) dehqonlar va chorvadorlar manzilgohlarining qoldiqlari (Ashxoboddan 30 km masofada); Jonbos-4 (Xorazm) manzilgohida esa yog'och va qamishdan qurilgan sinchli katta oval turar-joy qoldiqlari, chaqmoqtoshdan yasalgan mehnat qurollari, naqshlar bilan bezatilgan sopol idishlar, hayvon suyaklari topilgan. Bir turar joyning maydoni – 300 m. kv. Markazda – mehrob, atrofda kichik o'choqlar joylashgan. Bu turar-joy unda katta urug'chilik jamoasi yashagani haqida dalolat beradi.

Neolit davrida ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilgan. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikda yetishtiriladigan o'simliklar va uy hayvonlari asosiy tirikchilik manbayi hisoblangan, bu termachilik va ovchilikdan dehqonchilik va chorvachilikka o'tishdir.

#### *Qo'shimcha ma'lumot*

**Darslik matniga qo'shimcha tarzida o'qituvchi ishlab chiqaruvchi xo'jalik – dehqonchilik vujudga kelishi haqida hikoya qilishi mumkin.**

Ibtidoiy rassomlar ishlatgan hamma bo'yoqlar tabiiy pigmentlar, ya'ni, minerallardan tayyorlangan, shu sababli rangi o'chmagan. Eng ko'p tarqalgan bo'yoqlar – oxra (mineral bo'yoq) va temir minerallari aralashgan gil bo'lib, ular sof qizil va sariqdan och va to'q jigarranggacha tuslarni olishga imkon bergan. Ayrim qora bo'yoqlar qora ko'mirdan tayyorlangan, mustahkam bo'yoqlar asosini esa o'sha davrda keng tarqalgan mineral – marganes oksidi hosil qilgan. Bo'yoq moddalarni kukunga aylantirib, so'ng biror bog'lovchi modda – qon, hayvon yog'i, baliq yelimi yoki o'simliklar shirasi bilan aralashtirishgan.

Buni bir tasavvur qilib ko'ramiz. Aftidan, rassom bir o'zi emas, balki yordamchisi bilan birga ishlagan. Yordamchi shamchiroqlar (yog' to'ldirilgan yalpoq toshlar) shu'lasini nazorat qilgan, bo'yoqlarni aralashtirgan va qo'shimcha ishlarni bajargan. Butun g'orga qo'yib chiqilgan shamchiroqlarning lipillayotgan shu'lalari devorlarga va shiftga talay soyalar tashlaydi, yonayotgan yog'ning dimoqni achishtiradigan tutuni bo'yoqlarga qo'shilgan moddalar hidi bilan qorishib ketgan. Rassom o'tkir tosh bilan rasm shaklini tirnab chizadi, so'ng uni bo'yashga kirishadi.

Rassom ishini yakunlab g'ordan chiqqach, hamma unga hurmat va qo'rquv bilan qaraydi. Ular rassom butun jamoa manfaati uchun sehrli amal bajarganini biladi. Rassom ularning nigohida shomon yoki kohinga o'xshab sohirqudrat zotga aylandi.

#### **O'quvchilardan ommaviy so'rash ko'rinishida o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash:**

1. Hozirgi insonga o'xshash qadimgi odam qanday atalgan (“homo sapiens” – “aqli odam”)?

Nega?

2. Neandertal odami qanday ishlarni bajara olgan?
3. Urug'chilik jamiyati vujudga kelishiga nima sabab bo'lgan?
4. Qabila boshida kim turgan?
5. Urug'chilik jamiyatida muhim qarorlar qanday qabul qilingan?
6. O'zbekiston hududida paleolit davriga mansub qanday manzilgohlarni bilasiz?
7. O'zbekiston Respublikasi xaritasidan ibtidoiy odam manzilgohlari topilgan joylarni ko'rsating.
8. Teshiktosh g'oridan topilgan bola – "aqli odam" ekanligini qanday belgilar orqali aniqlash mumkin?
9. Nega ibtidoiy odamlarning hayotida tabiiy sharoitlar katta ahamiyatga ega bo'lgan?
10. Diniy e'tiqodlar vujudga kelishi sabablarini ayting.
11. Neolit davri odamlarining kashfiyotlarini sanab o'ting.
12. Xaritadan neolit davrida yashagan qadimgi odamlarning manzilgohlarini ko'rsating.
13. Ishlab chiqaruvchi xo'jalikka ta'rif bering.
14. Ibtidoiy san'at qanday vujudga kelgan?

### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.


1. 3-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. Konturli xaritani to'ldirish, 4-b.
3. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
4. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.



## Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

### So'nggi paleolit davri (mil. avv. 40–12-mingyilliklar)

Kromanyon odami sun'iy olovni kashf qilgan;  
Ko'lbuloq manzilgohi (Toshkent viloyati),  
Samarqand makoni, Farg'ona vodiysi;  
urug' jamoalari;  
taqinchoqlar, turar joylar qurilishi, kesadigan, arralaydigan mehnat qurollari kashf qilinishi;  
Mezolit davri (mil. avv. 12–7-mingyilliklar) o'q-yoy, hayvonlarni qo'lga o'rgatish;  
Obishir, Qo'shilish, Machay, Zarautsoy  
omoch yordamida dehqonchilik va chorvachilik (Old Osiyo);  
Neolit davri (mil. avv. 6–4-mingyilliklar)  
ishlab chiqaruvchi xo'jalik, mikrolitlar, kulolchilik, to'quvchilik, o'troq turmush tarzi.



### **Hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish, ilk petrogliflar**

Mezolit davri (o‘rta tosh davri) mil. avv. 12–7-mingyilliklarda davom etgan. Bu vaqtga kelib muzlik davri tugagan va iqlim sezilarli isigan, bu esa odamlarning turmush tarzi o‘zgarishiga olib kelgan.

Mezolit davrining muhim kashfiyoti – ulama mehnat qurollaridir: cho‘qmorga dasta ulandi – bolta hosil bo‘ldi, o‘tkir uchlar ingichka yog‘och shoxiga ulandi – otiladigan nayzalar hosil bo‘ldi. Mezolit davri odami o‘q-yoy yasashni bilgan. Bu kashfiyot yordamida uchqur hayvonlar va parrandalarni ovlash imkoniyatini qo‘lga kiritgan. Ovchilarning kichik guruhi o‘z urug‘ini boqishga qurbi yetgan. Shu vaqtdan yakka ovchilar ahamiyati ortadi.

Mezolit davri oxirida odam hayvonlarni qo‘lga o‘rgata boshlagan. Ovchilar itlarni qo‘lga o‘rgatgach, ular bilan ov baroridan keldi. Tutilgan hayvonlarni (qo‘zi, echki, cho‘chqa) o‘ldirmay, yegulik zaxirasi sifatida qoldirilgan.

Bu davrda xo‘jalik yuritishning yangi tarmoqlari – so‘qali dehqonchilik va chorvachilik vujudga keldi. Ammo bu tarmoqlar neolit davridagina keng tarqaldi. Muzliklar yopirilgach, urug‘ jamoalari nafaqat Osiyo va Afrika, balki Yevropaning shimolidagi katta hududlarda o‘rnashadi.

Muzliklar chekinib, katta hududlarni ozod qilib, o‘zlaridan so‘ng ko‘llar, daryolar, quyuq o‘rmonlar va yashil tekisliklarni qoldirdi. O‘zbekistonning katta maydonlari odam hayot kechirishi uchun yaroqli bo‘lib qoldi. O‘zbekiston hududidagi Amudaryo va Sirdaryo, ko‘llar va tog‘ daryolarining sohillarida mezolit davri ovchilari va baliqchilari yashay boshladi.

Arxeologlar sa‘y-harakati bilan mezolit davriga mansub yuzdan ziyod manzilgohlar ochilgan. Ayniqsa, ular Farg‘ona vodiysining tog‘oldi va tog‘ hududlarida, Toshkent vohasi va O‘zbekiston janubida ko‘p uchraydi. Farg‘ona vodiysida Obishir manzilgohi mavjud. Bu yerda odamlar mil. avv. 9–8-mingyilliklarda yashab, ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan. Mezolit davrida yashagan odamning eng qadimgi manzilgohlaridan biri Toshkent hududida, Bo‘zsuv kanalining chap sohilida aniqlangan. Bu yerda toshdan yasalgan mehnat qurollari, ko‘p miqdorda hayvon suyaklari topilgan. Ushbu arxeologik yodgorlik Qo‘shilish nomini olgan. U mil. avv. 10–9-mingyillikda vujudga kelgan.

Mezolit davridan qolgan yana bir yodgorlik Boysun tog‘larida, Surxondaryodagi Machay soyi uzra yuksalgan tog‘larda topildi. Bu yerda olib borilgan qazishmalar Machayda ovchilar va baliqchilar yashaganini ko‘rsatdi.

**It qay tarzda qo‘lga o‘rgatilgan?** Bu quyidagicha ro‘y bergan bo‘lishi mumkin. Bir kuni ertalab ikki bola g‘ordan chiqib, uning oldida jajji bo‘rivachchani ko‘rishgan. U g‘or og‘zi yoniga tashlangan suyakka sudralib kelgan. Yaqinda yirtqichlar uning onasini g‘ajib ketishgan. U bir o‘zi qolgan, shu sababli ochlikdan qiynalardi. Ochlik uni odamlar yashaydigan joyga boshlab keldi. Bo‘rivachcha ehtiyotkorlikni unutib, ochko‘zlik bilan suyakka tashlandi. Bolalar bo‘rivachchani ko‘rib, quvonib qiyqirishdi va uning yoniga yugurib kelishdi. U qo‘rqib, butalar orasida yashirindi.

Kechqurun u yana g‘or oldida paydo bo‘ldi. Bu kun odamlarning ovi baroridan kelgan, yegulik qoldiqlari serob edi. Odamlar g‘orda yashiringach, bo‘rivachcha tashlangan suyaklardan biriga yaqinlashib, g‘ajiy boshlaydi. U ertasi kuni ham g‘or oldiga kelib, odamlar tashlagan suyaklarni g‘ajish uchun yaqin orada yashay boshladi. Bir kuni bo‘rivachcha dahshatli akillagancha g‘orga yugurib kirdi. Uning ortidan bo‘ri quvlab kelardi. Bo‘rivachcha panoh izlab odamlar orasiga o‘zini urdi. Hammaning qorni to‘q, hech kim uni o‘ldirgisi kelmasdi. Nochor, himoyasiz va ayanchli vang‘illash, odamlarda g‘alati, ularga hanuzgacha notanish shafqat hissini uyg‘otdi. Bolalar unga tirik o‘yinchoqday qarar, quloqlari va dumini ushlashardi. Oradan vaqt o‘tdi. Bo‘rivachcha sal o‘sib, odamlarga ko‘nikib qoldi. Bir kuni kechqurun u vovillab, hammani uyg‘otib yubordi. Hamma bo‘rivachchani urish uchun

sakrab turdi, ammo g'or oldida ikki ayiqni ko'rib qolishdi. Ayiqlar haydab yuborilgach, bir necha kishi minnatdorlik tariqasida bo'rivachchani silab qo'yishdi. U odamlarning hayotini qutqargandi-da axir. O'shandan beri it odamning do'stiga aylandi. Qo'lga o'rgatilgan itning eng qadimgi suyaklari mezolit davri yodgorliklarini qazish chog'ida topilgan bo'lib, mil. avv. 10-mingyillikka mansub deb hisoblanadi.

Mezolit davrida ilk petrogliflar – qoyatosh rasmlar paydo bo'ldi. Ilk qoyatosh rasmlarni bir arxeologning qizchasi ochgan. U otasi bilan birga Ispaniyadagi Altamir g'orini kezib yurardi. Otasi ibtidoiy odamning mehnat qurollarini yig'ayotgan bir paytda qizcha g'orni ko'zdan kechirardi. To'satdan uning xitobi yangradi:

- Dada, qarang: buqalar!
- Qayerda?
- Shiftda!

Fonus g'orning shiftini yoritgach, qorong'ulik qa'ridan qadimgi rasmlar – zubr, qobon, kiyiklarning tasvirlari ko'zga tashlandi. Rasmlar oxra (mineral bo'yoq) va boshqa bo'yoqlar bilan chizilgan bo'lib, ularni tayyorlash siri hanuzgacha ochilmagan. Olimlar bu rasmlar so'nggi paleolit davriga oidligini aniqlashdi.

G'orni bir tasavvur qiling. Go'sht nimtalari qovurilayotgan ulkan gulxan atrofida odamlar o'tiribdi. Omadli ov haqida raqs-hikoya boshlanadi. Nariroqda bu ovda oyog'idan yaralangan qabiladoshlardan biri o'tiribdi. U o'rnidan turib, hamma bilan birga raqsga tusholmaydi, ammo o'tirganicha o'ynaydi: uning gavdasi, boshi, qo'llari harakatda. Qo'lidagi tayoq uning harakatlarini takrorlaydi. Qumdagi ko'plab chiziqlar orasida tanish bir narsa paydo bo'ladi. Asta-sekin odamning harakatlari aniqroq va ehtiyotkorona bo'lib qoladi, u xuddi hayvon oldiga yaqinlashayotganga o'xshaydi. U chiziqlarni chuqurroq va aniqroq qilish uchun hatto bir oz engashdi.

- O-o-o! – raqqoslardan birining hayratli xitobidan hamma qotib qoldi.

Yaralangan ovchi oyoqlari ostidagi qumda hozirgina o'ldirilgan mamont shaklini ko'rishdi. U xuddi tirilganday tuyulib, hammada vahima uyg'ondi.

Erkaklar qo'llarida tosh va tayoqlarni qisib olishgan. Ammo mamontning "soyasi" qimir etmaydi. Hademay hamma tinchlanib, omadli ovdan quvonishda davom etadi. Ammo odamlar qumdagi mamont haqida hech qachon unutilmaydi. Tez orada ular tayoq va qum o'rniga ko'mirdan foydalanishadi, keyin tabiiy bo'yoqlarni ham topishadi. G'orlarning devorlarida suvloqqa ketayotgan mamontlarning ulug'vor tanalari paydo bo'ladi.

O'zbekistonda qoyatoshlarda chizilgan yoki o'yib solingan yuzlab rasmlar topilgan. Zarautsoy darasidagi qoyatosh rasmlar mezolit davriga mansub. Zarautsoy g'oridagi petrogliflarga bir qarang: mana buqalar yugurmoqda, ular ketidan itlar quvlamoqda, kamondan o'q uzayotgan ovchilarning ingichka gavdalari arang ko'zga tashlanadi. O'qlar uchib, buqalarga sanchilmoqda. O'ng va chap tomonlarda esa, qoyatosh bo'ylab saflangandek, buqalar oldiga jomsimon qaytarma qalpoqlar kiyib olgan odamlar yurib kelmoqda. Bu odamlarning o'q-yoyi yo'q, faqat allaqanday boltachalar bor, xolos. Ular kim bo'ldi ekan? Ovda nima uchun ishtirok etyaptilar? Olimlar hozirgacha farazlardan nariga o'tolmayapti.

Shak-shubha yo'qki, qadimgi rasmlar juda qimmatli tarixiy hujjatlardir. Ular odam nimalar haqida o'ylaganini, tevarak olamni qanday tasavvur etganini, qanday hayvonlarni ov qilganini, qanday ov va mehnat qurollaridan foydalanganini tushunishga yordam beradi. Qadimgi odamlar mineral bo'yoqlar yordamida ko'rgan narsalarini: ov qilingan hayvonlarni, atroflaridagi tabiat manzaralarini chizganlar. Ammo qadimgi rasmlarning katta qismi hamon o'rganilmagan. Ularni tadqiq etish qiziqarli mashg'ulotdir.

## “Neolit inqilobi”

Nisbatan oz vaqt davom etgan fan-texnika, sanoat va axborot inqiloblari haqida ko‘p eshitganmiz. Endi ming yillar davom etib insoniyat tarixida ulkan ahamiyat kasb etgan inqilob haqida fikr yuritamiz. Usiz dunyodagi kelgusi taraqqiyot, shu jumladan, hozirgi tamaddunimiz mavjud bo‘lmasdi. Aynan unda, insoniyat tarixidagi ilk inqilobda keyingi barcha inqiloblar zamini mujassam, chunki bu o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka (termachilik va ovchilikdan – dehqonchilik va chorvachilikka) o‘tish edi. Odam saxiy tabiat tayyor ko‘rinishda in‘om etgan narsalarni olishni to‘xtatib, o‘z mehnati bilan o‘simlik va hayvonot boyligini ko‘paytirishni boshlaydi. Yuzlab va minglab kvadrat kilometrni ishg‘ol qilgan hududlarda, bir nechagina odam arang kun kechiradigan joylarda endilikda mo‘l hosil olinadi.

Insonga xos turmush tarziga o‘zgaradi. U atrof-muhitni o‘zgartirib, o‘z ehtiyojlariga mosladi. Texnologiya va bilimlar rivojlanishi tufayli yaxshiroq ovqatlanishni, yaxshiroq yashashni, dunyo va o‘zi haqida ko‘proq bilishni boshladi. Agarda 10 ming yil avval odamlar zamonaviy sivilizatsiya sari ilk qadamni qo‘yishmaganda, uning barcha ne‘matlaridan bebahra qolardik. Bu qadam tarixda “Neolit inqilobi” deya nom qoldirdi.

## Neolit – yangi tosh davri

O‘rta Osiyoda neolit davri miloddan avvalgi 6–4-mingyilliklar hisoblanadi. Arxeologlar neolit davri boshlanishini sopol idishlar yasashning kashf etilishi va dehqonchilik vujudga kelishi bilan belgilaydilar.

Bu davrda qadimgi odamlar mezolit davrida kashf qilingan mayda tosh qurollari – mikrolitlardan foydalanib, toshga ishlov berishning oldin noma‘lum bo‘lgan silliqlash va parmalash usullarini kashf qilishgan.

Odam mehnat qurollarini yasashning yangi usullarini kashf qiladilar. Bunda toshning keraksiz qismlari avvalgidek urib sindirilmagan, balki chaqmoqtosh plastinkalari ehtiyotlab ajratilgan, natijada o‘tkir pichoqlar, uchi o‘tkir tayoqcha, qirg‘ich, nayza uchlari hosil qilingan.

1-topshiriq.

Matnni tinglagach, yovvoyi hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish haqida kichik hikoya yozing. Bunda quyidagi so‘zlardan foydalaning: shamol, olov, yovvoyi it, yarador, oqsoqlanmoq, ochlikdan o‘layozmoq, izma-iz yurmoq, boqmoq, sodiq.

2-topshiriq.

O‘quvchilarga hikoyani tinglashni va ekranga chiqarilgan petrogliflardan birini chizishni taklif eting.

## Petrogliflar

Insoniyat tarixida ilk rassom – kromanyon odamidir. Uning tirlangan va bo‘yoq chaplangan rasmlari amaliy ahamiyatga ega bo‘lmagan, balki ichki ruhiy ehtiyojlarni qanoatlantirish uchun mo‘ljallangan. Bug‘u, zubr, ot, ayiq kabi hayvonlarning tasvirlari katta mahorat bilan chizilgan va tirikday ko‘rinadi. Ularni chizgan odam buni zavqlanib bajargani his etiladi. Uning san‘atga muhabbati asrlar osha yashamoqda.

Qadimgi tasviriy san‘at yodgorliklari qimmatli tarixiy hujjatlar bo‘lib, ibtidoiy odam tafakkuri o‘shini tushunishga, uning fikrini nima egallagani va to‘lqinlantirgani, tevarak olam haqida tasavvurlari, o‘sha davrda ishlatilgan mehnat qurollari haqida ma‘lumot olishga imkon beradi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 6-DARS. ENEOLIT VA BRONZA DAVRI MADANIYATI

### Dars maqsadlari:

- eneolit davri va uning xususiyatlarini ta'riflash;
- ibtidoiy odam hayotining mehnat qurollari o'zgarishiga uzviy bog'liqligini ko'rsatish;
- chorvachilik va dehqonchilikka o'tishning sabab va natijalarini ko'rsatish;
- O'zbekiston hududida kechgan bronza davriga aniq misollarda ta'rif berish;
- tarixiy voqelikni tushunish, uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga intilishni shakllantirish – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'z fikrini tarixiy xaritalar va qo'shimcha tarixiy ma'lumotlar bilan tushuntirish, qo'shimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 4-§, 21–25-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 5-b. O'rta Osiyo hududidagi bronza va ilk temir davri yodgorliklari.
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

Eneolit, patriarxat, bronza, omoch bilan yer haydash, sun'iy sug'orish.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang.

### O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

O'rganilgan mavzuni takrorlash uchun o'quvchilardan so'rash yoki uning mazmuni yuzasidan savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

Alohida topshiriqlar berish: paleolit, mezolit va neolit alomatlarini tavsiflash mumkin.

O'quvchilar bu yozuvlardan foydalanib, bronza davri belgilarini osonroq o'zlashtiradilar.


Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

Dars rejasi:

1. Metall davrining asosiy xususiyatlari.
2. Patriarxatning boshlanishi.

Dars mavzusi ustida ishlash.



### 1. Metall davri rivojlanishining asosiy xususiyatlari

Bronza davri – tarixiy davr bo‘lib, bronzadan yasalgan mehnat qurollari, qurol-yarog‘lar, zeb-ziynatlar va idishlar paydo bo‘lishi bilan ifodalanadi.

Bronza – misning qalay bilan qotishmasidir. O‘zbekiston hududida mil. avv. 3-mingyillik o‘rtasida birinchi bor mis ishlatildi. Mis yumshoqroq metall bo‘lganligi sababli undan katta mehnat qurollari yasalmagan. Arxeologik qazishmalar chog‘ida pichoqchalar, bigiz, igna va ko‘p miqdorda bilaguzuk, munchoqlar va hokazolar topildi. Asosiy mehnat qurollari toshdan yasalgan, misdan foydalanishning ilk vaqti mistosh davri, ya’ni, eneolit (mil. avv. 4–3-mingyilliklar) deb ataladi. Bronza misdan ko‘ra ancha qulay, qattiqroq, shaklini oson o‘zgartiradi.

O‘quvchilarning tasavvurlarini aniqlashtirish uchun ularga hozirgi vaqtda mis va bronzadan yasaladigan buyumlarni – zeb-ziynatlar, mashina, radio va televizor qismlarini sanab o‘tishni taklif eting.

### 2. Patriarxatning boshlanishi

Bronzadan foydalanish insoniyat tarixida sezilarli taraqqiyot bo‘ldi. Yegulik topishning iste’mol usulidan (termachilik) ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka (dehqonchilik va chorvachilik) o‘tish imkoniyati yuzaga keldi. Omoch yordamida yerga ishlov berish osonlashdi. Shu tufayli hosildorlik muayyan darajada oshdi. Endi qadimgi odam dehqonchilik hisobiga tirikchilik qilishi mumkin edi. Omoch bilan yer haydashga o‘tish sun’iy sug‘orishdan foydalanishni taqozo etdi.

Dehqonchilik bilan shug‘ullanish qadimgi odamlar hayotida yana bir muhim o‘zgarishni yaratdi. Ular o‘troq hayot kechirishga, doimiy yashash joyida o‘rnashishga moslashdilar. Ko‘chmanchi hayot kechirishda davom etayotgan chorvador qabilalar esa buning aksidir.

Shu vaqtdan e’tiboran ayolning yegulik topish bo‘yicha majburiyatlari kamaydi, erkak asosiy o‘rinni egalladi. Qarindoshlik erkaklar tomonidan belgilanadigan bo‘ldi va patriarxat (patrio – “ota”) davri boshlandi. Erkakning ustuvor o‘rni nafaqat oilada, balki xo‘jalik yuritishda, ijtimoiy munosabatlarda ham sezildi. Onalik urug‘chilik jamoasidan otalik urug‘chilik tuzumiga o‘tildi, ya’ni, ayol erining urug‘iga o‘tib, patriarxal oila vujudga keldi.

## **O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash uchun o'tilgan mavzu bo'yicha quyidagi savollar beriladi:**

1. Qadimgi odamning tabiatga qaramligi nimalarda namoyon bo'ldi?
2. Qadimgi jamiyatda mehnat qurollarini takomillashtirish davom etishining sababi nimada?

Bronza davrini ta'riflaydigan misollar keltiring.

3. Dehqonchilikning vujudga kelishi qanday natijalar berdi?
4. Patriarxal urug'ning patriarxal urug'dan farqi nimada?

Alohida topshiriqlar berish: paleolit, mezolit va neolit alomatlarini tavsiflash mumkin.

O'quvchilar ushbu yozuvlardan foydalanib, bronza davri alomatlarini osonroq o'zlashtiradilar.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 4-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## **Ibtidoiy odam bilan tushlik**

Ibtidoiy odamlar neolit davriga qadar qanday oziqlanganini ko'rib chiqsak. Mana, g'orda yashaydigan odamlar omadli ovdan qaytishdi, ular kiyik ovlab kelishdi. So'ngra go'shtga ochko'zlik bilan yopishib, uni qo'llari bilan uzib, katta bo'laklarni yutishmoqda. Hamma och, bunday vaqtda ularning ko'ngliga ovqatdan bo'lak hech narsa sig'maydi.

Ammo keyingi kunlarda ov baroridan kelmadi, g'orda bir parcha ham go'sht qolmadi, kiyim uchun olib qo'yilgan yangi terilar ishga solindi. Ayollar chetlari o'tkirlangan kichkina yassi chaqmoqtoshlar yordamida zilday terilardan tuklar va paylarni olib tashlashmoqda. So'ngra terini kichik bo'laklarga kesib chiqishdi. Qon dog'i ketmagan bu bo'laklarni suvda ivitib, quyuq yopishqoq bo'tqaga aylanguncha qaynatishdi.

Qanday qaynatishgan? Ular loydan idish yasashni hali bilmasdilar. Suvni yog'och po'stloq yoki to'nkadan yasalgan idishda qaynatishgan. Bunday idishni yonib turgan olovga qo'yib bo'lmasdi. Suvni isitish uchun unga olovda cho'g'day qizigan toshlarni tashlardilar. Oxiri suv qaynab chiqardi. Suv shundan keyin qanchalik loyqa va iflos bo'lganini tasavvur qilaverasiz.

Shu payt ovchilar qaytdi. Ulardan biri kichkina baliq keltirdi. Uzoq va mashaqqatli harakatlardan so'ng tutgan o'ljalari shugina edi. Ammo shu arzimas o'ljani ham quvonch bilan qarshi oldilar. Baliqni shu zahoti bo'laklab, yeb qo'yishdi: hatto cho'g'lar ustida qovurishni ham ep ko'rishmadi. Ammo baliq kichkina edi va hammaga zig'irday ulush tegdi. G'or aholisi g'ajib bo'lingan va kulga tashlangan suyaklarni kemirishga tushdi. Endi suyaklarni yig'ib, tosh ustida mayda qilib yanchish qoldi, bu ham ovqat edi. Agar bu ham bo'lmasa, bolalar biror yemish – daraxt yelimi, hasharot g'umbaklari, o'simlik mevalari yoki urug'larini qidirishga jo'nardilar. Aks holda ochlikdan o'lish muqarrar.

Neolit davrida yashagan odamning muhim kashfiyotlaridan biri loydan yasalgan idish edi. Sopol idishlarda donni namlik va kemiruvchilardan saqlash mumkin. Ularda pishirilgan go'sht qovurilgan go'shtdan yumshoqroq va mazaliroq. Idish ixtiro qilingandan so'ng odamning ovqatlari turli-tuman va to'yimli bo'ldi. Ammo shunchaki oftobda quritilgan sopol idish tezda darz ketib, iste'molga

yaroqsiz holga kelardi. Idish pishirish tasodifan kashf etilgan deb taxmin qilish mumkin, ya'ni, odamlar gulxanga tashlangan loy mustahkam bo'lishini bilib qolishgan. Sopol idishni qo'lda yasab, to'liqsimon chiziqlar yoki to'rsimon naqshlar bilan bezatishgan. Jundan ip yigirib, mato va kiyim-kechak tikishgan. Ular teridan tikilgan kiyimlarga qaraganda ancha qulayroq edi.

Neolit davrida Zarafshon daryosi Amudaryoga tutash edi. Uning eng yirik irmog'i – Mag'iyondaryo bahorda Amudaryoga quyilgan. Yozda qurib, ko'llar hosil qilgan. Ularning sohillarida ovchilar va baliqchi jamoalari yashagan. Arxeologlar aniqlashicha, barcha manzilgohlarda va mavsumiy makonlarda madaniy qatlamlar yo'q. Faqat bir manzilgoh – Darvozaqirda madaniy qatlam saqlanib qolgan. Manzilgoh hududida toshdan yasalgan mehnat qurollari va sopol idish siniqlari topilgan. Tosh qurollar orasida o'qlarning uchlari, pichoqlar va sayqallangan boltalar bor. Qo'lga o'rgatilgan hayvonlarning suyaklari topilmadi.

Amudaryo va Sirdaryo orasida yashagan ovchilar, termachilar va baliqchilarning qadimgi madaniyati uning ilk manzilgohlari topilgan joy – Xorazmdagi Kaltaminor kanali sharafiga nomlandi. Kaltaminor madaniyati taxminan mil. avv. 5-mingyillik oxiridan 4-mingyillik boshiga qadar davom etdi.

Bu madaniyatga mansub ovchilar va baliqchilarning yaxshi saqlanib qolgan manzilgohlaridan biri – Jonbos-4. Arxeologlar bu yerda qazishmalar olib borib, yarim yerto'la ko'rinishidagi uy-joylar qoldiqlari, ko'plab tosh qurollar va sopol idishlar topdi. Turar joy markazida katta o'choq bo'lib, uning gir atrofida devorlar tagida ko'plab oilaviy o'choqlar joylashgan. Bu yerda taxminan 120 kishi yashagan. Kaltaminorliklar asosan baliqchilik va ovchilik hisobiga kun kechirishgan. Ularda to'quvchilik va sopolchilik ham rivojlangan, ammo idishlar qo'lda yasalgan. Kaltaminor madaniyati jamoalari daryolar bo'yida yashagan. Daryolarning o'zani o'zgargach, odamlar soy va ko'llar sohillaridagi yangi joylarga ko'chishgan. Arxeologik qazishmalar orqali, ular baliq ovlaganda to'r, suyakdan yasalgan qurol va garpunlardan foydalangani aniqlandi.

Neolit davrida qabilalar o'troq turmush tarziga o'tib, doimiy turar joylar qura boshlaganlar. Shu davrda paxsadan uylar qurila boshlangan. Asta-sekin urug' jamoalarining manzilgohlari shakllanib borgan. Shu tarzda, doimiy turar joylar qadimgi odamlar hayotining yaxshilanishiga olib keldi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 7-DARS. BRONZA DAVRINING ILK DEHQONLARI

### Dars maqsadlari:

- chorvachilik va dehqonchilikka o'tishning sabab va natijalarini ko'rsatish;
- O'zbekiston hududida kechgan bronza davrini aniq misollarda ta'riflash;
- tarixiy voqelikni tushunish va mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashga o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;

- tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘z fikrini tarixiy xaritalar va qo‘shimcha tarixiy ma’lumotlar bilan tushuntirish, qo‘shimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 4-§, 21–25-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 5-b. O‘rta Osiyo hududidagi bronza va ilk temir davri yodgorliklari.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

Eneolit, patriarxat, bronza, omoch bilan yer haydash, irrigatsiya.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki uning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

Shaxsiy topshiriqlar berish: paleolit, mezolit va neolit alomatlarini tavsiflash mumkin. O‘quvchilar bu yozuvlardan foydalanib, bronza davri alomatlarini osonroq o‘zlashtiradilar.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Metall davrining asosiy xususiyatlari.
2. Bronza davri manzilgohlari.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

#### **1. Metall davrining asosiy xususiyatlari**

Taxminan 6 ming yil avval O‘rta Osiyo hududida yashagan odamlar o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan (ovchilik va termachilik) ishlab chiqaruvchi xo‘jalik – dehqonchilik va chorvachilikka o‘tgan. Ta’kidlash kerakki, bu yerda issiq iqlim, quruq tuproq va yog‘in-sochin bo‘lmasligi dehqonchilik rivojiga xalal bergan, ammo odamlar daryo suvlarini sun‘iy qazilgan kanallarga yo‘naltirib, shu orqali o‘z dalalarini sug‘orishni o‘rganib olgan. Shunday ilk kanallar mil. avv. 2-mingyillikdayoq qazilgan. Arxeologlar ularni tog‘ oldi vodiylaridan topishgan.

Taxmin qilish mumkinki, tog‘oldi hududlarida dehqonchilik yegulik topishning ibtidoiy usuli – yovvoyi o‘simliklarni terish asosida vujudga kelgan, daryo vodiylarida esa bu yerda yashagan, ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan qabilalarning janubiy hududlarda yashagan, yumushi dehqonchilikdan iborat qabilalar bilan xo‘jalik aloqalari natijasida paydo bo‘lgan.

#### **1-topshiriq.**

#### **Quyidagi atamalarning to‘g‘ri ta’riflarini yozing.**

<b>Eneolit</b>	
<b>Bronza</b>	
<b>Sun‘iy sug‘orish</b>	
<b>Patriarxat</b>	
<b>Omoch bilan yer haydash</b>	

## 2. Bronza davri manzilgohlari

Arxeologlar Zamonbobo ko'li (Zarafshon daryosi havzasi) yaqinidagi qadimgi dehqonlar manzilgohini yaxshi o'rganganlar. Bu yerda yashovchilar chaqmoqtoshdan yasalgan o'roqlardan, tosh don maydalagichdan, yer haydashda esa ulama omochlardan foydalangani aniqlandi. Qo'lda yasalgan sopol idishlarda saqlangan tosh qotgan bug'doy va arpa donlari ham topilgan.

Sopollitepa va Zamonbobo manzilgohlarida olib borilgan qazishmalar chog'ida don maydalagich, omoch, o'g'irlar topilgan. Sopollitepa odamlari mehnat qurollari, qurol-yarog', ko'zgu, gazlama, charm va yog'och idishlar, sopol va bronza zeb-ziyatlar, boshqa ko'plab buyumlar yasashni bilganlar.

Panjikent yaqinidagi Sarazm qishlog'ida olib borilgan qazishmalar bu yerda qadimgi dehqonlar yashagani haqida guvohlik beradi. Ular o'z mehnati bilan bo'lajak So'g'diyona davlati vujudga kelishiga asos solganlar. Antik dunyo tarixchilari Gerodot, Arrian, Kvint Kursiy Ruf tabiiy sharoitlarga qarab sug'orishning bir necha usullari haqida yozishgan. Masalan, tog'oldi hududlari qo'lda sug'orilgan, tekisliklarda katta daryolar va ularning irmoqlari suvi ishlatilgan, suvni kanallar yordamida dalalarga yo'naltirishgan.

Mil. avv. 2-mingyillikda Xorazm va Farg'onada sun'iy sug'orish kanallari mavjud bo'lgani haqida shubhasiz dalillar bor. Omoch va belkuraklar paydo bo'lishi tarmoqlangan suv taqsimlagichlarga ega bo'lgan, uzunligi bir kilometrdan ortiq sug'orish kanallarini qazishga imkon yaratdi.

Mil. avv. 1-mingyillikda O'rta Osiyoning ko'p hududlarida damba va to'g'onlar paydo bo'ldi, bu esa dalalarga buriladigan suv miqdorini boshqarishga imkon berdi. Ayni o'sha tarixchilar qo'ltiq (liman) sug'orish usuli haqida eslatganlar, bunda suv to'playdigan kanallar tizimi yordamida yomg'ir va qor suvlari qo'ltiqqa yo'naltirilgan, so'ng ekinlar ekilgan.

Arxeologik qazishmalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra O'rta Osiyo hududida dehqonchilik bilan bir vaqtda chorvachilik ham vujudga kelganini tasdiqlaydi. Asta-sekin ko'p hayvonlar (sigir, qo'y, ot, echki, tuya) qo'lga o'rgatilgan.

Keyinchalik, mehnat qurollari takomillashgan sari mehnat faoliyati dehqonchilik va chorvachilikka ajralgan. Turli tabiiy sharoitlarga qarab O'rta Osiyoda mintaqalarida xo'jalikning ikki turi: dashtlarda ko'chmanchi chorvachilik, vohalar va daryo vodiylarida o'troq dehqonchilik vujudga keldi.

### Don – guvoh

Qadimgi ovchilarning manzilgohida arxeologlar boshqa buyumlar orasida bir nechta sopol parchalarini topdilar. Ularning yuz tomoni oddiy naqshlar: kataklarni hosil qilgan kesishuvchi chiziqlar bilan qoplangan edi.

Katak naqshli sopol parchalar ko'plab joylarda topilgan. Ayniqsa Fransiyada topilgan sopol parchasi mashhur bo'lib ketdi. Arxeologlar uni ko'zdan kechirib, arpa doni izini topdilar. Ular o'z topilmasini hayajon bilan o'rgandilar. Axir bu shunchaki don emas, balki inson hayotidagi buyuk o'zgarishlarning kichik guvohi edi. Don bo'lgan joyda dehqonchilik ham bo'ladi. Shu yerning o'zida, manzilgohda don maydalagichlar va tosh omochlar topilgani ham bejiz emas.

### Ovchilar va baliqchilar dehqonlarga aylandi. Bu qanday sodir bo'ldi?

Aytish kerakki, qabilaning hamma odamlari ham ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanmagan. O'sha davrda erkaklar ov qilgan, ayollar va bolalar savat hamda ko'za ko'targancha yo'lda uchragan yeguliklarni terib yurganlar. Dengiz bo'yida chig'anoq yig'ishgan.

O'rmonda qo'ziqorin, meva va yong'oq terishgan. Emanyong'oqdan ham hazar qilishmagan. Ularni tuyib, unidan non yopishgan. Yovvoyi asalarilarning inlari topilishi ayniqsa quvonchli bo'lgan.

Bir qoyatoshda asal yig'ayotgan ayol tasviri saqlanib qolgan. Ayol daraxtga tirmashib chiqqan. U

bir qo'lini inga suqib, boshqa qo'lida ko'za ushlab turibdi. Atrofida g'azablangan asalarilar g'ujg'on o'ynaydi. Ammo ayol ularga parvo qilmay, indan asalga to'la mumkatalarni olmoqda.

Har bir safardan ayollar va bolalar rezavor, asal, yovvoyi olma va nok yuki bilan qaytganlar. Ammo bekalar zaxiralarni behuda sarflashga shoshilmaydi. Ular bolalar topgan yeguliklarni xumcha va idishlarga yashirib qo'yishadi. Zaxiralar bir kunga yarab qoladi. Axir ov doim ham baroridan kelmaydi-ku. Shu tariqa iliq davrlar boshlangach, odamlar yana termachilarga aylandi. Bu bir qadam orqaga chekinishdek tuyuladi. Ammo aslida olg'a sakrashdir. Odamlar termachilikdan ekinlarga o'tib, termachini dehqondan ajratib turuvchi chiziqdan oshdilar. Mevalar bilan birga ayollar boshqoli o'simliklar – yovvoyi arpa va bug'doy donlarini keltirdilar. Bu donlarni xumcha va savatlarga solib qo'yidilar. Bunda bir oz don yerga ham to'kildirdi. Ularning ayrimlari unib chiqqan. Yerga urug' qadash o'z-o'zidan sodir bo'lgan.

Dastlab odamlar tasodifan ekishardi: shunchaki don to'kildirdi. Keyin ularni sepib eka boshladilar.

Ko'plab xalqlarda ko'milgandan so'ng tirilgan don haqida afsonalar mavjud. Qadimda ayollar omoch bilan yer haydab, don ekishganda, oltin boshqolar bilan bezanib qaytadigan sirli ma'budni ekdik deb, ishonishgan. Kuzda g'allani bog'-bog' qilib bog'lashganda, ma'bud yer osti dunyosidan qaytganidan quvonishgan.

## 2-topshiriq.

Quyidagi ro'yxatdan jadvaldagi ustunlar nomlariga mos keladigan so'zlar va tushunchalarni tanlab, tegishli joylarga yozib chiqing: qo'shni jamoa; urug'chilik jamoasi; ko'chmanchi turmush tarzi; o'troq turmush tarzi; vaqtinchalik jamoalar; termachilikning yordamchi o'rni; oqsoqol boshqaruvi.

<b>Asosiy mashg'ulotlar – termachilik, ovchilik va chorvachilik</b>	<b>Asosiy mashg'ulotlar – dehqonchilik</b>

## **O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash uchun o'tilgan mavzu bo'yicha quyidagi savollar beriladi:**

1. Qadimgi odamning tabiatga qaramligi nimalarda namoyon bo'ldi?
2. Qadimgi jamiyatda mehnat qurollarini takomillashtirish davom etishining sababi nimada?

Bronza davrini ta'riflaydigan misollar keltiring.

3. Dehqonchilikning vujudga kelishi qanday natijalar berdi?
4. Matriarxal urug'ning patriarxal urug'dan farqi nimada?
5. Zamonbobo va Sopolitepa dehqonlari manzilgohlarining o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.

Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

Uy vazifasi.

1. 4-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.


## Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

Mil. avv. XIV–XIII asrlar – xetlar (Kichik Osiyo) temirdan birinchi bo'lib mehnat qurollari va zeb-ziynatlar yasaganlar;

Mil. avv. IX–VIII asrlar – O'rta Osiyoda temirdan yasalgan ilk mehnat qurollari;

urug'chilik jamoasi → qo'shni jamoa;

harbiy demokratiyaga o'tish.



*Qo'shimcha ma'lumot*

### Ibtidoiy odam manzilgohiga tashrif

Keling, ibtidoiy odamlar yashagan g'orga kirib ko'ramiz. Tayyorlaning, yaxshisi niqob kiyib oling, yo'qsa bu qorong'i makonda hukm surgan dahshatli hid va og'ir havodan bo'g'ilib qolishingiz hech gapmas. Bir vaqtlar yer osti suvlari yumshoq tog' jinsi qatlamlarida keng va chuqur yerto'lani yuvib hosil qilgan. Asosiy g'or boshqa mayda g'orchalar bilan tor yo'laklar orqali birlashgan. Tutundan qoraygan shiftdan stalaktitlar osilib turibdi, ulardan chak-chak etib suv tomadi. Suv hamma yoqdan sizib o'tadi, devorlar bo'ylab oqib tushadi, yerdagi o'yiqlarda to'planib qoladi. To'g'ri, g'or ibtidoiy odamni qahraton sovuqdan saqlagan, ammo bu nosog'lom, zax boshpana edi. Uning istiqomatchilari tez-tez shamollar, kasal bo'lardi. Bizning zamonda olimlar bunday g'orlarda shishib ketgan, majruh bo'lgan suyaklarni ko'p topishgan.

Bir qarang, asosiy g'or devorlari tagida, iflos, axlatlar bilan qoplangan yerda barglar va po'panaklar to'p-to'p bo'lib yotibdi, ularning u yer-bu yeriga hayvon terisining parchalari tashlab qo'yilgan – bu oilaning to'shaklaridir. G'orning o'rtasida kul va yongan yog'ochlarning chuqur va katta uyumi yuksalib turibdi, uning chetlari bir oz iliq, ammo o'rtasida kichik gulxan yonayapti.

Kul va ko'mirlar orasida har xil ovqat qoldiqlari: uzunasiga yorilgan va g'ajilgan suyaklar, kuygan qarag'ay bujurlari, chig'anoqlar, chaynalgan po'stloq, baliq qiltanoqlari, dumaloq toshlar va ko'plab turli shakldagi chaqmoqtoshlar sochilib yotibdi. Bu chaqmoqtosh siniqlari – pichoqlar, keskichlar va boshqa mehnat qurollari qoldiqlaridir. Chaqmoqtoshdan yasalgan qurollar juda mo'rt va tez sinadi. Keyin ularni axlat uyumiga tashlab yuborishgan.

Albatta, kelajakda arxeologlar oshxona sarqitlarini o'rganishi, o'tmaslashgan siniq pichoqlarni izlashi, o'choqdan ko'mirlar olishi, so'ng ularni ajoyib muzeylarning keng zallarida namoyishga qo'yishi ibtidoiy odamlarning xayoliga ham kelmagan. Ammo bu odamlarning avlodlari o'simlik urug'larini terib, ularni o'z turar joylari oldida ekib, ko'plab mazali va to'yimli don-dun olguncha asrlar o'tdi. Bu jarayonni tarixchilar ishlab chiqaruvchi xo'jalik deb ataydilar, ya'ni, bu dehqonchilik va chorvachilik bo'lib, ular urug'ni uzoq vaqt davomida o'simlik va hayvonlardan olingan yegulik bilan ta'minlab kelgan.

Dehqonchilik termachilikdan, chorvachilik esa ovchilik va hayvonlarni qo'lga o'rgatishdan boshlandi. O'troq turmush tarzi va yanada mukammal mehnat qurollari jamoalarning dehqonchilik va chorvachilikka o'tishi uchun zamin yaratdi. O'troq hayot kechirishga o'tish hunarmandchilikning rivojiga turtki berdi. O'rta Osiyoda neolit davrida ovchilik va termachilik odamlarning asosiy mashg'uloti edi. Ammo janubiy hududlarda mil. avv. 6-mingyillik – 5-mingyillik boshida dehqonchilikka o'tildi, markaziy va shimoliy hududlarda esa ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanishda davom

etdilar.

O‘rta Osiyoning ilk dehqonchilik manzilgohlari kichik tog‘ irmoqlari bo‘yida joylashgan edi. Shunday makonlardan biri Chaqmoqli bo‘lib, Ashxoboddan 40 kilometr masofada topildi. Qazishmalar paytida bu yerda paxsadan qurilgan bir xonali uylar topilgan. Ularda chaqmoqtoshdan yasalgan ko‘plab mehnat qurollari va sopol parchalari borligi aniqlandi. Chaqmoqli – O‘rta Osiyo hududida istiqomatchilari ishlab chiqarishga o‘tgan ilk manzilgohlardan biridir.

Neolit davridagi ilk dehqonlarning boshqa manzilgohi Joytun deb ataladi. Turkmaniston janubidagi bu manzilgohni arxeologlar mil. avv. 6–5-mingyilliklarga mansub deb hisoblaydilar. Joytunliklarning bir xonali paxsa uylari bugun ham ishlatiladigan material – maydalangan somon aralashgan loy yordamida qurilgan, uzoq vaqtga mo‘ljallangan pishiq imoratlar edi.

U davrlarda dehqonchilik usullari juda oddiy edi, ammo aynan Joytun madaniyati O‘rta Osiyoda ziroatchilikning kelgusi rivoji uchun asos yaratdi.

Neolit davrida matriarxat yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ydi. Urug‘chilik jamoalari yiriklashib, bir hududda hayot kechirish tobora qiyinlashdi. Bu esa bir urug‘dan odamlarning kichik guruhlari ajralib chiqishiga va ularning yangi urug‘chilik jamoalariga aylanishiga olib keldi. Ular o‘zga hududda o‘rnashdi, ammo o‘z urug‘i bilan yaqin munosabatlarni saqlab, umumiy an‘analarga va mehnat qurollarini yasash usullariga amal qildilar. Tez orada matriarxat o‘rniga patriarxat davri boshlandi.

Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 8–9-DARS. TEMIR DAVRIGA O‘TISHDA O‘RTA OSIYONING RIVOJLANISHI

### Dars maqsadlari:

- temir davrida jamiyat rivojlanishining xususiyatlarini izohlash va temirdan yasalgan mehnat qurollari paydo bo‘lgandan so‘ng ijtimoiy tuzumda yuz bergan o‘zgarishlarni ko‘rsatish;
- tarixiy voqelikni tushunish va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘z fikrini tarixiy xaritalar va qo‘shimcha tarixiy ma’lumotlar bilan tushuntirish, qo‘shimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 5-§, 26–27-b.

2. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

3. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 5-b. O‘rta Osiyo hududidagi bronza va ilk temir davri yodgorliklari.

4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki uning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**


O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Temirdan yasalgan mehnat qurollari.
2. Temir davrida qabilalarning ijtimoiy tuzumi.
3. Harbiy demokratiyaga o‘tish.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

Darslik matni bilan ishlay turib, o‘quvchilarga o‘qituvchi aytgan arxeologik yodgorlik qaysi davrga mansubligini aniqlash, uning qisqa ta‘rifini berish, xaritada ko‘rsatish vazifasi taklif etiladi. Temir davri manzilgohlari o‘yin davomida va darslik matnini o‘qish jarayonida o‘rganiladi.



### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 5-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### ***Qo‘shimcha ma‘lumot***

#### **Nega matriarxat o‘rnini patriarxat egalladi?**

Urug‘chilik jamoasida ayollarning asosiy o‘rni shu bilan belgilanardiki, ular urug‘ni oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashga, ro‘zg‘or ishlarini bajarishga va bolalarni parvarish qilishga katta hissa qo‘shardilar. Ayollar termachilik bilan shug‘ullanar, omoch bilan yer haydardi. Neolit davrida matriarxat yuksaldi. Gap shundaki, dehqonchilik oziq-ovqat bo‘lishini kafolatladi, ov esa doim ham

baroridan kelmasdi. Oddiy qilib aytganda, oilani boquvchi odam birinchi hisoblanardi.

Ammo ayollar yetakchiligi hayot davomiyligi bilan ham belgilanishi haqida taxmin mavjud. Hayotini xatarga qo'yishga majbur erkaklar ancha ko'proq halok bo'lardi. Ovchilar o'rtacha 23 yil umr ko'rardi. Shu tarzda, jamoada chollar bo'lmasdi. Keksa ayollar esa bo'lardi. Ular tajriba va bilim to'plab, shu asosda o'z jamoasi sardorlari etib tanlanardi. Bu davrda yosh erkakni sardor etib tayinlash befoyda edi, chunki u bugun omadli ovchi bo'lsa, ertaga bo'ri yoki yo'lbarsga yem bo'lishi mumkin edi.

Ammo tosh davri oxiriga kelib odamlarda yanada mukammal mehnat qurollari paydo bo'ldi. Ular dehqonchilik unumdorligini yaxshilashga imkon berdi, uy hayvonlari ko'paydi. Hammasi birgalikda ochlikni yengib, ortiqcha mahsulotga ega bo'lishga imkon yaratdi. Yangi kasb vakillari – temirchilar, duradgorlar, savdogarlar paydo bo'ldi. Qabilalar o'rtasidagi ilk urushlar tarozi pallasini patriarxat foydasiga og'dirdi. Shu tariqa jamoa mudofaasini ta'minlagan yoki aksincha, qo'shnilarga muvaffaqiyatli hujumlar uyushtirgan, zaxiralar va ayollarni qo'lga kiritgan buyuk jangchilar – jamiyatning eng hurmatli a'zolari paydo bo'ldi. Erkaklarning o'rni nihoyatda yuksaldi, ayollar esa qaram holatga tushib qoldilar. Agar avvallari jamoa butkul onaga qaram bo'lsa, endilikda uning o'rnini erkak egalladi. Bu borada shuni ham inobatga olish kerakki, ko'p tarixchilar va etnograflar ibtidoiy jamoada matriarxat mavjud bo'lganiga shubha bilan qarab, buni hech qanday jiddiy ilmiy dalillar bilan isbotlanmagan deb hisoblaydilar.

Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						

## 10-DARS. O'LKASHUNOSLIK DARS

### Dars maqsadlari:

- o'quvchilarni o'zlari yashaydigan ma'lum bir hududlarning tarixiy nomlari bilan tanishtirish;
- tadqiqot ishlari ko'nikmalarini rivojlantirish;
- vatanparvarlik, qadrdon o'lkasiga mehr-muhabbat va hurmat hissini tarbiyalash.

### Materiallar va jihozlar.

Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

Ekskursiya (arxeologik qazishmalar joylari bo'ylab yoki o'lkashunoslik muzeyiga videoekskursiya, xayoliy ekskursiya).

### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, darsda qatnashganlik va o'quvchilarning javoblari bo'yicha baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. Arxeologik qazishmalar joylari bo'ylab yoki o'lkashunoslik muzeyiga videoekskursiya yoxud xayoliy ekskursiyadan olgan taassurotlarini yozish.
2. Barcha o'rganilgan paragraflarni takrorlash va nazorat ishiga tayyorlanish.

### *Qo'shimcha ma'lumot*

#### **Alvido, tosh – salom, mis**

**“Qadimgi odam olg'a intilib, sof metallarni topganda, ularni eritib, qoliplarga quyganda; tabiiy misni qalay bilan birga eritib, bronza yaratganda va nihoyat, uzoq izlanishlardan so'ng ko'rani ixtiro qilganda va ma'dandan temir olganda tamaddun uchun kurashda g'alabani o'ndan to'qqiz qismi qo'lga kiritildi”.**

*G. L. Morgan, amerikalik etnograf, XIX asr.*

#### **Mis kashf etilishi haqida afsonalar**

Uy sovuq va qorong'i, vizillab shamol esadi, ammo o'rindan turib, gulxanga shox-shabba tashlash kerak, yo'qsa u o'chib qoladi. Ayol lovillab turgan cho'g'larga tikildi va birdan gulxanda yotgan tosh qizarib, eriy boshlaganini ko'rdi. Undan xuddi suv kabi olovli jilg'a oqdi. U gulxan ichidan oqib chiqib, qorayib qoldi. Qip-qizil iloncha bejirim tillarang bezakka aylandi, u ayol novdalardan o'ziga yasaydigan taqinchoqqa o'xshab qoldi. Ayol tayog'ini ilonchaga tekkizdi. U hamon ilang-bilang qilardi. Tayoqning uchi esa yonib ketdi. Demak, ilon ichidagi cho'g' hali o'chmabdi. U tayog' bilan ilonni gulxandan nari surdi. Buncha chiroyli bo'lmasa! Ayol ilonni qo'lga oldi va baqirib yubordi, chunki hamon qaynoq taqinchoq qo'lini kuydirdi... So'ng er uyg'ondi. Ilonchani tishlab ko'rsa, yog'ochdan qattiq ekan, ammo yashil novda kabi egiladi, og'ir tosh bilan urganida parcha-parcha bo'lib ketmadi, balki yapaloqlandi. Shu tarzda misdan ilk mehnat quroli yasaldi.

Mis paydo bo'lishi haqida boshqa afsona ham bor. Qadimgi yunonlar e'tiqodiga ko'ra, odamlarga bu metallni Afrodita – sevgi va hosildorlik ilohasi hadya qilgan. Afsonada aytilishicha, sohil to'lqinlari ko'pigidan tug'ilgan Afrodita Kipr orolining qirg'og'iga chiqib, uning aholisiga temir konlarni ko'rsatibdi. Shu tariqa ularning rahamosiga aylanibdi. Bu ajoyib afsona haqiqatga yaqin – qadimda aynan Kiprda mis konlari ko'p uchragan. Rimliklar Kiprni zabt etganlaridan so'ng metallga cuprum deb lotincha nom berishgan, keyin misning kimyoviy ramzi – Cu paydo bo'lgan. Bu elementning ilmiy nomi aynan orol sharafiga qo'yilganiga e'tibor bergandirsiz – Kipr (cuprum).

Albatta, aslida Egey dengizi hududida qadimgi yunon sivilizatsiyasi vujudga kelishidan ancha oldin misdan foydalanish boshlangan. Mis kashf etilgan va ishlatilgan davr – taxminan mil. avv. 6–5-mingyilliklar, arxeologlar va tarixchilar tosh hamda bronza o'rtasidagi oraliq bo'g'in deb hisoblaydigan davrdir. Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, uzoq ajdodlarimiz dastavval yanglishib tosh deb o'ylashgan mis quymalardan foydalanganlar.

Avvaliga mis yombilarga xuddi oddiy toshlardek ishlov berilgan – shakli va hajmini o'zgartirish uchun ularni boshqa tosh bilan urishgan. Mis yombilar shaklini oson o'zgartirgan. “Qaynoqlayin bolg'alash” usuli, ya'ni, misni qizdirish kashf etilishi metallni qayishqoq qilib qo'ydi va turli mehnat qurollarini yasashga imkon yaratdi. Mis qurolning tosh quroldan ustunligi ham shu bilan izohlanadi: metall qurolni ta'mirlash mumkin, tosh qurolni esa na ta'mirlash, na tiklash mumkin. Bronza olish

usuli aynan qayerda kashf etilgani hamon jumboqligicha qolmoqda, ammo arxeologik ma'lumotlarga ko'ra, Iroq va Eronda qalay va mis qotishmasidan yasalgan ilk buyumlar topilgan. Aslida esa ko'p tarixchilar misning tasodifan kashf qilinishini rad etadilar, chunki hatto oson eriydigan ma'dandan metall olish uchun harorat 700–800 °C ni tashkil qilishi zarur, mis yombini eritish uchun esa 1084 °C bo'lishi kerak, oddiy gulxan esa bunday issiqlik bermaydi.

Misga ishlov berish texnologiyalari paydo bo'lishi uchun uni kashf etish kerak edi, bronza paydo bo'lishi uchun esa qalayni ham kashf etish, so'ngra mis va qalayni bronzaga aylantirish kerak edi. Oddiy pichoq yasash uchun qancha mehnat sarflanadi! Avval yer qa'rida yashiringan ma'danni qazib olish zarur. Bronza davriga mansub bunday konlar O'zbekistonning ko'plab viloyatlarida topilgan.

Qadimgi konchilar o'ra qazib, asta-sekin chuqurlashib borganlar. U yerda ma'danni sindirib olib, yuqoriga ko'tarishgan. So'ng undan metall eritib olish kerak edi. Qattiqlikni oshirish uchun mis ma'danga qalayi toshni qo'shganlar – mis bilan qalay qotishmasi hosil bo'lgan. Bu endi shunchaki mis emas, balki bronza – ancha mustahkam sun'iy metall edi.

Bronzadan yasalgan mehnat qurolini qo'lga kiritgan odamlar yaxshiroq yer haydab, ekin maydonlarini kengaytirishga muvaffaq bo'ldilar. Natijada ularda ortiqcha dehqonchilik mahsulotlari paydo bo'ldi. Chorvachilik asta-sekin dehqonchilikdan ajralib, mehnatning ilk ijtimoiy taqsimoti yuz berdi. Qabilalar aro ortiqcha mahsulot bilan ayirboshlash yo'lga qo'yildi. Ortiqcha mahsulot – qo'shimcha mahsulot paydo bo'lgandan so'ng mulkiy notenglik vujudga keldi.

O'rta Osiyo hududida bronza davri mil. avv. 3-mingyillik o'rtasidan boshlanib, mil. avv. 2-mingyillikda yuksalishga erishdi. Bu davrda mintaqaning ko'pgina hududlarida o'troq dehqonchilik madaniyati rivojlanib, yirik manzilgohlar paydo bo'ldi.

Omoch bilan yer haydash, chorvachilik va hunarmandchilik vujudga kelishi bilan oilani oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda yetakchilik erkakka o'tdi. Ayollar ro'zg'or yumushlari bilan shug'ullana boshlashdi. Oilada yetakchilik erkakka yuklanib, turmushga chiqqan ayol urning urug'iga o'tdi. Qarindoshlik erkaklar tomonidan belgilanadigan bo'ldi va patriarxat davri boshlandi.

Arxeologlar Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi Zamonbobo ko'li (Zarafshon daryosi havzasi) yaqinidagi qadimgi dehqonlar manzilgohini topdilar (mil. avv. 3-mingyillik oxiri – 2-mingyillik boshi). Qazishmalar chog'ida uy hayvonlari va yovvoyi jonivorlarning suyaklari, bug'doy va arpa donlari, chaqmoqtoshdan yasalgan o'roqlar, tosh don maydalagichlar, sopol idishlar, ilk marta mis ko'zgular va ayollarning turli zeb-ziynatlari topildi. Bu topilmalar manzilgoh odamlari ilk bronza davridayoq dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanganini bildiradi.

Bronza davrida yirik shoxli qoramol, tuya, otlar uy hayvonlariga aylantirildi. Panjikent atrofidagi Sarazm qishlog'ida arxeologlar eneolit va bronza davriga mansub yana bir qadimgi dehqonlar manzilgohini ochdilar. U 90 gektardan ortiq ulkan hududni egallagan.

Bu yerda ko'p xonali uylarning xarobalari, mis va bronzadan yasalgan mehnat qurollari, metall eritiladigan pechlar topildi. Bu topilmalar qadimgi Sarazm aholisining madaniyati yuqori darajada rivojlangani haqida darak beradi.

Arxeologlar Surxondaryo vohasi Muzrabod tumanida bronza davriga oid qadimgi ziroatchilar manzilgohlaridan biri bo'lgan Sopollitepani topishdi (mil. avv. 3-mingyillik – 2-mingyillik boshi). Qazishmalar davomida bu yerda xom g'ishtdan qurilgan uy-joylar, sopol buyumlar, bronzadan yasalgan mehnat qurollari va zeb-ziynatlar yasalgan ustaxona qoldiqlari, shuningdek, yirik xumlarda saqlangan bug'doy va arpa doni topilgan.

Manzilgohning markaziy qismi to'g'ri burchak shaklda bo'lib, uchta mudofaa devori bilan

o‘ralgan. Bu qal‘a-manzilgohga janubda joylashgan yagona darvoza orqali kirilgan.

Vaqt o‘tishi bilan uning aholisi ko‘payib, ayrimlar yangi yerlarni o‘zlashtirishni boshlagan. Arxeologlar hisobicha, Sopollitepa madaniyati O‘zbekistonda sun‘iy sug‘orishga zamin yaratgan. Kulolchilik yuqori darajada rivojlangan, topilgan sanamlar va turli hayvonlar haykalchalari esa bu davrda O‘rta Osiyoda badiiy san‘at kurtaklari paydo bo‘lganini ko‘rsatadi.

Surxon vohasida (hozirgi Sheroboddan uncha uzoq bo‘lmagan joy) Jarqo‘ton manzilgohi vujudga kelgan. Arxeologik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, u bundan uch yarim ming yil avval paydo bo‘lgan.

Jarqo‘ton qurilishi tarixida ilk shahar alomatlari ko‘zga tashlanadi. U ikki qismdan iborat bo‘lgan: qal‘a (hukmdor yashaydigan joy) va uning atrofida jamoa a‘zolari bo‘lmish hunarmand va dehqonlarning uylari joylashgan. Jarqo‘tonda ibodatxona qoldiqlari ham topilgan.

Tadqiqotchilar fikricha, Jarqo‘ton O‘zbekiston hududidagi shahar sivilizatsiyasining ilk ko‘rinishidir. Qal‘a ichida ibodatxona bo‘lgan. Qabrlarda olib borilgan qazishmalar ko‘rsatishicha, Sopollitepa va Jarqo‘tonda yashagan odamlar narigi dunyodagi hayotga ishonganlar. Marhumni shaxsiy buyumlari bilan birga ko‘manganlar, uning yoniga ovqat solingan idishlar qo‘yganlar. Agar odam bedarak yo‘qolgan bo‘lsa, uning “ruhi”ni dafn qilishgan, qabrga esa sopol idish va bronza buyumlar qo‘yishgan. Bunday qabr fanda kenotaf (yunonchadan tarjimasi – bo‘sh qabr) nomini oldi.

Tarixchi olimlar fikriga ko‘ra, mil. avv. 2-mingyillik o‘rtasida qadimgi dehqonchilik madaniyati rivojlanishi asosida ilk davlatchilikka o‘tish jarayoni boshlangan.

Xorazm hududidagi bronza davriga mansub arxeologik yodgorliklar Tozabog‘yob madaniyati deb ataladi. Olimlar bu yerda mil. avv. 2-mingyillik o‘rtasida barpo etilgan dehqonlar manzilgohlarini hamda qadimgi kanallar izlarini topdilar.

Ko‘kcha manzilgohida dumaloq va to‘g‘ri burchak shaklidagi yarim yerto‘lali uy-joylar qazib ochilgan. Bunday turar joylarning tomlari yog‘och ustunlarga tayangan. Bu yerda o‘choqlar, sopol buyumlar, bronza va toshdan yasalgan qurollar topilgan. Qo‘lda yasalgan sopol qozon, xumcha va kosalar turli geometrik naqshlar bilan bezatilgan. Qavat-3 manzilgohida ustaxona xarobalari aniqlangan bo‘lib, u yerda bronza buyumlarni quyish uchun qoliplar va mehnat qurollari saqlanib qolgan.

Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						

## 11-DARS. TAKRORIY-UMUMLASHTIRUVCHI

### Dars maqsadlari:

- mazkur mavzu bo‘yicha avvalgi darslarda o‘tilgan materialni takrorlash va umumlashtirish;
- o‘quvchilarning eng qadimgi urug‘chilik tuzumi davrlari bo‘yicha bilimlarini tartiblashtirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 6-§, 8–28-b.
2. Tarixiy xarita.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar.

4. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

O‘tgan darslarda o‘rganilgan barcha atamalar.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang.**

**Yangi mavzuning mazmuni.** O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

Yangi mavzuning mazmunini oldindan doskaga yozish yoki taqdimotlarni tayyorlab qo‘yish kerak.

### **Dars rejasi:**

1. Eng qadimgi urug‘chilik tuzumini davrlashtirish.
2. Eng qadimgi odam hayotidan qolgan izlar.
3. Paleolit, mezolit va neolit xususiyatlari.
4. Bronza va temir davrida qadimgi odam rivojlanishining asosiy xususiyatlari.

### **O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash.**

**Variant 1.** Umumlashtiruvchi suhbat jarayonida o‘quvchilarning taklif etilgan masalalar bo‘yicha bilimlari saviyasi aniqlanadi.

### **1-nazorat ishi**

1. Olimlar shahar va davlatning vujudga kelishi va rivojlanishi davrini qanday ataydilar?  
A) numizmatika B) tarix C) sivilizatsiya D) ibtidoiy jamiyat
2. Yerda odam paydo bo‘lgan davrdan boshlanadigan va milodiy 476-yilda G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan yakunlanadigan tarix bo‘limi qanday ataladi?  
A) o‘rta asrlar tarixi B) eng yangi tarix  
C) ibtidoiy jamiyat D) qadimgi dunyo tarixi
3. Arxeologlar topgan manba turi qanday ataladi?  
A) moddiy B) yozma C) biologik D) kimyoviy
4. Qarindoshlik munosabatlari ona tomondan belgilangan va urug‘ boshida ayol turgan ibtidoiy jamoa tuzumining rivojlanish davri qanday ataladi?  
A) urug‘ B) to‘da C) matriarxat D) patriarxat
5. Tosh davri bosqichlari sanab o‘tilgan satrni ajratib ko‘rsating.  
A) mezolit, paleolit, neolit, eneolit B) paleolit, mezolit, neolit, eneolit  
C) paleolit, mezolit, eneolit, neolit D) eneolit, neolit, mezolit, paleolit
6. O‘rta paleolit davrining dunyoga mashhur yodgorligi – Teshiktosh g‘ori kim tomonidan ochilgan?  
A) Okladnikov B) Gerasimov C) Shampolyon D) Shliman
7. Mezolit davri manzilgohlari to‘g‘ri yozilgan javobni ko‘rsating.  
A) Ko‘lbuloq, Angren B) Obishir, Ko‘lbuloq  
C) Obishir, Qo‘shilish, Machay D) Jarqo‘ton, Obishir
8. So‘nggi paleolit davrida odamning qaysi turi yashagan?  
A) sinantrop B) kromanyon odami C) pitekantrop D) zinjantrop
9. Neolit davrining muhim kashfiyotlari ...  
A) kulolchilik va to‘quvchilik vujudga kelishi  
B) to‘quvchilik vujudga kelishi va itning qo‘lga o‘rgatilishi

- C) turar joylar qurilishi va kulolchilik vujudga kelishi  
 D) o‘q-yoy kashf etilishi va turar joylar qurilishi
10. So‘nggi paleolit davrida yashagan odamlarning eng muhim kashfiyoti.  
 A) turar joylar qurilishi                      B) hayvonlarning qo‘lga o‘rgatilishi  
 C) kulolchilik vujudga kelishi            D) to‘quvchilik vujudga kelishi
11. Odamlar mehnat qurollari va qurol-yarog‘ yasash uchun ishlatgan ilk metall.  
 A) mis B) oltin C) temir D) kumush
12. Misning qalay bilan qotishmasi – bu...  
 A) bronza B) po‘lat C) cho‘yan D) qotishma
13. Ota tomonidan eng yaqin qarindoshlarning bir nechta avlodidan iborat oila.  
 A) matriarxal oila B) patriarxal oila C) urug‘ D) jamiyat
14. Dehqonlarning eng qadimgi manzilgohlaridan biri –  
 A) Sopollitepa B) Zamonbobo C) Jarqo‘ton D) Obishir
15. Mis-tosh davri bu – ...  
 A) eneolit B) paleolit C) neolit D) mezolit
16. Temir buyumlardan birinchi bo‘lib kim foydalangan?  
 A) varvarlar B) rimliklar C) xetlar D) misrliklar
17. Mil. avv. 1-mingyillik boshida O‘rta Osiyo aholisi nechta guruhga bo‘lingan?  
 A) 3 B) 4 C) 5 D) 2
18. O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi manba – bu ...  
 A) Behistun yozuvlari                      B) “Avesto” kitobi  
 C) Gerodotning “Tarix” asari            D) Strabonning “Geografiya” asari
19. Bir tomoni o‘tkirlangan qo‘pol tosh qurollar qanday ataladi?  
 A) mikrolitlar B) chopperlar C) makrolitlar D) mehnat qurollari
20. Ilk qoyatosh rasmlar qaysi davrda paydo bo‘ldi?  
 A) ilk paleolit B) so‘nggi paleolit C) mezolit D) neolit

**Umumlashtiruvchi suhbatda o‘quvchilarda ibtidoiy jamiyat tarixida taraqqiyot g‘oyasi haqida tushuncha hosil qilish kerak:** mehnat tufayli odamlarning hayoti yaxshi tomonga o‘zgargan, yanada mukammal mehnat qurollari yaratilgan, yangi bilimlar paydo bo‘lgan. Odamning o‘zi ham o‘zgargan: miyasining hajmi kattalashgan, gavdasini yanada tik tutib yurgan, qo‘l barmoqlari chaqqonroq bo‘lgan, nutq rivojlangan. Chorvachilik va dehqonchilik paydo bo‘lishi bilan odamlarning jamoalari yanada inoqlashib, jipslashgan.

Darsni yakunlay turib, mehnat kishilik jamiyati va odamning rivojlanishi uchun asos yaratganligini yana bir marta ta’kidlab o‘tish kerak.

**Agar bo‘sh vaqt qolsa, o‘quvchilarga quyidagilarni taklif etish mumkin:**

- boshqotirma tuzib, unga o‘tilgan mavzu bo‘yicha so‘zlar va atamalar yoziladi;
- “Mo‘jizalar maydoni” yoki “Baxtli voqea” kabi o‘yinlarni o‘tkazish, bu maqsadda turli murakkablikdagi topshiriqlar va savollarni oldindan tanlab olish;
- dars mavzusi, masalan, arxeologiya bilan bog‘liq boshqotirma tuzish. O‘quvchilar mavzuni o‘rganish paytida eslatilgan atamalar va tushunchalarni shunday tanlab olishlari kerakki, bu so‘z vertikal ko‘rinishda yozilgan “arxeologiya” so‘zining harflari tarkibiga kirsin.

**Darsga yakun yasash.**

O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi

uchun baholarni e'lon qiladi.

### **Uy vazifasi.**

Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

*Qo'shimcha ma'lumot*

### **Bronza davri manzilgohi bo'ylab sayohat**

Qadimgi manzilgohlardan biri bo'ylab sayohat qilib, uning aholisi qanday yashagani haqida bilib olaylik. Biz Sopollitepa manzilgohining markaziy qismida turibmiz. U uch qator mudofaa devorlari bilan o'ralgan bo'lib, qalinligi ikki metrdan oshadi. Hujum qiluvchilar bir devorni buzib, tuzoqqa tushib qolishlari mumkin. Bu vaqtda esa qal'a himoyachilari ular ustiga o'q va toshlar yomg'irini yog'dirishadi. Qal'aga faqat birgina darvoza orqali kirish mumkin bo'lgan, ammo u ishonchli qo'riqlangan.

Qal'aning sakkiz dahasidan biridagi ko'cha bo'ylab yo'limizda davom etamiz. Manzilgohning barcha ko'chalari markaziy maydonga olib chiqadi. Maydonda savdo-sotiq avjiga chiqqan. Kulollar o'z charxlarida yasagan baland oyoqchali guldonlar, ko'zalar, xumchalarni sotishmoqda.

Ayollar esa bronza va oltindan yasalgan zeb-ziynat buyumlari: zirak, munchoq, bejirim naqshli bronza lappaklar va bronza ko'zgularni tomosha qilmoqdalar.

Turli-tuman gazlamalarni sotayotgan to'quvchilar o'z molini tinmay maqtaydi. Matolar rang-barang, naqshlarini aytmay sizmi! Bir chetda boshqa sotuvchilar – dehqonlar va chorvadorlar ham joylashgan. Ular bug'doy, arpa, hayvon terilari, teridan tikilgan buyumlarni sotishmoqda.

Cho'ponlar erta tongdayoq mollarni yaylovga haydadi, dehqonlar esa dalalarga oshiqdi. Oqava suv tomon borayotgan kiyik yoki yovvoyi qobonni ov qilish istagida bo'lgan ovchilar ularga hamroh bo'ldilar, baliqchilar esa mo'l baliq tutishdan umid qildilar. Qora soqolli kulol loy pishitmoqda, shogirdlari xumdonga o't qalamoqda. Ularning yonginasida ma'dan eritilib, temir buyumlar uchun qoliplar tayyorlanmoqda. Zargarlar munchoqlarni pardoqlab, bronza bilaguzuklar va uzuklar ustida ter to'kishmoqda. Ayollar bo'yra to'qib, don yanchib, ovqat pishirib, bolalarni tarbiya qilmoqda. Har kun shu zaylda o'tadi.

Bronza davrida moddiy madaniyat va xo'jalikda katta o'zgarishlar ro'y berdi. Bronza davri manzilgohlarining aholisi turli hunarlar: to'quvchilik, kulolchilik, zargarlik buyumlarini yasash, qurilish sohasida katta muvaffaqiyatlarga erishdilar. Sun'iy sug'orish keng tarqaldi, kulolchilik charxi va g'ildirak kashf etildi, odamlar ko'p xonali katta uy-joylar qurishni o'rganib oldilar, yirik shoxli qoramol qo'lga o'rgatildi.

Ammo bronza davri odamining hayoti avvalgidek tashvish va xavotirga to'la edi. Odamlar tabiatga qaram edi, tabiiy ofatlardan qo'rqar, ulardan doimo aziyat chekardi. Kundalik og'ir mehnat avvalgidek odamlarning asosiy mashg'uloti edi va tabiat tirishqoqlik ko'rsatganlarni taqdirlardi. Chamasi, faqat bolalargina beg'am edi.

Ammo bronza davri ham abadiy davom etmadi – uning o'rnini temir davri egalladi.

*Qo'shimcha ma'lumot*

### **O'rta Osiyo temir davriga o'tish davrida.**

#### **Temir davrning boshlanishi**

Odamlar mis va bronzadan mehnat qurollari yasashni o'rganib olganidan beri ko'p asrlar o'tdi.

Faqat mil. avv. 1-mingyillik boshidagina temirdan mehnat qurollari yasash imkoniyati tug'ildi. Bu jarayon sarmashaqqat edi, chunki temir misga qaraganda (taxminan 1000 °C) ancha baland haroratda eriydi (1500 °C). Ammo temir mis va bronzadan beqiyos ustun: u ancha qattiqroq. Kichik Osiyoda xetlar birinchi bo'lib temir buyumlarni ishlatganlar (mil. avv. XIV–XII asrlar), so'ng qo'shni mamlakatlar (Ikki daryo oralig'i, Eron, Kavkazorti) xalqlari ham foydalangan.

Qadimgi odam metall “yashiringan” toshlardan uni eritib olishni o'rgangandan so'ng temir davri boshlandi. Ko'p mingyilliklar avval sayyoramizning turli burchaklarida istiqomat qiluvchi xalqlar deyarli bir vaqtda sof, tabiiy metallar bilan tanishdilar. Gap shundaki, tabiatda sof metall deyarli uchramaydi. Odamning qo'liga tushgan birinchi temir meteoritdan olingan degan taxminlar bor. Temir haqida ilk marta bundan 5 ming yil avval eslatilgan, u davrlarda temir sof oltindan qimmatroq baholanib, temir buyumlar uchun gardish sifatida xizmat qilgan.

Meteorit temiriga nisbatan osonroq ishlov berish mumkin edi. Qadimgi odam undan oddiy mehnat qurollarini yasay boshladi. Ammo meteoritlar kam tushadi, temirga esa doimo ehtiyoj borligi sababli odamlar uni ma'dan tarkibidan chiqarib olishga harakat qilardi. Shunday vaqtlar ham keldiki, odam endi nafaqat osmondan tushgan, balki yerdan topilgan temirdan ham foydalana boshladi. Bronza davri o'z o'rnini temir davriga bo'shatdi.

... Arxeologning qo'lida nayzaning uchi turibdi. Bu temirga yana inson qo'li tekkuncha ikki yarim ming yildan oshiq vaqt o'tdi.

Insoniyat temir qilich va shuning barobarida temir omoch va bolta davriga qadam qo'ydi. Rivoyatlarga ko'ra, Sohirqiron Amir Temurning va qariyb ming yil ilgari yashagan hunlar sardori – Attilaning qilichlari “samodan” tushgan ekan. Meteoritdan olingan temir haqida gap borayotgani ehtimoldan xoli emas.

### **Odaming temir bilan ilk uchrashuvi**

...Bepoyon o'rmon uzra tiniq osmon gumbazdek osilib turibdi. Qabila erkaklari tekislikni tark etishganda kuz oftobi hali tikkadan tushmagan edi. Ovni davom ettirish befoyda – mana uch kundirki, omadlari kelmayapti. Shu vaqt mobaynida biror o'ljani qo'lga kiritishga barcha urinishlar zoye ketdi. Hayvonlar yuradigan tor so'qmoqlardan o'z manzilgohlari joylashgan tog'lar sari ildamlayotgan, tinkasi qurigan erkaklar xayolida qayg'uli fikrlar charx urardi.

Shu payt g'aroyib hodisa yuz berdi. Charaqlab turgan oftob yanada yorishib ketdi. So'ng oftob yaqinida baland osmonda cho'g'day qizigan oppoq shar paydo bo'ldi. Nahotki quyosh ikkita bo'lsa? Odamlarni vahima bosdi. Ular qo'rquvdan dang qotib, qo'llarini cho'zganicha osmonga tikilib qoldilar.

Olovli shar avval tikka ularga qarab uchdi, keyin hamma yoqqa uchqunlar sachratib va ortidan ulkan dum qoldirib, boshqa yoqqa yo'naldi. Dum tobora kichrayib, nurlanuvchi izga aylandi. Quadratli zarbalar yangraganda, osmon hanuz yorishib turardi. Yer titrab, g'uvillab ketdi va nihoyat hamma yoq tinchib qoldi.

Odamlar yo'lida davom etdi. Oradan ko'p o'tmay, bu g'aroyib osmon hodisasini faqat shu ovchilar to'dasigina ko'rmagani ayon bo'ldi. O'nlab kunlar yo'l yuriladigan olis hududda yashaydigan ko'p odamlar qulayotgan olovli sharni ko'rishgan ekan.

Oradan yillar o'tdi va odamlar o'sha olis zamonlarda Yerning samoviy kelgindi bilan to'qnashuvi yuz bergan joylarga borib yetdilar. Tunlari gulxan yonida hamon olovli ruhni eslashar, ammo hech kim ulkan krater va qariyb afsonaga aylangan, allaqaysi zamonlarda yuz bergan hodisa o'rtasida bog'liqlik borligini tushunib yetmadi.

Odamlar qirg'ich, pichoq va nayza uchlari uchun yaroqli ashyolarni izlab, krater yonida toshga o'xshash parchalarni terib oldilar, ammo ularga e'tibor bermay, ovchilik uchun qulayroq toshlarni topdilar. Vaholanki, bu meteorit temiridan qolgan parchalar edi. Odamning temir bilan ilk uchrashuvi shunday ro'y berdi.

### O'rta Osiyoda temir davri

Temir buyumlar sekin tarqaldi. Dastlab temirdan asosan zeb-ziynat buyumlari yasaldi, chunki u kamyob va qimmatbaho ashyo edi. Bunday zeb-ziynatlar Misr fir'avni Tutanxamon maqbarasida va Kavkazdagi Maykop qo'rg'onidagi buyumlar orasidan topilgan. Mehnat qurollari yasashda temirdan foydalanish avvalo dehqonchilik usullari rivojlanishida aks etdi. Temir o'roq va omoq, bolta va so'qa paydo bo'ldi. Bu mehnat qurollari katta maydonlarda ziroatchilik rivoj topishiga turtki berdi.

O'zbekiston hududida qadimgi temir buyumlar Dalvarzintepa (Farg'ona vodiysi), Qiziltepa (Surxondaryo vohasi), Daratepa (Qashqadaryo vohasi) kabi manzilgohlardan topilgan. Ular orasida ilk buyumlar mil. avv. IX–VIII asrlarda, ammo ko'p qismi mil. avv. VII–VI asrlarda yasalgan.

Yevropadan farqli o'laroq, O'rta Osiyoda dehqonchilik sun'iy sug'orish asosida rivojlangan. Bu yerda faqat suv tufayligina gullagan bog'lar va dalalar yaratildi, suv kanal va ariqlarning tarmoqlangan tizimi yordamida dalalarga chiqarilgan.

Arxeologlar mil. avv. 4–3-mingyillikdoyoq Turkmaniston janubida, mil. avv. 2-mingyillikda – O'zbekiston hududida qazilgan kanallarni topishga muvaffaq bo'ldi. Bu davrda O'zbekistonning ko'pgina hududlarida mayda sug'orish shoxobchasi keng tarqalgan edi. Sizot suvlarini to'plash va yer yuzasiga chiqarish uchun korizlar – yer osti kanallari qazilgan.

## II-bo'lim. QADIMGI SHARQ VA O'RTA OSIYO



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



### 12-DARS. NIL VODIYSI VA UNING AHOLISI

#### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Misrdagi tabiiy sharoitlarning o'ziga xosligini va ularning odamlar mashg'ulotlariga ta'sirini ko'rsatish;
- misrliklarning mashg'ulotlari va ular tabiat bilan kurashda boshidan kechirgan qiyinchiliklarini aniq misollarda ko'rsatish;
- Misr rivojlanishida eng qadimgi urug'chilik tuzumidan davlat tashkil topishiga qadar yuz bergan o'zgarishlarni ko'rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy

va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 6-§, 28–31.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 7-b. Misr va Ikki daryo oralig‘i.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar. Voha – yer orolchasi.**

**Papirus** – baland qamish.

**Delta** – Nilning O‘rtayer dengiziga quyiladigan joyi, uchburchak shaklni hosil qiladi.

**Fir‘avn** – Misr hukmdori, misrcha – “ulug‘ xonadon”.

**Nomlar** – Misrdagi ilk davlatlar.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

1. **Misr – “Nil in‘omi”.**
2. **Misrliklarning mashg‘ulotlari.**
3. **Hunarmandchilikning rivojlanishi.**
4. **Misr davlatining tashkil topishi.**

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

**O‘qituvchi Nil jumbog‘i haqida rivoyatni so‘zlab berib, darslik mazmunini to‘ldirishi mumkin.**

Buyuk daryoga taalluqli bir jihat odamlarni minglab yillar mobaynida o‘yga toldirgan. Har yili iyul oyidan boshlab Nil suvi ko‘tarilib, oktyabrda may oyiga qaraganda 7,5 m balandroq bo‘ladi. Toshqinlar mavsumida Nil qirg‘oqlaridan chiqib, dalalarga ajoyib o‘g‘it – unumdor loyqa oqib kelgan. Ushbu hodisa – daryoda suvning bu qadar ko‘tarilishi juda g‘aroyib, chunki Misrda deyarli yomg‘ir yog‘maydi! Shu boisdan ham odamlar yuzlab yillar mobaynida Nilning har yilgi toshqinlari sababini topolmay hayratlanardilar. “Nil jumbog‘i” javobi faqat XIX asrdagina topildi.

Nil – dunyoda eng uzun daryo. U janubdan shimolga qadar 6670 kilometrga cho‘zilgan, asosan Sudan va Misr – Afrikaning shimoli-g‘arbida joylashgan davlatlarning hududidan oqib o‘tadi. Nilning yillik toshqinlari daryo yoqalab uzun tasmadek cho‘zilib ketgan, jazirama, qurg‘oqchil va unumsiz sahro qurshab olgan hosildor voha vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Ilk odamlar bu vohaga ko‘p ming yillar muqaddam ko‘chib joylashgan. Nil ikki asosiy manba – Oq Nil va Ko‘k Nildan suv oladi. Oq Nil Uganda mamlakatidagi Viktoriya ko‘lidan oqib chiqadi. U ohista oqadi va Nildagi suv sathi o‘zgarishlariga ta’sir qilmaydi.

Aprel va mayda, Nildagi suv eng quyi nuqtaga yetganda, uning 85 foizi Oq Nildan keladi. Xo‘sh, Ko‘k Nil-chi? U kuchli jalalar yog‘adigan va qor-muzliklar erib pastga tushadigan Efiopiyadan, uning tog‘laridan boshlanadi. Yomg‘irlar mavsumi boshlanganda Ko‘k Nildagi suv keskin ko‘payib, Nilda toshqin boshlanadi. Ko‘p asrlar odamlarning boshini qotirgan jumboq mana shunday oson yechim

topdi.

**1-topshiriq.**

Quyidagi atamalarining to‘g‘ri izohlarini yozing.

Voha	
Delta	
Nom	
Papirus	
Fir‘avn	
Nomarx	




**Javoblar:**

Baland qamish; Misr hukmdori, misrliklar tilida – “ulug‘ xonadon”; Nil O‘rtayer dengiziga quyiladigan joy uchburchak shaklga ega; Misrdagi ilk davlatlar; yer orolchasi.

**2-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.**

Misr – Nil in‘omi	Misrliklarning mashg‘ulotlari	Kasb-hunari	Davlatning tashkil topishi



**3-topshiriq. Quyidagi so‘zlardan foydalanib, Misr haqida hikoya tuzing.**

Voha; toshqin; unumdor loyqa; daryo vodiysidagi yumshoq va unumdor tuproq; baland qorli tog‘lar; quyuq o‘rmonlar; seryog‘in; sahro; delta; O‘rtayer dengizi.

**4-topshiriq.** Konturli xaritani to‘ldirib, Qadimgi Misrning yirik shaharlari, Nil daryosi va O‘rtayer dengizini belgilang. Nil deltasini ko‘rsating (vaqt yetmasa, avval konturli xarita bilan qanday ishlashni tushuntirib, uy vazifasi kabi bering).

**Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 6-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

1. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

2. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritani yaratish va to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

Mil. avv. 4-mingyillik boshi – odamlarning Misrga kelib joylashishi

Nil → uzunligi 6 ming km → delta → O'rtayer dengizi


“Qora tuproq” – voha, kengligi 3–22 km

mashg'ulotlar – dehqonchilik, chorvachilik

papirus – uylar qurilishi davlatlar –

nomlar → nomarx

Mil. avv. 3000-yil – yagona Misr



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 13-DARS. QADIMGI MISR VA QO'SHNI XALQLAR

### Dars maqsadlari:

– o'quvchilarga Qadimgi Misrga qo'shni davlatlar va ularning o'zaro hamkorligi haqida ma'lumot berish;

– Misr fir'avnlarning istilochilik yurishlari sabablari va yo'llarini izohlash hamda ularning natijalarini ko'rsatish;

– o'quvchilarning mazkur mavzu bo'yicha bilimlarini tartibga solishni davom ettirish;

– tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;

– o'quvchilarni o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish va ushbu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;

– o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;

– tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;

– o'z fikrini tarixiy xaritalar va qo'shimcha tarixiy ma'lumotlar bilan izohlash, qo'shimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;

– umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 7-§, 32–33-b.

2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 7-b. Misr va Ikki daryo oralig'i.

3. Konturli xarita, 5-b. Misr va Ikki daryo oralig'i.
4. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Soliq** – istilo qilingan qabilalar tomonidan Misrga mahsulotlar yoki pul ko'rinishida to'lanadigan o'lpon, to'lov.

**Jangovar arava** – otlar qo'shilgan yengil arava.

**Oybolta** – dastasi uzun jangovar bolta.

**Drotik** – kalta nayza.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi:


1. Nil deltasi nima? (Nil O'rtayer dengiziga quyiladigan joy, u yunoncha "delta" harfi kabi uchburchak shaklga ega)
2. Misr hududiga odamlar qaysi mingyillikda ko'chib joylashgan? (mil. avv. 5-mingyillikda)
3. Misrni qurshab olgan cho'llar? (Sahroi Kabir va Liviya cho'li)
4. Misrliklar o'z vatanini qanday atashgan? ("Qora tuproq")
5. Misr aholisiga eng katta xavf solgan hodisa. (Nil toshqinlari)
6. Nega yozda Nil toshadi? (tog'larda qor eriydi)
7. Misrliklarning asosiy mashg'ulotini ayting. (dehqonchilik)
8. Nega misrliklar mushuklarni e'zozlaganlar? (mushuklar g'alla hosilini sichqonlardan qutqargan)
9. Qadimgi Misr tarixi nechta davrga bo'lingan va ular qanday ataladi? (uch davrga bo'linadi: qadimgi, o'rta, yangi podshohliklar)
10. Misrning yagona davlatga birlashuvi qachon sodir bo'lgan? (mil. avv. 3000-yilda)
11. Mamlakat hukmdori qanday atalgan? (fir'avn)
12. Nomlar nima? (mamlakat bo'lingan hududlar)
13. Misrliklar nimaga yozishgan? (papiirusga)
14. Nega odamlar uzoq vaqtgacha Misr hududiga ko'chib joylashmaganlar? (murakkab tabiiy sharoitlar, botqoqliklar, jazirama, yovvoyi hayvonlar)

### Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

1. Qadimgi misrliklarning qo'shnilari.
2. Fir'avnlarning istilolari.
3. Fir'avnlarning yurishlarining natijalari.



Dars mavzusi ustida ishlash.


Darslik matni bilan tanishuv jarayonida o'quvchilarga quyidagi jadvalni to'ldirishni taklif eting.

Topshiriq. Quyidagi atamalarning to'g'ri izohlarini yozing.

Jangovar arava	
Oybolta	
Giksoslar	
Fir'avn	
Tutmos II	
Tutmos III	
Kambiz II	
Yaxmos	

Javoblar:

Mil. avv. 525-yilda Misrni bosib olgan Qadimgi Misr podshosi; Dastasi uzun jangovar bolta; Otlar qo'shilgan yengil arava; Old Osiyo mamlakatlarini zabt etgan fir'avn; Istilo qilingan qabilalar tomonidan Misrga mahsulotlar yoki pul ko'rinishida to'lanadigan o'lpon, to'lov; Falastin, Suriya va Finikiyani istilo qilgan fir'avn; Misrdan giksoslarni quvg'in qilgan fir'avn.



O'qituvchi darslik matniga qo'shimcha ravishda Qadimgi Misrning mashhur malikasi Kleopatra haqida batafsil hikoya qilishi mumkin.

Kleopatra – Misrning Ptolemeylar sulolasiga mansub so'nggi malikasidir. Ptolemeylarni esa bir vaqtlar Aleksandrning o'zi taxtga o'tqazgan edi. Kleopatra mil. avv. 69-yilda tug'ilgan. Uning otasi – Misr podshosi Ptolemey XII unga sulolaning an'anaviy ismini qo'ygan.

Otasining vafotidan so'ng, vasiyatnomaga binoan Kleopatra ukasi Ptolemey bilan birga hukmronlik qila boshladi. Ammo oradan bir muddat o'tib, ulg'aygan Ptolemey Kleopatrani Falastinga surgun qiladi va yakka o'zi hukmronlik qilishga kirishadi.

Mil. avv. 48-yilda rimlik sarkarda Gay Yuliy Sezar sulolalar kurashiga aralashib, Kleopatrani Misr taxtiga qaytaradi. Mil. avv. 47-yilda Sezar va Kleopatra o'g'il ko'rib, unga Sezar Ptolemey deb ism qo'yishadi.

Oradan bir yil o'tib Kleopatra Sezar Ptolemey bilan birga Rimga kelib, o'g'lining nomi bilan ikki davlat – Rim va Misrni birlashtirishni reja qiladi. Ammo mil. avv. 44-yil 15-martda uning barcha umidlari barbod bo'ladi. Shu kuni Senatning majlislar zalida Sezar o'ldiriladi. Dafn marosimi paytida e'lon qilingan vasiyatnomadan ma'lum bo'ladiki, Sezar o'z opasining nabirasi Gay Oktaviyni o'g'illikka oladi va asosiy valiahd deb e'lon qiladi, Sezar Ptolemey haqida esa vasiyatnomada hech narsa deyilmagan. Kleopatra Misrga qaytib, o'g'lini o'z noibi etib tayinladi.

Mil. avv. 36-yilda Antoniy Kleopatraga uylandi. Shu vaqtdan boshlab omad undan yuz o'giradi. Parfiya va Armanistonga muvaffaqiyatsiz harbiy yurishlar Mark Antoniyning Oktavian Avgust bilan munosabatlariga batamom putur yetkazadi, bu ular o'rtasida urush boshlanishiga olib keladi. Mil. avv. 31-yilda Oktavian floti Aksum burnida Antoniy ustidan g'alaba qozonadi. Kleopatra va Antoniy Aleksandriya shahriga (Misr) qochadilar. Ammo Oktavian qo'shinlari ularni ta'qib qilishda davom etadi. Mil. avv. 30-yilda qo'shinlar Aleksandriyaga bostirib kirgach, Antoniy o'z-o'zini o'ldiradi. U o'ziga xanjar sanchib, Kleopatra qo'lida jon beradi.

Oktavian g'alabasidan so'ng isnodni yuvish uchun Kleopatra ham o'z joniga qasd qiladi.

### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 7-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. Konturli xaritani to'ldirish, 5-b.
3. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
4. Keyingi darsda o'tiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritani yaratish va to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot


Misr chegarasi – Nubiya, Liviya, Falastin, Suriya  
Qo'shni mamlakatlarning Misr tomonidan bosib olinishi;

Mil. avv. XVIII asr – Quyi Misrning giksoslar tomonidan bosib olinishi;

Yaxmos → giksoslarning quvg'in qilinishi → Yangi podsholik;

Tutmos III → Falastinni istilo qilgan;

Mil. avv. 525-y. – Misrning fors shohi Kambiz II tomonidan bosib olinishi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 14-DARS. QADIMGI MISRDA DIN

### Dars maqsadlari:

- o‘quvchilarni misrliklarning tevarak olam haqida tasavvurlari bilan tanishtirish;
- din paydo bo‘lishi sabablari va diniy e’tiqod shakllari haqida o‘quvchilarning tasavvurlariga aniqlik kiritish;
- fir’avnlr va quldorlarning dindan o‘z manfaatlarini uchun foydalangani haqida hikoya qilish;
- tarixiy voqealarni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘z fikrini tarixiy xaritalar va qo‘shimcha tarixiy ma’lumotlar bilan izohlash, qo‘shimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 8-§, 34–35.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 7-b. Misr va Ikki daryo oralig‘i.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

#### Kohinlar, ibodatxonalar.

**Amon-Ra** – Quyosh xudosi.

**Tot** – donishmandlik xudosi.

**Osiris** – yer osti saltanati xudosi.

**Ibodatxona** – xudoning uyi.



### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

### Dars rejasi:

1. Misrliklarning tevarak olam haqida tasavvurlari.
2. Kohinlar va ibodatxonalar.

### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e’lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

## Dars mavzusi ustida ishlash (darslik matni bo'yicha).

### 1-topshiriq. Quyidagi atamalarning to'g'ri izohlarini yozing.

<b>Amon-Ra</b>	Quyosh xudosi; xudo Ptaxning yerdagi timsoli
<b>Tot</b>	Oy, donishmandlik va tabobat xudosi
<b>Osiris</b>	yer osti saltanati xudosi
<b>Ibodatxona</b>	misrliklar tasavvuriga ko'ra xudolar yashaydigan uy
<b>Maat</b>	haqiqat va adolat ilohasi
<b>Anubis</b>	marhumlar va mumiyolanganlar xudosi
<b>Ptax</b>	Memfis xudosi
<b>Apis</b>	Memfis shahri xudosi – Ptaxning yerdagi timsoli
<b>Xapi</b>	Nil xudosi
<b>Xatxor</b>	musiqa, go'zallik va sevgi ilohasi

### 2-topshiriq.

#### Jadvalni to'ldiring.

Misrda ilohiylashtirilgan hayvonlar	Bu hayvonlarni ilohiylashtirgan xudolar va hodisalar

### 3-topshiriq.

Sizningcha, misrliklar nega aynan shu hayvonlarni ilohiylashtirishgan? Javobni yozing.

#### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

#### Uy vazifasi.

1. 8-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritani yaratish va to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

misrliklar, xudolar odamlar orasida yashaydi, deb hisoblashgan  
Amon-Ra Ptax → Apis  
Xapi, Osiris, Xatxor, Maat, Anubis,  
Tot, Set, Isida ibodatxonalar →  
kohinlar → qurbonlik qilish



Sinflar	"A" sinfi	"B" sinfi	"V" sinfi	"G" sinfi	"D" sinfi	"Y" sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



### Dars maqsadlari:

- Misr aholisining turli diniy udumlariga o‘quvchilarning e’tiborini qaratish;
- fir’avnlar piramidalar qurish orqali aholida hokimiyatning barqarorligi haqida tasavvurlarni mustahkamlashga alohida diqqat qaratish;
- odamlar va hayvonlarni mumiyolashtirish sababini izohlash;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 9-§, 36–39-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 7-b. Misr va Ikki daryo oralig‘i.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Mavzuga oid kitoblar ko‘rgazmasi.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Piramida** – fir’avn va boshqa asilzoda misrliklar maqbarasi.

**Sfinks** – tanasi sherniki, kallasi odamniki bo‘lgan, piramidani qo‘riqlaydigan afsonaviy maxluq.

**Sarkofag** – mumiyolangan jasad solingan toshtobut.

**Mumiyo** – dafn qilish uchun maxsus tayyorlangan marhum jasadi.

**Skarabey** – misrliklar Quyosh yordamchilari deb hisoblagan qo‘ng‘iz.

**Tumor** – misrliklar fikricha, doimo yonida olib yurilsa, yovuz ins-jinslar va baxtsizliklardan saqlaydigan mayda buyum.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

1. Qadimgi podsholik davrida Misrning poytaxtini ayting. (Memfis)
2. Misrliklarda Quyosh xudosi kim edi? (Ptax)
3. Xudo Ptaxning yerdagi timsoli. (buqa Apis)
4. Misrliklarning bosh xudosi kim edi? (Amon-Ra)
5. Quyosh xudosi Raning ibodatxonasi qaysi shaharda joylashgan? (Geliopolda)
6. Nega misrliklar fir’avnlariga xudo deb sig‘inishgan? (negaki ular fir’avnlarni xudoning yerdagi o‘g‘illari deb hisoblangan)
7. Nil xudosi nomini ayting. (Xapi)
8. Isida – bu ... (Osirisning xotini, ayollar homiysi)
9. Xatxor – bu ... (musiq, go‘zallik va sevgi ilohasi)
10. Misrliklarda haqiqat va adolat ilohasi kim edi? (Maat)
11. Marhumlar xudosi – bu ... (Osiris)
12. Tot – bu ... (Oy, donishmandlik va tabobat xudosi)
13. Feniks – bu ... (misrliklarning afsonaviy qushi, yoshlik va tiklanish timsoli)

14. Xudo va odamlar o'rtasidagi vositachi kim edi? (kohinlar va kohinalar)

15. Xudolar va ilohalarning yerdagi binosi qanday atalgan? (ibodatxona)


### Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

1. "Hamma narsa vaqtdan qo'rqadi, vaqt esa piramidalardan qo'rqadi".
2. Mumiyolash.

### Dars mavzusi ustida ishlash.



Darslik matni bilan tanishuvdan so'ng yoki o'qituvchining hikoyasi jarayonida o'quvchilarga jadvalni to'ldirishni taklif eting.

1-topshiriq. Quyidagi atamalarining to'g'ri izohlarini yozing.

<b>Piramida</b> –	fir'avn va boshqa asilzoda misrliklar maqbarasi
<b>Sfinks</b> –	tanasi sherniki, kallasi odamniki bo'lgan, piramidani qo'riqlaydigan afsonaviy maxluq
<b>Sarkofag</b> –	mumiyolangan jasad solingan toshtobut
<b>Mumiyo</b> –	dafn qilish uchun maxsus tayyorlangan marhum jasadi
<b>Skarabey</b> –	misrliklar Quyosh yordamchilari deb hisoblagan qo'ng'izlar
<b>Tumor</b> –	misrliklar fikricha, doimo yonida olib yurilsa, yovuz ins-jinslar va baxtsizliklardan saqlaydigan mayda buyumlar
<b>Xufu, Xafra, Menkaura</b> –	Misrdagi eng mashhur piramidalar
<b>Xafra</b> –	Misr fir'avni (Xufu)
<b>Tutanxamon</b> –	maqbarasi talab ketilmagan yagona Misr fir'avni

O'qituvchi darslik matnini mumiyolashning vujudga kelishi haqida rivoyatni so'zlash orqali to'ldirishi mumkin.

Asta-sekin odamlar hukmdorlar oddiy bandalardan farq qiladi deb o'ylay boshlashdi. Deyarli har bir mamlakatda avval xudolar hukmronlik qilganligi haqida rivoyatlar saqlanib qolgan. Masalan, xudo Osirisni Misrning ilk hukmdori deb hisoblashgan. Albatta, u podsholarga xos tarzda qudratli, dono va adolatli edi, ammo unga yovuz birodari Set hasad qilardi. U ham Misrning shohi bo'lmoqni istab, Osirisni o'ldirishga qaror qiladi.

Makkor Set Osiris uyushtirgan ziyofatga tashrif buyurib, qaysi mehmonning bo'yiga loyiq kelsa, o'shanga serhasham toshtobut sovg'a qilishini aytadi. Hamma toshtobutga yotib ko'radi, ammo u

mehmonlarga kattalik qiladi. Toshtobut faqat pahlavon Osiris bo'yiga mos tushadi. Bu tasodifan emasdi, negaki ayyor Set uni atayin akasi uchun yasattirgan edi. Qopqoq yopilib qoladi, endi uni hech kim ocholmaydi. Set Osirisning jasadini dengizga tashlaydi. Ammo Osirisning xotini – dono malika Isida erining jasadini topib, sarkofagni ochadi va sehr-jodu qilib, unga jon kirgizadi. Isidaning o'g'li Gor esa battol Set bilan jang qilib, uni mag'lub etadi.

Hammasi yaxshilik bilan tugaydi. Ammo Osiris endi odamlar orasida yashay olmaydi: axir u tiriklar dunyosiga taalluqli emasdi. Shu sababli xudolar uni marhumlarning yer osti saltanatiga hukmdor etib tayinlashdi. Yerda esa odamlar hukmronlik qila boshladi. Podsho Misrning qolgan fuqarolari kabi tug'ilishi va o'lishi haqida hamma bilardi. Ammo podsho o'z fuqarolariga mutlaqo o'xshamasligiga hech kim shubha qilmadi. Har bir yangi podshoni xudo Gorning o'g'li deb hisoblashardi. Albatta, shu sababli podsho boshqa odamlarga qaraganda kuchliroq, donoroq edi. Hech kim hatto podshoning ismini ham talaffuz etishga jur'at qilmasdi: buni yovuz ins-jinlar eshitib qolib, podshoni duoibad qilishlari mumkin edi. Agar podshoni eslatishga to'g'ri kelib qolsa, "Ulug' xonadon" deyishar va albatta: "Ilohim sog'-salomat va omon bo'lsin" deb qo'shib qo'yishardi. Misrliklar talaffuzida "Ulug' xonadon" "Per-o" deb talaffuz etilardi. Oradan ko'p asrlar o'tib, yunonlar bu so'zni o'zgartirib, podshoni "fir'avn" deb ataydilar. Endilikda Qadimgi Misr hukmdorlarini biz ham shunday ataymiz.

### **O'qituvchi darslik matnini Tutanxamon maqbarasi ochilishi haqidagi hikoya bilan to'ldirishi mumkin.**

1922-yilda ulkan kashfiyot qilindi – "Shohlar vodiysi"da fir'avn maqbarasi topildi. Uni ingliz arxeologlari Govard Karter va Jorj Karnarvon ochishdi. "Hayajondan qo'llarim titrab, – deb eslaydi Karter, – men devorning yuqori chap burchagida tuynuk ochdim va qarshimizda unutilmas manzara namoyon bo'ldi! Fonus shu'lasida zulmat qa'ridan tasavvurga sig'mas jonzoqlar, katta haykallar, zilday tilla taxt va boshqa ko'p buyumlar namoyon bo'ldi. Taxtdan taralayotgan zarrin yog'du taassurotni yanada kuchaytirardi. Toshtobutning to'rt burchagida ilohalar qanotlarini yozgancha bu yerda mangu uyquda yotgan marhumni qo'riqlayotgandek tuyulardi".

Yuqoridagi ikki qutini olib tashlab, dafn bo'lmasini bo'shatguncha naq 84 kun ketdi. Nihoyat, 3-fevralda podshoning dabdabali toshtobutini ko'rdik – u yaxlit sarg'ish kvarsit toshidan o'yib yasalgan, uzunligi 2,75 metr, kengligi 1,5 metr va balandligi 1,5 metr kelardi. Ustidan granit tosh yopib qo'yilgandi. Chig'irlar yordamida og'irligi qariyb bir tonna keladigan bu tosh qopqoqni ko'targanimizda, maqbarada yana tumonat odam yig'ildi. "Tosh qopqoq ko'tarila boshlaganda, oraga sukunat cho'kdi. Ilk lahzada hammaning hafsalasi pir bo'lgandek tuyuldi: mum shimdirilgan dokalardan bo'lak hech narsa chiqmadi. Ammo doka yechib olingach, hamma o'lik fir'avnni ko'rdi".

Ammo bir qarashda shunday tuyuldi. Aslida fir'avn mumiyosi emas, balki uning oltindan yasalgan haykal shaklidagi surati namoyon bo'ldi. Oltin ko'z qamashtirgudek yaraqlar, haykal xuddi hozirgina ustaning qo'lidan chiqqanday ko'rinardi. Fir'avn o'zining tutashtirilgan qo'llarida podsholik nishonlarini: asoni hamda lojuvard toshchalar va ko'k mum bilan bezatilgan qamchini ushlab olgandi. Podshoning boshida ko'k lojuvard tasmalar yaltirardi. Uning yuzi sof oltindan, ko'zlari aragonit va obsidiandan, qosh-qovoqlari – lojuvard tusli shishadan yasalgan. U xuddi tirikdek ko'rinardi. Yonida yosh bevedan turmush yo'ldoshiga atalgan oddiygina gulchambar yotardi.

Arxeologlar oltin qopqoqni ochdilar. Uning tagida ikkinchi qopqoq bo'lib, unda xudo Osiris qiyofasida serhasham libosda yotgan fir'avn tasvirlangan edi. Uchinchi tobut ochilgandan keyin ham xuddi shuni ko'rishdi. Arxeologlar tobutlar juda og'irligini payqashdi. Uzunligi 1,85 metr keladigan

uchinchi tobut 3 millimetr qalinlikdagi sof oltindan yasalgani ma'lum bo'ldi. Bu xazinaning bahosini hattoki chamalab aytish ham mushkul.

Arxeologlar fir'avn mumiyosi yotgan sakkizinchi tosh Tobutga yetguncha bir-birining ichiga joylangan yettita tosh Tobutni ochishdi. So'nggi hal qiluvchi lahzalar... Bir nechta tilla mixchalar sug'urildi, so'ng Tobut qopqog'ini tilla tutqichlaridan ushlab ko'tarishdi. Arxeologlar qarshisida Tutankhamon yotardi... "Bunday daqiqalarda qalbimni chulg'ab olgan murakkab va ziddiyatli hissiyotlarni ta'riflashga til ojiz", – deb eslaydi Karter. U yuz bichimi nozik, chehrasi osoyishta va olijanob o'spirinni ko'rdi. Tutankhamonning bo'yi past, qomati nozikkina ekan; u vafot etgan paytida taxminan 18–19 yoshlarda bo'lgan.

Ingliz olimi P. E. Nyuberri maqbarada topilgan gulchambarlarni o'rganib, Nil sohillarida bundan uch ming uch yuz yil avval qanday gullar o'sganini aniqladi. Buning ustiga, Tutankhamon dafn etilgan faslni ham bilishga muvaffaq bo'ldi. U bo'tako'z gullaydigan, Tavrotning "Go'zal qo'shiq" bobida kuylangan "muhabbat olmasi" – mandragora va qora ituzum pishib yetiladigan paytni aniqlab, Tutankhamon taxminan mart o'rtasida yoki aprel oxirida dafn etilgan degan xulosaga keldi.

Mumiyo son-sanoqsiz zeb-ziynatlar bilan bezatilgan edi. Yuzi fir'avn surati tasvirlangan tilla niqob bilan to'silgan. Har bir doka qavati ostida yangidan-yangi javohirlar topilardi. Fir'avn boshidan oyog'igacha oltin va qimmatbaho toshlar bilan qoplangan edi!

Ammo Tutankhamon maqbarasida bundan ham ko'p xazinalar topildi. Bu yerda qadimgi misrliklar moddiy va ma'naviy madaniyatining son-sanoqsiz buyumlari to'plangan bo'lib, ularning har biri mashaqqatli qazishmalar uchun yetarli mukofot bo'lib xizmat qilardi. Butun bir davrni qamrab olgan Misr san'ati bu yerda shu qadar turli-tuman va mukammal namunalar bilan taqdim etilgandiki, Karter bir qarashdayoq tushundi: bu xazinalarni batafsil o'rganish "avvalgi barcha qarashlar va nazariyalarni o'zgartirish u yoqda tursin, hatto butunlay ostin-ustun qilib yuboradi".

Uy anjomlari va idishlar, zargarlik buyumlari, qurol-yarog', jangovar aravalar va kemalar modellari – barchasi turli-tuman shakllari va go'zalligi bilan lol qoldiradi. Lojuvard toshlar qadalgan tilla niqob bejirimligi bilan hayratga soladi. Yog'ochdan yasalgan va turli ranglarga bo'yalgan Tutankhamonning tizzaga qadar haykali juda ko'rkam. Quloqlarini ochiq qoldirgan toj peshanani sal berkitib turibdi. Nozik yuzda katta qora ko'zlar porlaydi. Qora qoplon yog'rinida turgan Tutankhamonning tilla haykalchasi ham ajoyib.

Tutankhamon maqbarasida yog'ochdan yasalgan bir qancha kema modellari topildi: burni va quyruq'i nilufar gullar bilan bezatilgan uzun yassi qayiq "baxtiyor insonlar dalalari"ga kechib o'tish uchun mo'ljallangan. Xuddi shunday shaklda, ammo taxt o'rnatilgan to'rtta qayiq esa quyoshning osmondagi yo'lidan har kuni ergashish vaqtida fir'avnga xizmat qilishi lozim edi. Nilufar va papirus gullari ko'rinishidagi ustunlarga tayangan nafis chodir maqbara markazida yuksalib turadi.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

9-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 17-DARS. QADIMGI MISR MADANIYATI

### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Misr madaniyati misolida odamning xo'jalik faoliyati ehtiyojlari tufayli ilmiy bilimlar vujudga kelishining umumiy qonuniyatini ochib berish;
- misrliklarning bilimlari yuqori darajada bo'lganini ko'rsatish;
- o'quvchilarda Qadimgi Misr madaniyatining jahon madaniyatiga ta'siri haqidagi tushunchalarni chuqurlashtirish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 10-§, 40–42-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 7-b. Misr va Ikki daryo oralig'i.
3. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Ierogliflar** – qadimgi yunonlar misrliklarning yozuvini shunday atashgan; yunonchadan tarjimasi – “toshga chekilgan muqaddas bitiklar”.

**Xattot** – matnlarni yozish va o'qish bilan shug'ullangan odam.

**Arxitektura** – binolar va boshqa inshootlarni qurish san'ati.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.


O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

### Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

1. Misrliklar yozuvi.
2. Ierogliflar siri ochildi.
3. Ilmiy bilimlar vujudga kelishi.



## Dars mavzusi ustida ishlash.

O'quvchilarni mavzuning mazmuni bilan tanishtirib, ularga jadvalni to'ldirishni taklif eting.

### 1-topshiriq.

Quyidagi atamalarning to'g'ri izohlarini yozing.

<b>Ierogliflar</b>	qadimgi yunonlar misrliklarning yozuvini shunday atashgan
<b>Xattot</b>	matnlarni yozish va o'qish bilan shug'ullangan odam
<b>Podsho tirsagi</b>	Misr o'lchov birligi – 52,5 cm.
<b>Papirus</b>	Misrda yozish uchun ishlatilgan material
<b>J. F. Shampolyon</b>	Misr yozuvini birinchi bo'lib o'qigan odam
<b>Rozett bitiktoshi</b>	uning yordamida J. F. Shampolyon Misr yozuvining ma'nosini o'qidi

**O'qituvchi darslik matnini Misr iyerogliflari o'qilishi haqidagi hikoya bilan to'ldirishi mumkin.**

Qadim davrlardayoq Misrda yozuvlarni topishar, ammo ularni hech kim o'qiy olmasdi. Bu belgilar jumbog'i yechilmaydi degan tasavvur shakllangan edi. Qadimgi yunonlar fikricha, Misr kohinlari bu yozuvlarni diniy e'tiqod maqsadida yaratishgan, shu sababli ularni iyerogliflar deb atashdi, yunoncha "toshga chekilgan muqaddas bitiklar" ma'nosini bildiradi.

XVII asrga qadar bu yozuvlarning ma'nosini o'qish uchun hech qanday sezilarli harakatlar qilinmadi.

Keyinroq, 1799-yilda ulkan kashfiyot qilindi. Nil daryosining quyilish joyi yaqinida yuz yillab yotgan qora bazalt tosh topildi. Unga shu yaqin orada joylashgan shahar sharafiga Rozett bitiktoshi deb nom qo'yishdi. Rozett bitiktoshida uch xil tilda yozuvlar bitilgan edi. Biri – yunon tili, ikkinchisi – iyerogliflar, uchinchisi – Misr yozuvining so'nggi shakli, xalq tez yozuvi – qisqartirilgan iyerogliflar turi edi.

Bu yozuvlarni uzoq yillar o'rganishdi. Yunoncha yozuvlar tushunarli edi va nihoyat, ularni qolgan yozuvlar bilan solishtirgandan so'ng asrlar davomida sir saqlangan iyeroglif yozuvining siri ochildi. Bu ishni iste'dodli yosh fransuz olimi Jan Fransua Shampolyon amalga oshirdi.

Endi tarixchilar mil. avv. 3500-yilga qadar misrliklarning hayoti, odatlari va diniy udumlarini kuzatishlari mumkin. Aslini olganda, bu yozuvlar – rasmlardir. Har bir rasm predmetdan iborat. Ammo vaqt o'tishi bilan bu yozuv taraqqiy etib, keyinchalik misrliklar tushunchalar, tovush va so'zlarni yoza boshlashdi.

O'qituvchi Qadimgi Misr san'ati haqida hikoyani quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldirishi mumkin.

"Hamma narsa vaqtdan qo'rqadi, vaqt esa piramidalardan qo'rqadi", – deyilgan qadimgi Misr maqolida. Ammo Misr zaminida o'sha olis zamonlardan buyon nafaqat piramidalar – fir'avnlar maqbaralari saqlanib qolgan. Haykaltaroshlar bu yerda turli odamlar – xattot, askar, podshoning qiyofalarini mahorat bilan yaratganlar. Misrlik rassomlar avval toshlardan qutiga o'xshash bo'laklarni yo'nib olishgan. Bu "quti"ning tomonlarini kataklarga bo'lishgan. Kataklda esa haykalning yon tomondan, to'g'ri va yuqoridan shakllarini belgilashgan. Shu chizmaga qarab "ortiqcha" tosh yo'nib tashlangan.

Qadimgi Misr haykaltaroshlari bo‘rtma tasvirlarni ham sevib ishlashgan.

Ulardan biriga nazar solamiz: kamon tortayotgan fir‘avning ulkan gavdasi. Fir‘avn jang paytida tasvirlangan, ammo u mag‘rur va xotirjam, harakatlari ulug‘vor va ohista. Uning boshi va oyoqlari yon tomondan ko‘rinadi, yelkalari va ko‘kragi tekis devorda shunday yoyib tasvirlanganki, xuddi unga ro‘paradan qarayotgandek bo‘lasiz. Albatta, hech kim predmetni ikki tomondan ko‘rishga qodir emas, ammo bu usul misrlik rassomlarga tasvirlangan inson haqida batafsilroq hikoya qilishga imkon yaratgan.

Qadimgi Misr rassomlari o‘zga usullarni ham qo‘llashgan: fir‘avnlarni zodagonlarga, zodagonlarni esa oddiy xalqqa qaraganda kattaroq qilib, ayollarni doimo sariq, erkaklarni qizg‘ish-jigarrang bo‘yoq bilan tasvirlashgan. Shuningdek, bizga Nil bo‘yidagi yashil chakalakzor uzra uchayotgan qushlar, papirus poyasida o‘tirgan yovvoyi mushuk, to‘r tortayotgan baliqchilar tasvirlangan ajoyib devoriy suratlar ham yetib kelgan. Hatto hozir ham ajoyib tasvirlangan harakatlarni, yorqin ranglarni ko‘ramiz – yo‘q, hamma narsa ham vaqtdan qo‘rqavermaydi.

## **O‘qituvchi darslik matnini matematika, kimyo, astronomiya va tabobat sohasidagi ilmiy bilimlarning taraqqiy etishi haqida hikoya bilan to‘ldirishi mumkin.**

### **Matematika**

Qadimgi Misrda ilmiy bilimlardan ayniqsa matematika taraqqiy etdi. Ibodatxona va maqbaralar qurilishi, yer maydonlarini o‘lchash va soliqlarni hisoblash uchun avvalo hisob tizimi zarur edi; matematikaning rivojlanishi ham shundan boshlandi. Misrliklar ko‘paytirish va bo‘lishni bilardilar, ammo bu amallar birmuncha murakkab usulda bajarilardi. Bo‘lish “aksincha ko‘paytirish” edi. Bir sonni boshqasiga bo‘lish bunday bajarilgan: bo‘linuvchi olish uchun bo‘luvchini nechaga ko‘paytirish hisoblab chiqilgan.

### **Kimyo**

Qadimgi Misrda kimyo o‘ta amaliy fan edi. Kimyoviy bilimlar amalda qo‘llangan bosh soha – jasadlarni mumiyolash edi. Narigi dunyodagi abadiy hayot davomida tanani saqlash zaruriyati to‘qimalarning chirishi va buzilishiga yo‘l qo‘ymaydigan ishonchli mumiyolash vositalarini yaratishni talab qilardi.

Marhum tanasi avval turli-tuman qatronlar va tuz eritmasida ivitilib, so‘ng u ich-ichiga o‘tib ketguncha shimdirilardi. Malham mumiyoga shunchalik singib ketardiki, asrlar o‘tib to‘qimalar qorayardi. Xususan, fir‘avn Tutaxamon mumiyosi bilan ham shunday bo‘ldi – xushbo‘y moy va malhamlar tarkibidagi yog‘ kislotasi to‘qimalarni butkul qoraytirib yuborgani bois fir‘avn qiyofasi faqat sof oltindan yasalgan tobutda saqlanib qoldi.

### **Tabobat**

Marhumlarni mumiyolash amaliyoti sababli misrliklar tabobat sohasida chuqur bilimlar orttirdilar, bu esa inson tanasining ichki tuzilishi bilan tanishuvga olib keldi. Bizgacha o‘nta asosiy tibbiy papirus yetib kelgan, ular yo ilk egalarining, yo saqlangan shaharlarining sharafiga nomlangan. Ulardan Ebersning katta tibbiy papirusi va Edvin Smitning jarrohlik papirusi eng qimmatlisi hisoblanadi. Misrlik tabiblar turli bezgaklar, ichburug‘, istisqo, bod, yurak, jigar, nafas yo‘llari xastaliklari, diabet, me‘daning ko‘pgina kasalliklari, yaralar va hokazolarni davolashgan. Edvin Smit papirusida bosh, tomoq, o‘mrov suyagi, ko‘krak qafasi, umurtqaning turli jarohatlari sanab o‘tilgan. Misrlik jarrohlar anchagina murakkab operatsiyalarga ham qo‘l urishgan.

Maqbaralardagi topilmalar guvohlik berishicha, misrliklar bronzadan yasalgan jarrohlik asboblarini ishlatganlar. Butun antik dunyoda misrliklar haqli ravishda eng yaxshi tabiblar va jarrohlar hisoblanishgan. Ular dorivor giyohlarning shifobaxsh xususiyatlaridan xabardor bo'lgan, ko'p hollarda aniq tashxis qo'yganlar, morfiy ishlatganlar, amalda sinovdan o'tgan davolash usullarini qo'llaganlar. Bilimlardagi yetishmovchilikni sehr-jodu bilan to'ldirishgan, ular ham ba'zan foyda bergan (har holda, bemorga ruhan dalda bergan). Qadimgi Misrliklar ishlatgan ayrim vositalar va davolash usullari zamonaviy tibbiyotda ham qo'llanmoqda.

### **Astronomiya**

Misrliklar asrlar davomida juda ko'p astronomik ma'lumotlar to'plab, ham uzoq, ham qisqa muddatli, yetarli darajada aniq meteorologik bashoratlar qilishgan. Masalan, o'rta podsholik astronomlari Misrda ko'rinadigan yulduzli osmon xaritasi tuzishgani ma'lum. Kohin-astronomlar quyosh tutilishlarini bashorat qilishgan, hattoki ular qancha muddat davom etishini bilganlar. Misr kuni 24 soatdan iborat bo'lib, vaqtni o'lchash uchun quyosh va suv soatlari qo'llanilgan. Bundan tashqari, astronomik jadvallardan foydalanib, tungi paytda yulduzlar holatiga qarab vaqt aniqlangan.

Misrliklarning turli sohalarda erishgan bilimlari antik, binobarin, Yevropa fanining taraqqiy etishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Yunonlar hamisha Misrga qadimgi donishmandlik o'lkasi sifatida qarashgan va misrliklarni o'z ustozlari deb hisoblashgan.

#### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

#### **Uy vazifasi.**

1. 10-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot**

Iyerogliflar – 750 ta – “xudolar kalomi”, “ilohiy bitiklar”, papirus

Jan Fransua Shampolyon (1822-yil);


Rozett bitiktoshi – qadimgi Misr va qadimgi

yunon tillari;

astronomiya → taqvim;

geometriya, matematika, tibbiyot;

“podsho tirsagi” – 52,5 cm.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 18-DARS. MESOPOTAMIYA SIVILIZATSIYALARI

### Dars maqsadlari:

- “davlat”, “notenglik paydo bo‘lishi”, “shahar-davlat” tushunchalarining izohlari ustida ishlashni davom ettirish va davlatlar tashkil topishi jarayonlari Sharqning boshqa mamlakatlarida ham o‘xshash tarzda yuz berganini ko‘rsatish;
- ikki daryo oralig‘idagi tabiiy sharoit xususiyatlarini va ularning Misr tabiiy sharoitlaridan farqlarini ko‘rsatish;
- ikki daryo oralig‘i aholisining xalq og‘zaki ijodi bilan tanishtirish va uning tarixiy voqelik bilan aloqasini ko‘rsatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 11-§, 43–47.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 7-b. Misr va Ikki daryo oralig‘i.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Mixxat yozuvi** – shumerlarning ponachalar ko‘rinishidagi qadimiy yozuvi.

**Shahar-davlat** – shahar va unga tutash qishloqlar.

**Podsho** – davlat hukmdori.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi:

1. Qadimgi misrliklar yozuvni qanday atashgan? (“ma’budlar kalomi”)
2. Qadimgi yunonlar misrliklarning yozuvini qanday atashgan? (iyerogliflar)
3. Yunoncha “iyeroglif” so‘zi qanday ma’no anglatadi? (“toshga chekilgan muqaddas bitik”)
4. Misr alifbosi qancha iyerogliflardan tashkil topgan? (750 ta)
5. Papirus nima? (papirus poyasidan tayyorlangan qog‘oz)
6. Qadimgi Misr iyerogliflarini kim va qachon o‘qishga muvaffaq bo‘lgan? (J. F. Shampolyon, 1822-yilda)
7. Shampolyon misrliklarning iyerogliflarini qanday qilib o‘qishga muvaffaq bo‘ldi? (Rozett bitiktoshidagi misr va yunon yozuvlarini solishtirib)

8. Misrda qo‘llangan asosiy o‘lchov birligi? (tirsak)
9. “Podsho tirsagi” nimaga teng? (52,5 cm)
10. Bir tirsak nechta barmoq yoki kaftlarga teng? (28 barmoq yoki 7 kaft)
11. Misrda yil hisobi nimaga asoslanib yuritilgan? (u podsho yoki fir‘avn hukmronlik qilishni boshlagan davrdan yuritilgan)
12. Misrda qanday asbob yordamida vaqtni bilishgan? (suv yoki quyosh soatlari)

### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Tabiiy sharoitlar.
2. Mesopotamiya aholisining mashg‘ulotlari.
3. Mesopotamiyaning qadimgi shahar-davlatlari.



### Dars mavzusi ustida ishlash.

#### O‘qituvchi dars matnini Gilgamish haqida rivoyatni hikoya qilib to‘ldirishi mumkin.

Gilgamish o‘z fuqarolariga sira o‘xshamas edi. Uning uchdan bir qismigina odam, uchdan ikki qismi esa ma‘bud edi va shuning uchun ham istalgan odamdan anchagina kuchli edi. To‘g‘ri, u dastavval kuchini qay yo‘sinda ishlatishni bilmas, shu bois Uruk aholisiga ko‘p ozor yetkazardi. Ular ma‘budlardan Gilgamishning jazosini berishni so‘rashdi. Ma‘budlar pahlavon Enkiduni yaratib, shahar yaqinidagi o‘rmonga qo‘yib yuborishdi. Gilgamish Enkiduni shaharga aldab olib kirib, u bilan jang qildi. Ammo ularning kuchi teng kelib, ikki qahramon do‘st tutinshdi. Ular birgalikda talay jasoratlar ko‘rsatishdi – Xumbabu degan qo‘rqinchli maxluqni o‘ldirishdi, bir sipqorishda Frotdagi hamma suvni yutib yuborishga va nafasi bilan yuzlab odamlarni halok qilishga qodir ulkan buqa ustidan g‘alaba qozonishdi.

Gilgamish qanchalar kuchli bo‘lmasin, baribir uning boshiga ham baxtsizlik va g‘am-g‘ussa tushdi. Uni Ishtar ismli iloha sevib qoldi, qahramonimiz uning muhabbatini rad etgach, iloha uni ta‘qib qila boshladi. Buyuk shohni birorta maxluq mag‘lub qilolmaydigandek tuyulardi. Ammo ma‘budlar undan o‘ch olishdi – uni do‘stidan mahrum etishdi. Enkidu dardga chalinib vafot etdi. O‘shandan buyon Gilgamishning yurak-bag‘ri ezilib, nuqul o‘lim haqida o‘ylaydigan bo‘lib qoldi. Oxir-oqibat u umrboqiylik izlab safarga otlandi.

U butun yer yuzini aylanib, ko‘plab ajabtovur mo‘jizalarni ko‘rdi, sehrli mavjudotlarni uchratdi. Keyinchalik sopol lavhalarga Gilgamish haqida doston bitildi. Gilgamish dunyoni keza-keza oxiri Ut-Napishti degan o‘lmas inson yashaydigan joyga yetib bordi. Ma‘budlar unga va xotiniga dunyo to‘fonidan omon chiqqanlarida mangu hayot hadya qilishdi. Gilgamish Ut-Napishtiga iltijo qilib,

umrboqiylik sirini ochishni soʻradi, ammo u avval kichik oʻlim – uyquni yengishni talab qildi. Gilgamish uyquni oson yengaman deb qaror qildi, ammo yerga oʻtirishi bilanoq toliqqan koʻzlari yumilib, yetti kun uxladi.

– Koʻrdingmi, – dedi unga Ut-Napishti, – oʻlimni yengolmaysan, ammo baribir senga bir buyuk sirni ochay. Ummon tubida abadiy yoshlik inʼom etuvchi gul oʻsadi. Uni topib kel.

Gilgamish oyoqlariga tosh bogʻlab, ummon tubiga shoʻngʻidi. U yerda moʻjaz gulni uchratdi va uning tikonlari barmoqlariga sanchilib, ogʻritganiga qaramay uni uzib oldi, tosh bogʻlangan arqonni kesib yuborib, suv betiga koʻtarildi. U maqsadimga yetdim, endi uyga qaytsam boʻlar deb oʻyladi. Biroq Gilgamish sahroni kesib oʻtayotganida koʻlda choʻmilib orom olishga qaror qildi. Qahramon choʻmilayotgan paytda allaqayerdan ilon paydo boʻlib, sehrli gulni olib qochdi.

Shundan soʻng Gilgamish oʻz fuqarolari kabi vaqti-soati yetganda qazo qilishini tushunib yetdi. Ammo ilonlar oʻsha vaqtdan buyon abadiy yoshlik siridan voqif: ular qarigach poʻst tashlab, yana yosh holiga qaytadi.

### Darsga yakun yasash.

1. Oʻqituvchi darsga yakun yasab, oʻquvchilarning yozma ishlari va ogʻzaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni eʼlon qiladi.

2. Oʻqituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 11-§ boʻyicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

2. Oʻrganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

3. Keyingi darsda oʻrganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## Intellekt-xaritani yaratish va tarix boʻyicha sinfdan tashqari toʻgarak ishi uchun qoʻshimcha maʼlumot

### Mesopotamiya sivilizatsiyalari

Mesopotamiya – Dajla va Frot


(Ikki daryo) oraligʻi

Mil. avv. 4-mingyillik – ilk shaharlar –

Shumer va Akkad

Mina – ogʻirlik oʻlchovi, 550 gr.

Mixxat – yozuv



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja boʻyicha sana						
Amalda						



## 19-DARS. MESOPOTAMIYA SIVILIZATSIYALARI

### Dars maqsadlari:

– “davlat”, “notenglik paydo boʻlishi”, “shahar-davlat” tushunchalarining izohlari ustida ishlashni davom ettirish va davlatlar tashkil topishi jarayonlari Sharqning boshqa mamlakatlarida ham oʻxshash tarzda yuz berganini koʻrsatish;

– Ikki daryo oraligʻi aholisining xalq ogʻzaki ijodi bilan tanishtirish va uning tarixiy voqelik

bilan aloqasini ko'rsatish;

- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- tarixiy manbalar va adabiyot bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'z fikrini tarixiy xaritalar va qo'shimcha tarixiy ma'lumotlar bilan izohlash, qo'shimcha manbalar, shu jumladan, badiiy adabiyotdan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

#### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 11-§, 43–47-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 7-b. Misr va Ikki daryo oralig'i.
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

#### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Mixxat** – shumerlarning ponachalar ko'rinishidagi qadimiy yozuvi.

**Shahar-davlat** – shahar va unga tutash qishloqlar.

**Podsho** – davlat hukmdori.

**Gilgamish** – Ikki daryo oralig'i qahramoni, tarixiy shaxs, Uruk shahri podshosi.

#### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Yangi mavzuning mazmuni.**

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

#### **Dars rejasi:**


1. Gilgamish.
2. Akkadning yuksalishi.

#### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

#### **Topshiriq.**

**Quyidagi atamalarning to'g'ri izohlarini yozing.**

<b>Mixxat yozuvi</b>	shumerlarning ponachalar ko'rinishidagi qadimiy yozuvi
<b>Shahar-davlat</b>	Uruk, Eridu, Lagash, Ur
<b>Ikki daryo oralig'i</b>	Dajla va Frot daryolari oralig'idagi voha
<b>Akkad</b>	shumerlarning Mesopotamiya shimolidagi shahri
<b>Shumer</b>	shumerlarning Mesopotamiya janubidagi shahri
<b>Mina</b>	og'irlik o'lchovi
<b>Zikkurat</b>	xom g'ishtdan qurilgan ko'p pog'onali zinapoyali inshoot
<b>Suv ma'budi</b>	Ea
<b>Dehqonchilik, sevgi va urush ilohasi</b>	Ishtar
<b>Gilgamish</b>	Ikki daryo oralig'i rivoyatlari qahramoni
<b>Sargon I</b>	Uruk shahrining podshosi
<b>Shamash</b>	Quyosh ma'budi
<b>Oy ma'budi</b>	Sin



**O'qituvchi darslik matnini Uruk va Akkad shaharlari haqida hikoya bilan to'ldirishi mumkin.**

Uruk – (hozirgi Al-Uarka shahar-qal'asi) mil. avv. 3-mingyillikda shumerlar va bobilliklarning Janubiy Ikki daryo oralig'idagi shahar-davlati bo'lib, eng qadimgi hisoblanadi. Frot daryosining hozirgi oqimidan sharqda, uning qurigan qadimgi o'zanida, zamonaviy As-Samava shahridan (Mutanna, Iroq) taxminan 30 km masofada joylashgan.

Aynan Uruk miloddan avvalgi 4-mingyillik o'rtasida Janubiy Mesopotamiyaning ilk shahriga aylandi. Uning atrofida ko'tarilgan devor esa Uruk qishloq emas, balki shaharga aylanganidan darak beradi. Shaharda 60 mingga yaqin odam istiqomat qilgan. Shahar Janubiy Mesopotamiyaning diniy va harbiy markazi edi. Uruk yuksalgan davrda – taxminan mil. avv. 2900-yilda uning shahar devorlari ichida 6 km. kv. keladigan maydonda yashagan aholisi 50–80 ming kishiga yetgan edi. Shahar insoniyat tarixida qolganlaridan ko'proq vaqt (2,5 ming yildan ortiq) davomida aholi soni bo'yicha eng yiriklaridan biri bo'lib kelgan.

Mil. avv. XXII asr oxirida Uruk podshosi Utuxengal Ikki daryo oralig'ida birlashgan “Shumer va Akkad podsholigi”ni barpo etdi. Uning vafotidan so'ng hokimiyat Urning III sulolasi asoschisi Ur-Nammga o'tdi. Uruk mil. avv. 1-mingyillik oxiriga qadar muhim shahar bo'lib qolgan.

Bobilistonning arabcha nomi – Iroq aynan “Uruk” so'zidan olingan. Shumer tilida “uru” so'zi “shahar, qishloq, o'lka” ma'nosini anglatgan.

Akkad – Janubiy Mesopotamiyaning shimoliy qismidagi, hozirgi Iroq hududida joylashgan qadimgi o'lka. Bobilistonning shimoliy qismiga to'g'ri keladi (janubiy qismi “Shumer” sifatida ma'lum edi). Akkad podsholigining poytaxti – yo'qolgan shahar Akkad sharafiga nomlangan.

Bundan ham qadimgi shumercha nomi – Ki-Uri. XIX asrda tadqiqotchilar Akkad viloyati sharafiga akkad tiliga va bu tilda so'zlashuvchi aholi – akkadlarga nom berishgan. U janubda Janubiy Mesopotamiyaning boshqa viloyati – Shumer bilan chegaradosh edi.

Urning III sulolasi davrida ikkala hudud bir davlat doirasida birlashtirildi, “Shumer va Akkad podshosi” unvoni esa Janubiy Mesopotamiya ustidan hukmronlikni anglatardi. Keyingi davrda Bobil va Ossuriya hukmdorlari o'zlarini Shumer va Akkad podsholari deb e'lon qilishgan.

O'sha davrda ko'p davlatlar yurishlar orqali zabt etilgan. Akkad ham shu tarzda, podsho Sargon yurishi natijasida paydo bo'ldi. U sharqda yashagan shumerlar va somiyalar (akkadlar) hududlarini o'z saltanatiga birlashtirdi. Bundan tashqari, qo'shni mamlakatlar yerlari va Qadimgi Mesopotamiya ham Sargon qo'l ostiga o'tdi. Davlat Sargonning nabirasi Naram-Suene hukmronligida o'z qudratining

cho‘qqisiga erishdi. Bundan sal avval (mil. avv. XXIII asr oxiri) uning hududi gutiylar (tog‘ qabilasi) hukmiga o‘tdi.

Aynan Akkad davlati mavjudligi davrida davlat tizimi asoslari shakllanib, ular Mesopotamiya hududidagi keyingi yirik davlatlar: avvaliga Shumer-Akkad podsholigi, so‘ng Bobiliston va Ossuriyada qo‘llandi.

Akkad o‘sha davrda mavjud davlatlar orasida eng yirigi hisoblangan. U O‘rtayer dengizidan Fors ko‘rfazigacha bo‘lgan yerlarni, shuningdek, Finikiya, Suriya, Kichik Osiyoning chegara hududlari va Mesopotamiyani o‘z ichiga olgan edi. Bu podsholik parchalangandan so‘ng hududni Bobil ishg‘ol etgani sababli Shumer va Akkad o‘zgacha – Bobiliston deb nom oldi.

### Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 11-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot

#### Mesopotamiya sivilizatsiyalari

Ilk shaharlar – Uruk, Eridu, Lagash, Ur;


Zikkurat – xom g‘ishtdan qurilgan ibodatxonalar – rasadxonalar;

Ma‘budlar – Shamash – Sin – Ishtar – Ea;

Gilgamish – Uruk shahri podshosi,

Sargon I – Mesopotamiya podshosi;

Mil. avv. 2-mingyillik – Shumer-Akkad davlatining parchalanishi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



### 20–21-DARS. BOBIL PODSHOLIGI

#### Dars maqsadlari:

- Xammurapi qonunlarining aniq misollarida podsho nafaqat o‘zining, balki barcha quldorlarning manfaatlarini himoya qilganini ko‘rsatish;
- o‘quvchilarni bobilliklarning ilmiy yutuqlari bilan tanishtirish, Bobil minorasi qurilishi va bu

bilan bog‘liq rivoyatlar haqida hikoya qilish;

– tarixiy voqealarni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash, shuningdek, o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlardan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lash ko‘nikmalarini hosil qilish;

– o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;

– mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;

– umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 12-§, 48–51-b.

2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 6-b. Mil. avv. XVIII asrda Babil podsholigi.

3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

Babil qadimgi shumer tilida “xudolar darvozasi” ma’nosini bildiradi.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

1. Mesopotamiya hududidan qanday daryolar oqib o‘tgan?

(Dajla va Frot)

2. Mesopotamiya so‘zi yunonchadan qanday tarjima qilinadi?

(Ikki daryo oralig‘i)

3. Ikki daryo oralig‘i aholisi dastlab uning qaysi qismida yashagan?

(janubiy)

4. Mesopotamiya janubida yashagan xalqlar qanday atalgan?

(shumerlar)

5. Mesopotamiya shimolida yashagan xalqlar qanday atalgan?

(akkadlar)

6. Shumerlar va akkadlar Mesopotamiyaga nechanchi mingyillikda ko‘chib joylashganlar? (mil. avv. 3-mingyillik boshida)

7. Mesopotamiya aholisi qaysi daraxtni “hayot daraxti” deb atagan?

(xurmo daraxti)

8. Mesopotamiya aholisining asosiy mashg‘uloti nima bo‘lgan?

(dehqonchilik)

9. Mesopotamiyaning ilk shaharlarini ayting.

(Uruk, Eridu, Lagash, Ur)

10. Qaysi podsho butun Shumerning hukmdoriga aylandi?

(Sargon)

11. Shamash – bu...

(Quyosh ma’budi)

12. Oy ma’budi qanday atalgan?

(Sin)

13. Suv ma'budi qanday atalgan?

(Ea)

14. Ishtar – bu ...

(dehqonchilik, hosildorlik va sevgi, shuningdek, urush va g'alabalar ilohasi).

15. Mesopotamiyada qanday rivoyat vujudga keladi?

(daryolar toshishi sababli yer yuzini to'fon bosishi haqida)

16. Gilgamish – bu ...

(Uruk shahri podshosi)

Yangi mavzuning mazmuni.


O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

Dars rejasi:

1. Babil – “xudolar darvozasi”.
2. Xammurapi qonunlari.
3. Yangi Babil podsholigi.
4. Babil madaniyati.



Dars mavzusi ustida ishlash.



**O'qituvchi darslik matnini bobilliklarning bosh xudosi Marduk yashagan Bobilning bosh ibodatxonasi haqida hikoya bilan to'ldirishi mumkin.**

Babilning bosh ibodatxonasi podsho saroyi oldida joylashgan edi. Ibodatxonaga muqaddas marosimlar yo'li olib borardi. Bu yo'lni rang-barang koshinlar bilan qoplangan devorlar to'sib turardi. Yo'lda afsonaviy jonivorlar: sher, ajdar, yarim sher-yarim qush ko'rinishidagi afsonaviy maxluqlar tasvirlangan edi. Begim kunlari bu yerda hech kim yurolmasdi, negaki u o'limga hukm qilinardi. Ammo xudolarga bag'ishlangan bayram kunlari podsho koshinlar bilan birga dabdabali liboslarda yo'l bo'ylab yurib, ibodatxonaning eng tepasiga chiqar va u yerda qurbonliklar keltirardi.

Ibodatxona ichkarisida Bobilning bosh xudosi Mardukning haykali joylashgan edi. Yangi yil kuni podsho bu yerga kohinlar bilan birga tashrif buyurib, Mardukka o‘z ishlari haqida hisobot berardi.

Bu yerda podshoga, uning ilohiy kelib chiqishiga qaramay, dunyoni baribir Marduk boshqarishi haqida eslatib qo‘yishardi. Bosh kohin podshodan tantanali ravishda saltanat asosi, uzuk va tojni olib qo‘yardi. Bu ham mayliga, podshoga yana tarsaki urishardi. Shundan so‘ng podsho tiz cho‘kib, Mardukka o‘tgan yili Bobilni yaxshi va adolatli boshqargani haqida so‘zlab berardi. Keyin podsho yana bir marta tarsaki yeb, o‘z hokimiyati nishonlarini qaytarib olardi. Agar tarsaki zarbidan ko‘zlaridan yosh chiqib ketsa, bu yilgi hosil mo‘l kelishini hamma bilardi. Shundan keyin podsho saroyga qaytib, o‘zi xohlagancha boshqaraverardi. Ammo mahobatli minora – Marduk uyi – saroy yonida bejiz joylashmagan edi. U hukmdorga kohinlar bilan hisoblashish zarurligi haqida eslatib turardi.

Bobilda bo‘lgan sayohatchilar uyga qaytib, buyuk ibodatxona va uning qudratli kohinlari haqida hikoya qilishardi. Shu zaylda hamma osmonu falakka bo‘y cho‘zgan ulkan minora haqida bilib oldi. Ehtimol, Bobil minorasi va osmonga chiqmoqchi bo‘lgan odamlar haqida rivoyat shundan qolgandir? Ammo kohinlar – dono kishilar va ko‘kka talpinmaganlar. Ularning yerda qiladigan ishlari ko‘p edi.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.

2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 12-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot**

Bobil podsholigi

Bobil – “xudolar darvozasi”

Mil. avv. 2-mingyillikda tashkil topgan;


Bosh ko‘cha – Ishtar darvozasi;

Zikkuratlar – Bobildagi rasadxonalar;

Mil. avv. XVIII asr – Xammurapi Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirdi;

Xammurapi qonunlari – qat‘iy;

Bobil – kassiy qabilalari tomonidan bosib olindi.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 22-DARS. OLD OSIYO DAVLATLARI

### Dars maqsadlari:

- o‘quvchilarni Old Osiyodagi eng yirik davlatlarning rivojlanish tarixi bilan tanishtirish;
- doimiy ichki urushlar oddiy xalqni xonavayron qilib, davlatlarning o‘zini halokatga olib kelishini ko‘rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma‘naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 13-§, 52–54-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 6-b. Finikiya.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

Ko‘chmanchilar – doimiy yashash joyiga ega bo‘lmagan, bir yerdan boshqa yerga ko‘chib yuruvchi qabilalar.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

1. Qaysi mingyillikda Bobil podsholigi Mesopotamiyaning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi?  
(mil. avv. 2-mingyillik)
2. “Bobil” so‘zi nimani anglatadi?  
(“xudolar darvozasi”)
3. Mil. avv. XVIII asrda Mesopotamiyani yagona davlatga birlashtirgan hukmdor nomini ayting.  
(Xammurapi)
4. Qaysi podsho hukmronligida Bobil eng qudratli davlatga aylandi?  
(Xammurapi hukmronligida)
5. Xammurapi qonunlari avvalgi qonunlardan nimasi bilan farq qilgan?  
(qonunlar hamma uchun barobar edi)
6. Xammurapi qonunlari hamma tanishishi uchun qay ko‘rinishda namoyishga qo‘yilgan edi?  
(tosh ustunlarga o‘yib yozilgan)
7. Mesopotamiyada nimaga yozishgan?

(pishmagan loyga)

8. Mesopotamiya aholisining yozuvi qanday atalgan?

(mixxat)

9. Bobildagi qaysi inshootni yunonlar dunyoning yettinchi mo'jizasi deb sanashgan? ("Semiramidaning muallaq bog'lari")

10. Bobilni ishg'ol qilib, 300-yil boshqargan qabilalar nomini ayting.

(kassiyalar)

11. Qaysi podsho hukmronligida Yangi Bobil podsholigi yuksalish cho'qqisiga erishgan? (Navuxodonosor II hukmronligida)

12. Bibliyada eslatilgan Bobil minorasi chindan ham mavjud bo'lganmi?

(ha)

### Yangi mavzuning mazmuni.


O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

1. Ossuriya podsholigi.
2. Urartu davlati.
3. Finikiya va Falastin.



### Dars mavzusi ustida ishlash.





### **O‘qituvchi darslik matnini Ashshurbanipal kutubxonasi haqida hikoya bilan to‘ldirishi mumkin.**

1849-yilda ingliz sayohatchisi G. A. Leyyard Dajla daryosi yonidagi tepalikda qazishmalarni boshlab yubordi. Bu yerda u podsho Ashshurbanipal saroyining xarobalarini topdi.

Saroy darvozasini kallasi odamniki bo‘lgan ulkan buqalar haykallari qo‘riqlardi. Xonalarning devorlari harbiy yurishlar va sher ovlash manzaralari tasvirlangan bo‘rtma rasmlar bilan bezatilgan edi.

Qolgan topilmalar orasida saroyda qariyb 30 ming sopol taxtacha bor edi. Ular deyarli yarim metrlik qatlamni hosil qilgan edi. Barcha taxtachalar ponasimon (uchburchaksimon) shakldagi mayda belgilarga to‘la edi. Belgilar pishmagan loyda yozilgan bo‘lib, yaxshiroq saqlanishi uchun pishirilgan yoki quyoshda quritilgan edi.

Qadimgi ossuriyaliklar va ularga yaqin boshqa xalqlarning yozuvi “mixxat” deb nom olgan. Bu yozuvning har bir belgisi ponachalarning turli birikmalaridan iborat bo‘lib, tovush, bo‘g‘in yoki so‘zni anglatadi.

Avvaliga Leyyard topilmasiga e‘tibor berishmadi: mixxatni hali o‘qiy olmasdilar. Shu sababli taxtachalar Londondagi Britaniya muzeyida saqlandi.

Topilmaning naqadar qimmatli ekani olimlar mixxatni o‘qishga muvaffaq bo‘lgandagina oydinlashdi – bu butun boshli kutubxona ekan. Har bir shunday “kitob” alohida “varaqlar” – bir xil o‘lchamdagi taxtachalardan iborat. Har bir taxtachada kitob nomi yozilgan bo‘lib, “varaqlar” raqami qo‘yilgan. Kitoblar kutubxonada qat‘iy tartibda joylashtirilgan, kataloglar – kitob nomlari va har bir taxtachadagi satrlar qatori ko‘rsatilgan ro‘yxatlar bor. Hozirgi kutubxonaga o‘xshab, har bir sopol “varaqlar”ga “Dunyo podshosi, Ossuriya podshosi Ashshurbanipal saroyi” deb yozilgan kutubxona muhri bosilgan.

#### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

#### **Uy vazifasi.**

1. 13-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## Intellekt-xaritanı yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

### Old Osiyo davlatlari

Xett podsholigi – mil. avv. XVIII asrda tashkil topgan (hozirgi Turkiya);

Poytaxti – Xattusa – xetlar – Suriya, Babil bilan urush qilishgan;

Mitanni podsholigi (hozirgi Suriya) – Xett podsholigini bosib olgan – Tir, Sidon, Ugarit – Afrika, Ispaniya va Sitsiliyada koloniyalar yaratishgan;

Urartu – Kavkazortida – Van, Urmiya, Sevan ko'llari orasida – poytaxti Tushpa – eng katta Teyshebaini qal'asi – skiflar va Mitanni podsholigi bosib olgan;

Ossuriya podsholigi – Dajla va Frot daryolari oralig'ida – poytaxti avvaliga Ashshur, so'ngra Nineviya;

Salmanasar – yuksalish cho'qqisi. Ashshurbanipal – mixxatda yozilgan katta kutubxona yaratgan.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 23-DARS. AHAMONIYLAR DAVLATI

### Dars maqsadlari:

- Ahamoniy davlati aholisining hayotiga ta'rif berish;
- Fors davlatining vujudga kelishi tarixi va uning qulashi sabablari haqida hikoya qilish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 14-§, 55–57-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlası, 6-sinf, 10–11-b. Ahamoniy davlati (mil. avv. VI–V asrlar).
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Kassiyar, elamiylar, midiyaliklar, forslar** – Fors davlati hududida yashagan qadimgi qabilalar.

**Darik** – mil. avv. VI asrda Doro I tomonidan Fors davlatida muomalaga kiritilgan oltin tanga.

**Satrapliklar** – Doro I o'z davlatini bo'lib chiqqan alohida harbiy-ma'muriy o'lkalar.

### Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

1. Eron aholisi va davlatlari.
2. Qadimgi davlatlar.
3. Kir II – Fors hukmdori.
4. Doro I islohotlari.
5. Qadimgi forslar madaniyati.




### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi:

1. Old Osiyo hududida ilk yirik va qudratli davlatlar qachon vujudga kelgan? (mil. avv. 2-mingyillik o‘rtasida)
2. Mil. avv. 2-mingyillikdagi Old Osiyo davlatlarini sanab o‘ting (Xett, Mitanni, Ossuriya, Van, Urartu).
3. Xett davlati qaysi asrda vujudga kelgan? (mil. avv. XVIII asr)
4. Xett davlati qaysi zamonaviy hududni egallagan? (Turkiya)
5. Xett davlatining poytaxtini ayting. (Xattusa)
6. Old Osiyo xalqlaridan qaysi biri temirni qazib olib, ishlov berishni bilgan? (xettlar)
7. Mitanni davlati qaysi zamonaviy hududda joylashgan edi? (Suriya hududida)
8. Xett davlatini kim va qachon vayron qildi? (mil. avv. XIII asr oxirida “dengiz xalqlari”)
9. Ossuriya poytaxtini ayting. (Ashshur)
10. Ossuriya davlati qachon tashkil topgan? (mil. avv. XX asr)
11. Qaysi asrda Ossuriya davlati eng katta qudratga erishgan? (mil. avv. XIII asr)
12. Ossuriyaliklar mil. avv. VII–VI asrlarda qaysi shaharlarni zabt etishgan? (Bobil, Bibl, Tir, Sidon)
13. Ossuriya poytaxti Nineviya qanday atalgan? (“sherlar makoni”)
14. Nineviyaning qaysi hukmdori davrida Old Osiyoda eng yirik kutubxona yaratilgan? (Ashshurbanipal hukmronligida)
15. Ossuriya qachon parchalangan? (mil. avv. 605-yilda)



## Dars mavzusi ustida ishlash.



### O'qituvchi darslik matniga qo'shimcha ravishda bu mavzuni batafsil yoritishi mumkin.

1767-yilda Daniya qiroli Frederik I xizmatida bo'lgan gannoverlik Karsten Nibur Old Osiyo mamlakatlari bo'ylab yetti yillik sayohatdan qaytadi. U Yevropaga "Arabiston va unga qo'shni o'lkalar"ning qadimgi yodgorliklari haqida o'sha davrda katta shov-shuv uyg'otgan ma'lumotlarni – Sherozdan shimoli-sharqda yetti milya masofada topilgan mixxat matnlari nusxalarini olib keldi. Bu yerda 1620-yilda bo'lgan ispan sayohatchisi Don Garsiadan so'ng kelgan Nibur Sherozdagi shaharning ulkan xarobalari Persepol ekanligini tushundi. Persepol – Fors davlatining mashhur poytaxti bo'lib, u Makedoniyalik Aleksandr tomonidan yoqib yuborilgan edi.

Ahamoniylar sulolasi namoyandasi – shahanshoh Doro I Eronni 36 yil boshqargan. Mil. avv. 500-yillarda uning hukmronligi o'z cho'qqisiga yetdi. Fors podsholigi Old Osiyoda qaror topib, undan tashqaridagi ko'p hududlarni ishg'ol qildi. Bobiliston, Ossuriya, Kichik Osiyo, Misr, Midiya, Armaniston, Suriya va O'rta Osiyo uning tarkibiga kirdi. Ahamoniylar Eronning hukmronligi qisqa muddat davom etdi (mil. avv. 539–330-yillar).

Taxminan mil. avv. 515-yilda Doro farmoyishiga ko'ra Sherozdan 80 kilometr masofadagi Marv-Dasht yassi tog'ligida, Qo'hi Rahmat tog'i ("Marhamat tog'i") tagida Pars yoki yunonlar Persepol ("forslar shahri") deb atagan yangi poytaxt bunyod etildi. U ulkan Ahamoniylar davlatining qudrati va dovruq'ining timsoliga aylandi. Bu shaharning nomi bo'yicha avval yunonlar, so'ng qolgan dunyo Eronni Fors deb atadi. Ammo 1936-yilda Eron hukumati barcha hukumatlarga mamlakatni Eron deb atashni so'rab murojaat qildi. O'rta asrlarda Persepol xarobalari eron dostonining afsonaviy qahramoni sharafiga Taxti Jamshid – "Jamshid taxti" deb atalgan.

Shahar yarim asrdan oshiq vaqt qurildi. Har yili bu yerda uch mingdan ziyod odam, shu jumladan, yuzlab harbiy asirlar mehnat qilardi. Ulkan saltanatning barcha burchaklaridan – Bobil,

Kichik Osiyo, Misr va Midiyadan Persepolga eng yaxshi toshtaroshlar, quruvchilar, haykaltaroshlar, o‘ymakorlar olib kelindi. Natijada Eron poytaxti o‘z ko‘lami-yu muhtashamligi bilan Sharqning boshqa mamlakatlarida yaratilgan hamma shaharlarni dog‘da qoldirdi.

Persepol binolari 135 ming kvadrat metr hududni ishg‘ol qilgan edi. Shahar uchta tomondan qo‘shaloq qal‘a devori bilan o‘rab olingan edi (to‘rtinchi tomonida chiqib bo‘lmas tog‘ qoyasi yuksalib turardi), shahar ichida podshoning to‘q kulrang ohaktoshdan qurilgan qarorgohi, ko‘plab xo‘jalik inshootlari, “o‘lmaslar” gvardiyasining askarxonalari, otxonalar joylashgan edi. Bu inshootlarning barchasi, atrof tekislik uzra 13 metrga yuksalib turgan va bahaybat bloklar bilan qoplangan, 500x300 metr maydonni ishg‘ol qilgan ulkan sun‘iy terrasada o‘rnatilgan edi.

Persepol devorlarining qalinligi 4,5–5,5 metr, balandligi 11,5–15 metr kelardi. Katta-katta oq ohaktosh bloklaridan ishlangan 111 pog‘onali keng dabdabali zinapoyadan shaharga ko‘tarilish mumkin edi. Zinapoya to‘rtta ulkan odamsimon buqa tasvirlari bilan bezatilgan “To‘rt iqlim darvozasi”ga olib borardi. Terrasaning janubi-g‘arbiy burchagida joylashgan darvoza orqali hayvonlar, mahsulotlar va hokozolar olib kirilardi.

Persepolning markaziy inshooti “apadana” deb ataladi. Fors me‘morlarining antiqa asari – buqalar ko‘rinishidagi haykalchalar bezab turgan yengil ustunlari bo‘lgan dabdabali zal shunday nom oldi.

Qadimgi dunyoning eng muhtasham binolaridan biri deb ataladigan Apadana qurilishi mil. avv. 492-yilda Doro I hukmronligida boshlanib, faqat mil. avv. 481-yilda yangi podsho Kserks I davrida bitkazilgan. Keyinchalik arxeologlar poydevordan har biri 9,6 kilogramm keladigan, uch tilda mixxtat yozuvlari bitilgan oltin va kumush garov taxtachalarini topishdi. Bu matnlarda aytilishicha, bino qurilishi Doro I farmoni bilan boshlangan, garchi Apadana zinapoyasidagi yozuvlarda uni Kserks qurgan deyilgan edi. Apadananing tashqi devorini bezab turgan sirlangan g‘ishtlarda Kserks otasi boshlagan ishni yakunlagani haqida ma‘lum qiladi.

Apadanani podsho tansoqchilari tasvirlangan mashhur sirlangan friz (keng naqshli yo‘l, hoshiya) bezab turadi. U endilikda Luvrda saqlanadi. Yunonlar Doroning bu tansoqchilarini “o‘lmaslar” deb atashgan, chunki ularning soni doimo o‘n ming nafar bo‘lgan. Bu kuchli va ehtirossiz jangchilarning qiyofalari xuddi Ahamoniylar Eroni san‘ati kabi tantanavor bo‘lib, ularda Ossuriya saroy san‘atiga xos shafqatsizlikdan asar ham ko‘rinmaydi.

Zinapoyani bezab turgan bo‘rtma suratlar ham xuddi shunday tantanavor tarzda ishlangan. Ularda xuddi bir andozada kesilganday deyarli bir xil jangchilar: nayza va o‘q-yoy bilan qurollangan elam askarlari, nayza va qalqon ko‘targan fors “o‘lmaslari”, akinak deb atalgan kalta qilich va o‘q-yoy bilan qurollangan midiyaliklar tasvirlangan. Elam asrkarlari ortida podsho taxtini ko‘tarib ketayotgan, otlar mingan va jangovar aravalarni boshqarayotgan jangchilar ko‘rinib turadi.

Boshqa bo‘rtma suratlarda bir necha qavat qilib, bo‘ysundirilgan 33 xalq yurishi tasvirlangan. Ularning har birini satrap – asilzoda forslar orasidan tayinlangan viloyat hukmdori boshlab bormoqda. Agarda barcha bo‘rtma suratlar bir chiziqqa tortilsa, uzunligi 400 metrga yetgan bo‘lard.

Bu yerda uzun libos va baland tishsimon tiara (podsholarning bosh kiyimi) kiygan Doro I tasviri ham saqlanib qolgan. Tiara bir vaqtlar zarvaraq bilan qoplangan edi. Hukmdorning yonida xuddi shunday uzun libos va podshonikidan kaltaroq tiaralar kiygan ikki zodagon fors tasvirlangan. Kserks saroyi esa qarorgohning sharqiy qismini band etgan. U o‘z me‘moriy uslubiga ko‘ra Doro saroyiga o‘xshab ketadi, taomlar ko‘targan xizmatkorlar esa Doro saroyining peshtoqida tasvirlangan xizmatkorlardan unchalik farq qilmaydi. Kserks hukmronligida Persepolida podsho oilasiga mansub ayollar yashagan haram barpo etilgan edi.

Oʻrta asrlarda Persepol saroyi bir muddat mahalliy amirlar qarorgohi boʻlib xizmat qilgan, ammo keyinroq batamom huvillab, ulugʻvor xarobalar orasida qoʻy-qoʻzilar oʻtlab yurardi. Qadimgi inshootlarning aksariyati kabi, Doro saroyi mahalliy aholi uchun tosh koni vazifasini oʻtagan. Yillar oʻtgan sari u tobora vayron boʻlib borar, faqat 1931–1934-yillardagina Ernst Hersfeld Chikago universiteti qoshidagi Sharq instituti topshirigʻiga binoan saroy xarobalarini birinchi marta jiddiy oʻrganib chiqdi. Bu tadqiqot tufayli saroy xarobalarini batamom vayron boʻlishdan asrab qolish uchun samarali choralar koʻrildi. Bugun Persepol eng puxta oʻrganilgan qadimgi shaharlardan biridir.

### **Darsga yakun yasash:**

1. Oʻqituvchi darsga yakun yasab, oʻquvchilarning yozma ishlari va ogʻzaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni eʼlon qiladi.
2. Oʻqituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. Ahamoniylar davlati konturli xaritasini toʻldirish (8–9-b.).
  2. 14-§ boʻyicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
  3. Oʻrganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
- Keyingi darsda oʻrganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## **Intellekt-xaritani yaratish va tarix boʻyicha sinfdan tashqari toʻgarak ishi uchun qoʻshimcha maʼlumot**

### **Ahamoniylar davlati**

Mil. avv. VI asrda Eron hududida vujudga kelgan Kassiyalar, elamiylar, midiyaliklar, forslar yashagan;

Poytaxti – Suza, yirik shahri – Elam;

Mil. avv. 558-yil – Kir II Fors podshohligiga asos solgan Midiya, Lidiya va Bobilni bosib olgan;

Kir II – Toʻmaris bilan jang;


Doro I – Shiroq jasorati;

Satrapliklar – forslar qoʻl ostidagi Oʻrta Osiyo hududlari;

Kambiz II – Misrni bosib olgan;

Shaharlar – Suza, Ekbatana, Persepol;

Mil. avv. 330-yil – Ahamoniylar davlatini Makedoniyalik Aleksandr bosib olgan.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 24-DARS. QADIMGI HINDISTONDAGI ILK SIVILIZATSIYA

### Dars maqsadlari:

- Hindiston tabiiy sharoitlarini ta’riflab, boshqa mamlakatlar tabiati bilan o‘xshashligini qayd etish va bu mamlakatning o‘ziga xosligini ko‘rsatish;
- notenglik va davlat vujudga kelishining asosiy qonuniyatlari boshqa davlatlarniki bilan o‘xshash bo‘lganini ko‘rsatish;
- hindlarning diniy e’tiqodlarini ta’riflash va mamlakatning kastalarga bo‘linishi sababini ko‘rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘shishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 15-§, 58–61-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 12-b. Hindiston va Xitoy qadimgi davrlarda.
3. Konturli xaritalar, 6-b. Hindiston va Xitoy qadimgi davrlarda.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Moxenjodaro** – Hindistondagi eng yirik shahar qoldiqlari.

**Kastalar (varnalar)** – qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug‘ullanishiga qarab ajratilgan to‘rt guruh.

**Kohinlar** – muqaddas kitoblarni izohlagan ruhoniylar.

**“Hazar qilinadiganlar”** – tabaqalardan birortasiga ham mansub bo‘lmaganlar; eng bulg‘anch ishlarni bajarganlar.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang.

### O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.


### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e’lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Qadimgi Hindiston hududi va aholisi.
2. Hind vodiysidagi eng qadimgi shaharlar.
3. Diniy e'tiqodlar.
4. Hind kastalari.

### Dars mavzusi ustida ishlash (darslik matni bo'yicha).



### Topshiriq.

Quyidagi atamalarning to'g'ri izohlarini yozing.

<b>Moxenjodaro</b>	Hindistondagi eng yirik shahar qoldiqlari
<b>Xarappa</b>	Hindistondagi eng yirik shahar qoldiqlari
<b>Kastalar (varnalar)</b>	qadimgi hindlar qanday yumushlar bilan shug'ullanishiga qarab ajratilgan to'rt guruh
<b>Kohinlar</b>	muqaddas kitoblarni izohlagan ruhoniylar
<b>"Hazar qilinadiganlar"</b>	tabaqalardan birortasiga ham mansub bo'lmaganlar; eng bulg'anch ishlarni bajarganlar

### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 15-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. Konturli xaritaning bir qismi – Hindiston to'ldirilsin.
3. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
4. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

### Hindiston mil. avv. 1-mingyillikda:

Mil. avv. VII–VI asrlar – Magadha, Koshala, Malla davlatlari vujudga kelgan;

Mil. avv. 327-y. – Makedoniyalik Aleksandr Shimoliy Hindistonni bosib olgan;

Mil. avv. 318-y. – A. M. Chandragupta makedoniyaliklarni quvg'in qilib, Maurya davlatiga asos soldi. Poytaxti – Pataliputra. Chandragupta vafotidan so'ng Hindiston Kushon podsholigi hukmdorlari tomonidan zabt etilgan.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 25-DARS. QADIMGI HINDISTON MADANIYATI

### Dars maqsadlari:

- turli kastalarga ajratilgan hind jamiyati qanday barpo etilgani bilan tanishtirish;
- jabr-zulm va haqsizlikka qaramay, hind xalqi qadimdayoq yuksak madaniyat yaratgani haqida o'quvchilarga tushuncha berish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 16-§, 62–65-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 12-b. Hindiston va Xitoy qadimgi davrlarda.
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Budda** – Siddhartha Gautamaning ikkinchi ismi, “ma'rifatlangan” ma'nosini bildiradi.

**Buddaviylik** – mil. avv. VI asrda Hindistonda Siddhartha Gautama tomonidan asos solingan diniy ta'limot.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.


1. Hindiston qaysi yarim orolda joylashgan? (Hindiston yarim orolida)
2. Hindiston hududidan qanday daryolar oqib o'tadi? (Hind va Gang)
3. Hindistonda qaysi mingyillikda shaharlar va davlatlar paydo bo'lgan? (mil. avv. 3-mingyillik)
4. Shimoliy Hindistonning eng yirik shaharlarini ayting. (Moxenjobaro va Xarappa)
5. Hindlarning asosiy mashg'uloti? (dehqonchilik va chorvachilik)
6. Moxenjobaro va Xarappa qachon vayron etilgan? (mil. avv. XVIII–XVI asrlar)
7. Hindlarning diniy e'tiqodi xususiyatlarini ayting (jonning bir tanadan boshqasiga ko'chib o'tishi)
8. Hindiston aholisi nechta kastaga bo'lingan edi? (to'rtta: kohinlar, jangchilar, dehqonlar va xizmatkorlar).
9. Varna – bu ... (kasta)
10. Kastadan kastaga o'tishga ruxsat berilganmi? (yo'q)
11. Tabaqalardan birortasiga ham mansub bo'lmagan va eng bulg'anch ishlarni bajargan odamlar qanday atalgan? (hazar qilinadiganlar).

### Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

1. Fan va madaniyat.
  2. “Xudolarsiz din”.
- Dars mavzusi ustida ishlash.



### Topshiriq.

Matni o'qing va savollarga javob bering.

Hindistonda olamni va odamlarni xudo Brahma yaratgan deb ishonishadi. Shu sababli hind kohinlari brahmanlar deb atalgan. Brahmanlar xudo odamlarni o'z jismining turli qismlaridan yaratgan deb o'rgatishgan. Brahma o'z og'zidan brahmanlarni yaratgan, shu sababli ular xudo

nomidan gapirishlari mumkin. Qo‘llaridan jangchilarni, qovurg‘asidan dehqonlarni, tovonidan esa xizmatkorlarni yaratgan deb hisoblangan. Ya’ni, xudoning o‘zi odamlarni varnalarga bo‘lib chiqqan. Inson umrining oxirigacha tug‘ilgan varnasida qolgan. Xudo turli varnalarga mansub odamlar nima bilan shug‘ullanishi va o‘zini qanday tutishini belgilaydigan qonunlarni o‘rnatgan. Bu qonunlarni buzganlar shafqatsiz va azobli jazolarga duchor qilingan.

### **Olam va odamlar yaratilishining bunday izohidan kim va nega manfaat ko‘rgan?**

### **O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda Hind daryosi vodiysining sirli shaharlari haqida hikoya qilishi mumkin.**

1856-yilda inglizlar Jon va Vilyam Braytonlar Karachi va Laxor o‘rtasida (endilikda Pokiston hududi) Sharqiy Hindiston temir yo‘lini qurishardi. Ularga temir yo‘lga yotqizish uchun material kerak edi va mahalliy aholi buning chorasini ko‘rsatdi: Xarappa qishlog‘i yaqinida ulkan tepalik bo‘lib, u yer g‘ishtdan qurilgan allaqanday qadimgi binolar juda ko‘p. Quruvchilar temir yo‘l tagiga o‘n minglab g‘ishtlarni yotqizishdi va bu g‘ishtlar to‘rt ming yildan oshiq tarixga ega ekanligi hech kimning xayoliga ham kelmadi...

Jahon tarixida eng sirli Hind daryosi vodiysi sivilizatsiyasining ochilishi mana shunday ham qayg‘uli, ham kulgili voqeadan boshlandi. Hatto endilikda, Xarappadagi ilk topilmalardan bir yarim asr o‘tgandan so‘ng ham Hind vodiysidagi shaharlarga kim asos solgani noma’lum. To‘la asos bilan bir narsani ta’kidlash mumkin: bu Qadimgi dunyoning yuksak rivojlangan sivilizatsiyalaridan biri edi.

Aytish kerakki, aka-uka Braytonlar Xarappa vayronalariga duch kelgan ilk yevropaliklar emasdi. 1834-yildayoq bu yerda sayohatchi Aleksandr Berne bo‘lib, u keyinchalik bunday deb yozgandi: “Toolumbdan taxminan ellik milyacha berida qadimgi Xarappa shahrining xarobalarini ko‘zdan kechirish niyatida uzoq yo‘ldan aylanib bordim. Bu joyning uzunligi taxminan uch milya keladi. U yerda sohilda buzilgan qal’a turibdi, umuman olganda Xarappada tartibsizlik hukmron, bironta butun bino yo‘q; bu yerdagi inshootlarning g‘ishtlari zamonaviy qishloqni qurish uchun ishlatildi. Naql qilishlaricha, Xarappa taxminan 1300-yil avval vayron bo‘lib, xalq orasida shaharga, aniqrog‘i, uning hukmdoriga Xudoning qahri yog‘ilgani haqida rivoyat tarqalgan...” Ammo faqat 1921-yildagina hind arxeologi Rai Bahodur Daiya Ram Sahni Xarappada qazishmalarni boshlab yubordi. Natijada mil. avv. 3-mingyillikda qurilgan ulkan shahar xarobalari jahon ommasi e’tiboriga taqdim etildi. Shundan buyon Hind vodiysida bundan ham qadimiyroq maskan topilgani yo‘q.

Xarappadan taxminan to‘rt yuz milya masofada, Moxenjodaro (“marhumlar shahri”) qishlog‘i yaqinida 1922-yilda R. D. Banerjining arxeologik ekspeditsiyasi yana bir manzilgohni topdi. U birinchisining aynan o‘zi edi. Mahalliy aholining hikoya qilishicha, bir vaqtlar Moxenjodaro tepaliklarida katta shahar bo‘lib, u iymonsiz hukmdor sababli vayron bo‘lgan ekan. Moxenjodaro Xarappadan yaxshiroq saqlangan va bu hol avval-boshdanoq unga e’tiborni jalb etdi. Aynan Moxenjodaro asosiy qazishmalar joyiga aylandi, bugun esa uning xarobalari YUNESKO Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Moxenjodaroning qazishmalar olib borilayotgan maydoni 260 gektarni tashkil etadi. Qadimda shahar bundan-da kattaroq bo‘lgan. Bugun uning atrofi Hind daryosining loyqa cho‘kindilari tagida ko‘milib ketgan.

Hind vodiysi shaharlari shumerlar ishlatgan xom g‘isht emas, balki pishiq g‘ishtdan qurilgan. Bu fakt hamda shaharlarni toshqinlardan himoya qilgan ulkan to‘g‘onlar qoldiqlari, oqova ariqlarning quyuv tarmog‘i besh ming yil avval Hind vodiysida ko‘p jala quyganidan dalolat beradi. Hatto suv

ko‘payib, shahardagi uylarga xavf solgan. Shumerlar o‘z shaharlarini xom g‘ishtdan qurishgan, chunki Janubiy Mesopotamiyada yog‘in-sochin kam bo‘lgan. Aksincha, Hind vodiysi aholisi ixtiyorida suv keragidan ortiq bo‘lgan – buni tasavvur qilish qiyin, negaki hozir bu dunyodagi eng qurg‘oqchil yerlardan biridir.

Moxenjodaro va Xarappa juda o‘xshash. Ular bir reja asosida va aftidan, bir vaqtda qurilgan. Hattoki bu shaharlar – bir davlatning egizak poytaxtlari degan taxminlar ham bor. Hind vodiysi shaharlari puxta rejalangan va obodonlashtirilgan. Bu yerdagi uylar shakllarning oddiyligi va aniqligi bilan ajralib turadi. Keng 10–12 metr keladigan ko‘chalar o‘qdek to‘g‘ri bo‘lgan. Ular to‘g‘ri burchak ostida kesishib, shaharni tekis to‘rtburchak dahalarga bo‘lgan, chorrahalarda turgan ko‘p binolarning burchaklari qayrilayotgan aravalilar ilashib qolmasligi uchun dumaloqlangan edi. Birorta uy binolarning umumiy chizig‘idan oldinga chiqib turmagan. G‘arb va Sharqdagi eski shaharlarga xos berk va tor ko‘chalar bu yerda umuman yo‘q edi.

Ikki yonida uylarning devorlari va ihotalar cho‘zilib ketgan ko‘chalar qat‘iy ko‘rinishda edi. Hech qanday me‘moriy ko‘rimsizlik yo‘q, ko‘chalar qiyofasini savdo do‘konchalarigina qisman jonlantirardi, xolos. Uylar bir qavatli, ammo ikki va uch qavatli, tekis tomli binolar ham uchrab turardi. Ayrim katta uylarda arxeologlar devorda chuqur tokcha-javonlar topishgan, ammo odatda ular o‘rniga katta sopol xumlar ishlatilgan. Shahar chekkasidagi tamoman faqir kulbalarni aytmaganda, bir yoki ko‘p xonadonli bo‘lishidan qat‘i nazar hamma uylarda hammomlar bor edi. Hammomlar xuddi uylar kabi g‘ishtdan qurilgan edi.

Hind vodiysi shaharlari xuddi asrlar osha turadigandek qilib qurilgan, aftidan, ular minglab yillar hech qanday o‘zgarishlarga uchramagandek ko‘rinadi. Faqat bu shaharlarning vayron bo‘lgan paytdagi ko‘rinishini bilamiz, xolos.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 16-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish

### **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot**

Hindlarning ixtirolari – taqvim – 360 kun, “0” raqami, shaxmat (qo‘shinlarning to‘rt turi), shakarqamishdan shakar olish;

Sanskrit – hindlarning adabiy tili – “Mahabharat” va “Ramayana”, Buddaviylik – Siddhartha Gautama (Budda) – “ma‘rifatlangan”.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 26-DARS. QADIMGI XITOIY SIVILIZATSIYALARI

### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Xitoyning tabiiy sharoitlarini ta’riflab, qadimgi Sharqdagi boshqa mamlakatlar tabiati bilan o‘xshashligini ta’kidlash;
- Xitoyda sivilizatsiya vujudga kelishi jarayonini ko‘rsatish;
- “Ko‘p podshohliklar” davridagi Qadimgi Xitoyga ta’rif berish;
- Konfutsiy ta’limoti bilan tanishtirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘shiga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 17-§, 66–68-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 12-b. Hindiston va Xitoy qadimgi davrlarda.
3. Konturli xaritalar, 6-b. Hindiston va Xitoy qadimgi davrlarda.
4. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Insonparvarlik** – kamtarlik, beg‘arazlik, adolatgo‘ylik va odamlarga mehr-muhabbat kabi insoniy fazilatlar.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi:

1. Mil. avv. VII–VI asrlarda Hindistonda vujudga kelgan davlatlarni sanab o‘ting. (Magadha, Koshala, Malla va b.)
2. Chandragupta asos solgan davlat qanday atalgan? (Maurya)
3. Maurya davlatining poytaxtini ayting. (Pataliputra)

4. Qachon va qaysi podsho hukmronligida Maurya davlati yuksalish cho‘qqisiga erishadi? (mil. avv. III asrda Ashoka hukmronligida)
5. Qadimgi hindlarning ixtirolarini sanab o‘ting (quyosh taqvimini yaratishgan, o‘nlik hisob tizimini joriy etishgan, rim raqamlari o‘rniga yangi raqamlar kiritishgan, shaxmat ixtiro qilishgan)
6. Hindlar shaxmatni qanday atashgan? (“qo‘shinlarning to‘rt turi”)
7. Mashhur xalq dostonlarini ayting. (“Mahabharat” va “Ramayana”, “Panchatantra”)
8. Hindlarning qaysi dini “xudolarsiz din” deb atalgan? (buddaviylik)
9. Buddaning ismi qanday ma’no anglatadi? (“ma’rifatlangan”)
10. Buddaviylik qaysi asrda keng tarqalib, dunyo dinlaridan biriga aylandi? (mil. avv. III asrda)


### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e’lon qiladi, shuningdek o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Xitoyda sivilizatsiyaning vujudga kelishi.
2. Aholining mashg‘ulotlari.
3. Xitoy “ko‘p podsholiklar” davrida.

### Dars mavzusi ustida ishlash (darslik matni bo‘yicha, intellekt-xarita yaratish).



### O‘qituvchi darslikka qo‘shimcha sifatida Konfutsiy haqida hikoya qilishi mumkin.

Xitoyda taxminan mil. avv. VI asrda yashagan Konfutsiy dunyoda eng buyuk faylasuflardan biri edi. U qadimgi xitoy qo‘lyozmalarini o‘rganib, ulardan barkamol shaxs bo‘lib yetishish uchun muhim ko‘ringan g‘oyalarni olgan. Keyinroq bu g‘oyalarni jamiyatning barcha qatlamlariga – imperatorlardan talabalargacha, maslahat so‘rab kelgan odamlarning barchasiga targ‘ib qilgan. U 2400-yil avval asos solgan tamoyillar hanuzgacha mukammal hisoblanadi.

Xitoychada uning ismi Kung Futse deb talaffuz etiladi. 22 yoshida, uylanganidan so‘ng uch yil o‘tib, Konfutsiy odamlarni baxtli yashashga o‘rgata boshladi. Uning baxtga erishish uchun bosh g‘oyasi: “O‘zgalardan o‘zingga ravo ko‘rmagan ishni o‘zgalarga qilma” haqli ravishda oltin qoida sanaladi.

Konfutsiy ko‘pgina hukmdorlar xizmatida bo‘lib, ularni mehr-muhabbat, adolat, o‘zaro hurmat, donolik va samimiylik kabi fazilatlarga asoslangan ma’naviy me‘yorlarga qiziqtirishga harakat qildi. Uning ta’limotida asosiy qoidalardan biri – ota-onaga hurmat – Xitoyda beqiyos ahamiyatga ega

bo‘ldi. Bu qoida ota-onani nafaqat hayotligida, balki vafotidan keyin ham e‘zozlashni o‘rgatadi. Konfutsiy inson tabiatan oliyhimmat ekaniga, sog‘lom fikr yuritishiga va o‘zga odamlar bilan tinch-totuv yashab, qalbida ezgulikni saqlab qolishiga ishonardi.

Konfutsiy vafotidan so‘ng besh yuz yil davomida uning ta‘limoti davlat falsafasiga aylandi. Ammo buddaviylik paydo bo‘lgach, bu ta‘limot vaqtincha unutildi. Keyinroq Konfutsiy ta‘limoti qayta tiklanib, hatto bugun ham millionlab odamlarning hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

### Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.

2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 17-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

2. Qadimgi Hindiston konturli xaritasini to‘ldirib, quyidagilarning nomlarini belgilang va tagiga yozing: a) dengizlar; b) daryolar; v) qadimgi podshohliklar; g) shaharlar va chegara qal‘alari.

3. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

4. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## Intellekt-xaritaning yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot

### Qadimgi Xitoy sivilizatsiyalari

Mil. avv. III–II mingyillik – Yanszi va Xuanxe (sariq daryo, ming ofat daryosi, daydi daryo) daryolari oralig‘ida davlat tashkil topishi;


Mil. avv. II mingyillik o‘rtasi – Shan va Chjou davlatlari birlashdi;

Mashg‘ulot – dehqonchilik (sholi, choy, ipakchilik);

Mil. avv. VII–V asrlar – davlat parchalandi – “ko‘p podshohliklar” yoki “kurashayotgan podshohliklar” davri;

Mil. avv. III asr – yagona Shan davlati tashkil topdi;

Buyuk Xitoy devori – Sin Shixuandi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 27-DARS. MILODDAN AVVALGI III ASRDA XITOIY

### Dars maqsadlari:

- yagona davlat tashkil topishining ilg‘or ahamiyatini ochib berish;
- Xitoyda dehqonlar qo‘zg‘olonlarining sabablari, maqsadlari va yakunlarini ko‘rsatish;
- Qadimgi Xitoyning fan va texnika sohasidagi yutuqlarining ahamiyatini ko‘rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma‘naviy, intellektual va ijodiy o‘sishga intilishni

rivojlantirish;

- mediavositlardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 18-§, 69–72-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 12-b. Hindiston va Xitoy qadimgi davrlarda.
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Sin Shixuandi** – markazlashgan Xitoyning birinchi podshosi, “Sinning birinchi hukmdori” kabi tarjima qilinadi.

**Buyuk Xitoy devori** – ko'chmanchi hunlardan himoyalani uchun uzunligi 4 ming km keladigan inshoot.

**Buyuk kanal** – Xuanxe va Yanszi daryolarini birlashtirgan kanal.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi:

1. Xitoyda ilk sivilizatsiyalar qachon vujudga kelgan? (mil. avv. 4–3-mingyillikda)
2. Xitoy hududidan qaysi daryolar oqib o'tadi? (Xuanxe va Yanszi)
3. Xuanxe daryosining nomi xitoychadan qanday tarjima qilinadi? (Sariq daryo)
4. Xitoyning qaysi daryosini “daydi” deb atashgan va nega? (Xuanxe: o'zanini ko'p o'zgartirgan)
5. Qadimgi xitoy qabilalari qaysi mingyillikdan boshlab ittifoqlar va shaharlarga birlashgan? (mil. avv. 3-mingyillikdan)
6. Xitoyning ilk davlati qachon tashkil topgan? (mil. avv. 2-mingyillik oxirida)
7. Xitoyning ilk davlati qanday atalgan? (Shan)
8. Mil. avv. 1-mingyillik boshida Shan davlati qaysi qabila tomonidan bosib olingan? (Chjou)
9. Mil. avv. 1-mingyillikda Xitoyda qaysi davlat “Osmon ostidagi podsholik” deb atalgan? (Chjou)
10. Xitoy aholisining asosiy mashg'ulotini ayting. (dehqonchilik)
11. Xitoyliklar tut daraxtini qay maqsadda yetishtirishgan? (ipak qurtini boqish uchun)
12. Xitoy tarixida qaysi davr “ko'p podsholiklar” davri deb ataladi? (mil. avv. VII–V asrlar)
13. Xitoy tarixida “kurashayotgan podsholiklar” davri qanday voqea bilan yakunlandi? (yagona davlat tuzilishi bilan yakunlandi)
14. Qaysi asrda Xitoyda yagona davlat tashkil topdi? (mil. avv. III asrda)

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

1. Yagona davlat tashkil topishi.
2. Buyuk Xitoy devori.
3. Qadimgi Xitoy madaniyati.



### Dars mavzusi ustida ishlash

Mil. avv. 246-yil

“Sinning birinchi hukmdori”

**Sin Shixuandi**

Maqbara qurilishi

Buyuk Xitoy devori (ko‘chmanchi  
hunlardan himoya qilish uchun)

Ixtirolar: iyerogliflar, kompas, qog‘oz,  
seysmograf

### 1-topshiriq.

Hindiston va Xitoyning qiyosiy jadvalini to‘ldiring.

Qiyoslash bandlari	Hindiston	Xitoy
Geografik joylashuv		
Daryolar		
Asosiy mashg‘ulotlar		
Donishmandlar		
Ixtirolar		

### 2-topshiriq.

Jadvalni to‘ldiring.

Davlat	Eng yuksalgan yillar (asrlar)	Hukmdorning nomi
Hindiston		
Xitoy		

**O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda Buyuk Xitoy devori qurilishi haqida batafsil hikoya qilishi mumkin.**

Mil. avv. III asrda Xitoy hududidagi tarqoq mayda podsholiklar Sin sulolasiga (mil. avv. 221–207-yy.) birlashtirildi.

Bu sulolaning asoschisi Sin Shixuandi Xitoyning ilk imperatoriga aylandi. Mamlakat birlashuvi ulkan qurilishlarga turtki berdi. Buyuk Xitoy devori esa Qadimgi Xitoyning ilk mahobatli

inshootlaridan biriga aylandi. Imperatorning rejasiga ko‘ra, u mamlakatning shimoliy chegaralarini yovvoyi qabilalarning bosqinlaridan himoya qilishi kerak edi.

Sin Shixuandiga qadar Xitoy shimolidagi kichik podsholiklarning hukmdorlari o‘z chegaralarida mudofaa devorlarini qurgandilar, ammo butun Xitoy davlatining birlashgan qudratigina hatto hozirgi zamon uchun ulkan bo‘lgan bu qurilishni tartibga solib, yakunlashga imkon yaratdi.

Buyuk Xitoy devori – insoniyat tarixida eng katta mudofaa inshootidir. Keng (5–8 metr) va baland (10 metrgacha) bu devor Shanxayguan shahridan (Pekindan shimoli-sharqda) boshlanib, u yerdan ulkan ilondek tog‘ qoyalari bo‘ylab Shansi va Shensi viloyatlari orqali g‘arb tomonga cho‘zilib, Markaziy Xitoyda, Gobi cho‘liga yaqin, Szyayuyguan shahrining chekkasida tugaydi. Ayrim joylarda devorga yonma-yon qal‘a inshootlari va tuproq devorlar cho‘zilib ketgan. Darvozalar va o‘tish joylarida posbonlar uchun qo‘shimcha qo‘rg‘onlar va mudofaa istehkomlari qurilgan edi.

Devorning to‘g‘ri chiziq bo‘ylab uzunligi 2450 kilometrni, jamiki tarmoqlari va burilishlari bilan birga qariyb 5000 kilometrni tashkil etadi. Ulkan inshoot hatto koinotdan, Yer orbitasidan ko‘rinib turadi. Devor kengligi bois uning 750 kilometrlik qismidan nafaqat istehkom, balki qulay va keng yo‘l sifatida foydalanishga imkon berdi.

Devor qurilishi mil. avv. 221-yilda boshlangan. Rivoyatlarga ko‘ra, qurilishga sarkarda Men Tyan boshchiligidagi 300 ming kishilik imperator qo‘shini va juda ko‘p dehqonlar safarbar etilgan. Qurilajak devor yoni bo‘ylab 34 ta qurilish materiallari va oziq-ovqat bazalari barpo etilib, ular janubga olib boradigan yo‘llar bilan bog‘langan edi. Bu yo‘llar bo‘ylab aravalar cheksiz turnaqator bo‘lib qatnar, odamlarning “tabiiy” kamayishini to‘ldirish uchun yangi ishchilar yurib borardi. Buyuk Xitoy devori qurilishi ko‘p asrlar davom etdi. Uning asosiy qismi imperator Sin hukmronligida 10 yilda qurildi. Quruvchilar avvalo Shimoliy Xitoy knyazliklarida mavjud mudofaa inshootlarini birlashtirishlari va yagona rejaga qo‘shishlari, so‘ngra devorni g‘arb tomonga uzaytirib, Xitoyning imkon qadar ko‘proq viloyatlarini himoya qilish kerak edi. Ushbu mudofaa inshootining ko‘p qismi tuproq devorlardan iborat bo‘lib, ular o‘rniga keyinchalik tosh va g‘ishtdan devorlar qurildi.

Devor serhosil janubiy hududlar va dehqonchilik uchun kam yaroqli kimsasiz tog‘li tumanlar chegarasida qurildi. So‘nggi tadqiqotchilar ta’kidlashicha, Buyuk Xitoy devori atrofi o‘z tabiiy sharoitlariga ko‘ra ko‘chmanchilar Shimoli va dehqonlar Janubi o‘rtasida bir iqlimdan boshqasiga o‘tuvchi mintaqa hisoblanardi.

Buyuk Xitoy devorini ko‘pincha “ko‘z yoshlar devori” va “dunyoda eng uzun qabrison” deb ataydilar. Uning qurilishida qancha inson qurbon bo‘lganini tasavvur qilish mumkin. Sillasi qurib vafot etgan ishchilarning jasadlarini devor orasiga suvab ketaverishgan, ularga hanuzgacha duch kelishadi. Ehtimol, aynan shu mudhish topilmalar tufayli go‘yoki koinlar imperator Sin Shixuandiga Buyuk Xitoy devori ostiga yo Van ismli erkak, yo 10 000 kishi ko‘milsagina uning qurilishi yakunlanadi deb bashorat qilganlari haqida rivoyat o‘ylab topilgandir. Imperator Sin birinchi yo‘lni tanladi: u Van ismli kishini topib, o‘ldirib, devor orasiga ko‘mib yuborishga farmoyish berdi.

“Men Szyan Nyu yig‘isi” degan boshqa bir rivoyatda devor qurilishiga zo‘rlab olib ketilgan erini kutgan ayol haqida so‘z boradi. Men Szyan Nyuning sabri chidamay, o‘zi erining oldiga boradi va dahshatli yangilikdan voqif bo‘ladi: qochishga uringani uchun uning eri Van Silyan devor orasiga suvab yuboriladi. Mudhish xabar ayolni chuqur qayg‘uga soladi. Men Szya Nyu toshlarga boshini qo‘yib, ho‘ngrab yig‘laydi. Uning otashin muhabbatini ko‘rgan Tangning rahmi kelib, devorning Van Silyan tanasi ko‘milgan qismi o‘pirlilib tushadi. Devorni tiklashga garchand harakat qilishmasin, u yana va yana o‘pirlilib tushaveradi. Bu to‘g‘rida imperatorga ma’lum qilishadi. U qizni o‘z huzuriga

olib kelishga farmoyish beradi. Yosh bevaning go‘zalligi Sin Shixuandini maftun etib, uni joriya qilib oladi. Men Szya Nyuning muhabbatini qozonish niyatida u Van Silyan sharafiga ibodatxona qurdirib, unga qurbonlik keltirish uchun katta gulxan yoqishni buyuradi. Ammo gulxan yoqilgach, qiz unga o‘zini tashlaydi va yonib ketadi.

Sin Shixuandi vafotidan so‘ng devor uzoq vaqtgacha ahamiyatini yo‘qotdi. Xan sulolasi davrida (milodiy 206–220-yillar.) ta‘mirlanib, yana 100 kilometrga uzaytirildi. 607-yilda Suy sulolasi (589–618-yillar) imperatorlari o‘sha vaqtga kelib yarim vayronaga aylanayotgan devorni qayta tiklashni boshladilar. Devorni shu tarzda ko‘p marta qayta tiklashgan.

Min sulolasi davrida (1368–1644-yillar) Buyuk Xitoy devori hozirgi qiyofasiga kelgan. Uning ko‘pgina qismlari yangidan qurildi, tuproq devorlar esa g‘isht va toshdan qurilgan mustahkam inshootlarga almashtirildi. O‘qning ikki marta uchishiga teng masofada joylashgan 12 metr balandlikdagi 25 000 soqchi minorasining aksariyati hozirgacha saqlanib qolgan. Qadimda dushman hujum qilganda minora tepasida kechasi gulxan yoqib, kunduzi tutun bilan xavfni bildiruvchi signal berilgan.

Imperator Vanli hukmronligida (XV asr) devorni qayta qurish ishlarining ko‘lami avjiga chiqdi, shu bois ko‘p yillardan keyin ham, XX asr boshiga qadar xitoylik dehqonlar Buyuk devorni Sin Shixuandi emas, balki aynan Vanli qurdirgan deb hisoblab, uni “Vanli chanchen” – “Vanli devori” deb ataganlar.

Devor qurilishiga va nisbatan batartib saqlanishiga katta kuch va mablag‘ sarflanishiga qaramay, uning mudofaa inshooti sifatidagi samaradorligi o‘ta past edi. Darhaqiqat, niyati faqat talon-taroj qilish bo‘lgan ko‘chmanchilarining kichik guruhlari Xitoyning shimoliy chegaralariga hujum qilishdan cho‘chiganlar, ammo niyati Xitoyni bosib olish bo‘lgan bosqinchilar devordan sira qiynalmay oshib o‘tishgan: ma‘lumki, qal‘alar barcha zamonlarda devorlari bilan emas, balki odamlari bilan kuchli bo‘lgan, faqat “Osmon osti saltanati” hukmdorlari bu muhim zaxirani yetkazib berolmagan. Shu boisdan ham imperator Tay-szun (Tan sulolasi, 618–907 yy.) o‘z generallariga: “Sizlar eng ishonchli devorlarimsiz” deb bejiz aytmagan.

Xitoy chegaralari devordan ancha nariga yoyilgach, u chegara istehkomi sifatidagi ahamiyatini batamom yo‘qotdi. O‘nlab yillar davomida xitoylik dehqonlar devor g‘ishtlarini qurilishda ishlatish uchun shunchalik tirishqoqlik bilan tashib ketdilarki, devorning ayrim joylari mutlaqo g‘oyib bo‘ldi. Faqat 1977-yildan boshlab Xitoy hukumati devorni buzganlik uchun katta jarima belgiladi.

Min sulolasi uslubida qayta tiklangan va Pekindan shimolda joylashgan devor qismlaridan bugun millionlab sayyohlarning qadami uzilmaydi. Buyuk Xitoy devorini ko‘rmagan odam Xitoyni ko‘rmabdi, deb bejiz aytishmagan.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.

2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. Konturli xaritani to‘ldirib, quyidagilarning nomlarini belgilang va tagiga yozing: a) dengizlar; b) daryolar; v) qadimgi podsholiklar; g) shaharlar va chegara qal‘alari.

2. 18-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

3. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

4. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritanani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

#### Miloddan avvalgi III asrda Xitoy

Markazlashtirilgan davlat tashkil topishi

Sin Shixuandi – “Sinning birinchi hukmdori”

Sin Shixuandi maqbarasi – 37 yil qurilgan – 6 ming sopol haykal

Buyuk Xitoy devori – ko'chmanchi hunlardan himoyalani uchun 100-yildan ortiq vaqt qurilgan

Xitoyda xalq qo'zg'olonlari:

Mil. avv. 206-yil – dehqonlar qo'zg'olonlari


Lyu Ban – Sin sulolasi ag'darilib, Xan sulolasi o'rnatildi

Qizil qoshlilar qo'zg'oloni

Sariq ro'mollilar qo'zg'oloni

Ierogliflar (vertikal tarzda)

Mil. avv. I asr – qog'oz, kompas va seysmograf ixtiro qilindi



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 28-DARS. O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI QADIMIY DAVLATLAR

#### Dars maqsadlari:

- O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar bilan tanishtirish orqali o'quvchilarning davlat vazifalari haqida tasavvurini kengaytirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

#### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 19–20-§, 73–80-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 10–11-b. Ahamoniylar davlati (mil. avv. VI–V asrlar).
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

## Asosiy tushunchalar va atamalar.

Qadimiy davlatlar, vohada hududiy joylashuv tizimi.

## Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

## Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

## Dars rejasi:

1. Mil. avv. VII–VI asrlarda qadimgi xalqlarning etnik tarkibi va hududiy joylashuvi.
2. Mil. avv. VII–VI asrlarda xo'jalik rivojlanishi.

## Dars mavzusi ustida ishlash (darslik ma'lumotlari bo'yicha).



## Topshiriq.

Quyidagi atamalarning to'g'ri izohlarini yozing.

<b>Saklar va massagetlar</b>	O'rta Osiyo xalqlarining ajdodlari
<b>Oks</b>	Amudaryo
<b>Yaksart</b>	Sirdaryo
<b>Saka-tigraxauda</b>	“o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar”
<b>Saka-taradarayya</b>	“daryoning narigi tomonida yashovchi saklar”
<b>Saka-xaumovarka</b>	“xaomaga sig'inuvchi saklar”
<b>Afrosiyob</b>	Samarqandning qadimgi nomi.

### **O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi:**

1. Marg‘iyona, Baqtriya va So‘g‘diyona hududidagi ilk davlatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini sanab o‘ting.
2. Kasb-hunarlar, so‘ngra shaharlarning paydo bo‘lishi natural xo‘jalik barham topishiga olib kelganini isbotlang.
3. Xorazm va Baqtriya aholisining mashg‘ulotlari, odatlari va bu davlatlarning ijtimoiy tuzumi haqida so‘zlab bering.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 19-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### *Qo‘shimcha ma‘lumot*

#### **Suv va hayot**

1940-yilda Xorazmning qadimiy manzilgohlarini o‘rganish maqsadida arxeologik ekspeditsiya uyushtirildi. Arxeologlar Xorazmning turli hududlarini o‘rganib, bir yarim ming kilometrdan ziyod yo‘l bosishdi. Bu yerda ilk marta aviatsiya yordamida hudud suratga olindi. Arxeologlar inshootlar qoldiqlari ayniqsa yomg‘irdan so‘ng yaxshiroq ko‘rinishiga e‘tibor qaratdilar, chunki xom g‘isht namlikni qumga qaraganda uzoqroq saqlaydi va havodan yaxshi ko‘rinadi.

Xususan, Amirobod kanalining o‘zanida mil. avv. 1-mingyillik boshida qadimgi Xorazm hududida vujudga kelgan dehqonchilik manzilgohlari topildi. Ular topilgan joy sharafiga Amirobod madaniyati deb nom oldi. Arxeolog A. P. Tolstov o‘z kundaligiga quyidagilarni yozib qo‘ydi:

“Biz To‘rtko‘ldan 26 km olisda joylashgan qadimiy shahar devoriga ko‘tarildik. Bu yerda, o‘n besh metr balandlikda qadimgi Xorazmning mahobatli, unutilmas manzarasi namoyon bo‘ldi. Qadim davrlarda Amudaryo o‘zanini o‘zgartirgach, suvsizlikdan qiynalgan odamlar suvga yaqinroq yangi joylarga ketishardi. Ro‘paramizda jonsiz qumlar bepoyon dengiz misol yastanib yotardi. Hamma yoqda qal‘a, qo‘rg‘on, istehkomlar, katta shaharlar qoldiqlari orolchalar ko‘rinishida yotardi. Durbin orqali qudratli davlat devorlari, darvozalari va minoralarining yangi-yangi xarobalari ko‘zga tashlanardi”.

Temir qurollar tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu esa yanada ilg‘or ishlab chiqarish usuliga o‘tish uchun zamin yaratdi. Urug‘chilik jamoasi hududiy qo‘shnichilik jamoasi bilan almashdi. Ammo qabilalar o‘rtasida yangi yerlar va suv manbalari uchun kurash boshlandi. Hududni himoyalash, yangi yerlarni o‘zlashtirish va boshqa qabilalarga qarshi yurish qilish uchun qabilalarning harbiy ittifoqlari tuzildi. Ularga urug‘-qabila sardorlari bosh bo‘ldi. Ular allaqachon jamiyatdagi mavqei, obro‘si va hukmronligi bilan ajralib turardilar.

Mil. avv. 1-mingyillik boshida O‘rta Osiyo aholisi to‘rt guruhga: koinlar, jangchilar, dehqonlar va hunarmandlarga bo‘lingan edi. Qabila sardorlarining ta‘siri asta-sekin kuchayib borar edi. Ayniqsa, harbiy sarkardalar hokimiyati mustahkamlanib, otadan o‘g‘ilga meros o‘tdi.

Mil. avv. 1-mingyillik boshida ijtimoiy munosabatlarning jadal rivoji jamiyatda imtiyozli maqomga ega bo‘lgan va ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo‘lmagan, balki jamiyat va xo‘jalik hayoti ustidan nazorat va boshqaruvni amalga oshirgan shaxslarning ajralib chiqishiga olib keldi. Bunday jamiyatning ijtimoiy tarkibidan dehqonchilik xo‘jaligi, uy chorvachiligi, turli kasblar, qurilish va sug‘orish ishlari bilan shug‘ullanuvchi ishlab chiqaruvchilar hamda ishlab chiqarishda bevosita band bo‘lmagan shaxslar – oqsoqollar va harbiy sarkardalar ajralib chiqdi.

Mil. avv. IX–VIII asrlarda O‘zbekiston hududida shunday ijtimoiy tuzum vujudga kelgan edi. Mana shu davrda dehqonchilik vohalarida yashaydigan aholini bosqinchilardan himoyalash va jamoalar o‘rtasidagi aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun ilk davlatlar paydo bo‘ldi.

### **Bosh quruvchi kim?**

Temirchi kasbi qadim davrlardan buyon eng sharafli kasb sanalgan. Bir rivoyatda quyidagi voqea haqida so‘z boradi. Quddus ehromi qurilishi tugagandan so‘ng, Sulaymonshoh ziyofat uyushtirib, unga qurilish jarayonida ishtirok etgan ustalarni taklif qildi. Mehmonlar endi noz-ne‘matlardan tanovul qilishga hozirlanganda daf‘atan shoh:

– Bosh quruvchi kim? Bu mo‘jizaviy ehromni qurishga kim eng katta hissa qo‘shdi? – deb so‘rab qoldi.

Shunda g‘isht teruvchi o‘rnidan turib:

– Albatta, ibodatxona bizning mehnatimiz bilan shunday ko‘rinishga keldi. Biz bittalab g‘isht terib binoni ko‘tardik. Bir qarang-a, devor, ravoq, gumbazlar naqadar pishiq va mustahkam. Biz qurgan ehrom Sulaymonshoh sharafiga hali ko‘p asrlar savlat to‘kib turadi!

– Shak-shubhasiz, ehrom asosan g‘ishtdan qurilgan, – deya gapga aralashdi duradgor, – ammo o‘zingiz bir o‘ylab ko‘ring-a, aziz mehmonlar, men va sheriklarim ter to‘kmaganimizda ehrom shunday ko‘rinishga kelarmidi? Biz qizil yog‘och va livan kedri bilan pardozi bermaganimizda, ehromning qup-quruq devorlari kimning ham ko‘zini quvontirardi? Polga to‘shalgan parket esa eng sifatli shamshod navidan yasalgan. Bu muhtasham saroyning haqiqiy bunyodkorlari biz, duradgorlar.

– Sal chuqurroq o‘ylang, – dedi yer qazuvchi, uning gapini bo‘lib. – Agar biz poydevor uchun chuqur qazimaganimizda, manavi maqtanchoqlar (u g‘isht teruvchi va duradgorga imo qildi) ehromni qanday qurishini bir ko‘rardim-da. Sizning devorlaringiz shamolning ilk ekinidayoq pardozi-andozi bilan birga to‘kilib tushardi!

Biroq, Sulaymonshohni bejiz dono deyishmagan. U g‘isht teruvchini yoniga chorlab, undan so‘radi:

– Sening ish qurolingni kim yasagan?

– Albatta, temirchi-da, – deb javob berdi g‘isht teruvchi taajjulanib.

– Xo‘sh, senikini-chi? – dedi shoh, duradgorga yuzlanib.

– Kim bo‘lardi, temirchi-da, – deb javob berdi duradgor ko‘p o‘ylamay.

– Sen ishlatgan belkurak va cho‘kichni-chi? – deb so‘radi Sulaymonshoh yer qazuvchidan.

– O‘zingizga yaxshi ma‘lum-ku, temirchidan bo‘lak kim ham yasay olardi, – dedi yer qazuvchi.

Shunda Sulaymonshoh o‘rnidan turib, kamtarin odam – qorayib ketgan temirchining oldiga kelibdi. Uni zal o‘rtasiga boshlab kelib, to‘rga o‘tqazibdi.

Ehromning bosh quruvchisi mana shu inson, – deya xitob qilibdi dono shoh.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 29-DARS. O‘ZBEKISTON HUDUDIDAGI QADIMIY DAVLATLAR

### Dars maqsadlari:

- O‘zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarning davlat vazifalari haqida tasavvurini kengaytirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘shishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 19-§, 73–80-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 10–11-b. Ahamoniylar davlati (mil. avv. VI–V asrlar).
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

Qadimiy davlatlar, vohada hududiy joylashuv tizimi.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.


### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Mil. avv. VII–VI asrlarda qadimgi xalqlarning etnik tarkibi va hududiy joylashuvi.
2. Mil. avv. VII–VI asrlarda xo‘jalik rivojlanishi.
3. O‘rta Osiyoning qadimiy davlatlari.

## Dars mavzusi ustida ishlash (darslik ma'lumotlari bo'yicha).



### Topshiriq.

#### Jadvalni to'ldiring

Davlat, xalqlar	Yashagan hududi	Asosiy mashg'ulotlar
Saklar		
Massagetlar		
Xorazm		
So'g'd (So'g'diyona)		

#### O'rganilgan bilimlarni mustahkamlash uchun quyidagi savollar beriladi:

1. Marg'iyona, Baqtriya va So'g'diyona hududidagi ilk davlatlarning o'ziga xos xususiyatlarini sanab o'ting.
2. Kasb-hunarlar, so'ngra shaharlarning paydo bo'lishi natural xo'jalik barham topishiga olib kelganini isbotlang.
3. Xorazm va Baqtriya aholisining mashg'ulotlari, odatlari va bu davlatlarning ijtimoiy tuzumi haqida so'zlab bering.

#### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

#### Uy vazifasi.

1. 19-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

#### Intellekt-xaritanani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

#### O'zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar

Mil. avv. VII– VI asrlar – O'rta Osiyoda yashashgan – so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmliklar, saklar va massagetlar

Ilk davlatlar – So'g'diyona, Baqtriya, Xorazm Baqtriyaliklar – Surxondaryoda, Afg'oniston shimolida va Tojikiston janubida

So'g'diylar – Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida


Xorazmliklar – Amudaryoning quyi tomonida

Amudaryo – Oks Saklar:

– saka-tigraxauda – “o'tkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar”

– saka-taradarayya – “daryoning narigi tomonida yashovchi saklar”

– saka-xaumovarka – “xaomaga sig'inuvchi saklar” (ichimlik).





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 30–31-DARS. ZARDUSHTIYLIK VA “AVESTO”

### Dars maqsadlari:

- zardushtiylikning asosiy mazmuni bilan tanishtirish;
- Oʻrta Osiyo xalqlarining madaniyati va anʼanalari rivojlanishida zardushtiylik oʻrnini koʻrsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash koʻnikmalarini hosil qilish – oʻquvchilarni oʻz fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni oʻrganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bogʻlashni oʻrgatish;
- oʻzini oʻzi kamol toptirishga – ruhiy, maʼnaviy, intellektual va ijodiy oʻsishga, oʻz ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan maʼlumotlarni topish, saralash, oʻzgartirish, saqlash koʻnikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni taʼminlash va maʼlumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy koʻnikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 20-§, 81–84-b.
2. Tarqatma material: testlar toʻplami, lugʻat bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
3. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

Astrolog (munajjim), kohin, zardushtiylik, paygʻambar.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Oʻrganilgan bilimlarni takrorlash.

Oʻrganilgan mavzuni takrorlash oʻquvchilardan ommaviy soʻrash yoki mavzuning mazmuni boʻyicha savollarga ogʻzaki javoblarni eshitish tarzida oʻtkaziladi.


### Yangi mavzuning mazmuni.

Oʻqituvchi dars mavzusi va maqsadini eʼlon qiladi, shuningdek, oʻquvchilar mazkur mavzuni oʻrganish orqali egallaydigan bilim va koʻnikmalarni sanab oʻtadi.

### Dars rejasi:

1. Zardushtiylikning vujudga kelishi tarixi.
2. Zardushtiylikning tarqalishi.

**Dars mavzusi ustida ishlash (darslik ma'lumotlari bo'yicha).**



**Dars maqsadlari:**

Jadvalni to'ldiring.

Quyidagi atamalarning to'g'ri izohlarini yozing.

Zardushtiylik	Mil. avv. 1-mingyillikda O'rta Osiyoda tarqalgan din
Zaratushtra	zardushtiylik dinining asoschisi
Avesto	zardushtiylarning muqaddas kitobi
Zend	“Avesto” uchun sharhlar
A. Dyuperron	“Avesto”ni ilk marta tarjima qilgan
Ahuramazda	oliy xudo
Mitra	Quyosh va yorug'lik ma'budi
Ahriman	yovuzlik va o'lim ma'budi
Anaxita	dehqonchilik, hosildorlik va suvlar ma'budasi
Ossuariy	suyakdon
Astrolog (munajjim)	yulduzlarga qarab taqdirni bashorat qiladigan odam
Kohin	ibodatxona xodimi

**Darslik matnini quyidagi ma'lumot bilan to'ldirish mumkin.**

**Ibodot**

Ibodot kundalik odatlarga kiradi. Zardushtiylik aqidalarida yilning qaysi fasli, qaysi soatlarda va qanday ibodat qilish haqida batafsil yo'l-yo'riq ko'rsatilgan. Kunida kamida besh marta ibodat

qilinadi. Bunda Ahuramazda ismini yod etib, unga hamdu sanolar aytish kerak. Zardushtiylar ertalab va uxlashdan oldin, uyga kirish va chiqish vaqtida, poklanganda va boshqa udumlarni bajarganda Xudo nomini eslaydilar. Ibodatxonada, uydagi mehrob qarshisida, tabiat qo‘ynida ibodat qilish mumkin, bunda ibodat qiluvchi doimo janubga yuzlanishi lozim, vaholanki, forslar shimolga yuzlanib ibodat qilishgan.

Poklanish udumi qat’iy qoidalar bilan belgilangan: tozalikka so‘zsiz rioya qilish, “kir” buyumlarga, shu jumladan, ayrim o‘simliklar va hayvonlarga, ayniqsa, hasharotlarga (chumolilarga), sudralib yuruvchilarga (ilonlarga) tegish taqiqlanadi. “Toza” buyumlar qatoriga odam, it, sigir, qo‘y, tipratikan, bog‘ va polizlardagi daraxtlar, o‘simliklar va mevalar kiradi. “Kir” buyumga tegish gunoh hisoblangan.

Zardushtiylarda ayniqsa olov, suv va yer e‘zozlangan. Suvni quyish uchun qo‘llarni yuvish kerak; yer va suvni iflos qilmaslik uchun uydan yomg‘ir ostiga chiqish mumkin emas. Go‘shdan qon chiqarmay turib, yeb bo‘lmaydi. G‘ayridinlar oldida ovqatlanish yoki cho‘milish mumkin emas.

Uydagi o‘choqda faqat toza, quruq o‘tinlar yoqilgan. Ovqat pishirganda bironta tomchi olovga tushmasligi lozim. Har bir uyda “axlat quvuri” bo‘lgan – kir va axlat maxsus nov bo‘ylab yerga quyilishi uchun unga eritma solingan.

### **Dafn marosimi**

Zardushtiylar uchun hayot – Ahuramazda tuhfa etgan yaxshilikdir. Iymoni butun zardusht toki hayot ekan, yaxshilikni namoyon etadi; vafot etganda esa yovuzlikni namoyon etadi, ya’ni, o‘lim – bu yomonlik. Shu sababli marhumning hatto yaqin qarindoshlari ham unga tegishi taqiqlanadi.

O‘lim va dafn bilan bog‘liq marosim anchagina g‘aroyib bo‘lib, unga doimo qat’iy amal qilingan. “Avesto” ko‘rsatmasiga binoan, qishda vafot etgan odam uchun yashaydigan xonalardan to‘silgan keng xona ajratilgan. U yerda mayit kunlab yoki oylab, “qushlar uchib kelmaguncha, o‘simliklar gulga kirmaguncha, yashirin suvlar oqmaguncha va shamol yerni quritmaguncha” yotishi mumkin. Keyin Ahuramazdaga sig‘inuvchilar mayitni quyosh ostiga qo‘yadilar. Marhum joylashgan xonada oliy xudo timsoli bo‘lmish olov doimo yonib turishi kerak edi, ammo ins-jinlar olovga tegmasligi uchun uni marhumdan tok novdasi bilan ajratib qo‘yish lozim.

O‘lim to‘shagida yotgan odam yonida it – barcha “iflosliklar”ni yo‘q qilish timsoli bo‘lishi kerak edi. Buning ustiga, it joni uzilayotgan odamning so‘nggi nafasi va yuragining so‘nggi urishini sezadi, deb hisoblashgan. Udumlarga ko‘ra, agar it o‘layotgan odamning ko‘kragiga qo‘yilgan non burdasini yesa, qarindoshlarga yaqinlarining vafot etgani aytilgan.

Yilning istalgan faslida, qishdan tashqari, dafn marosimi o‘limning to‘rtinchi kuni amalga oshirilgan, chunki aynan shu vaqtda marhumning ruhi narigi dunyoga ko‘chib o‘tadi, deb ishonishgan. “Avesto”da bayon qilingan qoidalarga binoan, quyosh chiqishi bilan dafn marosimi o‘tkazilgan. Temir zambilga yog‘och to‘shama solingan, uning ustiga mayit qo‘yilgan. Zambilni faqat yuvg‘uchilar ko‘tarishi mumkin edi. Kohinlar boshchiligidagi qarindoshlar zambilni astodon yoki sukut minorasi – zardushtiylarning qabristoniga qadar kuzatib borgan.

### **Navro‘z**

Navro‘z – Yangi yil kutish eng tantanali va e‘zozlangan bayram hisoblangan. Bayram arafasida uyga bug‘doy, arpa yoki yasmiqning nish urgan urug‘lari olib kirilib, mehrob oldiga qo‘yilgan. Yangi yil arafasidagi tunda uylarning tomilarida olov yoqiladi; shu yerda turgan idishga barglari bo‘lgan

yosh daraxt shoxi solinadi, marosim taomlari va ichimliklari qo'yiladi. Quyoshning ilk nurlari ko'rinishi bilan butun oila uyning tomida jamuljam bo'lib, bosh kohin o'z tomining to'rt burchagida olov yoqishini kutishadi. Bu Yangi yil kelganidan darak bergan. Yangi yil kutish juda tantanavor uyushtirilgan. Bayram dasturxonida "Avesto"dan olingan duolar to'plami turishi kerak. Dasturxonga bodom, pista, yong'oq, xurmo, anjir, uzum va anordan tayyorlangan yetti xil taom qo'yiladi. Guldonlarga atirgullar solib qo'yiladi, ko'zalarga muzdek suv quyiladi, patnislarda issiq non turadi. Bosh kohin mehrob oldida ibodat qilib, otashkurak bilan olov cho'g'larini aralastiradi va quyosh harakati bo'yicha sharqdan g'arbga ohista qayriladi. Bu vaqtda u bitta qilib bog'langan muqaddas shoxlarni goh ko'taradi, goh pastga tushiradi va qiroat bilan duolar o'qiydi, barcha hozir bo'lganlar unga jo'r bo'ladi.

Zardushtiylar uchun 7 raqami muqaddas sanalgan. Ular yetti ma'bud, yetti yulduz, osmonning yetti zinapoyasi, yetti qonun-qoidani e'zozlaydilar. Yetti muqaddas buyum qatoriga muqaddas olov haqida xotiraning timsoli bo'lmish shamlar; ko'zgu – olamning aksi; tuxum – hayot tug'ilishi timsoli; tilla baliqchalar bo'lgan akvarium va xushbo'y tutatqilar qo'yilgan patnis kiradi.

Quyosh ilk nurlarini sochishi bilan uy egasi ko'zguni aylantirgancha "Hamisha yorug'lik bo'lsin!" deb xitob qiladi, shundan so'ng hamma bir-birini tabriklab, taom yeyishni boshlashadi.

An'anaga ko'ra Yangi yilni nishonlash marosimi oyning o'n uchinchi kunida yakunlangan. Zardushtiylarda va boshqa ko'p xalqlarda 13 raqami baxtsiz sanaladi. Bu kuni barcha zardushtiylar Ahriman hamda yovuz ruhlar o'zlariga va uylariga ziyon yetkazmasligi uchun uylarini tark etib, shahardan chiqib ketganlar.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 21-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

## **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot**

### **Zardushtiylik.**

Mil. avv. 1-mingyillik – zardushtiylik paydo bo'lishi;

Asoschisi – Zaratushtra;

Zardushtiylik dini paydo bo'lishi sababi – turli qabilalarni istilochilarga qarshi kurash uchun birlashtirish zaruriyati;

"Avesto" – zardushtiylarning muqaddas kitobi – tarjimasi – "qat'iy belgilangan qonunlar";

Mil. avv. III asr – Zaratushtraning barcha va'zlari 21 kitobga – "Avesto"ga jamlangan – 336-b.;

"Zend" – "Avesto" uchun sharhlar A. Dyupperon – "Avesto"ning ilk tarjimoni;

Ahuramazda – zardushtiylarning oliy xudosi;

Mitra – Quyosh va yorug'lik ma'budi;

Ahriman – yovuzlik va o‘lim ma’budi;

Xumo – baxt va boylik ma’budasi;

Zardushtiylikning asosiy mazmuni – yaxshilik va yomonlik kurashi.

Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						

## 32-DARS. TAKRORIY-UMUMLASHTIRUVCHI

### Dars maqsadlari:

- o‘quvchilarning bilimlarini tartibga solish jarayonini davom ettirish;
- o‘rganilgan mavzu bo‘yicha aniq bilimlarni umumlashtirish;
- o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlarning, shakllangan ko‘nikmalarining darajasini aniqlash.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 1–20-§, 3–84-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf,
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

O‘tgan darslarda o‘rganilgan barcha asosiy tushunchalar va atamalar.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi. Bundan tashqari, darsni “Odamlar va voqealar” o‘yini tarzida o‘tkazish mumkin. Belgilangan vaqt ichida biror voqea bilan bog‘liq tarixiy shaxs ismini aytish taklif etiladi.

### 2-nazorat ishi.

1. O‘rta Osiyo tarixi bo‘yicha eng qadimgi manba – ...
  - A) “Tarixiy yozishmalar”
  - B) Behistun yozuvlari
  - C) Avesto
2. Dunyoning barcha xalqlari tarixi nimadan boshlangan?
  - A) eng qadimgi urug‘chilik tuzumidan
  - B) matriarxatdan
  - C) patriarxatdan
3. Tosh davri bosqichlarini to‘g‘ri joylashtiring.
  - A) eneolit, paleolit, neolit, mezolit
  - B) mezolit, paleolit, eneolit, neolit

C) paleolit, mezolit, neolit, eneolit

4. Olimlar aniqlagan ibtidoiy odamlar qoldiqlari va ular topilgan joylarni to'g'ri joylashtiring: tegishli ravishda avstralopitek, zinjanthrop, sinantrop, neandertal odami, kromanyon odami.

A) Germaniya, Afrika, Indoneziya, Xitoy, Yaponiya

B) Janubiy Afrika, Sharqiy Afrika, Xitoy, Germaniya, Fransiya

C) Xitoy, O'zbekiston, Germaniya, Afrika, Yaponiya

5. Eng qadimgi petrogliflar qayerda topilgan?

A) Altamir va Lasko g'orlaridan

B) Kapova g'oridan

C) hamma javoblar to'g'ri

6. Mezolit davri nimasi bilan ajralib turadi?

A) muzlik davri tugagan

B) odam o'q-yoy yasashni o'rganib olgan, hayvonlarni qo'lga o'rgatgan

C) hamma javoblar to'g'ri

7. Quyida sanab o'tilgan manzilgohlardan qaysilari mezolit davriga mansub?

A) Obishir, Qo'shilish, Machay

B) Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqo'ton

C) Obishir, Qo'shilish, Sopollitepa

8. "Avesto"ga ko'ra katta patriarxal oila qanday atalgan?

A) nmana

B) zantu

C) vis

9. Qadimgi yunonlar Nilning quyilish joyini qanday atashgan?

A) alfa

B) gamma

C) delta

10. Misrliklar unumdor tuproqdan qoraygan dalalari sababli o'z mamlakatini qanday atashgan?

A) "Qora tuproq"

B) "Nil in'omi"

C) to'g'ri javob yo'q

11. Yuqori va Quyi Misrni birlashtirgan ilk fir'avn ismini ayting.

A) Menes

B) Memfis

C) Fiva

12. Qadimgi Misr qaysi davlatlar bilan chegaradosh edi?

A) O'zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston, Hindiston

B) Nubiya, Liviya, Suriya, Falastin

C) Argentina, Angliya, Yaponiya, Liviya

13. Misrliklar ustidan g'alaba qozongan ko'chmanchi giksos qabilalarining kuchi nimada edi?

A) jangovar aravalar

B) yuzdagi niqoblar

C) o'q-yoy

14. Misrdan giksoslarni quvg'in qilgan fir'avn ismini ayting?

- A) Tutmos
- B) Yaxmos
- C) Xafra

15. Qadimgi Fors shohlaridan qay biri Misrni zabt etishga muvaffaq bo‘lgan?

- A) Kir
- B) Kambiz
- C) Tutmos

16. Misr fir‘avnlarning bosh xudosi – ...

- A) Amon-Ra
- B) Xapi
- C) Osiris

17. Qadimgi Misrda xudolar va odamlar o‘rtasida kim vositachi bo‘lgan?

- A) xudolar
- B) hayvonlar
- C) kohinlar

18. Quyida sanab o‘tilgan piramidalarning qaysi biri dunyo mo‘jizalaridan biri hisoblanadi?

- A) Xufu piramidasi
- B) Xafra piramidasi
- C) Menkaura piramidasi

19. Piramidani qo‘riqlaydigan maxluq qanday atalgan?

- A) Sfinks
- B) Osiris
- C) Serber

20. Misrliklar qaysi qo‘ng‘izlarni Quyosh yordamchilari deb hisoblashgan?

- A) skarabeylar
- B) may qo‘ng‘izlari
- C) iyun qo‘ng‘izlari

21. Nega misrliklar o‘z yozuvini muqaddas deb hisoblashgan?

- A) yozuvdan afsunlar va udumlarni yozib borish uchun foydalanishgan
- B) hech kim o‘qish va yozishni bilmagan
- C) yozuv juda murakkab bo‘lgan

Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.

Uy vazifasi.

1. Misr, Mesopotamiya, Bobil va Ossuriyaning eng mashhur inshootlarini chizish va tagiga nomlarini yozish.

2. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



### III BO‘LIM. Qadimgi Yunoniston

#### 33-DARS. ANTIK TARIXNING BOSHLANISHI

##### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Yunonistonning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga ta’sir ko’rsatgan Yunonistonning geografik joylashuvi va tabiiy sharoitlari xususiyatlarini ochib berish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko’nikmalarini hosil qilish;
- o’quvchilarga o’z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o’rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog’lashni o’rgatish;
- o’zini o’zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o’sishga, o’z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o’zgartirish, saqlash ko’nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko’nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

##### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 21-§, 85–87-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 13-b. Qadimgi Yunoniston (mil. avv. 2-mingyillik – 1-mingyillik boshi)
3. Konturli xaritalar, 7-b. Qadimgi Yunoniston (mil. avv. 2-mingyillik – 1-mingyillik boshi).
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

##### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Antik** – yunoncha “qadimgi” ma’nosini bildiradi.

**Antik tarix** – Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim davri tarixi.

**Ellinlar** – qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan.

##### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O’rganilgan bilimlarni takrorlash.

O’rganilgan mavzuni takrorlash o’quvchilardan ommaviy so’rash yoki mavzuning mazmuni bo’yicha savollarga og’zaki javoblarni eshitish tarzida o’tkaziladi.

##### Yangi mavzuning mazmuni.

O’qituvchi dars mavzusi va maqsadini e’lon qiladi, shuningdek, o’quvchilar mazkur mavzuni o’rganish orqali egallaydigan bilim va ko’nikmalarni sanab o’tadi.

##### Dars rejasi:

1. Hudud va aholining mashg’ulotlari.
2. Sivilizatsiyaning vujudga kelishi.
3. Qadimgi yunonlarning dengiz sayohatlari.




## Dars mavzusi ustida ishlash (darslik matni bo'yicha).

### Topshiriq.

Quyidagi atamalarning to'g'ri izohlarini yozing.

<b>Antik</b>	yunoncha "qadimgi" ma'nosini bildiradi
<b>"Antik tarix"</b>	Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim davri tarixi
<b>Ellinlar</b>	qadimgi yunonlar; dastlab Yunonistonning barcha aholisi shunday atalgan
<b>Ellada</b>	Qadimgi Yunoniston
<b>Minoy (Krit) sivilizatsiyasi</b>	axeylar tomonidan vayron qilingan qadimgi Yunoniston sivilizatsiyasi
<b>Miken sivilizatsiyasi</b>	doriylar vayronaga aylantirgan qadimgi Yunoniston sivilizatsiyasi



### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 22-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

2. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Antik tarixning boshlanishi

Bolqon yarimoroli, O'rtayer dengizi orollari;

Yunonistonda eng baland tog' – Olimp;

Yunonistonning ilk shahar-davlatlari – Miken va Krit (Minoy sivilizatsiyasi);

Minoy sivilizatsiyasi mil. avv. 1450-yilda axeylar tomonidan vayron qilingan;

Doriylar mil. avv. 1200-yilda Miken davlatini bosib olib, Sparta asos soldilar;

Antik – qadimgi.



Sinflar	"A" sinfi	"B" sinfi	"V" sinfi	"G" sinfi	"D" sinfi	"Y" sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 34-DARS. QADIMGI YUNONISTONNING YUKSALISHI

### Dars maqsadlari:

- yunonlarning polislardagi hayoti haqida tasavvur berish;
- Afinada madaniyatning yuksak rivojlanganini ko'rsatish;

- tarixiy xaritalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni davom ettirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘shiga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 22-§, 88–92-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 13-b. Qadimgi Yunoniston (mil. avv. 2-mingyillik – 1-mingyillik boshi).
3. Konturli xaritalar, 7-b. Qadimgi Yunoniston (mil. avv. 2-mingyillik – 1-mingyillik boshi).
4. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Polislar** – yunonlarning Yunonistondan tashqaridagi mustaqil shahar-davlatlari (yunonchadan tarjimasi – “shahar”).

**Goplitlar** – og‘ir qurollangan piyoda jangchilar.

**Attika** – Qadimgi Yunoniston sharqida joylashgan yarimorol.

**Ilotlar** – spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi.

**Periyeklar** – doriylar hokimiyatini o‘z ixtiyori bilan tan olgan Lakonikaning mahalliy aholisi.

**Koloniya** – yunonlar Qora va O‘rtayer dengizlari sohillari bo‘ylab bosib olgan yerlar.

**Amforalar** – sharob va boshqa suyuqliklarni tashish va saqlash uchun ikki dastali bo‘g‘zi tor ko‘zalar.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi:

1. Qadimgi Yunoniston davlatlari joylashgan hudud nomini ayting. (Bolqon yarimoroli va O‘rtayer dengizi orollari)
2. Qadimgi Yunoniston hududiga ilk qabilalar qachon ko‘chib joylashgan? (mil. avv. 3-mingyillik boshida)
3. Qadimgi Yunonistonning ilk davlatlarini ayting. (Knos, Miken, Tirinf, Pilos)
4. Yunonistondagi eng baland tog‘ni ayting. (Olimp)
5. Qadimgi Yunoniston hududida ilk Yevropa sivilizatsiyasi qachon va qayerda vujudga kelgan? (Krit orolida mil. avv. 2-mingyillikda)
6. Krit orolida vujudga kelgan sivilizatsiya qanday atalgan? (Minoy)
7. Yunonlar o‘zlarini va mamlakatini qanday atashgan? (o‘zlarini – ellinlar, mamlakatni – Ellada deb atashgan)
8. Minoy sivilizatsiyasi qachon va nega vayron bo‘lgan? (taxminan mil. avv. 1410-yilda vulqon otilishidan va toshqindan)
9. Yunonlar qaysi mamlakatlarga sayohat qilganlar? (Misrga, O‘rtayer va Qora dengizlar bo‘ylaridagi shaharlarga)

10. Yunonlar qadimda dengiz bo‘ylab qanday suzganlar? (sohil yoqalab, oroldan orolga).


### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Yunon polislari.
2. Afina davlati.

### Dars mavzusi ustida ishlash.



Mazkur mavzuni o‘rganishning asosiy usuli – o‘qituvchi hikoyasi va o‘quvchilarning xarita bilan ishlashidan iborat.

### Topshiriq.

Quyidagi atamalarning to‘g‘ri izohlarini yozing.

<b>Polislar</b>	yunonlarning Yunonistondan tashqaridagi mustaqil shahar-davlatlari (yunonchadan tarjimasi – “shahar”)
<b>Goplitlar</b>	og‘ir qurollangan piyoda jangchilar
<b>Attika</b>	Qadimgi Yunoniston sharqida joylashgan yarimorol
<b>Ilotlar</b>	spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi
<b>Periyeklar</b>	doriylar hokimiyatini o‘z ixtiyori bilan tan olgan Lakonikaning mahalliy aholisi
<b>Koloniya</b>	yunonlar Qora va O‘rtayer dengizlari sohillari bo‘ylab bosib olgan yerlar
<b>Amforalar</b>	sharob va boshqa suyuqliklarni tashish va saqlash uchun ikki dastali bo‘g‘zi tor ko‘zalar

### O‘qituvchi darslikning asosiy matnini Afina shahri haqida hikoya bilan to‘ldirishi mumkin.

Afina kabi jahon tarixida o‘chmas iz qoldirgan shaharlar sayyoramizda kam topiladi. Ko‘rkam shahar Bolqon yarimorolining janubiy tomonida joylashgan bo‘lib, Saronikos ko‘rfazining mavjlanuvchi suvlari bilan o‘ralgan. Afina – quyosh o‘lkasi bo‘lmish Yunoniston poytaxtidir. Tarix dalolat berishicha, shahar iloha Afina sharafiga nomlangan (taxminan mil. avv. XVI asr oxiri – XV asr

boshida). Ajoyib afsona shu to'g'rida so'zlaydiki, dengiz hukmdori Poseydon va iloha Afina qaysi birlari shahar rahnamosi bo'lishga munosibroq ekanliklari borasida bir to'xtamga kelolmabdilar. Xudolar muhokamasi boshlanibdi. Kimning shaharga tuhfasi eng qimmatli bo'lsa, hokimiyat o'shanga nasib etadi, degan qarorga kelishibdi. Poseydonning uch ayrili nayzasi zarbidan qoyatoshda dengiz suvi bulog'i ochilibdi. Go'zal Afinaning nayzasi zarbidan yerda zaytun daraxti o'sib chiqibdi. Shahar hokimasi bo'lish Afinaga nasib etibdi, xudolar uning tuhfasini qimmatliroq deb topishibdi. Shu zaylda shahar Afina deb nomlandi.

Afinada Aflotun, Suqrot, Sofokl, Yevripid, Esxil kabi buyuk mutafakkirlar dunyoga kelgan. Shahar tarixi juda qadim o'tmishga borib taqaladi. Mil. avv. 1-mingyillikda Afina Qadimgi Yunonistonning nufuzli shahriga aylanib ulgurgandi. Bu yunon sivilizatsiyasining yuksalish yillari edi. "Yunonistonning oltin davri" (mil. avv. V–IV asrlar) davomida Afina G'arb dunyosining asosiy ilmiy va madaniy markazi sanalib, keyinroq butun G'arb sivilizatsiyasi beshigiga aylandi. U zamonlarda bu yerda mashhur faylasuflar va olimlar, rassom va haykaltaroshlar, shoir va dramaturglar yashadi.

Yunon-fors urushlari davrida (mil. avv. 490-yilda) shahardan 40 kilometr olisda mashhur Marafon jangi bo'lib o'tdi. Afinaliklar plateyaliklar bilan ittifoq tuzib, Miltiad boshchiligida forslarning son jihatdan ustun lashkarini tor-mor etdilar. Ammo oradan o'n yil o'tib Kserks I Afinani bosib olib, Akropoldagi ibodatxonani vayronaga aylantirdi. Mil. avv. 480-yil 20-sentyabrda Salamin yonida o'tgan jangda Femistokl Fors flotini yo'q qildi, uning podshosini esa qochishga majbur etdi. Mil. avv. 431-yilda Afina bilan Sparta urushi boshlandi. Afinada tarqalgan o'lat sababli shahar mag'lub bo'ldi, qal'a devorlari esa butunlay buzib tashlandi. Ammo bugun ham, ayniqsa, Pirey bandargohi bo'yida shahar istehkomlari qoldiqlari topilmoqda. Afina So'nggi Rim davri boshlanishiga qadar gullab-yashnab, fan va ta'lim markazi bo'lib qoldi.

#### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

#### **Uy vazifasi.**

1. 23–24-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot**

#### **Qadimgi Yunoniston yuksalishi**


Mil. avv. IX–VII asrlarda Yunonistonda shahar-davlatlar (polislar) tashkil topdi Yunoniston qo'shinlarining og'ir qurollangan askarlari – goplitlar;

Qo'shinlarning to'rtburchak shaklida saflanishi – falanga;

Akropol – yuqori shahar (shahar markazi);

Afina – Akropol atrofida vujudga kelgan shahar Meteklar – chet elliklar;

Afinaning bosh bandargohi – Pirey.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 35-DARS. QADIMGI YUNONISTONNING YUKSALISHI

### Dars maqsadlari:

- Spartaning tarixiy rivojlanishi o‘ziga xosligini ko‘rsatish;
- tarixiy xaritalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishni davom ettirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarni o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma‘naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma‘lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta‘minlash va ma‘lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 22-§, 88–92-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 13-b. Qadimgi Yunoniston (mil. avv. 2-mingyillik oxiri – 1-mingyillik boshi)
3. Konturli xaritalar, 7-b. Qadimgi Yunoniston (mil. avv. 2-mingyillik oxiri – 1-mingyillik boshi).
4. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Polislar** – yunonlarning mamlakatdan tashqaridagi mustaqil shahar-davlatlari (yunonchadan tarjimai – “shahar”).

**Goplitlar** – og‘ir qurollangan piyoda jangchilar.

**Attika** – Qadimgi Yunoniston sharqida joylashgan yarimorol.

**Ilotlar** – spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi.

**Periyeklar** – doriylar hokimiyatini o‘z ixtiyori bilan tan olgan Lakonikaning mahalliy aholisi.

**Koloniya** – yunonlar Qora va O‘rtayer dengizlari sohillari bo‘ylab bosib olgan yerlar.

**Amforalar** – sharob va boshqa suyuqliklarni tashish va saqlash uchun ikki dastali bo‘g‘zi tor ko‘zalar

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.


### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

## Dars rejasi:

1. Afinada ta'lim.
2. Sparta.

## Dars mavzusi ustida ishlash.



### O'qituvchi darslikning asosiy matnini gimnaziya va litsey so'zlari qanday paydo bo'lgani haqida hikoya bilan to'ldirishi mumkin.

Mamlakatimizda bolalar uchun turli o'quv muassasalari, jumladan, gimnaziya va litseylar bor.

Ilk litsey (u davrlarda “likey” deyishgan) Afinada ikki ming yildan ko‘proq vaqt ilgari paydo bo‘lgan. Uni buyuk faylasuf Arastu Likeylik Apollon (“likey” so‘zi shundan olingan) ehromi yaqinida tashkil etgan.

Ehrom yonida likey barpo etilishidan ancha oldin bu yerda mashhur gimnasiy – jismoniy barkamollik maktabi bo‘lgan. Aytish kerakki, yunonlar tana go‘zalligiga katta ahamiyat berishgan, o‘sha davrdagi ko‘p olimlar yaxshigina sportchilar edi. Likeydagi gimnasiyda o‘smirlarga kurash, gimnastika, ot minish o‘rgatilgan. Endilikda gimnasiy (tana maktabi) yonida likey (ong, tafakkur maktabi) vujudga keldi.

Afinaliklar ko‘p vaqtlarini o‘zga odamlar bilan muloqotda o‘tkazishgan, ular suhbat qurishni yoqtirganlar. Ta’lim jarayoni ko‘p jihatdan og‘zaki edi: likeyda sayr qilib va suhbatlashib o‘qishgan.

### O'qituvchi darslikning asosiy matnini spartaliklar hayoti haqida quyidagi hikoya bilan to'ldirishi mumkin.

Agarda chet ellik Spartaga tush paytida kelib qolsa, ko‘chalar spartaliklar o‘tirgan stollar bilan to‘lib ketganini ko‘rib, hayratga kelgan bo‘lard. Bu shaharda erkaklar o‘z oila davrasida ovqatlanmagan. Ular ovga chiqqan yoki tobi qochgan hollardan tashqari barcha vaqtda hamma birga ovqatlanishi shart edi. Bu umumiy ovqatlanish marosimi – “sissitiya” deb atalgan. Ammo bu shunchaki umumiy tushliklarga emas, balki 15–20 kishidan iborat sissitlar deb atalgan guruhlar edi. Ular bir harbiy qismda xizmat qilishar, o‘zaro qalin do‘st edilar.

Har bir yangi kelgan odamni umumiy tushliklar o‘tkazilgan chodirga olib kirishar va boshiga jom qo‘ygan qul hammani aylanib chiqardi. Qul kimning oldiga kelsa, o‘sha odam nondan sharcha yasab, jomga tashlard. Agar kimdir sharchani tashlay turib uni barmoqlari bilan sal ezib qo‘ysa, buni hech kim ko‘rmasdi. Ezilgan sharcha uni tashlagan odam yangi kelganni sissitiyaga qabul qilishni xohlamayotganini anglatardi. Bu rad javobi uchun kifoya edi, chunki qabul qilish haqida qaror yakdil bo‘lishi kerak edi. Sissitiyada hech bo‘lmasa ikki kishi bir-birini xush ko‘rmasligi mumkin emas edi. Bu shirkatda kelishmovchilik keltirib chiqarishi va sissitlar jang maydonida yonma-yon urishadigan bo‘lsalar, dahshatli oqibatlariga olib kelishi mumkin edi.

Spartaliklar sissitiyalarga to‘q holda kelishi taqiqlangan edi. Hech kim ovqatini chala qoldirmasligini hamma kuzatib turardi. Bu sissit boshqa biror joyda tushlik qilganini anglatar, demak, u umumiy dasturxonni o‘zi uchun nomunosib hisoblangan bo‘lardi. Bunday odamga jarima solinib, u shirkatdan chiqarib yuborilishi mumkin edi.

Tushliklarda bolalar hozir bo‘lishiga ruxsat berilardi, ammo stol oldida gap sotish uchun emas, balki u hikoya qilingan ajoyib voqealarni yoki qariyalar yoshlarga bergan dono maslahatlarini tinglash uchun shunday qilinardi. Bundan tashqari, bolalar odamning nafsoniyatiga tegmasdan kamchiliklar ustidan kulishni o‘rganishardi. Agar bolakay spartaliklar ovqatlanayotgan chodir bo‘sag‘asi-dan ilk marta qadam tashlab o‘tsa, kattalardan birontasi: “Bu yerda aytilgan so‘z shu yerda qolishi kerak”, derdi.

## Sparta

Qadimgi Yunonistonning boshqa shaharlariga qiyoslaganda Spartadagi noyob davlat va ijtimoiy tuzum ko‘pgina badiiy asarlar mavzusiga aylangan. Sparta bugun ham zamonaviy madaniyat arboblari e‘tiborini jalb qilmoqda. Amerikalik rejissyor Z. Snayderning “Spartalik 300 bahodir” nomli mashhur filmi – bunga yorqin misoldir.

Spartiatlarning asosiy faoliyati fuqarolik huquqlariga ega bo‘lmagan aholini itoatkor holatda ushlab turishdan iborat bo‘lib, shu sababli spartiatlar ko‘p vaqtlarini harbiy va jismoniy mashg‘ulotlarda, jangovar tayyorgarliklarda, yurishlarda o‘tkazardilar. Garchi ularning barchasi savodli bo‘lsa-da, deyarli hech qanday adabiyot va san‘at yodgorliklarini qoldirishmagan. Holbuki, bu yodgorliklarga asoslanib Sparta hayoti va urf-odatlarini haqida tasavvurga ega bo‘lish mumkin edi. Shu sababli bugun Qadimgi Sparta haqida barcha bilganlarimiz qadimiy afinaliklar, masalan, yozuvchi Ksenofont asarlaridan ma‘lum. Afina esa Qadimgi Yunonistonda Spartaning asosiy siyosiy raqibi bo‘lib, aynan Sparta bilan shafqatsiz va halokatli Peloponnes urushida Afinaning Bolqon yarimorolidagi hukmronligi barham topdi. Ayonki, afinaliklar Sparta tuzumini ko‘pincha yanglish tasvirlab, uning yomon taraflarini bo‘rttirib ko‘rsatishga harakat qilardilar.

Peloponnes yarimoroli (Bolqon yarimorolining janubiy qismi)dagi Lakonika viloyati markazida joylashgan Sparta shahrining o‘zi juda qadimiydir va bronza davrida, Miken sivilizatsiyasi paytidayoq mavjud edi. Temir davri boshlangach, mil. avv. XIII–XII asrlarda ilgari Bolqon yarimoroli shimolida yashagan doriy qabilalari Spartani zabt etishdi. Doriylarning qurollari – temir qilichlarga yunonlarning bronza qurol-yarog‘lari dosh berolmadi. Doriylar xuddi o‘sha spartiatlarning ajdodlaridir.

Spartaliklar turmush tarzi ijtimoiy tenglikka asoslangan bo‘lib (ularning tabaqasi doirasida), buning uchun ular o‘z muhitida mulkiy qatlamlanishga va hatto har bir fuqaroning shaxsiy o‘shiga faol qarshilik ko‘rsatishgan.

Hech kim boy yoki kambag‘al bo‘lishi mumkin emasdi. Spartada xorijiy pullar, ya‘ni, mis, kumush va oltin tangalar muomalasi man etilgandi. Spartaliklar uzoq vaqt og‘ir temir tayoqchalar ko‘rinishidagi o‘z pullaridan foydalanishgan.

Biror mahsulot sotib olmoqchi bo‘lgan Lakonika fuqarosi aravaga ot qo‘shib, uni og‘ir temir tayoqchalar bilan to‘ldirgan (ularni xaridlar uchun yetarli miqdorini qo‘lda ko‘tarib yurish ilojis edi). Bozorda aravadan og‘ir pullarni olib, sotuvchilarga berar va aravasiga xarid qilgan mollarini yuklardir.

Ravshanki, bunday pullarni og‘irligi tufayli jamg‘arish, o‘g‘irlash va hatto bozorga tez-tez borish

qiyin edi. Bu esa spartaliklarni mol-davlat to'plashdan tiyib turardi.

Bundan tashqari, Sparta xorijiy mollarni olib kirish taqiqlangan, asosan o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlar savdosi bilan shug'ullangan periyeklarga esa zeb-ziynat buyumlarini ishlab chiqarish man etilgan edi. Sparta bozorida faqat mahalliy kiyim-bosh, oddiy xo'jalik mollari, qurol-yarog' sotib olsa bo'lardi. Spartaliklar asosan o'z dalalarida ilotlar yetishtirgan mahsulotlarni iste'mol qilishardi. Har bir spartalik shaxsiy hovlisidagi omborda don-dun va oziq-ovqat to'plab, eshikka qulf osmasdi: yo'lga olvolgan yeguligi tugagan tasodifiy yo'lovchi spartaliklar istalgan vaqtda omborga kirib, zaxiralarini to'ldirib olishlari uchun shunday qilardi. Albatta, mutlaqo bepul. Odatda erkak spartaliklar o'z harbiy bo'linmasining umumiy yemakxonasida ovqatlanardi. Ularning har biri umumiy tushlikka mahsulot va pul ko'rinishida o'z ulushini kiritardi.

Hattoki, jangda dushmani tor-mor etgan Sparta podshosi umumiy ziyofat o'rniga g'alabani rafiqasi bilan nishonlagani uchun jarimaga tortilgan voqealar ham bo'lgan. Spartalik jangchilarning asosiy ovqati qonli to'ng'iz go'shtidan pishirilgan yovg'on sho'rva edi. Ov spartalik erkaklar uchun g'oyat muhim edi, bunda ular nafaqat yegulik topishgan, balki jangda zarur chaqqonlik va merganlikni mashq qilishgan. Har bir sog'lom erkak spartalik jangchi edi. Kasalligi yoki nogironligi tufayli harbiy xizmatga yaroqsiz erkaklarning fuqarolik huquqlari cheklab qo'yilgan.

Spartaliklar hayotining asosiy qismi harbiy mashg'ulotlar, tayyorgarliklar va yurishlarda o'tgan. Spartalik nayza va kalta qilich bilan qurollangan, uni dumaloq qalqon, dubulg'a, sovut va poyband (oyoqni to'sib turadigan zirh) himoya qilgan. Xuddi yunonlarga o'xshab, spartaliklar falanga – nayzalari o'qtalغان piyodalar safi ko'rinishida hujum qilgan. Otliq askarlar Sparta qo'shinlarida keng tarqalmadi. Spartaliklar g'oyat chidamli va intizomli jangchilar bo'lib, ularning lashkari o'z jangovar xususiyatlariga ko'ra Qadimgi Yunonistonning boshqa polislari qo'shinlaridan ustun turardi.

Bugun "spartalik" deganda faqat jangovar jasurlik esga keladi. Darhaqiqat, spartaliklar avvalo askar jasoratini ustun qo'yishgan va aynan Lakonikada "qalqon bilan yoki qalqon ustida" iborasi paydo bo'lgan, ya'ni, qurolni tashlab, jang maydonidan qochgandan ko'ra jasadini qalqon ustida olib kelishganini afzal ko'rganlar. Lekin baribir spartaliklar jasurlikdan ko'ra ko'proq intizomni va qo'mondon buyrug'i so'zsiz bajarilishini qadrlashgan. Hatto hozir ham "Spartacha tarbiya" iborasi ko'p ishlatiladi. O'sayotgan avlod tarbiyasiga spartaliklar alohida e'tibor berishgan, bu davlat va jamiyatning eng muhim majburiyati hisoblangan, chunki spartaliklar yoshlar tarbiyasini barqarorlik va farovonlik garovi deb bilganlar.

Spartaliklarning barcha farzandlari davlatga tegishli bo'lgan va ota-onalarning ularga ko'p ham hukmi o'tmagan. Ota yangi tug'ilgan chaqaloqni oqsoqollar hay'ati ko'rigiga olib borgan, ular chaqaloqda kasallik yoki majruhlik alomatlarini izlashgan. Agar chaqaloqda biror kasallik topishsa, uni Tayget tog'iga olib borib, o'sha yerda qoldirib ketishgan. Spartaliklar fikricha, kasal yoki majruh tug'ilgan odam uchun hayot o'limdan ham yomonroq. Ammo antik asarlarda ko'rsatilgan joylarda arxeologlar hech qanday chaqaloq suyaklarini topishmadi.

Bolalarni yetti yoshdan ota-onadan olib, davlat maktablarida tarbiyalab, otryadlar – agellarga birlashtirishgan. Chidamli va intizomli jangchini yetishtirish bosh vazifa sanalgan. Tarbiyachilar bolalarni abjir va jasur qilib o'stirish maqsadida ularni ataylab bir-biriga gij-gijlab, mushtlashishga majbur qilishardi. Har bir tarbiyalanuvchiga bir yilda bitta ko'ylak berilar, yozgi vaqtda esa bolalar odatda umuman kiyimsiz yurishardi. Yilda bir necha martagina hammomga tushishga imkon berishar, ammo har kuni, hatto qishda ham daryoda cho'milishardi. Bolalar o'zlari yig'ib kelgan qamish

to‘shamalar ustida uxlashgan.

Bolalarga jismoniy mashqlarni, xat-savodni, qo‘shiq aytish va cholg‘u chalishni o‘rgatishgan, umuman olganda, garchi o‘zgacha nisbatda bo‘lsa-da, boshqa yunon polislarida ham shunday qilishgan. Ammo harbiy ishlarda o‘ta band bo‘lgan spartaliklar boshqa polislar fuqarolari kabi ma‘naviy tarbiya bilan ko‘p shug‘ullanishmagan, shu sababli Sparta madaniyati haqida bizga kam ma‘lumotlar yetib kelgan. Bolalarni agellarda kam ovqatlantirishgan, ular yegulikni o‘zlari topishlari lozim edi. Garchi yuqorida aytilgandek, Spartada oziq-ovqat ham jamoatniki bo‘lgan va har bir ehtiyojmand uni yaqin hovlidan topishi mumkin bo‘lgan. Ayrim kunlari tarbiyalanuvchilarga suv berishmagan, shu tariqa ularni suvsizlikka chidashga o‘rgatishgan. Shuningdek, bolalardan doimo qisqa va lo‘nda gapirishni talab qilishgan, ortiqcha ezmalik uchun jazolashgan.

O‘smirlar yigirma yoshga to‘lgunga qadar harbiy ishni o‘rganishgan, shu bilan birga, ular jangchiga xos tashqi ko‘rinishlarini nazorat qilishlari kerak edi. Har yili oqsoqollar hay‘ati ularni ko‘rikdan o‘tkazar va nimjonlik yoki semizlik alomatini topishsa, ular o‘z tashqi ko‘rinishi bilan Spartaqa isnod keltirayapti deb hisoblab, jazolashardi.

Bu qadar qat‘iy tarbiya maktabini bitirgan o‘smirlar jangchilar safiga olinib, o‘n yil xizmat qilishgandan so‘ng to‘la huquqli fuqarolarga aylanishgan. Spartacha tarbiyaning barcha bosqichlariga dosh berolmagan o‘smirlarning fuqarolik huquqlari cheklanib, rahbarlik lavozimlarini egallashi va xalq yig‘inlarida qatnashishi taqiqlangan. Qizlar jamoat maktablarida tarbiyalangan, ular ham turli jismoniy mashqlarni o‘rganishgan, chunki spartalik qiz turmush o‘rtog‘i harbiy yurishga ketgan paytda isyon ko‘targan qullar hujum qilib qolsalar, uyini va o‘z oilasi mulkini himoya qilishga shay turishi talab qilingan.

Ammo doimo harbiy xizmatda band erkaklarga qaraganda spartalik ayollarning shaxsiy hayot uchun ko‘proq vaqtlari bo‘lgan. Spartaliklar boriga qanoat qilib, sodda hayot kechirishgan. Ular hatto poyabzal kiyishmagan, faqat olis yurishlar vaqtidagina oyoqlarini charm laxtaklar bilan o‘rab olishgan. Davlat spartaliklarning uylari qanday ko‘rinishini, qanday kiyimlar kiyishlarini qat‘iy belgilagan.

### **Topshiriq.**

Yangi joyga ko‘chib kelgan yunon nomidan kichik hikoya yozing. Bunda quyidagi so‘zlardan foydalaning: bir siqim tuproq, olov, xudolarga qurbonlik, chorva, qurol-yarog‘, urug‘lar, ibodatxonalar, uy-joylar.

### **Darsga yakun yasash.**


1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. Konturli xaritani to‘ldirib, yunonlar koloniyalashtirishi yo‘nalishlarini va ular asos solgan koloniyalarni ko‘rsating.
2. 22-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
3. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
4. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

Pedagog – yunonchadan tarjimasi – bolani yo'lda kuzatib boruvchi;  
 Stil – yozish uchun metall tayoqcha;  
 Palestra – gimnastika maktabi;  
 Mil. avv. XII asr – doriylar  
 Lakonikani bosib olib, Spartaga asos soldilar;  
 Ilotlar – spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi;  
 Periyeklar – Spartaning to'la huquqlarga ega bo'lmagan fuqarolari;  
 Sparta – harbiy shahar.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



### 36-DARS. YUNON KOLONIYALARI

#### Dars maqsadlari:

- yunon koloniyalarining vujudga kelishi sabablarini izohlash;
- yunonlar koloniyalashtirishi yo'nalishlarini ko'rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

**O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzu bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.**

1. Yunon shahar-davlatlari qanday vujudga kelgan? (shahar atrofidagi manzilgohlarni birlashtirish orqali)
2. Mil. avv. 1-mingyillikdagi eng yirik shahar-davlatlar nomlarini ayting. (Afina va Sparta)
3. Yunon shahar-davlatlari qanday atalgan? (polislar)

4. “Polis” soʻzining yunonchadan tarjimasi qanday maʼnoni bildiradi? (shahar)
5. Yunonistonda ogʻir qurollangan piyoda jangchilar qanday atalgan? (goplitlar)
6. Afina aholisi qanday guruhlarga boʻlingan? (uch guruhga – qullar, chet elliklar (meteklar) va fuqarolar)
7. Aholining uch guruhi orasida kim toʻla-toʻkis huquqlarga ega edi? (fuqarolar)
8. Afinaning bosh bandargohini ayting. (Pirey)
9. Afina dengiz ittifoqining xazinasi qaysi shaharda joylashgan edi? (Afinada)
10. Nega Afina davlati fuqarosi boʻlish nafaqat faxrli, balki foydali edi? (chunki davlat xizmatchilari mehnatiga haq toʻlangan)
11. Bolalarga palestrada nimalar oʻrgatilgan? (adabiyot, sheʼr yozish va musiqa sanʼati)
12. “Disk uloqtiruvchi” haykalini kim ishlagan? (Miron)
13. “Nayzabardor”ni yasagan haykaltarosh? (Poliklet)
14. Mil. avv. X asrda Janubiy Yunoniston hududiga qaysi qabilalar bostirib kirgan? (doriylar)
15. Doriylar Lakonika hududida qaysi davlatni va qachon bunyod etishgan? (Sparta, mil. avv. X asrda)
16. Spartaning mahalliy aholisi qanday atalgan? (ilotlar)
17. Periyeklar – bu ... (Spartaning toʻla huquqlarga ega boʻlmagan fuqarolari)
18. Nega spartaliklar faqat harbiy ish bilan shugʻullanishgan? (chunki ularning soni mahalliy aholi – ilotlardan ancha kamroq boʻlgan)

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 23-§, 93–94-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 13-b. Yunon koloniyalari (mil. avv. VIII–VI asrlar).
3. Tarqatma material: testlar toʻplami, lugʻat bilan ishlash uchun kartochkalar.

### **Dars rejasi:**

1. Yangi yerlarni oʻzlashtirish sabablari.
2. Yunon koloniyalarining tashkil topishi.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

Polislar – yunonlarning mamlakatdan tashqaridagi mustaqil shahar-davlatlari (yunonchadan tarjimasi – “shahar”).


Attika – Qadimgi Yunoniston sharqida joylashgan yarimorol.

Koloniya – yunonlar Qora va Oʻrtayer dengizlari sohillari boʻylab bosib olgan yerlar.

**Maʼlumot darslik hajmida, “Yunon koloniyalari” videofilmini tomosha qilish orqali oʻrganiladi.**

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

Darslik maʼlumotlari asosida.



### O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

1. Yunonlar koloniyalashtirishi boshlanishining asosiy sababini ayting. (ishsizlik, qashshoqlik)
2. Nega davlat kolonistlarning o'zga yerlarga ko'chib o'tishidan manfaatdor edi? (norozilar Yunonistonni tark etishlari uchun)
3. Yunonlar koloniyalashtirishi yo'nalishlarini ayting. (Qora va O'rtayer dengizlari sohillari, Sisiliya, Apennin yarimorolining janubi)
4. Yunonlar koloniyalarga ommaviy ko'chib o'tgan davrni ayting. (mil. avv. VIII–VI asrlar)
5. Yunonlarning Qora dengiz sohilidagi koloniyalarini sanab o'ting. (Xersones, Pantikapey, Olviya)

### Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

Qora dengiz sohillaridagi koloniya-manzilgohlar – Olviya, Xersones, Pantikapey;  
Mil. avv. VIII–VI asrlar – buyuk yunonlar koloniyalashtirishi;  
Mil. avv. VIII asr – yangi alifbo – 24 harf.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 37-DARS. AFINADA DEMOKRATIYA

### Dars maqsadlari:

- Afinada demokratiya shakllanishi jarayonini ko'rsatish va unga ta'rif berish;
- Afinada demokratiya mil. avv. V asrda yuksalish cho'qqisiga yetganini, ammo cheklangan xususiyatga ega bo'lib, ozod fuqarolarning kichik doirasiga taalluqli bo'lganini ko'rsatish;
- Solon islohotlari bilan tanishtirish va ularning Afinada demokratiya shakllanishida tutgan o'rnini ko'rsatish;
- Drakont qonunlariga va ularning jamiyat rivojlanishiga salbiy ta'siriga ta'rif berish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 24-§, 95–98-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 13-b. Qadimgi Yunoniston (mil. avv. 2-mingyillik oxiri – 1-mingyillik boshi)
3. Konturli xaritalar, 7-b. Qadimgi Yunoniston (mil. avv. 2-mingyillik oxiri – 1-mingyillik boshi).
4. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Demos** – xalq.

**Demokratiya** – yunonchadan tarjimasi – “xalq hokimiyati”.

**“Perikl asri”** – Periklning Afinada 15 yil davomida, mil. avv. 444–429-yillardagi hukmronlik davrini tarixchilar shunday atashgan.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e’lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Afinada demokratiya shakllanishi.
2. Drakont qonunlari.
3. Solon islohotlari.
4. Afinada demokratiya ravnaqi.
5. “Perikl asri”.



### Dars mavzusi ustida ishlash.

Mazkur ma’lumotni o‘rganishning asosiy usuli – qonunlarni sharhlab o‘qish va o‘qituvchining hikoyasi, shuningdek, o‘quvchilarning Solon islohotlariga va Drakont qonunlariga munosabati haqida ular bilan suhbat qurishdir.



### Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e’lon qiladi.
2. Yangi mavzuni o‘rganish chog‘ida ham alohida o‘quvchilarning, ham butun sinfning ishi

baholanadi.

3. O'qituvchi savollarga javob beradi.

#### Uy vazifasi.

1. 26-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritaning yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

#### Afinada demokratiya

Demokratiya – yunonchadan tarjimasi “xalq hokimiyati”;

Akropolda – agora – markaziy maydon;

Drakont qonunlari – “qon” bilan yozilgan Zodagonlar – boy fuqarolar;

Demos – kambag'al xalq;

Solon islohotlari – hokimiyat shaklini o'zgartirdi – aristokratiyani demokratiyaga almashtirdi;


Ammo: ayollar va meteklar davlat boshqaruvida qatnashish huquqiga ega emasdilar – cheklangan monarxiya;

Qullik bekor qilinmadi – “gapiruvchi mehnat qurollari” (qullar);

Afina boshqaruvi: Xalq yig'ini – strateg – Beshyuzlar kengashi – Xalq sudi;

Perikl – strateg – Afina ravnaqi;

Parfenon – iloha Afina ibodatxonasi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



### 38-DARS. YUNON-FORS URUHLARI

#### Dars maqsadlari:

- yunonlarning fors istilochilariga qarshi ozodlik urushida ko'rsatgan jasoratlari va vatanparvarligini ko'rsatish;
- forslarning bosqinchilik rejalarini va yunonlar tomonidan olib borilgan urushning mudofaa xususiyatini ochib berish;
- yunon-fors urushlaridagi asosiy janglarni ta'riflash va o'quvchilarga yunonlar g'alabasining muqarrarligi haqida tushuncha berish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil

qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;

– umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 27–28-§, 99–102-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 15-b. Yunon-fors urushlari (mil. avv. 490–449-yy.).
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Yunon-fors urushlari** – forslarning Yunonistonni bosib olish uchun yurishlari; ular Gerodot tomonidan mufassal bayon etilgan.

**Marafon** – Yunoniston janubi, O'rtayer dengizi sohilidagi shahar.

**Triyera** – har bortida uch qator eshkaklar o'rnatilgan kema.

**Fermopil darasi** – Shimoliy va O'rta Yunoniston oralig'idagi tog'lardagi tor yo'lak.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi:

1. Hamma qarorlar ovoz berish yo'li bilan qabul qilinadigan boshqaruv turi qanday atalgan? (demokratiya)
2. Drakont – bu ... (Afina davlatining hukmdorlaridan biri, qonunlarni tuzgan)
3. Drakont qonunlarni buzganlik uchun qanday jazo tayinlagan? (o'lim jazosi)
4. Solon islohotlari qaysi yili o'tkazilgan? (mil. avv. 594-yilda)
5. Solon qonunlarining asosiy mazmuni nimadan iborat? (ozod aholini qarzlari uchun qullarga aylantirish taqiqlangan)
6. Solon islohotlaridan so'ng Attika aholisi qanday ikki guruhga bo'lingan? (fuqarolar va qullar)
7. Afinada Kengash necha kishidan iborat edi? (500 kishi)
8. “Drakont qonunlari” tushunchasi bugun qanday ma'noda ishlatiladi? (shafqatsiz qonunlar)
9. Qaysi hukmdor davrida Afinada demokratiya yuksalish cho'qqisiga erishdi? (Perikl hukmronligida)
10. Xalq yig'ini Periklni qatorasiga necha marotaba strateg etib saylagan? (15 marotaba)
11. Perikl hukmronligida Afinada qaysi mashhur bino qurilgan? (Parfenon)

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.


### **Dars rejasi:**

1. Yunon-fors urushlari sabablari.
2. Marafon jangi.
3. Fermopil jangi.
4. Salamin jangi.

## Dars mavzusi ustida ishlash.

**O‘qituvchi darslikning asosiy matnini Marafon jangi haqida hikoya bilan to‘ldirishi mumkin.**

Ko‘p sonli fors lashkari kemalarda Yunonistonga yo‘l olib, Afina yaqinidagi Marafon degan qishloq yaqinida sohilga tushib oldi. Agarda aholi o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lmasa, Afnani tag-tugi bilan yo‘q qilib tashlash haqida tahdid solgan dushman yaqinligi haqida ovozarlar butun shaharga yoyildi. Afinaliklar umidsizlikka tushdilar. Darhaqiqat, forslarning qo‘shinlari shunchalik ko‘p ediki, ularga qarshilik ko‘rsatish befoyda edi. Yunonlar darhol qo‘shnilardan yordam so‘rashdi, biroq ular Fors podshosi qahridan qo‘rqib, o‘zini xavf ostiga qo‘yishni istashmadi.



Faqat spartaliklarga afinaliklardan yordamni ayashmadi, ammo bu yordamni afinaliklar bir necha kundan keyingina olishlari mumkin edi, chunki spartaliklarning bir odati bor edi – ular oy to‘lganda hech qachon harbiy yurish qilmasdilar. Oy to‘lishi esa endi boshlanayotgandi.

Afnada bu davrda uch inson: Miltiad, Aristid va Femistokl yashardilar, ularning o‘zi butun boshli qo‘shinga arzirdi. Uchalasi ham mard jangchilar edi. Ular orasida Miltiad yoshi kattaroq bo‘lganligi bois forslarga qarshi yurish qiladigan lashkar qo‘mondoni etib tayinlandi.

Aristid va Femistokl tabiatan yaxshi odamlar edilar, ammo ular o‘rtasida eski adovat bor edi va faqat vatanlariga tahdid solgan dahshatli xavf ularni yarashtirdi. Ikkala raqib Miltiad lashkariga qo‘shildi. Ammo ular shunchalik kam qo‘shin to‘plashdiki, g‘alaba qozonish uchun har bir afinalik o‘n nafar dushmanni yer tishlatishi kerak edi, bunga esa aql bovar qilmasdi.

Buning ustiga, afinaliklar lashkari oz bo‘lgani bois forslarning qudratli otliq qo‘shinlariga qarshi hech narsa qilolmasdilar. Miltiad ularda asosiy xavfni ko‘rib, otliq qo‘shinlar hujum qilib, uning oz sonli lashkarini qurshab olmasligi uchun harakat qildi. Bu maqsadda u kechasi daraxtlarni kesib ag‘anatib, shoxlarini kesmasdan, ularni betartib holda qoldirishni buyurdi.

Fors qo‘shinlarining kuchli va zaif jihatlarini bilgan Miltiad esa o‘z lashkarini Marafon qishlog‘i yaqinidagi tog‘ etagida, tor tekislikda joylashtirdi.

Afinaliklar dushmanni ko‘rib, birinchi bo‘lib hujumga o‘tdilar. Yunonlar o‘z qurol-yarog‘lari ustunliklaridan, jangovar tajriba va zich joylashgan safda jang qilish mahoratidan unumli foydalandilar. Bunday matonatni kutmagan forslar hayratga tushib, jangovar saflarini buzib yuborishdi. Forslar o‘zlariga kelishiga bir lahza ham fursat bermay, yunonlar ularga hamma yoqdan yopirishdi. Forslar qarshilik ko‘rsatish mutlaqo befoydaligini ko‘rib, Yunonistonga suzib kelgan kemalari turgan dengizga otildilar. Ular qudratli otliq qo‘shinlarini kemadan sohilga tushirishga ham ulgurishmadi. Vatani uchun jonini ayamagan afinaliklarning bu jangda ko‘rsatgan jasorat namunalari manbalar orqali bizgacha yetib kelgan. Jang hali tugamasidan, kuni bilan jang qilgan bir afinalik qurol-yarog‘lari og‘ir

bo'lishiga qaramay, mashhur g'alaba haqida xabarni Afinaga birinchi bo'lib yetkazishga ahd qiladi. Ammo u 42 kilometrlik masofani bosib o'tishi kerak edi, bu masofani bir necha soatda yugurib o'tadi. U shahar darvozasi oldiga yugurib kelgach, azbaroyi horiganidan "G'alaba, g'alaba!" deya xitob qilishga qurbi yetgan, xolos. Shu so'zlarni aytgan-u, o'sha ondayoq jon taslim qilgan. Afsuski, tarixda uning ismi saqlanib qolmadi.

Marafon jangi bo'lib o'tgan joyda afinaliklar yodgorliklar bunyod etishdi va ularga vatani uchun jon fido qilgan barcha yunonlarning ismlari yozib qo'yildi.

### **Jasoratga yana bir misol.**

Yunon-fors urushlari davrida – mil. avv. 480-yilda podsho Leonid boshchiligidagi 300 nafar spartalik Fermopil darasini forslardan mudofaa qilib, hammasi qahramonlarcha halok bo'ldi.

"Kserks (fors podshosi) Fermopilda ellinlar, ya'ni, yunonlar otryadi turganidan allaqachon xabar topgan edi. U o'sha yerga josus jo'natib, unga yunon qo'shinlari sonini va ularning rejasini bilib kelishni buyuradi. Josus qaytib, shu zahoti podsho huzuriga keladi:

– Xo'b g'alati narsalarni ko'rdim-da, shohim. Juda oz sonli askarlar devorni qo'riqlab turardi (yunonlar darani to'sib qo'yishgandi). Ammo kimdir nayza otib mashq qilar, kimdir kurash tushar, kimdir uzun sochlarini tarab, boshlarini gullar bilan bezardi!

Podsho kulib yuboribdi:

– Ular jangga shunday tayyorgarlik ko'rishyaptimi hali?

U Demaratni (Spartada tojidan mahrum qilingan podsho) huzuriga chaqirtiradi.

– Menga bir narsani tushuntirgin-chi, Demarat, sen spartaliksana-ku axir: nega bu odamlar jangga tayyorgarlik ko'rish o'rniga o'zlarini bu qadar beg'am tutayaptilar?

Demarat sezdirmay xo'rsinib qo'yibdi, u yurtdoshlari nima qilayotganini fahmlab turardi.

– Sizga bu xalq haqida ilgari ham hikoya qilgandim-ku, ulug' shoh. Bu spartaliklar. Ammo siz ustimdan kulgan edingiz. Men uchun, ulug' shoh, sizga qarshi haqiqatni aytish – eng mushkul vazifadir. Ammo baribir menga quloq soling. Bu odamlar biz bilan kurashish uchun kelgan, ular jangga hozirlik ko'rishmoqda. Ularning bir odati bor: hayot-mamot jangiga kirishishdan oldin boshlarini gullar bilan bezaydilar. Shuni bilinki, ulug' shoh, agar bu askarlarni va Spartada qolgan odamlarni mag'lub etsangiz, dunyoda bironta xalq sizga qo'l ko'tarishga jur'at qilolmaydi. Hozir siz Elladaning eng jasur kishilariga qarshi urush olib boryapsiz".

### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 5-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## **Intellekt-xaritaning yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot**

Yunon-fors urushlari

Mil. avv. 490–449-yy. – yunon-fors urushlari (41 yil) sababi – forslar yunonlarning Kichik Osiyodagi polislarini bosib olishdi

Mil. avv. 490-yil – Marafon jangi – yunonlar g'alaba qozondi – 42 km – marafoncha yugurish Miltiad – yunon qo'shinlari qo'mondoni

Mil. avv. 480-yil – Fermopil jangi – qo'mondon Leonid – "Uch yuz spartalik jasorati".



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 39-DARS. MAKEDONIYANING YUNONISTONNI BOSIB OLISHI

### Dars maqsadlari:

- Makedoniyaning Yunonistonni bosib olishi sabablarini ko'rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 27–28-§, 99–102-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 16–17-b. Mil. avv. 334–325-yillarda Makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlari.
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzu bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi:

1. Yunon qo'shinlarining to'rtburchak shaklida saflanishi qanday atalgan? (falanga)
2. Yunon-fors urushlari qaysi yillarda bo'lib o'tgan? (mil. avv. 490–449-yy.).
3. Fors davlatining qaysi hukmdori Yunonistonni bosib olishni boshlagan? (Doro I).
4. Yunonistonning qaysi shahar-davlatlari forslarga bo'ysunishdan bosh tortgan? (Afina va Sparta).
5. Fors podsholari qaysi asrda Kichik Osiyodagi yunon polislarini bosib olishgan? (mil. avv. VI asrda).
6. Marafon jangi qaysi yilda va kimlar o'rtasida bo'lib o'tgan? (mil. avv. 490-yilda, forslar va yunonlar o'rtasida)
7. Marafon jangida yunon qo'shinlariga kim qo'mondonlik qilgan? (Miltiad)
8. Chopar Marafon vodiysidan Afinaga qadar qancha masofani yugurib o'tgan? (42 km)
9. Marafon jangi qanday yakunlangan? (forlar tor-mor etilgan)
10. Fermopil jangi qachon bo'lib o'tgan? (mil. avv. 480-yilda)
11. Kserks nega dengizni “savallash”ni buyurgan? (po'rtana Kserks Gellespont bo'g'ozi orqali)

qurdirgan ko‘prikni vayron qilgani uchun)

12. Yunonlar nega Fermopil darasi yonida mamlakatni himoyalashga qaror qildilar? (bu Yunonistonning shimoli bilan janubini bog‘lab turgan yagona yo‘l edi)

13. Fermopil jangi qanday yakunlandi? (sotqin Kserks qo‘shinlariga boshqa yo‘lni ko‘rsatdi, ular yunon lashkarining orqa tomonidan o‘tib, tor-mor etadi)

14. Salamin jangi qachon bo‘lib o‘tgan? (mil. avv. 480-yil sentyabrda)


### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Yunoniston mag‘lubiyati sabablari.
2. Xeroniya ostonasidagi jang.
3. Yunoniston Makedoniya tarkibida.

### Dars mavzusi ustida ishlash (darslik matni bo‘yicha).



### Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 27–28-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritasi yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

#### Makedoniyaning Yunonistonni bosib olishi

Filipp II – Makedoniya podshosi Yunonistonni zabt etishni boshladi;

Falanga – 16 qatordan iborat to'rtburchak;


Notiq Demosfen Filippga qarshi chiqdi;

Mil. avv. 338-yil 2-avgust – Xeroniya ostonasidagi jang – makedoniyaliklar g'alaba qozondi;

Filipp II forslarga qarshi kurashish uchun o'zini bosh qo'mondon deb e'lon qildi;

Mil. avv. 336-yil – Filipp II soqchi tomonidan o'ldirildi;

Makedoniya podshosi – Makedoniyalik Aleksandr.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 40-DARS. YUNON FUQAROLARI TARBIYASI

### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Yunoniston maktablarining maqsadi – mamlakatning ichki va tashqi dushmanlardan faol himoyachilarini tarbiyalashdan iborat bo'lganini ko'rsatish;
- yunon teatr san'atining oliy maqsadi – yuksak fuqarolik hislarini tarbiyalashdan iborat bo'lgani haqida o'quvchilarda tushuncha hosil qilish;
- Qadimgi Yunoniston madaniyatining ahamiyatini va uning jahon madaniyati rivojiga ta'sirini ko'rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositallardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 29, 103–104-b.
2. Mavzuga oid multimedia vositalari.
3. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Gimnaziyalar** – fuqarolarning ta'lim olishi va muloqot qilishi uchun mo'ljallangan maxsus muassasalar.

**Olimpiya o'yinlari** – barcha yunonlarning bosh bayrami.

## Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

### Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

1. Fuqarolar tarbiyasi.
2. Olimpiya o'yinlari.

### Intellekt-xarita yaratgan holda mustaqil ishlash.


Fuqarolar tarbiyasi – jangchilar, Vatan himoyachilari;

Mil. avv. 776-yil – ilk Olimpiya o'yinlari – har 4 yilda – beshkurash;

Ippodrom – otchopar;

O'yinlar asoschisi – Gerakl, Zevsga bag'ishlangan Ishtirok etuvchilar – faqat erkak fuqarolar;

Milodiy 394-yil – Olimpiya o'yinlari to'xtatildi – xristianlik – 1896-yil – qayta tiklandi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 41-DARS. QADIMGI YUNONISTON MADANIYATI

### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Yunoniston maktablarining maqsadi – mamlakatning ichki va tashqi dushmanlardan faol himoyachilarini tarbiyalashdan iborat bo'lganini ko'rsatish;
- yunon teatr san'atining bosh maqsadi – yuksak fuqarolik hislarini tarbiyalashdan iborat bo'lgani haqida o'quvchilarda tushuncha hosil qilish;
- Qadimgi Yunoniston madaniyatining ahamiyatini va uning jahon madaniyati rivojiga ta'sirini ko'rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 30-§, 105–108-b.
2. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
3. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Parfenon** – Akropoldagi bosh ibodatxona.

**Teatr** – yunonchadan tarjimasi – “tomosha”.

**Difiramb** – madhiya qo‘shiqlar.

**Tragediya** – xudolar va afsonaviy qahramonlarning qilgan ishlari namoyishi, ular pyesa oxirida halok bo‘lganlar.

**Komediya** – quvnoq afsonalar namoyishi.

**Notiq** – nutq so‘zlashga usta kishi.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.


### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Gomerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlari.
2. Yunonistonda teatr.
3. Arxitektura va haykaltaroshlik.

### Dars mavzusi ustida ishlash.



### O‘qituvchi darslikning asosiy matnini Dionis teatri haqida hikoya bilan to‘ldirishi mumkin.

Akropolning janubiy yon bag‘rida, Dionis Elevationing muqaddas muzofotida joylashgan Afina teatri dunyoda birinchi teatr hisoblanadi. Bu yerda sahna ijrosi uchun mo‘ljallangan ilk asarlar yaratilib, Esxil, Sofokl, Yevripid va Aristofan kabi afinalik buyuk dramaturglar chiqish qilganlar.

Dionis teatri mil. avv. V asrda vujudga kelgan. Shu davrda teatrning uch tarkibiy qismi paydo bo‘lib, ular keyinchalik har bir antik teatr: orxestra, skena va teatron uchun asos yaratgan.

Orxestra – teatrning qadimiy qismi, xor va birinchi aktyorning chiqish joyidir. U dumaloq yoki yarim dumaloq shakldagi shibbalangan yer (keyinchalik – tosh yotqizilgan) maydonchasidan iborat edi. Orxestra orqasida yoki uning yonida skena – aktyorlar kiyinadigan chodir joylashgan. Tomoshabinlar uchun joylar teatron deb atalgan – ya’ni, “teatr” so‘zi shundan kelib chiqqan. Oddiygina teatr rekviziti orxestrani o‘rab olgan past va keng devor tagida joylashtirilgan.

Afinada teatr paydo bo‘lishi dionisiyalar – uzumchilik xudosi Dionis (Vakx)ga bag‘ishlangan har yilgi bayramlar bilan bog‘liq. Bunday kunlarda Afinada talay tomoshabinlarni to‘plagan Dionisiy agonlari – qo‘shiqchilar, qiroatxonlar, aktyorlar va shoirlar musobaqalari o‘tkazilgan. Xorlar Dionis sharafiga difiramblar kuylagan.

Dastlabki teatr juda oddiy edi. Orxestra, yon tomondan ikkita kirish joyi va Dionis haykali o‘rnatilgan kichkina ibodatxona uning yagona qurilmalari edi. Orxestra markazida Dionisga qurbongoh joylashgan bo‘lib, uning atrofida raqs ijro etilib, xor qo‘shiq kuylagan. Tomoshabinlar tabiiy amfiteatrdan iborat tepalik yon bag‘rida o‘tirishgan.

Antik teatr zamonaviy teatrga o‘xshamasdi. Teatr taomillari unda muhim o‘rin tutardi. Odatda tomoshada bir aktyor va xor ishtirok etishar, so‘ngra, dramaturgiya murakkablashgan sari aktyorlar soni uch nafarga yetardi. Antik teatrdan ommaviy sahnalar va bir guruh odamlar suhbatlari mutlaqo bo‘lmagan.

Antik teatrning ikkinchi xususiyati – aktyorlar niqob taqib o‘ynashgan. Niqoblar qator afzalliklar yaratgan: bir aktyor ham erkak, ham ayol, yosh va qarilar, ma’budlar, qahramonlar, xizmatkorlar va qullar rollarini ijro etgan. Teatr niqoblari va teatrning o‘zi Dionisga sig‘inish tufayli paydo bo‘lgan. Dionis bayramlari paytida yangi hosildan tayyorlangan ilk sharobni yuzga surtish odati bo‘lgan. Dionisning haykali ham (ba’zan butun gavdasi, ba’zan yuzi) qizil rangga bo‘yalgan. Yuzni bo‘yash odati asta-sekin niqob yaratilishiga olib kelib, u Dionis sharafiga kuylangan difiramblar jo‘rligida aktyorning qahramonga aylanishiga yordam bergan.

Mil. avv. 472-yilda Esxil tomonidan ikkinchi parda, so‘ngra mil. avv. 458-yilda Sofokl tomonidan uchinchi parda kiritilishi bilan orxestra orqasida silliq yog‘och devor paydo bo‘lib, u ovoz kuchaytiruvchi rezonator vazifasini bajardi. Avvalgi chodirning nomi – skena aynan unga o‘tkazildi. Skena ayni vaqtda dekoratsiya devori vazifasini o‘tagan. Unga yog‘och yoki matoga chizilgan dekoratsiyalar osib qo‘yilgan.

Teatr maydonining o‘zgarishi Dionisning eski teatrini tubdan qayta qurishni talab qildi. Bu ish mil. avv. 326-yilda afinalik mashhur qonun chiqaruvchi Likurg tomonidan amalga oshirilib, natijada teatr to‘liq shakllandi. Markaziy qismining uzunligi 46,3 metr, chuqurligi 6,4 metr keladigan tosh skena barpo etildi, orxestra kengaytirilib, eni 27 metrga yetkazildi, tomoshabinlar uchun joylar esa amfiteatr ko‘rinishida Akropol qoyasiga qadar ko‘tarildi.

Dionis teatridan bizgacha kam narsa yetib kelgan: tomoshabinlar o‘rindiqlari qatorlarining to‘rtidan bir qismi, orxestra va milodiy I asrda, Rim imperatori Neron hukmronligi davrida qurilgan, Dionis haqida afsonalardagi turli sahnalar tasvirlangan bo‘rtma suratlar bilan bezatilgan qadimiy skenaning o‘ng yarmi, shugina, xolos. Friz markazida Dionisning hamrohi Silenning haykali joylashgan: u egilib, skena polini o‘z yelkasida suyab turibdi.

### **Agar vaqt bo'lsa, o'qituvchi Akropol va Parfenon haqida hikoya qilishi mumkin.**

Ulug'vor Akropol me'moriy majmuasini yaratish tarixi yunonlarning forslar ustidan g'alaba qozonishi bilan bog'liq. Ajoyib g'alabalar silsilasi bilan yakunlangan Plateya jangi (mil. avv. 479-yil) oldidan afinaliklar ahd qildilar: forslar o't qo'yan va vayronaga aylantirgan qadamjolar "varvarlarning yovuzliklari" va Yunoniston mustaqilligi qanchalik qimmatga tushgani haqida eslatib turishi uchun xarobalar holida qolishi kerak. Mil. avv. 449-yilda barcha yunon shaharlarining vakillari yangi ibodatxonalar qurilishi haqida masalani muhokama etish uchun to'planib, Perikl taklif etgan Akropolda yangi binolar qurish rejasini ma'qullashdi. Mahobatli me'moriy majmua buyuk g'alaba haqida munosib yodgorlikka aylanishi kerak edi.

Qadimgi Yunonistonning iloha Afinaga bag'ishlangan eng mahobatli ibodatxonalaridan biri sanalgan Parfenon Akropolning yangi markaziga aylandi. Ushbu ibodatxona mil. avv. 447–437-yillarda me'morlar Iktin va Kallikrat tomonidan Afinaga bag'ishlangan eski ehrom poydevorida qurildi.

Ibodatchonaning tashqi devorlari perimetri bo'ylab 12 metr balandlikda Parfenonning mashhur frizi uzluksiz tasma bo'lib cho'zilib ketgan. Friz qismlari pastdan turib qaraganda deyarli ko'rinmaydi. Avvallari, frizdagi bo'rtma suratlarda to'rt yilda bir marta o'tkaziladigan "iloha Afinaning tavallud kuni" – Panafineyani nishonlash marosimidan sahnalar tasvirlangan deb hisoblangan. Nisbatan yaqinda e'tirof etilgan boshqa bir taxminga ko'ra, Parfenon frizida mil. avv. 490-yilda Marafon jangida halok bo'lgan 192 qahramon tasvirlangan. Friz toshlarida o'yib tushirilgan sahnalarda Marafon qahramonlarining o'limidan keyingi hayoti tasvirlangan: ular Olimp xudolari qarshisida hozir bo'lishmoqda.

Bugungi Parfenon, aniqrog'i, uning ulug'vor xarobalari oq rangda. Qadimda esa ibodatxona frontonlari qizil rangda, friz sahni esa – ko'k rangda edi. Bunday rangli sahnda marmar haykallar oppoq bo'lib yarqirab turardi. Ularning qismlariga tilla suvi yugurtirilgan yoki zarrin bronzadan yasalgan edi.

Ibodatchonaning ichki maydoni ikkita noteng qismga bo'lingan. Kichikroq g'arbiy qismi Afina respublikasining davlat xazinasini saqlash joyi bo'lib xizmat qilgan. Sharqiy qismi ikki qavatli ustunlar bilan uchta nefga bo'lingan edi. Bu yerda buyuk qadimgi yunon haykaltaroshi Fidiy yasagan jahonga mashhur Afina Parfenos (Bibi Afina) haykali joylashgan edi. Afina Parfenos sharafiga ibodatxona Parfenon deb nomlandi.

Ibodatchonaning markaziy zalini eshik orqali tushgan yorug'lik va ko'plab shamchiroqlar yoritib turgan. Bu yarim qorong'ilikda qimmatbaho ziynatlar bilan bezatilgan 12 metrlik Afina haykali yuksalib turgan. Fidiy Afinani uzun og'ir liboslarda, chap qo'li bilan qalqonga suyanib turgan holatda tasvirlagan. Qalqon ostida Erixtoniy degan ilon bo'lgan. Afina o'ng qo'lida G'alaba ma'budasi Nikaning haykalchasini ushlab turgan. Afinaning boshida hashamdor dubulg'a bo'lgan. Yuz va qo'llari fil suyagidan, liboslari, zeb-ziynatlari, qurol-yarog'i sof oltin varaqlaridan ishlangan.

Afina ushlab turgan qalqonda yunonlarning amazonkalar bilan jangi va gigantomaxiyalar – xudolarning gigantlar bilan kurash sahnalari tasvirlangan. Birinchi sahna qahramonlari orasida Fidiy o'zini tosh otayotgan qariya ko'rinishida tasvirlagan. Bunday dadillik shakkoklik deb sanalgan. Bunga Fidiy Afina haykalini yasash uchun olgan oltin va boshqa qimmatbaho javohirlarni suiiste'mol qilganlikda ayblovlar qo'shilgan. Oqibatda buyuk haykaltarosh mil. avv. 431-yilda qamoqqa tashlangan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Fidiy tutqunlikda vafot etgan, boshqa ma'lumotlarga ko'ra, badarg'a qilingan. Antik san'atning buyuk asari bo'lmish Afina haykali to'qqiz yildan ortiq vaqt yashab, zamon bo'ronlarida yo'qolib ketgan.

Zamondoshlar nigohida Parfenon Afina shon-shuhrati va qudratining timsoli edi. Bugun bu ibodatxona haqli ravishda antik me'morchilikning buyuk namunasi, jahon san'ati durdonasi sanaladi.

### Darsga yakun yasash.


1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 30-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritanani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

Shoir Gomer – “Iliada” va “Odisseya”;  
 Troya oti;  
 Axilles – “Axilles tovoni”;  
 1870-y. – Genrix Shliman Troyani ochdi,  
 Gisarlik shahri, Turkiya;  
 Qadimgi Yunonistonda teatr va arxitektura;  
 Faqat niqob taqqan erkaklar o'ynagan.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 42–43-DARS. QADIMGI YUNONISTON OLIMLARI VA MUTAFAKKIRLARI

### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Yunoniston olimlari va faylasuflarining yutuqlari bilan tanishtirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 29-§, 109–110-b.
2. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar.
3. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Falsafa** – tabiat va kishilik jamiyatining eng umumiy qonunlari haqidagi fan.

**Fales** – mil. avv. VI asrda Yunonistonda yashagan buyuk matematik va astronom.

**Pifagor** – mil. avv. V asrda yashagan mashhur yunon matematigi va faylasufi.

**Demokrit** – yunon faylasufi, fanga atom tushunchasini kiritgan.

**Aflotun, Suqrot** – mashhur yunon faylasuflari.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

1. Yunonistonda maktab ta‘limi qanday vazifani bajargan? (siyosiy faol fuqarolarni, davlat himoyachilarini tayyorlash)
2. Yunonlar qaysi alifbo asosida o‘z alifbosini yaratishgan? (Finikiya alifbosi asosida)
3. Yunon alifbosi Finikiya alifbosidan nimasi bilan farq qilgan? (yunon alifbosida unli harflar bo‘lgan)
4. Olimpiya o‘yinlari qaysi xudoning sharafiga o‘tkazilgan? (Olimpiyalik Zevs sharafiga)
5. Yunonlar qaysi qahramonni Olimpiya o‘yinlarining asoschisi deb hisoblashgan (Geraklni)
6. Olimpiya beshkurashi qanday sport turlaridan iborat edi? (uzunlikka sakrash, disk uloqtirish, nayza uloqtirish, yugurish va kurash)
7. Olimpiada g‘olibi qanday taqdirlangan? (zaytun gulchambar bilan)
8. Olimpiya o‘yinlari qaysi yili to‘xtatilgan? (milodiy 395-yilda)
9. Bugun Olimpiya o‘yinlari mash‘alasi qanday yoqiladi? (Olimpiada quyosh nurlaridan)
10. Olimpiya o‘yinlari qachon qayta tiklangan? (1896-yilda)
11. “Iliada” va “Odisseya” dostonlarining muallifi kim? (Gomer)
12. Gomerning “Iliada” dostonida qanday voqea tasvirlangan? (Troya urushi)
13. “Iliada” dostonining bosh qahramoni kim? (Axilles)
14. “Axilles tovoni” iborasi qanday ma’no anglatadi? (insonning zaif joyi)
15. “Iliada” dostoniga ko‘ra Troya urushiga nima sabab bo‘lgan? (Troya podshosi Paris tomonidan Sparta podshosining rafiqasi Sohibjamol Yelenaning o‘g‘irlanishi)
16. Troya qamali necha yil davom etgan? (9 yil)
17. “Iliada” qahramonlaridan qaysi biri Troya otini yasashni maslahat bergan? (Odissey)
18. Gomerning “Odisseya” dostonida nima haqida so‘z boradi? (Odisseyning Troya urushidan Itakaga qaytishi haqida)
19. “Teatr” so‘zining yunonchadan tarjimasi? (tomoshalar uchun joy)
20. Teatr tomoshasida qancha aktyor ishtirok etgan? (uch nafar)
21. “Shoh Edip” va “Antigona” kabi mashhur tragediyalarni kim yozgan? (Sofokl)
22. Qadimgi Yunonistonda komediyalarning eng mashhur muallifi kim? (Aristofan).
23. Olimpiyalik Zevs haykalining muallifi kim? (Fidiy)

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

Yunonistonda fan.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

**Yangi material mazmuni o‘quvchilar uchun bir oz murakkablik qiladi. Shu sababli yangi materialni o‘qituvchining hikoyasi va o‘quvchilar bilan suhbat tarzida o‘rganish tavsiya etiladi. Yunon olimlarining tarjimaiy holini mustaqil o‘rganadigan va ular haqida darsda hikoya qiladigan bir necha o‘quvchi uchun oldindan vazifa berish mumkin. Agar vaqt qolsa, o‘qituvchi yunon olimi Arximed haqida batafsil hikoya qilishi mumkin.**

Arximed yashagan shaharda bandargohlarda katta-katta kemalar turardi. Ularni qurish uchun mahoratli usta bo‘lish kamlik qiladi, muhandis bo‘lish kerak edi. Aytishlaricha, kemalardan biri shu darajada ulkan va og‘ir ediki, unga suvga tushirish ilojsiz edi. Shunda Arximedni yordamga chaqirishadi.

Arximed uchun esa bu ishning uddasidan chiqish qiyin emasdi. Boisi, u richag qonunlarini kashf etgan edi. Uning: “Menga tayanch nuqtasini bering, Yerni ham ko‘taraman”, degan mashhur gapini eslaylik.

Arximed ulkan kema atrofida richag va bloklarning murakkab tizimini qurdirdi. Yuzlab qo‘llar arqonni tortdi va og‘ir kema itoatkorona suvga tushib ketdi.

Yana aytishlaricha, Giyeron ismli Sirakuza podshosi buni ko‘rib: “Shu vaqtdan e‘tiboran Arximed nima desa ham ishonishingizni talab qilaman!” deya xitob qilgan ekan. Bir vaqtlar odamlar pahlavon Gerakl haqida, yelkasida osmonni suyab turgan Atlant haqida ertaklar to‘qishgan. Keyin Gerakl yoki Atlant emas, balki olimlar, xususan, Arximed haqida ertaklar paydo bo‘ldi.

Kunlarning birida Sirakuza zargarlari podsho uchun oltin toj yasashdi. Ammo ular oltinning bir qismini o‘g‘irlab, o‘rniga kumush ishlatishgan degan gumonlar paydo bo‘ldi. Shunda podsho Arximedni huzuriga chaqirtirib, unga: “Mana bu tojimni olgin-da, unga qancha kumush qo‘shilganini aniqlab ber, ammo toj bus-butun qolsin”, deydi.

Arximed bu murakkab masalani qanday hal qilish ustida kunu-tun bosh qotirdi. Hamma uxlaganda, tushlik vaqtida ham, sayr qilganda ham, hattoki hammomga tushganda ham bu masala unga tinchlik bermasdi. Bir kuni u vannadan irg‘ib turib, “Evrika!” (“Topdim!”) deb shodon hayqirgancha hammomdan uyiga yugurib keldi. U masalaning yechimini topgandi! U vannaga ohista tushayotganida suv uning chetlaridan toshib chiqadi. Shunda Arximedning miyasiga tojni ham suv turgan idishga solish kerak, degan fikr keladi. Bunda suvning bir qismi toshib, to‘kiladi. Keyin og‘irligi tojday keladigan oltin bo‘lagi olinadi va u ham yuqoridagicha sinaladi. Agar ikkala holda ham bir xil miqdorda suv toshsa, demak, toj sof oltindan yasalgan. Agar kamroq suv toshsa, demak, kumush qo‘shilgan. Kumush oltindan yengil-ku axir. Arximed shunday qildi ham.

Shu tarzda oltinga kumush qo‘shilgani ayon bo‘ldi. Arximed har gal toshib chiqqan suvni tarozida tortib, tojga qancha kumush qo‘shilganini hisoblab chiqdi. O‘g‘rilik fosh etildi. Hamma hayratda qoldi. Ammo hammadan ko‘proq o‘g‘rilarning o‘zi hayratlandi. Chunki ular usta zargar bo‘lib, oltinda kumush aralashmasi borligini payqaydigan inson yo‘q, deb o‘ylardilar.

Ehtimol, bu shunchaki ertakdir. Uni soʻzlagan Sirakuza fuqarolari olim emasdilar. Ilmsiz kishilar esa olimning fikri qay yoʻldan borishini bilishlari qiyin. Ular Arximed haqida soʻzlay turib, vanna haqida, Nyuton haqida gap ketganda esa daraxtdan tushgan olmani eslashadi. Modomiki olim haqida shunday ertaklar toʻqishibdimi, demak, odamlar ilm-fan qudratiga, zakovat kuchiga ishonar ekanlar.

### **Agar vaqt qolsa, oʻqituvchi yunon faylasufi Suqrot haqida hikoya qilishi mumkin.**

Suqrot – falsafa fanida toʻntarish yasagan qadimgi yunon faylasufidir. U tabiat, olam va odam tuzilishini chuqur oʻrgangan. U oʻzining tushunchalar tahlili (dialektika) kabi noyob usuli yordamida faylasuflar diqqat-eʼtiborini insonning nafaqat shaxsini anglashga, balki nazariy bilimlarni oʻzlashtirishga qaratdi.

Suqrotning: “Shuncha oʻqib-oʻrganib bildimki, hech narsani bilmas ekanman”, degan mashhur iborasi diqqatga sazovor. Gap shundaki, bu ibora toʻliq emas. Donishmand bu iboraga qoʻshimcha qilib, “Koʻp zamondoshlarimdan farqli oʻlaroq, bilimlarga – oliy fazilatga intilaman”, degan edi.

Suqrot butun umr kambagʻallikda yashagan. Donishmand yalangoyoq yurar, kiyimini julduri chiqib ketmaguncha almashtirmasdi. Shu bois uni och-nahor, muhtoj va jafokash odam sifatida tasavvur qilishadi. Aslini olganda, u oʻz ixtiyori bilan hayot neʼmatlaridan voz kechgan.

Afsuski, har bir buyuk insonning kabi, Suqrotning ham dushmanlari bor edi. Ularning “saʼy-harakatlari” bilan mil. avv. 399-yili Suqrotni sud qilib, aybdor deb topishgan va oʻlimga hukm qilishgan. Faqatgina 2012-yilga kelib, tajribali huquqshunoslar Afinada ushbu eski sud ishini qayta koʻrib chiqishgach, notoʻgʻri hukm chiqarilganini maʼlum qilib, Suqrotni toʻla oqlashdi.

Zamondoshlari buyuk faylasufning qaysi gunohlari uchun bu qadar shafqatsiz hukm chiqarishgan?

Suqrot taxminan mil. avv. 470- yoki 469-yilda Afinada tugʻilgan. Yoshligidanoq Parmenid, Zenon, Anaksagor, Pifagor kabi buyuk faylasuflar sabogʻini olib, oʻz davrining daholari bilan muloqot qilgan.

Uch marotaba harbiy yurishlarda, jumladan, Afina va Sparta oʻrtasida kechgan Peloponnes jangida qatnashgan. Dovyurakligi va matonati bilan Afina qoʻshinlari orasida hurmat qozongan.

Oʻttiz yoshga yetganida Suqrot otasining kasbini qoldirib, haqiqat izlash maqsadida sayyoh donishmand boʻlishga qaror qildi.

Suqrot doimo oʻz burchini halol bajaruvchi fuqaro boʻlish bilan cheklangan, uni na davlat xizmati, na mansab qiziqtirgan. U oʻz vataniga davlat amaldori emas, balki xalq ustoz va maʼnaviy hakam boʻlib xizmat qilishni istardi.

Suqrotni suhbatdoshining kimligi aslo qiziqtirmasdi: u xoh davlat odami, xoh kambagʻal, xoh badavlat savdogar yoxud falsafadan taʼlim olayotgan yosh shogird boʻlsin, unga ahamiyati yoʻq edi. Dialektika – oʻzi oʻylab topgan tafakkur tarziga tayanib, murakkab falsafiy muammolarni hal qilishga urinardi.

Suqrot fikricha, dialektika – suhbat sanʼati boʻlib, bunda esga soluvchi savollar berish va ularga mantiqiy javoblar qaytarish orqali haqiqatni anglash mumkin. Suqrotni koʻpincha shahar maydonida, shogirdlari yoxud shunchaki haqiqatni anglashni istagan odamlar qurshovida uchratish mumkin edi. Koʻpincha oʻz davrining mashhur faylasuflari Suqrot bilan bahs-munozaraga kirishib ketishardi.

Mazkur katta avlod orasidan keyinchalik Suqrotga ayb qoʻyuvchilar ajralib chiqdi. Ular Suqrotni yosh avlod ongini zaharlashda, jamiyat va xudolarga hurmatsizlikda ayblashdi. Yoshlarni unga qarshi qoʻyib, buyuk faylasufni sud qilishlari uchun kurashdilar va buning uddasidan chiqdilar ham.

Donishmandni oʻsha zamonlarda qaror topgan politeizm (koʻp xudolilik)dan voz kechganlikda

va monoteizm (yagona Xudo)ga ishonganlikda aybladilar. Politeizm xudolaridan biriga qurbonlik keltirish ko'rsatmasi esa ayblovlarning yolg'onligi haqida dalolat beradi. Aflotun fikricha, Suqrotning qatl etilishi uning haqiqatga qarshi bormasligi yoki hukmron zodagonlarning fikrini yagona to'g'ri, deb tan olmasligi bilan bog'liqdir.

Katta avlod tomonidan aytilgan eski ta'na-dashnomlar va malomatlarni jam qilganda, bu ayblovlar o'z isbotini topgandek tuyulardi. O'zini o'zi himoyalashga uringan Suqrot jazo o'rniga jarima to'lashdan bosh tortib, o'lim jazosiga rozi bo'ldi. U buni Xudoning irodasi, taqdirning hukmi deb qabul qildi va qamoqdan qochishni taklif qilgan do'stlarining yordamidan voz kechdi, chunki fuqaro o'z davlatining qonunlariga bo'ysunishi kerak, deb hisoblardi.

Suqrot o'zining so'nggi kunlarini shogirdlari davrasida o'tkazib, ular bilan inson ruhining barhayotligi, narigi dunyoda o'tmishning buyuk daholari bilan uchrashish naqadar ajoyib bo'lishi haqida suhbatlar qurdi. Vaqti kelganda Suqrot zahar ichdi va oradan bir necha daqiqa o'tib jon berdi. Faylasuf o'zidan so'ng buyuk ma'naviy meros qoldirdi.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 31-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot**

### **Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari**

Mutafakkirlar – hayot murabbiylari;

Filosof (faylasuf) – yunonchadan tarjimasi – “donishmandlikni sevaman”;

Geraklit – yer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan;

Demokrit – bizni qurshab turgan hamma narsa atomlardan tashkil topgan;

Diogen – insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart;


Gerodot – “tarix otasi”;

Aristotel – to'plangan bilimlarni mustaqil fanlarga ajratdi;

Arximed – “Evrika” – (“Topdim!”);

Suqrot – “Shuncha o'qib-o'rganib bildimki, hech narsani bilmas ekanman”;

Aflotun – ideal davlat haqida ta'limot yaratdi – Atlantida – “O'z-o'zingni angla”.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 44-DARS. QADIMGI YUNONISTON AFSONALARI

### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Yunonistonning ayrim afsonalari bilan tanishtirish, ularning tarixiy voqealik bilan uzviy aloqasini ko'rsatish;
- Qadimgi Yunoniston afsonalarining qahramonlari va yunonlarning xudolari o'rtasida farqlarni ko'rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 32-§, 111–113-b.
2. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
3. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Afsona** – yunonchadan tarjimasi – “hikoya”, “rivoyat”; to'qima haqiqiy voqealar bilan chatishib ketgan hikoyalar.

**Mifologiya** – afsonalar to'plami bo'lib, ularda qadimgi odamlarning tabiat hodisalari va jamiyat hayotiga qarashlari aks etadi.

**Olimpiyaliklar** – yunonlar Olimp tog'ida yashaydigan xudolarni shunday atashgan.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

1. Yunon mutafakkirlari qanday muammolarni hal qilishga urinishgan? (olam tuzilishi va inson hayoti ma'nosini tushuntirishga urinishgan)
2. Pifagor fanning qaysi sohasida kashfiyotlar qilgan? (matematika)
3. “Filosofiya” so'zining yunonchadan tarjimasi? (filo – “sevish” va sofia – “donishmandlik”)
4. Geraklit tevarak olam paydo bo'lishini qanday tushuntirgan? (yer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan)
5. “Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas” degan hikmatni kim aytgan va u qanday ma'no bildiradi? (Geraklit aytgan: “Tevarak olamdagi hamma narsa tinimsiz o'zgarib turadi, shu bois daryodagi suv ham boshqacha bo'lib qoladi”)
6. Gerodot qaysi asrda yashagan? (mil. avv. V asrda)

7. Qaysi yunon mutafakkiri bizni qurshab turgan hamma narsa atomlardan tashkil topgan, degan fikrni ilgari surgan? (Demokrit)
8. Kim Afinaning eng aqlli kishisi deb e'lon qilingan? (Suqrot)
9. Qaysi yunon faylasufi ideal davlat haqida ta'limot yaratdi? (Aflotun)
10. Kim Gerodotni "tarix otasi" deb atagan? (Sitseron)


### Yangi mavzuning mazmuni.

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### Dars rejasi:

Afsonalar: haqiqat va uydirma.

### Dars mavzusi ustida ishlash.



**O'qituvchi darslik matniga qo'shimcha ravishda Tesey va Minotavr haqida afsonani hikoya qilishi mumkin.**

### Tesey va Minotavr

Afsonada aytilishicha, Tesey Afinaga kelganda Attika ahli g'am-qayg'uga tushgan ekan. Krit orolidan qudratli Minos podshosi yuborgan elchilar o'lpon olgani uchinchi bor keldilar. Bu o'lpon nihoyatda og'ir edi. Afinaliklar har to'qqiz yilda Kritga yetti o'spirin va yetti qizni jo'natishga majbur edilar. U yerda ularni ulkan Labirint qasrida qamab qo'yishar, so'ng ularni boshi buqaniki, tanasi odamniki bo'lgan Minotavr degan dahshatli maxluq yerdi. Minos afinaliklar uning o'g'li Androgeyni o'ldirishgani uchun shunday o'lpon solgan edi. Endi afinaliklar Kritga uchinchi marotaba mudhish o'lpon to'lashlari lozim edi. Ular Minotavrning yosh qurbonlariga motam tutganliklari belgisi sifatida yelkanlari qora kema jihozladilar.

Yosh qahramon Tesey esa afinalik yigit-qizlar bilan birga Kritga yo'l olishni, ularni ozod qilishni va bu dahshatli o'lponga barham berish uchun Minotavrni o'ldirishga qaror qildi. Keksayib qolgan Egey yakka-yu yagona o'g'lining jo'nab ketishi to'g'risida eshitishni ham istamadi, ammo Tesey o'z so'zida turib oldi. Tesey Kritga yo'l olarkan, Afrodita qurbonlik keltirib, undan madad so'radi.

Kema qirg'oqqa kelib to'xtadi. Afinalik yigit-qizlarni Minos huzuriga olib ketishdi. Kritning qudratli podshosiga yosh va ko'rkam Tesey darrov yoqib qoldi. Podshoning qizi Ariadna ham yigitga befarq bo'lmadi, Teseyning rahnamosi iloha Afrodita esa Ariadnaning yuragida Egeyning navqiron o'g'liga muhabbat olovini uchqunlatdi. Minos qizi Teseyga yordam berishga qaror qildi: u Labirint ichida yovuz Minotavr yosh qahramonni tilka-pora qilib tashlashini xayoliga ham keltira olmasdi.

Minotavr bilan olishishdan avval Tesey yana bir qahramonlik ko'rsatdi. Minos afinalik bir yosh qizni haqorat qildi. Tesey qizning yonini oldi, ammo Krit podshosi Teseyni mazax qildi; allaqanday afinalik unga, Zevsning o'g'liga qarshi bosh ko'tarsa-ya ... Tesey podshoga qarata g'urur bilan:

– Sen Zevs farzandiman, deb magʻrurlanayapsan, ammo bilib qoʻygin-ki, men ham oddiy bandaning emas, balki buyuk dengiz hukmdori Poseydonning oʻgʻliman, – deb javob berdi.

– Agar sen – xudo Poseydonning oʻgʻli boʻlsang, buni isbotla, dengiz qaʻridan uzukni olib chiq, – dedi Minos Teseyga va tilla uzugini dengizga tashladi.

Tesey otasi Poseydonni chaqirib, tik qirgʻoqdan dengiz toʻlqinlariga oʻzini otdi. Barcha xavotir bilan voqeani kuzatar va dahshatli toʻlqinlar Teseyni omon qoldirmasligiga, u qaytmasligiga amin boʻldi. Ariadna ham tamom tushkunlikka tushib, Tesey endi halok boʻlgandir, deb oʻyladi.

Teseyning boshi uzra dengiz toʻlqinlari tutashgan zahoti Triton uni ushlab olib, bir zumda Poseydonning suv ostidagi qasriga olib keldi. Poseydon oʻgʻlini shodon qarshi olib, unga Minosning uzugini tutqazdi. Poseydonning rafiqasi Amfitrita esa Teseyning koʻrkamligi va jasurligidan qoyil qolib, uning jingalak sochlariga oltin gulchambar taqdi. Triton Teseyni dengiz qaʻridan qirgʻoqqa olib chiqib qoʻydi. Shu tarzda Tesey Minosga dengiz hukmdori Poseydonning oʻgʻli ekanligini isbotladi. Minosning qizi Ariadna esa Tesey dengiz tubidan sogʻ-omon chiqqanidan behad suyundi.

Lekin oldinda yana bir xavfli jasorat – Minotavrni oʻldirish kutib turardi. Teseyga bu borada Ariadna koʻmakka keldi. U otasiga bildirmay Teseyga oʻtkir qilich va bir oʻram ip berdi. Tesey va qolgan mahkumlarni Labirintga olib borishgandan soʻng, qahramon Labirintga kirish joyiga oʻramdagi ipning uchini bogʻlab, chiqish yoʻlini topib boʻlmaydigan chalkash va cheksiz yoʻlaklardan yurib ketdi. U ipga qarab ortga yoʻlni topish uchun oʻramni chuvatib bordi. Nihoyat u Minotavr turgan joyga yetib keldi. Minotavr dahshatli naʻra tortgancha, bahaybat oʻtkir shoxlari boʻlgan kallasini eggancha yosh qahramonga tashlandi va ayovsiz olishuv boshlandi. Minotavr Teseyga bir necha marotaba hamla qildi, ammo yigit qilich bilan oʻzini himoya qildi. Oxir-oqibat Tesey Minotavrni shoxidan ushlab olib, qoʻlidagi oʻtkir qilichni uning koʻksiga qadadi. Tesey Minotavrni oʻldirgach, barcha mahkum yigit-qizlarni ip orqali Labirintdan olib chiqdi. Chiqish joyida ularni Ariadna quvonch bilan kutib oldi. Ozod etilgan yigit-qizlar ham shodu xurram boʻlishdi. Qahramon va uning rahnamosi Afrodita sharafiga tahsinlar yangradi.

Endi Minos qahridan qutulish qolgan edi. Tesey tezda oʻz kemasini hozirladi va kritliklarning sohilga chiqarib qoʻyilgan barcha kemalari tubini teshib, Afina sari yoʻl oldi. Ariadna ham sevikli yori bilan ketdi.

Qaytishda Tesey Naksos qirgʻogʻiga tushdi. Hamrohlari bilan dam olayotganda tushiga uzumchilik xudosi Dionis kirib, Tesey Naksos qirgʻogʻida Ariadnani qoldirib ketishi kerakligi, chunki xudolar qizni unga, Dionisga qayliq etib tayinlashgani haqida aytadi. Tesey uygʻonib, mayus tortgancha tezda yoʻlga otlanadi. U xudolar xohishiga qarshi nima ham qila olardi axir. Ariadna ilohaga va buyuk Dionisning rafiqasiga aylanadi. Dionisning hamrohlari Ariadnani qutlab, buyuk xudoning rafiqasi sharafiga qoʻshiq aytishadi.

Teseyning kemasi esa qora yelkanlarini shishirib moviy dengiz boʻylab suzib borardi. Mana, olisda Attika sohili koʻrindi. Ariadnadan mahrum boʻlganidan qaygʻulangan Tesey Egeyga bergan vaʼdasini – Minotavrni yengganidan soʻng qora yelkanlarni oq yelkanlarga almashtirib, Afinaga muvaffaqiyatli qaytishi haqida unutdi. Egey oʻgʻlini intiqlik bilan kutardi. U dengiz qirgʻogʻidagi baland qoyada turgancha olislarga tikilardi. Mana, yiroqda qora nuqta koʻrindi. U tobora kattalashar, qirgʻoqqa yaqin kelar edi.

Bu oʻgʻlining kemasi! Egey kema yelkanlari rangini koʻrish uchun zoʻr berib tikilardi. Yoʻq, oppoq yelkanlar quyoshda tovlanmayapti, yelkanlar qora. Demak, Tesey halok boʻlgan. Tamom tushkunlikka tushgan Egey baland qoyadan dengizga oʻzini otdi va toʻlqinlar orasida halok boʻldi; toʻlqinlar uning jonsiz tanasini qirgʻoqqa chiqarib tashladi. Oʻsha vaqtdan beri u halok boʻlgan dengiz Egey dengizi deb nomlandi.

Tesey Attika sohiliga kelib to‘xtab, xudolarga qurbonlik keltirishga kirishgan ham ediki, beixtiyor otasining o‘limiga sabab bo‘lganini bilib qoldi. G‘am-g‘ussadan ado bo‘lgan Tesey otasini yuksak ehtirom ila dafn etdi, so‘ngra Afinada hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi.

### Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.


### Uy vazifasi.

1. 32-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## Intellekt-xaritanani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot

### Qadimgi Yunoniston afsonalari

Afsonalar – qisman hayotda sodir bo‘lgan to‘qima hikoyalar;  
Titanlar – gigantlar;  
Sirenalar – yarim qush, yarim ayollar;  
Kentavrlar – yarim ot, yarim odamlar;  
Sikloplar – peshanasida bitta ko‘zi bor devlar;  
Gerakl – 12 jasorat ko‘rsatgan qahramon.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 45-DARS. QADIMGI YUNONLARNING XUDOLARI

### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Yunonistonning ayrim afsonalari bilan tanishtirish, ularning tarixiy voqelik bilan uzviy aloqasini ko‘rsatish;
- Qadimgi Yunoniston afsonalarining qahramonlari va yunonlarning xudolari o‘rtasida farqlarni ko‘rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma‘naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma‘lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta‘minlash va ma‘lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;

– umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 30-§, 112–113.
2. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
3. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Prometey** – titan; olimpiyaliklarga titanlar bilan kurashishga yordam beradi, ammo keyinchalik Gefestning o‘chog‘idan ilohiy olovni o‘g‘irlab, odamlarga bergani (ko‘chma ma’noda – odamlarga yaxshi hayotga umid bag‘ishlagani) uchun Zevsning qahriga uchraydi.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

Qadimgi yunonlarning xudolari.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

**O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda xudolar haqida afsonani hikoya qilishi mumkin.**

Qadimgi Yunoniston xudolarining ilk avlodi Xaosdan tug‘ilgan. Ularning farzandlari ikkinchi avlodga – titanlarga aylandi. Keyingi avlod Olimp tog‘ida o‘ltirib, Zevs – osmon va momaqaldiroq homiysi bosh xudo bo‘ldi. Yunon xudolari oddiy odamlarga homiylik qilishar, hosildorlikni oshirishar, savdo-sotiq va janglarda yordam berishardi. Osmondagi oliy ma‘budlar haqida bilimlar asrlar osha yetkazilardi.

### **Zevs**

Qadimgi yunon panteoni boshida Zevs turgan. U o‘z aka-ukalari – Poseydon va Aid bilan birga dunyoni bo‘lishib olish niyatida qur‘a tashlaydilar. Poseydonga ummon va dengizlar, Aidga marhumlar saltanati, Zevsga osmon nasib qiladi. Zevs hukmronligida butun yer yuzida qonun va tartib o‘rnatiladi. Yunonlar nigohida Zevs qadimgi Xaosga qarshi turuvchi Osmon timsoli edi. Bir qadar tor ma’noda Zevs donishmandlik, momaqaldiroq va yashin xudosidir.

Zevsning titanni Prometey bilan kurashi qiziqishini uyg‘otadi. Olimpiyalik xudolar Kronos davridan beri yer yuzida yashagan ilk odamlarni yo‘q qilishadi. Prometey esa yangi odamlarni yaratib, ularga kasb-hunarlarini o‘rgatadi, ular uchun titan hatto Olimp tog‘idan olov o‘g‘irlaydi. Zevsning qahri kelib, Prometeyni qoyaga kishanlab qo‘yishni buyuradi. U yerga har kuni burgut uchib kelib, titanning jigarini cho‘qiydi. Prometey yaratgan odamlardan qasos olish niyatida Zevs ularga sohibjamol Pandorani yuboradi. Pandora esa insoniyat kasalliklari va turli baxtsizliklari yashirib qo‘yilgan qutini ochadi. Qasoskor tabiatiga qaramay, umuman olganda, Zevs – saxiy va adolatli xudo. Uning taxti yonida yaxshilik va yomonlik solingan ikkita ko‘za turadi. Odamlarning qilgan ishlariga qarab Zevs ko‘zalardan tuhfalarni olib, bandalarga yo‘jazo, yo‘mukofot yuboradi.

### **Ares**

Ares Gera bilan Zevsning o‘g‘lidir. Ares ozodlik kurashi emas, balki bema‘no qonli qirg‘in

ko‘rinishidagi urushning timsoli sanalgan. Onasining fe‘li meros o‘tgan Ares makkor bo‘lgan, deb hisoblanadi. U o‘z kuchidan qotilliklar va adovat tarqatish uchun foydalangan. Afsonalarda Zevsning qonxo‘r o‘g‘liga nafrati kuzatiladi, ammo Aressiz hech qanday, hatto adolatli urush ham ilojisizdir.

### **Germes**

Germes – savdo-sotiq, boylik va uddaburonlik rahnamosidir. Afsonalarda Germes nafaqat ayyor xudo, balki sodiq yordamchi sifatida ta‘riflanadi. U qahramonlar va xudolarga qurol-yarog‘, sehrlil giyohlar yoki boshqa zarur buyumlarni keltirib, ularni mushkul vaziyatlardan xalos qilgan. Germesning o‘ziga xos nishonlari – qanotli shippaklar va kadutsey – ikkita ilon buralib olgan asodan iborat edi. Germesga cho‘ponlar, savdogarlar, sudxo‘rlar, sayohatchilar, alkimyogarlilar va folbinlar sig‘ingan.

### **Poseydon**

Poseydon suv homiysi, baliqchi va yilqichilar yordamchisidir. Tabiatan Zevsga o‘xshaydi, uning ko‘kragi keng, qo‘l-oyoqlari baquvvat. Yuzi doimo qahrli, qo‘lida uch ayrili nayza turadi. U bir lahzadayoq po‘rtana yaratib, quturgan to‘lqinlarni jilovlay olgan. Rafiqasi – Amfitrita.

### **Afina Pallada**

Urush ilohasi Afina janglarda ishonch va donolikni qayta tiklashga yordam beradi. U san‘at, bilimlar va fanga ham homiylik qiladi. Uning qiyofasi hammanikidan farq qiladi. U yarog‘-aslaha, dubulg‘a va qalin gazlamadan libos kiyadi. Undan nariroqda doimo jangovar arava shay turadi. U qat‘iyatli va xotirjam.

### **Apollon**

Olimpiyaliklar orasidagi eng go‘zal xudo. Tabiblar va ilohalarga homiylik qilgan. Tengsiz mergan va sozanda bo‘lgani sababli lira va o‘q-yoy bilan tasvirlanadi.

### **Demetra va Dionis**

Demetra hosildorlik va farovonlik rahnamosidir. U bilan birga yer yuzida bahor boshlangan. Uning qiyofasi ko‘rkam, yorqin va quyuq qo‘ng‘iroq sochlari yelkalariga tushib turadi. Uni dehqonlar e‘zozlashgan. Uning qiyofasini doimo turli nishonalar: yetilgan boshoqlarga to‘la savat; mash‘ala; ko‘knor guli to‘ldirib turgan.

Demetraning eri Dionis uzumchilik xudosi edi. Uning sharafiga Elevsin misteriyalari yaratilgan. Keyinchalik Dionisga topinish vujudga kelib, uzum hosili yig‘imida ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etgan. Bunday bayramlarda raqs tushib, qo‘shiq aytishgan.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 32-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### **Intellekt-xaritati yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot**

Zevs – yunonlarning oliy xudosi Poseydon – dengiz hukmdori;

Afina – donishmandlik ilohasi;

Apollon – yorug‘lik, musiqa va she‘riyat xudosi;

Gelios – Quyosh xudosi;

Demetra – dehqonchilik va hosildorlik ilohasi;

Femida – adliya ilohasi;

Gefest – temirchilar va hunarmandlar xudosi;

Afrodita – go‘zallik ilohasi;

Ares – urush xudosi;

Dionis – uzumchilik xudosi;


Germes – savdogarchilik xudosi;

Nika – g‘alaba ilohasi;

Xronos – vaqt xudosi;

Klio – tarix rahnamosi;

Gipnos – uyqu xudosi.



Sinflar	“ A ” sinfi	“ B ” sinfi	“ V ” sinfi	“ G ” sinfi	“ D ” sinfi	“ Y ” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						

## 46-DARS. TAKRORIY-UMUMLASHTIRUVCHI

### Dars maqsadlari:

- mazkur mavzu bo‘yicha aniq bilimlarni umumlashtirish;
- o‘quvchilarning tarixiy manbalardan foydalanish bo‘yicha ko‘nikmalarini takomillashtirishni davom ettirish;
- bilimlarni o‘zlashtirish va ko‘nikmalarni shakllantirish darajasini aniqlash;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma‘naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma‘lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta‘minlash va ma‘lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 22–32-§, 85–113-b.
2. Tarixiy xarita.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

O‘tgan darslarda o‘rganilgan barcha asosiy tarixiy tushunchalar va atamalar.

**Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

**O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.**

1. Qadimgi yunon afsonalarining bosh qahramonlari kimlar edi? (titanlar, maxluqlar, ma‘budlar)
2. Labirint qayerda joylashgan edi? (Krit orolida)
3. Ariadna Teseyni Minotavrdan qanday xalos etdi? (ip o‘rami berdi, Tesey uning yordamida chiqish yo‘lini topdi)
4. Minotavrning ko‘rinishi qanday edi? (tanasi odamniki, boshi buqaniki bo‘lgan maxluq)
5. Qadimda odamlarga “xudolar xohishi”ni yetkazgan avliyo qanday atalgan? (orakul, ya‘ni, bashoratgo‘y)
6. Qadimgi yunonlarda din paydo bo‘lishi sababi? (tabiatning qudratli hodisalaridan qo‘rqishgan)
7. Yunonlar fikricha, xudolar qaysi tog‘da yashagan? (Olimp tog‘ida)
8. Yunonlarda barcha ma‘budlarning rahnamosi, bosh xudo kim edi? (Zeus)
9. Gelios – bu... (Quyosh xudosi)
10. Dehqonchilik ilohasi ... (Demetra)
11. Afina – bu ... (donishmandlik va urush ilohasi)
12. Apollon – bu ... (musiqa va she‘riyat xudosi)
13. Yunonlarda adliya ilohasi ... (Femida)
14. Yunonlarda temirchilar xudosi ... (Gefest)
15. Afrodita – bu ... (sevgi va go‘zallik ilohasi)
16. Nika – bu ... (g‘alaba ilohasi)
17. Vaqt xudosi ... (Xronos)
18. Artemida – bu ... (Oy va ovchilik ilohasi)
19. Eskulap – bu ... (tabobat xudosi)
20. Moyralar – bu ... (qismat ilohalari)
21. Eros – bu ... (sevgi xudosi)
22. Gimeney – bu ... (nikoh xudosi)
23. Yunonlarda uyqu xudosi ... (Gipnos)
24. Yunonlarda tonggi shafaq ilohasi ... (Eos)
25. Yunonlarda tarix ilohasi ... (Klio)
26. Yunonlarda yer osti saltanati xudosi ... (Aid)

O‘tgan darslarda o‘rganilgan bilimlar bo‘yicha test yoki sinov o‘tkaziladi.

Darsga yakun yasash.

O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.

### **Uy vazifasi.**

Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## IV BO‘LIM. Mil. avv. VI – mil. III asrlarda O‘rta Osiyo

### 47-DARS. AHAMONIYLARNING O‘RTA OSIYOGA BOSQINCHILIK YURISHLARI

#### Dars maqsadlari:

- O‘rta Osiyo xalqlarining fors istilochilariga qarshi kurashda qahramonligi va vatanparvarligini ko‘rsatish;
- forslarning va boshqa istalgan istilochilarning bosqinchiligi halokatli yakunga olib kelishi haqida o‘quvchilarga tushuncha berish;
- vatanparvarlik va Ona yurtga mehr-muhabbat hislarini shakllantirishni davom ettirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘shiga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

#### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 33–34-§, 114–121-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 10–11-b. Ahamoniylar davlati (mil. avv. VI–V asrlar).
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

#### Asosiy tushunchalar va atamalar.

#### Satrap, satrapiyalar, qal’a.

#### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

#### Yangi mavzuning mazmuni.


O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e’lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

#### Dars rejası:

1. Kir II va uning bosqinchilik yurishlari.
2. Doro I ning saklarga qarshi yurishi.

## Dars mavzusi ustida ishlash.

Mavzuni o‘rganish darslik ma’lumoti hajmida amalga oshiriladi va o‘quvchilar bilan suhbat qurish orqali o‘qituvchining hikoyasiga asoslanadi.



### O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda To‘maris haqida hikoya qilishi mumkin.

Siparangiz va uning safdoshlari halok bo‘lganligi to‘g‘risidagi xabar To‘marisning va barcha ayollarning yuraklarini o‘qdek teshib o‘tdi. Ruhiiy azobning zo‘rligidan ularning ko‘zlariga yosh ham kelmay qoldi. Birmuncha vaqtdan keyin soyabon aravalarning ichidan xotinlarning dod-faryodi eshitila boshladi. Ammo To‘maris qayg‘usining zo‘ridan yig‘lay olmasdi. U esi og‘ib qolgandek bir nuqtaga tikilganicha qotgan, lablari bir nima deb pichirlar edi. Qayg‘u-hasratning davosi – dushmandan o‘ch olish edi.

...Yengil g‘alabadan havolangan Eron qo‘shini To‘marisning chekinayotganini eshitib, zudlik bilan uni ta‘qib eta boshladi. Massagetlar esa bir tepalik ostida o‘zlari uchun qulay joy ishg‘ol qilib, saf tortib turdilar. Kayxisrav askarlari sekin-asta yaqinlashib kelaverdilar. Massaget merganlari to‘satdan ularni o‘qqa tutdilar, sadoqlar bo‘shab qolgach, uzun dastali mis boltalar, kalta nayzalarni ishga soldilar. Saflar bir-biriga aralashib ketdi. Qilich va nayzalarning bir-biriga taraqlab tegishi, jangchilarning suroni, otlarning kishnashi, yaradorlarning ingrashi birga qo‘shilib, qiyomat-qoyim bo‘lib ketdi. Odamlar g‘uj bo‘lib olib, bir-biriga nayza sanchar, bolta bilan boshiga tushirar, qilich bilan chopar edi. Jang shu zaylda kechgacha davom etdi. O‘z yerlarini yovdan tozalash va o‘ch olish ishtiyoqi bilan yongan massagetlar jonbozlik ko‘rsatib yov bilan mardlarcha olishishdi, nihoyat, zafar ularga yor bo‘lib, dushmanni orqaga sura boshlashdi. Zarina boshchiligidagi otlq qo‘shin dushmanning chap qanotini sindirib, orqaga o‘tib oldi.

Bir tepalik ustida jangni kuzatib turgan Kayxisrav qilich yalang‘ochlab, o‘z navkarlari bilan jangga shoshildi, biroq u birinchi to‘qnashishdayoq halok bo‘ldi. Kayxisravning o‘lganini bilib,

eroniylarning ruhi tushib, yuraklaridagi o'ti so'na boshladi. Dushmanning bir qismi chekinib, yaqin o'rtadagi to'qaylarga yashirinmoqchi bo'ldi. Biroq To'maris boshchiligidagi erkak va ayol suvoriylar ularning oldini to'sib chiqib, qilichdan o'tkaza boshladilar. Massagetlar eroniylar ustidan to'la g'alaba qozonib, bir talay asir olishdi.

– Kayxisravning... kallasini kesib olib kelinglar! – deb buyurdi hali ham nafasini rostlab ololmagan To'maris. – Bir meshga qon to'ldirib kelinglar!

Jangchilar darhol malikaning buyrug'ini bajo keltirdilar.

To'maris kallani olib, unga qaradi-da:

– Ey Kayxisrav, umr bo'yi jang qilib odam qoniga to'ymading, mana endi to'yguningcha ich! – deb uni mesh ichiga soldi-da, mesh og'zini chilvir bilan mahkam bog'lab qo'ydi.

*Mirkarim Osimning "To'maris" qissasidan parcha.*

### ***Qo'shimcha ma'lumot***

#### **To'maris – erksevarlik va jasorat timsoli**

Harbiy ishlarda dovrug' qozongan kam sonli ayollar orasida massagetlarning afsonaviy malikasi To'maris alohida o'rin egallaydi. U bosqinchi podsho Kir II ustidan g'alaba qozondi. Ha, malikaning ismi afsonaga aylandi, ammo bu afsonada massagetlar malikasi shafqatsiz jangchi ayol sifatida tasvirlangan.

Keling, "tarix otasi" Gerodotning yozganlarini diqqat bilan o'qisak-da, ayol kishi Kir II ustidan g'alaba qozongandan so'ng uning kallasini kesib, qon to'la meshga solishni buyurganiga nima sabab bo'lganini tushunishga harakat qilaylik. Hatto sarkarda ayol uchun ham bunisi ortiqcha. Bu sahna shoirlar va rassomlarning sevimli mavzusiga aylangan, To'maris faqat shu ishi bilan yodda qolgan.

Holbuki, bunga qadar To'maris boshidan ne-ne fojealar o'tmadi: erining, so'ngra o'g'lining halok bo'lishi, sevimli kishisining xiyonati. Bu voqealarning barchasi Kir II bilan bog'liq.

#### **To'marisning bolaligi**

To'marisning bolaligi qilichlar jarangi ostida kechdi. U necha marta yeldek uchayotgan ot ustida ta'qibdan qochgan, nozik gavgachasi bilan otasiga yopishib, uning yuragi duk-duk urishini eshitgan! Besh yashar qizchaligida o'rgatilmagan asov tulporga minib va uning yolini changallab, dasht bo'ylab choptirgan. Olti yasharligida og'ir akinak (sak va forslarning kalta qilichi)ni qo'lga oldi. Ota u bilan hazillashib qilichbozlik qilmoqchi bo'ldi, ammo shu zahoti qilichini tashlab, qah-qah urib kulganча kigiz ustiga yiqildi. Qizchanning jajji yuzidagi shafqatsiz ifoda – chimirilgan qoshlar va qahr ila yongan ko'zchalar juda kulgili ko'rinaradi. Otaning kulgidan ichagi uzilayozdi, To'maris esa sarosimada qoldi, g'azab alam bilan almashdi, ko'zlaridan yosh oqdi. Ota To'marisni kichik yoshidanoq jasurlikka o'rgatdi, unga onalik qildi – ona malika go'dakligidayoq vafot etgan edi.

#### **Massagetlar malikasi**

Saklar malikasi To'maris mil. avv. 570–520-yillarda yashagan, ammo uning hayoti haqida hech qanday aniq ma'lumotlar yo'q. U to'g'rida arziyas ma'lumotlar ham Gerodotning yozuvlariga asoslangan. To'maris – avesto tilidagi Tahma-rayi's ismining talaffuzi bo'lib, aynan tarjiması – "qiyofasi ko'rkam ayol". To'maris tarjimayi holi haqida ma'lumotlarning ko'p qismi rivoyat va afsonalar orqali yetib kelgan, shu sababli ularni ishonchli deb bo'lmaydi.

Ota vafotidan so'ng massagetlar To'marisni o'z malikasi deb e'lon qildilar. To'maris o'z dushmanlaridan jang san'atini o'rganib, ularning harbiy va boshqaruv tajribasidagi eng sara bilimlarni o'zlashtirdi va bu bilimlarni o'z qudratini oshirish uchun xizmat qildirdi. U yengilmas qo'shin

tuzishga muvaffaq bo'ldi. Og'ir otliq qo'shin yaratildi: chavandozlar va ularning otlariga zirh bilan himoyalangan uzun to'nlar kiydirildi. Dushmanni qo'rqitish maqsadida chavandozlar uzun yog'och tayoqlarga mahkamlangan bayroqlar bilan jangga kirishardilar. Ular ot choptirib borishayotganda qo'rqinchli uchar mavjudotlar kabi ko'rinardilar.

To'maris kamonkashlardan biri o'qqa hushtak ulaganini ko'rib, minglab shunday o'qlar yasashni va ularni jangchilarga tarqatishni buyuradi. Massaget askarlar juda mohir edilar. Chavandozlar otlarining yag'rini orqasida yashirinishni bilardilar. Go'yoki dashtda yilqilar uyuri dupurlab chopib kelayotgandek tuyulardi. Aynan shunday hujumlardan so'ng kentavrlar haqida afsonalar paydo bo'lgan deb hisoblanadi. To'maris hukmronligi davrida ko'p minglik ayollar lashkari paydo bo'ldi. Ayollar jang san'ati borasida erkaklardan qolishmasdi. Ular qurolni ishlatishni bilishar, egarlarda o'zlarini tutib o'tirishar va na o'lim, na xatardan qo'rqardilar.

Ammo massagetlar qabilasiga yangi xavf tahdid soldi. Kir II – Fors davlatining asoschisi – qadimgi dunyoning mashhur sarkardasi massagetlar hududini o'z davlatiga qo'shib olishga qaror qiladi. Bunga qadar u Midiya, Lidiya, Bobilni qo'shib olib, ularni Hindistondan O'rtayer dengiziga qadar cho'zilgan podsholikka birlashtiradi. Bu podsholik qadimgi dunyoda ikki asr mobaynida yetakchilik qildi. Fors qo'shinlari Osiyo va Yevropada eng qudratli sanalgan, Kir II ni esa “shohlar shohi”, ya'ni, shahanshoh deb atashgan.

Kir II o'z hujumini O'tror va Turkiston o'rtasidagi hududdan, Sirdaryo atrofidan boshladi. Gerodot yozishicha, Kir Araks daryosini kechib o'tib, massagetlar hududiga bostirib kiradi. Ko'chmanchilar bilan urush qiyin bo'lishini va uzoq davom etishini fahmlagan Fors podshosi hiyla ishlatadi. U To'marisga elchilar yuborib, rafiqasi bo'lishni taklif qiladi. Fors podshosi “kelin”ning qonuniy eri borligidan xijolat chekmaydi, uning o'zi ham uylangan edi.

Fors qonunlariga ko'ra, To'maris bilan nikoh o'z-o'zidan barcha massaget qabilalarining Kir II hukmi ostiga o'tishini anglatardi. Kir II va uning valiahdlari o'z-o'zidan massagetlarning oliy hukmdorlariga aylanishardi.

Tashqi siyosatda chiniqqan dono To'maris Kirning asl niyatini tez payqab, unga rad javobi beradi. Bunga javoban forslar podshosi bo'ysunmas massagetlarga qarshi yurishga tayyorlanishni boshlaydi.

Mil. avv. 530-yilning yozida ko'p minglik fors qo'shinlari massagetlar hududiga bostirib kirdi. To'marisning buyrug'i bilan ko'chmanchilar jangsiz shimolga chekinib, dushmanni qarorgohlari ichkarisiga aldab olib kirdi. Dastavval massagetlarning azalgi yerlariga kirib borgan forslarga omad kulib boqdi. Forslar bilan janglarning birida malikaning eri Rustam halok bo'ldi.

Keyingi jangda Kir II qo'shinlari To'marisning o'g'li Siparangiz boshchiligidagi massagetlarni qirib tashladi. Hamma jangchilar qatl etilib, Siparangiz asir olindi. To'maris Kir II elchilaridan u massaget jangchilari bilan bunday shafqatsizlik qilganini eshitib, qattiq g'azabga keldi.

To'maris o'z elchilari orqali Kirga quyidagi so'zlarni yetkazdi: “Qonxo'r Kir, qahramonlik ko'rsatdim, deb ko'p chiranaverma! Sen o'g'limni qurol kuchi bilan halol jangda emas, balki makr-hiyla bilan yengding. Endi yaxshilikcha maslahatimni eshit: o'g'limni qaytarib ber va o'lkamdan sog'-omon jo'nab qol. Agar shunday qilmasang bormi, Quyosh tangrisi haqqi ont ichaman – seni rostdanam qonga to'ydiraman!”

Ammo Kir II To'maris so'zlariga zarracha e'tibor bermay, massagetlarni istilo qilish harakatlarini davom ettirdi. U yana bir marta qabih va razil ish qildi. Kir o'z xizmatkorlari yordamida To'marisning sevimli kishisini xiyonat qilib, ayolni o'ldirishga ko'ndirdi. Ammo To'maris xiyonat haqida xabar topib, soqchilarga uni tutib olishni buyurdi. Bu To'maris uchun og'ir zarba bo'ldi. U ancha vaqtgacha

o‘ziga kelolmadi. Otasining vafoti, erining halok bo‘lishi, sevimli kishisining sotqinligi, o‘g‘lining asir olinishi...

U hali bir narsani bilmasdi: uning o‘g‘li Siparangiz noiloj qolganini tushunib, soqchilardan kishanlarni yechishni so‘raydi. Ozod bo‘lgach, qo‘ynidan kichik xanjar oladi-da, to‘g‘ri yuragiga sanchadi.

To‘marisning musibati cheksiz edi. Ammo sevimli va yagona o‘g‘lidan judo bo‘lganiga qaramay, sovuqqonlik va o‘z qo‘shinlarini boshqarish mahorati uni tark etmadi. Yaksart (Sirdaryo) sohilida bo‘lib o‘tgan hayot-mamot jangida massagetlarning birlashgan qabilalari va ularning ittifoqchilari yengilmas sanalgan va puxta tayyorgarlik ko‘rgan fors qo‘shinlarini tor-mor etishdi. Minglab o‘ldirilgan forslar orasida Kir II ham bor edi.

### **Siz Kir II bilan nima qilgan bo‘lardingiz?**

Ammo unga xiyonat qilgan, forslar bilan til biriktirgan sevimli kishisi Baxtiyor ham bor edi-ku. To‘maris uni qatl qilib, qoni bilan meshni to‘ldirishni buyurdi. So‘ngra o‘ldirilgan forslar orasidan Kir II jasadini topishga amr qildi. Jasad topilgach, malika uning kallasini uzib, meshga solishni buyurdi. Keyin bunday dedi: “Sen haqiqiy dushmanim, dunyo hukmdori eding. Senga, munosib raqibimga, eng qimmatli narsamni – sevimli kishimning qonini beraman”.

Afsonalarda aytilishicha, forslar ustidan g‘alaba qozongandan so‘ng To‘maris o‘z xalqini uzoq vaqtgacha donolik bilan boshqargan ekan. Uning vafotidan so‘ng massagetlar ittifoqi buzildi, chunki To‘marisning bevosita va qonuniy merosxo‘ri qolmagan, massaget qabilalari boshliqlari esa uning o‘rniga hukmronlik qilishga qodir nomzodni topisholmadi.

To‘maris o‘z ishi bilan qabiladoshlariga qat’iyatli bo‘lishni o‘rgatdi. U dushmanlarga qudrati va shafqatsizligini ko‘rsatdi. Merosxo‘rlar uchun bu – dushmanlar bilan qanday ish ko‘rish haqida saboqdir. Ayonlari uchun esa – malikaga qarshi bosh ko‘targudek bo‘lsalar, ularni qanday jazo kutishi haqida ogohlantirishdir. To‘marisning Kir II ustidan g‘alabasi afsonaga aylandi. Saklar va massagetlar uzoq vaqtgacha chegaralarini forslardan himoya qildilar, malika To‘maris esa ozodlik va sak-massaget qo‘shinlarining qudrati timsoliga aylandi.

### **Shiroq**

#### **Vatan uchun mardlik va fidoyilik timsoli**

#### **Fors podshosi Doro I rejalari**

Fors podshosi Doro I ning rejalari ulkan edi – dunyoni egallash haqida orzu qilardi. Kir II ning to‘ng‘ich o‘g‘li podsho Kambiz vafot etganda, o‘zini Kambizning ukasi – Bardiya deb ko‘rsatgan kohin Gaumata mamlakatda hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi. Fitnachilar – yetti asilzoda fors – o‘zini podsho deb e‘lon qilgan qallobni yo‘q qilish va saroy darvozasidan chiqishayotganda kimning oti birinchi bo‘lib kishnasa, o‘sha Fors podshosi bo‘lishi haqida kelishib oldilar. Ammo Doro I hiyla ishlatdi. U o‘z otboqari bilan kelishib oldi, saroy darvozasi orqasida baytalni yashirib qo‘yadi. Fitnachilar saroy darvozasidan chiqishlari bilanoq Doroning oti baytalga otilib, baland ovozda kishnadi. Fitnachilar Doroni bir ovozdan Fors podshosi deb e‘lon qilishgach, kelgusida hech kim uning podsho taxtiga egalik huquqiga e‘tiroz bildirmasligi uchun Doro Kir II ning qizi Atossaga uylandi.

Doro I Fors davlatini qo‘lga kiritgach, bosqinchilik yurishlariga qaytishga qaror qildi. Doro I yurishi va cho‘pon Shiroq jasorati haqida bizga Gerodot, Strabon va Poliyen degan tarixchilar hikoya qilishgan. Gerodot bunday yozadi: “Gistaspning o‘g‘li Doro I yurish qilishga, sak va massagetlarning katta yerlarini bosib olishga va malika To‘maris qonga botirgan ajdodi Kirning boshi uchun qasos olishga ahd qildi”.

### **Shiroqning bolaligi**

Dashtdagi eng keksa qariyalar ham bunday qahraton qishni koʻrmagan edilar. Qushlar uchayotgan chogʻidayoq muzga aylanib, yerga toʻp-toʻp etib tushardi. Ayoq chorvaga qirgʻin keltirib, koʻchmanchilarni ochlik va sovuqdan oʻlishga mahkum etdi.

Soʻqir chol vaqti-soati yetganini va manavi sovuq oʻtov – soʻnggi boshpanasi ekanligini fahmlab turardi. Lekin arang eshitilgan ovoz, aniqrogʻi, chiyillash qulogʻiga chalinib, sergak tortdi. Chol astagina ovoz kelgan yoqqa yurib, toʻsiqqa duch keldi. Bu oʻlik ayol jasadi ekanligini fahmladi. Uning bagʻrida yotgan chaqaloq mungli yigʻlardi. Chol chaqaloqning mitti tanasini ayolning qoʻllaridan zoʻrgʻa tortib oldi. Chaqaloqda hayot uchquni arang sezilar va aftidan, bu hayotni unga ona soʻnggi nafasida ufurgan edi! Chol chaqaloq tanachasiga qulogʻini qoʻydi. “Buni qara-ya, tirik ekan! – deb pichirladi u va shu zahoti xitob qildi: – Yo rabbim, bu chaqaloq – yer yuzidagi buyuk muhabbat timsolidir, shunday ekan, u oʻlmasin – moʻjiza yarating!”

Chol chaqaloqni bagʻriga bosdi va xirillagan nafasi bilan isitishga urindi. Chaqaloq omon qoldi va chol unga Shiroq (“nur” yoki “qorachiq” maʼnolarini bildiradi) deb ism qoʻydi. Soʻqir chol uchun chaqaloq zulmat ichra nurga, uning koʻzlariga aylandi.

Oradan vaqt oʻtdi. Shiroq ulgʻayib, saklar orasida eng zoʻr jangchilardan biriga aylandi. Ammo u oʻz oilasi bagʻrida tinchgina hayot kechirishni va qoʻy-qoʻzi boqishni afzal koʻrardi. Lekin bir kuni qoʻshni qabilalar Shiroqning qabilasiga hujum qildi. Ularni Doru I pul berib sotib olgandi. Jang paytida Shiroqning rafiqasi halok boʻldi, oʻzi ham yaralandi. U choʻlu biyobonga ot choptirib ketib qoldi va oʻsha yerda rafiqasini dafn qilib, yetti kun aza tutdi. Yettinchi kuni rafiqasining qabri ustida xoinlardan va Dorudan oʻch olishga ont ichdi.

### **Doru I bosqini**

Mil. avv. 517-yil bahorining oxirida Doru I saklar ustiga lashkar tortdi. Yurishga puxta tayyorgarlik koʻrildi, podsho Kir oʻn uch yil muqaddam – mil. avv. 530-yilda qilgan yurishning barcha xatolari hisobga olindi. Gʻalaba qozongudek boʻlsa, u oʻzini Kirdan yuqori qoʻyishga toʻla haqlidir!

Doru Kirga oʻxshab Yaksart orqali vaqtincha kechuvni amalga oshirmadi, balki yetkazib berilgan maxsus ashyolardan katta kemalar qurishni va ulardan mustahkam koʻprik yasashni buyurdi. Bu koʻprikdan nafaqat piyoda jangchilar, balki otliq qoʻshinlar, jangovar aravalar va hattoki fillar oʻta olardi. Fors qoʻshinlarining butun harakat yoʻnalishi boʻylab yaxshi yoʻl yotqizilgan va istehkomlar qurilgan edi.

Endi Doru qoʻshinlarining orqa tarafi haqida xavfsiramay qoʻydi, buning ustiga, u zarurat tugʻilganda Forsdan qoʻshimcha kuch olishi mumkin edi. U saklarni zabt etib, Qora dengiz boʻyida yashagan skiflarni kuchsizlantirardi, chunki skiflar sharqiy qarindoshlari yordamisiz forslarga boʻysunishlari mumkin edi. Qora dengiz boʻyidagi oʻlkalarni bosib olgach, Doru yunon shahar-davlatlariga qarshi yurish boshlay olardi.

### **Forslardan qutulish yoʻli**

Mil. avv. 520-yil avvaliga forslar uchun omadli keldi. Saklar oʻz soddaligi qurboniga aylanishdi: ular fors qoʻshinlarining makkorligini payqamadilar. Forslar saklar kiyimini kiyib, ularga orqa tarafdin hujum qilishdi va tor-mor etishdi. Kichik otryadlar Doru I ning behisob lashkariga qarshi turishi mushkul edi. Chekinishga toʻgʻri keldi. Bu gʻalabadan soʻng Doru I sak qabilalarining boshliqlaridan “yer-suv”, yaʼni, itoatgoʻylikni talab qildi. Boshliqlar kengash chaqirishdi. Ularning lashkari oz edi:

ko'pgina urug' jamoalari olis dasht va tog'larda ko'chmanchi hayot kechirardilar. Ularni bir yerga to'plash uchun vaqt yo'q edi.

Boshliqlar uzoq bahslashishdi, chora izlashdi. Birovlar dushmandan uzoqroqqa, bepoyon cho'llarga ketishni, birovlar baland Tyan-Shan tog'lari bag'rida yashirinib olishni, birovlar jang qilib, mardlarcha halok bo'lishni taklif etishdi. Bu takliflarning birortasi ma'qullanmadi. Boshliqlar shu asno bir qarorga kelishmadi. Mana shunday qiyin damda qabila boshliqlarining kengashi o'tkazilayotgan chodirga oddiy bir cho'pon kirdi. Bu Shiroq edi. U juldur kiyim kiygan, hamma yog'ini chang bosgan, yuzi shafqatsiz quyosh va shamollardan qorayib ketgan edi. U so'zlashga izn so'rab, forslarni qanday yengishni bilaman, deb qo'shib qo'ydi. Chora topolmayotgan boshliqlar ham istalgan kishini eshitishga tayyor edilar.

Shiroqning rejasi oddiy edi: forslarni o'tib bo'lmas qumlarga aldab olib kirish kerak, uyog'iga cho'lning o'zi dushmanlarni bir yoqlik qiladi. Shiroq Doroni o'ziga ishontirishga majbur qilishi va hattoki uning yo'l boshlovchisi bo'lishi haqida aytdi. U forslarga qabiladoshlari – shafqatsiz odamlar, deb aytadi. Ularga jarohatlarini ko'rsatib, saklarni noshukurlikda ayblaydi. Keyin esa Dorodan unga o'ch olishga yordam berishni so'raydi. Shiroq forslar podshosi saklar o'lkasiga qisqa yo'l bilan yetib borish va ularning ustiga bexosdan bostirib kelib, qirib tashlash imkoniyatini qo'ldan chiqarmaydi, deb boshliqlarni ishontirdi.

Saklar boshliqlari Shiroqning ahdi qat'iyligini, u tuzgan reja esa – forslardan xalos bo'lishning yagona yo'li ekanligini darrov fahmlashdi. Ular cho'pondan, dushmanlar qo'ldan tirik qaytmaysan, buni tushunasanmi, deb so'rashdi. Shiroq esa Vatan uchun jonini ham ayamasi haqida aytadi.

Qabila boshliqlari cho'ponning gaplariga ishonib, uning farzandlari haqida g'amxo'rlik qilishga va'da berishdi. Ishonchlilik hammasidan muhim: momataloqlar va shilingan joylar, qon oqib turgan jarohatlar dahshatli taassurot uyg'otishi kerak. Sak jangchilari orasida dovyurak cho'ponga qo'l ko'tarishga rozi odam topilmadi. Shiroq hammasini o'zi qildi. U hamma yeridan qon oqib, dushman qo'shinlari joylashgan qarorgoh sari ravona bo'ldi.

### **Vatan uchun jonini ayamagan dovyurak**

Oradan bir necha soat o'tib, forslar kiyimlari yirtib tashlangan, dabdala ahvoldagi odamga yo'liqishdi. Qumda cho'zilib yotgan odamning burni va quloqlari yo'q, yuzi momataloq va yara bo'lib ketgan, butun badani qamchi zarbidan chandiqlar va quyoshdan kuygan joylar bilan qoplangan edi. Uni bazo'r hushiga keltirib, suv berib, so'roq qildilar. Shiroq sak ekanligini, oddiy bir cho'ponligini aytdi. Qabila boshlig'i uning go'zal rafiqasini tortib olib, o'zini esa bo'yin egmagani uchun o'lasi qilib kaltaklab va mayib qilib, cho'lga, quyoshning otash nurlari ostiga tashlab ketishni buyuribdi.

Shiroqni olib kirishganda, Doro bir seskanib tushdi. Uning qarshisida qonga belangan odam namoyon bo'ldi, uning butun badani qamchi zarbidan momataloq bo'lgan, pichoq bilan kesib tashlangan edi. Doro rahmdil ekanligi va azbaroyi achinganidan seskanmadi, aksincha, uning o'zi ham dushmanlarini bundan battar ko'ygga solgan edi. Shunchaki mayib-majruh odamning aft-angoridan shunaqangi qahr-g'azab yog'ilardiki, yurakda vahima uyg'onardi.

– Gapir, – deb buyurdi Doro.

– Qarshingizda saklar boshlig'i buyrug'i bilan mayib-majruh qilingan baxtiqaro cho'ponni ko'rib turibsiz. Men undan qasos olmoqchiman va forslar qo'shinini saklarning orqa tarafiga olib bormoqchiman. Ular dovyurak jangchilar, ochiqchasiga jang qilsangiz, ko'p askar yo'qotasiz. Mening maslahatimga kirsangiz – qo'qqisdan hujum qilib, osonlikcha mag'lub etasiz.

– Buni qanday qilmoqchisan, ayt, – dedi podsho.

– Saklar bu tunda qarorgohni tashlab chiqishlarini aniq bilaman. Agarda biz o‘zga, qisqa yo‘ldan yursak, ulardan o‘zib, o‘tayotgan joylarida pistirma qo‘yib kutamiz. Faqat yetti kunlik yo‘lga yetadigan yegulik va suv olsak kifoya. Dabdala bo‘lib ketgan yuzim haqiqatni aytayotganimga guvohdir, – va Shiroq jarohatlarini ko‘rsatdi. Doro o‘yga toldi.

Shiroq ho‘ngrab yig‘lab, ko‘ksiga urar va birgina marhamat ko‘rsatishni – unga qasos olishga imkon berishlarini so‘rardi. Bu joylarni undan ham yaxshiroq hech kim bilmasligi haqida aytdi. U Doro lashkarini shunday so‘qmoqlar orqali olib o‘tadiki, forslar sak qo‘shinlarining orqa tarafida paydo bo‘lishadi. Shiroq podshoga oson g‘alaba va‘da qildi. Doro ham unga ishonadi.

– Atrofda, – derdi Shiroq forslarga, – quduqlar zaharlangan, o‘tlar kuydirilgan, u yerlarda suv yo‘q. Biz yagona yo‘ldan borayapmiz va uni faqat men bilaman.

Keyin yetti kun cho‘g‘day qizigan qumlar bo‘ylab yurishdi. Cho‘pon aldamagan edi: bu joylarni besh barmog‘iday bilardi.

Forslarda suv tez tugadi. Har kuni odamlar, tuyalar, otlar va xachirlarning madori qurib, qaynoq qumlarga g‘arq bo‘lishardi. Garmselning qaynoq nafasi suv saqlanadigan meshlarni quritib yubordi. Suv uchinchi kuniyoq tugadi. To‘rtinchi kuni chanqoqdan quturgan jangovar fillar zanjirlarini uzib, yuzlarcha askarlarni bosib tashlashdi. Soat sayin yuzlab askarlar chanqoqdan va turli hasharotlar, ilonlar chaqishidan halok bo‘lardi. Qanchadan-qancha mashaqqatli yo‘llarni bosib o‘tgan jangchilar meshlarda suv yo‘qligidan o‘lishardi. Hamma yoqda mo‘l-ko‘l suv bu yoqda yo‘q edi, kuni kecha ular terlagan yuzlari va qonga belangan qo‘llarini shu suvga yuvishardi.

Oltinchi kuni ko‘l oldidan chiqishdi. Shiroqdan boshqa hamma unga otildi. Ko‘ldagi suv sho‘rligini, bir qultumning o‘zi lablarni zahardek o‘yib yuborishini faqat u bilardi. Butun cho‘l o‘limga mahkumlarning dahshatli faryodidan larzaga keldi. Doro esa Shiroq unga xiyonat qilganini fahmladi. U Shiroqni ko‘ndirishga urinib, agar suv oldiga olib borsa, unga bitmas-tuganmas boylıklar berishini va‘da qildi.

### **Nihoyat, g‘alaba!**

Forslar Shiroq ularni cho‘l ichkarisiga aldab olib kirganini tushunishgach, unga dahshatli qiynoqlar bilan po‘pisa qilishdi. Cho‘pon ularning betiga qarab dangal kulib yubordi: u og‘riqdan qo‘rqmaydi, o‘limdan esa baribir omon qolmaydi.

Nihoyat Doro I ning sabr kosasi to‘lib, qilichini sug‘urdi va Shiroqning boshi uzra ko‘tardi.

– Men yengdim, Doro qo‘shinini bir o‘zim yengdim! – deya xitob qildi Shiroq. – To‘rt tomoningizni ham sahro qurshab olgan, istagan tarafga yurishingiz mumkin, hech yoqda na odam, na suv topasiz. Cho‘ldan chiqish uchun yetti kun yo‘l bosish kerak. Men esa qonim ona yerimga to‘kilishidan va jasadim shu yerga ko‘milishidan baxtiyorman!

G‘azablangan sarkarda qilich urdi va Shiroq ona yer bag‘riga yuz tuban yiqildi.

Cho‘ponning misli ko‘rilmagan jasoratidan sarosimaga tushib qolgan forslarni dahshat chulg‘adi. Ular qayoqqa borishni, nima qilishni, qanday qutulishni bilmay qoldilar. Halokat muqarrardek ko‘rindi. Axir ularning qanchasi cho‘lda tashnalikdan halok bo‘ldi, qanchasi qumlar orasida yotibdi!

Kechasi Doro jangchilarning kichik guruhi bilan qo‘rqoqlarcha qochib, qo‘shinni cho‘lning qoq o‘rtasida tashlab ketdi. Ko‘p o‘tmay qo‘shinlarga saklar o‘lkasini tark etishni buyurdi.

Keyinchalik Doro Osiyo va Yevropaning boshqa xalqlari ustidan ko‘plab g‘alabalarni qo‘lga kiritdi, ammo saklarni taslim etishga muvaffaq bo‘lmadi.

### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 33–34-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

Ahamoniylarning O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari;

Kir II – mil. avv. 530-yilda O'rta Osiyoni bosib olishga urindi –

To'maris – massagetlar malikasi qatl qildi;


Mil. avv. 519-yil Doro I O'rta Osiyoni bosib oldi;

Mil. avv. 522-yil Fradaning forslarga qarshi qo'zg'oloni – qatl qilindi;

Mil. avv. 519-yil – Shiroq jasorati – tarixchi Poliyen yozib qoldirgan;

Butun O'rta Osiyo satrapiyalarga (viloyatlarga) bo'lib tashlandi;

Mil. avv. IV asr – saklar va massagetlar forslar istilosidan ozod bo'ldilar.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



### 48-DARS. AHAMONIYLARNING O'RTA OSIYOGA BOSQINCHILIK YURISHLARI

#### Dars maqsadlari:

- O'rta Osiyo xalqlarining fors istilochilariga qarshi kurashda qahramonligi va vatanparvarligini ko'rsatish;
- forslarning va boshqa istalgan istilochilarning bosqinchiligi halokatli yakunga olib kelishi haqida o'quvchilarga tushuncha berish;
- vatanparvarlik va Ona yurtga mehr-muhabbat hislarini shakllantirishni davom ettirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

#### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 33–34-§, 114–121-b.

2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 10–11-b. Ahamoniylar davlati (mil. avv. VI–V asrlar).
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

Satrap, satrapiyalar, qal‘a.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.




### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Ahamoniylar davlat boshqaruvi.
2. Madaniyatning rivojlanishi.

### Dars mavzusi ustida ishlash.



**Mavzuni o‘rganish darslik ma‘lumoti hajmida amalga oshiriladi va o‘quvchilar bilan suhbat qurish orqali o‘qituvchining hikoyasiga asoslanadi. O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda Amudaryo xazinasi haqida hikoya qilishi mumkin.**

Amudaryo xazinasi jahon arxeologiyasida eng sirli xazinalardan biri bo‘lib, uning tarixi hanuzgacha noma‘lum. Xazina 1876–1880-yillar oralig‘ida, Amudaryoning o‘ng sohilida – Kafirnigon va Vaxsh daryolarining quyilish joylari o‘rtasida topilgan deb hisoblanadi. Ingliz chegara xizmati kapitani Frensis Charlz Berton xazina sarguzashtlarini quyidagicha tasvirlaydi.

Bundan 100 yildan oshiq vaqt muqaddam Hindistonning Ravalpindi shahridagi (hozirgi Pokiston) antiqiy buyumlar bozorida bu joylar uchun mutlaqo g‘aroyib narsalar – mil. avv. V–III asrlarga mansub oltin va kumush tangalar paydo bo‘ldi. Ular Yunoniston va Kichik Osiyoda, ahamoniylar Eroni va Salavkiylar davlatida zarb qilingan edi. Ularning ayrimlarida ilgari uchramagan yozuvlar bitilgan edi.

Qadimiy buyumlar sotuvchilari barcha tangalar bir joyda – shimoldagi ko‘hna shaharda topilgani

haqida aytishdi. Amudaryo bu shaharning xarobalarini yuvib, tangalar yotgan joy ochilib qolgan. Keyingi bir necha yil davomida o'sha yerning o'zidan yana bir necha yuzta tanga hamda oltin va kumushdan yasalgan badiiy buyumlar olib kelindi.

Amudaryoning mana shu sohillarining allaqayerida tasavvurga sig'maydigan xazina topilgan. Keyingi bir necha yil ichida yana 200 buyum topilgan. Zodagonlarning shaxsiy buyumlari eng katta guruhni tashkil qilgan: oltin bilaguzuk va jevaklar, kiyim va askariy anjomlar uchun bezaklar, haykalchalar, medalyonlar, qimmatbaho toshlar shular jumlasidan. Tasdiqlanmagan bir afsonaga ko'ra, xazinani topgan dehqonlar uni Ravalpindidagi buxorolik savdogarlarga pullashgan.

Ammo sotib olingan javohirotlar savdogarlarga foyda keltirmadi. Berton taxminiga ko'ra, buxorolik uch savdogar – Vazi ad-Din, G'ulom Muhammad va Shuker Alina Kobuldan Peshovarga tomon yo'lda ko'chmanchi qabilalar tomonidan talon-taroj qilib ketilgan. Qaroqchilar savdogarlarni g'orga olib borib, u yerda mollar solingan xurjunlarni ag'darib tintuv qilishgan. Keyinchalik bir savdogar inglizlarga hikoya qilishicha, qaroqchilar oltin va kumush zeb-ziyatlar, oltindan yasalgan bir nechta idish va tilla sanam solingan xurjunlarni kesib olib ketishgan. "Men va sheriklarim o'zimiz bilan birga pul olib yurishdan qo'rqib, o'sha buyumlarni sotib olgan edik", – deb ta'kidlaydi u.

Savdogarlarning baxtiga, sarbonlardan biri qochib ketishga muvaffaq bo'lgan va u kechasi ingliz kapitani va ikki zobitni qaroqchilar makoniga boshlab kelgan. Berton qaroqchilar o'g'irlangan mollarni qanday taqsimlashni bilolmay janjal qilayotgan paytda to'satdan paydo bo'lgan. Ularning to'rt nafari u vaqtga kelib og'ir yaralangan edi, qolganlarni esa dovyurak chegarachi tum-taraqay qochishga majbur qildi. U pistirma bo'lishi mumkinligidan xavfsirab, qaytarib olingan xazina bilan darhol ortiga qaytmay, zobitlar bilan tong otguncha panagohda o'tirdi. Shunday qilib, inglizlar yordami bilan savdogarlar nafaqat ozod etildilar, balki oltin va kumush buyumlarni qaytarib oldilar.

Ertasi kuni kapitan bozor maydonida qo'shni shahar Sex Babaning barcha ahlini to'plab, o'g'irlangan qimmatbaho buyumlarni qanday bo'lmasin qaytarib olishini, shu sababli ularni o'z ixtiyori bilan topshirishlari lozimligini aytdi. Qo'shin yuborish po'pisasi – shunchaki quruq gap emasligini bilgan deyarli barcha qaroqchilar o'z ulushini qaytarib berdi. Ammo baribir o'g'irlangan oltinning qariyb to'rttdan bir qismi izsiz g'oyib bo'ldi. Shunga qaramay, savdogarlar xavfli sarguzasht poyoniga yetganidan baxtiyor edilar. Ular minnatdorchilik tariqasida o'z xaloskorlariga grifonlari bo'lgan eng chiroyli bilaguzukni sovg'a qildilar.

Ammo xazina sarguzashtlari endi boshlanayotgan edi. Qutqarilgan tilla buyumlar misli ko'rilmagan tezlikda egalarini almashtira boshladi. Avval ular hind sarrofga nasib qildi, keyin yana bir necha bor qo'ldan qo'lga o'tdi. Nihoyat chayqovchilar zeb-ziyatlardan tushadigan foydani ikki hissa qilib olishga qaror qildilar. Ular buyumlardan ancha yengilroq oltin nusxalarni yasattirib, mo'may daromad payiga tushdilar. Ammo ularga ochko'zlik va xaridor tanlovi pand berdi. Ko'proq pul topish ilinjida ular qalbaki buyumlarni ingliz fuqarosi – general-mayor Aleksandr Kanningemga taklif qildilar. Ammo general Hindistondagi arxeologiya xizmati rahbari ham bo'lganligi sababli firibgarlarni oson fosh qildi. Oxiri savdogarlar oqibatidan qo'rqib, asl buyumlarni topshirishga majbur bo'ldilar.

XIX asr oxirida, barcha dedektiv voqealardan keyin Amudaryo xazinasidagi buyumlarning ko'p qismi Britaniya muzeyida paydo bo'ldi. Buyumlar bilan birga Londonga 1500 tanga ham olib kelindi. Amudaryo xazinasini chindanam bebaho, chunki undagi buyumlar qimmatiga qarab tanlab olingan edi. Ularning ko'p qismi oltin va kumushdan yasalgan edi. General-mayor Kanningem fikricha, topilgan

buyumlar baqtriyalik asilzoda oilasiga tegishli. Uning taxminicha, Antiox III va Yevtidem I oʻrtasida kechgan urush paytida oila vakillaridan biri barcha qimmatbaho buyumlarni olib, uyni tark etishga majbur boʻlgan edi. Xavf uni qimmatbaho buyumlar va tangalarni yashirib qoʻyishga majburladi, faqat ularni qaytarib olib ketolmadi. Boshqa tadqiqotchilar fikricha, Amudaryo xazinasi ikki yoki hatto uch asr mobaynida ibodat qiluvchilarning ibodatxonaga nazr-niyozidir. Mil. avv. 329-yilda Makedoniyalik Aleksandr qoʻshinlari ibodatxonaga yaqinlashib qolganda, xazinani olib ketib, ishonchli joyda koʻmib qoʻyishdi. Ammo bu holda ham kohinlar-egalar izsiz gʻoyib boʻldi.

Har ne boʻlganda ham, ayni vaqtda bu zargarlik durdonalari insoniyat uchun qutqarilgan va dunyoning mashhur muzeylaridan birida saqlanmoqda. Ularning kelib chiqish tarixi va buxorolik savdogarlar paydo boʻlgunga qadar taqdiriga oydinlik kiritilishi dargumon. Ammo ishonch bilan aytish mumkinki, ularni qoʻlga kiritish uchun kurashda ozmuncha qon toʻkilmagan. Qolaversa, bugun ham xazina uchun kurash davom etmoqda. Toʻgʻri, bu kurash odamlar emas, balki davlatlar oʻrtasida kechmoqda.

Tojik arxeologlar ishonch bilan maʼlum qilishlaricha, Oks xazinasi Tojikistonning hozirgi Qubodiyon tumani hududida topilgan ekan. Qadimda bu hudud Baqtriya davlatining bir qismi sanalgan.

### *Qoʻshimcha maʼlumot*

#### **Amudaryo xazinasi haqida sharqona ertak**

Amudaryo xazinasi (“Oks xazinasi”)–Ahamoniylar hukmronligi davriga (mil. avv. 550–200-yillar) mansub qariyb 180 ta oltin va kumush buyumlardir (tanga, idish, haykalcha, medalyon, qimmatbaho tosh, uzuk, taqinchoq va hokazolar). Xazina 1877-yilda, hozirgi Tojikiston hududining Amudaryo (Oks) sohilidagi qadimgi shahar xarobalari orasidan topilgan. Ahamoniylar davrida bu joylar Kir II davlati (Qadimgi Eron) tarkibiga kirgan Baqtriyaning bir qismi edi.

“Bu xazina bilan bogʻliq vaziyat gʻoyat murakkab. Muammo shundaki, uning Tojikiston, Oʻzbekiston yoki Afgʻonistondan qay biriga tegishli ekanligi tushunarsiz. Xazina buyumlari hind bozorlarida paydo boʻldi, ularni aynan oʻsha yerda sotib oldik. Ammo ular Hindistonga qayerdan kelib qolgani haqida hech kim bilmaydi”, – deya maʼlum qildi angliyalik tadqiqotchi Xanna Bolton.

#### **Amudaryo xazinasi sirlari**

1880-yil bahorida Hindistonga buxorolik savdogarlar karvoni yoʻl oldi. Karvon Qubodiyon degan chegara shahar oldida tunash uchun toʻxtadi. Amudaryoning narigi sohilidagi yerlar esa afgʻon amiri Abdurahmonga qarashli edi. Bu yerda savdogarlarni noxush xabar kutib turardi: hukmdor chegaradan oʻtayotgan odamlarning barcha naqd pullarini musodara qilish haqida farmon chiqargan edi.

Savdogarlar maslahatlashib, barcha naqd pullarini qimmatbaho buyumlarni sotib olishga sarflash haqida kelishib olishdi, chunki ular musodara qilinmasdi. Ularni bunga shu yerlik bir zargarning hikoyasi majbur qildi: uning aytishiga qaraganda, Qubodiyon fuqarolari qandaydir qadimgi shahar xarobalariga borib, u yerdan nihoyatda chiroyli tilla buyumlarni olib kelisharkan. Savdogarlar bozorga kelib, sotilayotgan buyumlarning bejirim va nafisligidan lol qolishadi. Natijada buxoroliklar oʻsha kuni bozorga qoʻyilgan deyarli barcha oltin va kumush zeb-ziynatlarni sotib oladilar.

Karvon afgʻon chegarasidan eson-omon oʻtib olib, yoʻlda davom etdi. Ammo tez orada ularga qaroqchilar hujum qilib, karvonni talon-taroj qilishdi, xususan, qimmatbaho buyumlarni qoʻlga

kiritishdi. Ammo savdogarlarning omadi keladi. O‘sha vaqtda ingliz armiyasi kapitani Frensis Berton kichik otryadga bosh bo‘lib o‘sha hududga yo‘l oladi. Tushlik chog‘i u askarlar allanimalarni zo‘r berib tushuntirayotgan yerlik kishi atrofida g‘uj bo‘lib to‘planib olishganini ko‘radi. Afg‘on yordam so‘rayotgani ma‘lum bo‘ldi. Vahimaga tushgan kishi Kobuldan Peshovarga yo‘l olayotgan savdo karvoniga qaroqchilar hujum qilib, savdogarlar va yuklarni olib ketishgani, o‘zi esa arang qochib qolgani haqida gapirib berdi.

### **G‘ordagi qaroqchilar**

So‘rab-surishtirish paytida u savdogarlar bir talay qadimgi oltin va kumush tangalar, zeb-ziynat buyumlarini olib ketishayotganini tan oldi Ular buyumlarni shu yerlik dehqonlardan xarid qilib, ularni sotib mo‘may pul ishlab olish maqsadida Britaniya Hindistoni (Pokiston)ga yo‘l olayotgan ekanlar. Xizmatkor shuni ham aytdiki, bu zeb-ziynatlar Amudaryoning qurigan o‘zani sohilida topilgan ekan. U qaroqchilar tog‘dagi bir g‘orda tunab qolishganini ham qo‘shib qo‘ydi. Kechasi kapitan Berton yoniga bir necha askarni olib, o‘sha g‘orga yo‘l oldi. Ular g‘or oldiga pisinib kelib, yaradorlarning ihragan ovozlari eshitishdi. Ular qaroqchilar o‘g‘irlangan mollarni bo‘lisholmay, janjal qilayotgan paytda paydo bo‘lishdi. Qaroqchilar qurollangan odamlarni ko‘rib, qurshab olishdi deb o‘ylashdi va qarshiliksiz taslim bo‘lishdi. Ularning ayrimlarigina – shu jumladan, to‘da boshlig‘i qochishga va xazinaning bir qismini olib ketishga muvaffaq bo‘ldilar.

Kapitan Berton savdogarlarga barcha qimmatbaho buyumlarni qaytarib berdi va evaziga unga g‘oyat nafis ishlagan oltin bilaguzuk sovg‘a qilindi.

### **Bu chindan ham xazinami yoki shunchaki chiroyli afsona?**

Xazina qay vaziyatda topilgani uzoq vaqtgacha noma‘lumligicha qolib, turli taxminlarga sabab bo‘ldi. Hattoki Amudaryo xazinasini umuman mavjud bo‘lmagan, uning tarkibidagi buyumlar turli davrlarda va turli joylarda yig‘ilgan, xuddi o‘sha savdogarlar qo‘liga tasodifan tushib qolgan degan fikrlar ham bildirildi. Ammo keyingi yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar orqali aniqlandiki, xazina mavjud bo‘lgan: 1877-yilda shu yerlik odamlar uni hozirgi Tojikiston janubidagi Vaxsh va Panj daryolari qo‘shilgan joyda, Taxti Qubod degan qadimiy shahar xarobalari orasidan tasodifan topib olishgan. Xazinani kim yashirgan va nega? Bu xususda faqat taxminlar qilish mumkin, xolos. Taxminlarning ayrimlari bilan tanishamiz.

Birinchi taxmin. Hindistondagi arxeologiya xizmati rahbari general-mayor A. Kanningem fikricha, topilgan buyumlar baqtriyalik asilzoda oilasiga tegishli. Mil. avv. 192–188-yillarda Rim va Salavkiylar davlati o‘rtasida urush kechgan. Sertashvish paytda bu oila vakillaridan biri uyni tark etib, barcha qimmatli narsalarni o‘zi bilan birga olib ketadi va ularni yashirib qo‘yadi. Ammo ularni qaytib olib ketolmaydi. Mana shunday qilib, xazina ikki ming yildan oshiq vaqt yer tagida qolib ketgan.

Ikkinchi taxmin. Tadqiqotchi P. M. Girshman fikricha, Amudaryoning chap sohilining allaqayerida fors ilohasi Anaxita ibodatxonasi bo‘lgan. Shu sababli u Amudaryo xazinasini ibodat qiluvchilarning ikki va hatto uch asr davomidagi nazr-niyozi deb hisoblaydi.

Uchinchi taxmin. Tarixchi Y. Y. Kuzmina fikricha, Amudaryo xazinasini – Baqtriya podsholarining boyligi bo‘lib, ular oliy kohinlar vazifasini ham ado etishgan. Oltinlar hukmdor qabridan kavlab olingan degan taxminlar ham bor.

Nima bo‘lgan taqdirda ham, hamma ushbu qadimiy san‘at buyumlarini qadimgi forslar to‘plagan

degan yakdil fikrga kelgan.

### **“Oks xazinasini” Buyuk Britaniyaga qanday kelib qoldi?**

Kapitan Berton Angliyaga qaytgach, savdogarlar unga sovgʻa qilgan bilaguzukni kolleksionerlar Ogest Uollston Frenks va Aleksandr Kanningemga koʻrsatdi. Ular buning bebaho qadimgi xazina ekanligini fahmlab, hamma ishlarini yigʻishtirib, savdo karvoni izini axtarib ketdilar. Afsuski, savdogarlar xazinani sotib yuborib, koʻpgina buyumlar hozirgi Pokiston bozorlarida savdoga qoʻyilgan edi. Antiqiy buyum sotuvchilari saʼy-harakatlari bilan xazinaning koʻp qismini toʻplashga muvaffaq boʻlindi.

Amudaryo xazinasini bir qancha egalari oʻzgartirib, antikvar Ogastus Frenks mulkiga aylandi, u xazinani Britaniya muzeyiga vasiyat qilib qoldirdi. Qadimgi yunonlar Amudaryoni Oks deb atashgan, “Oks xazinasini” nomi shundan olingan.

Shunday qilib, 1897-yilda Amudaryo oltinlari Londondagi Viktoriya va Albert manzaraviy-amaliy sanʼat muzeyiga namoyishga qoʻyildi. Endilikda buyumlarning koʻp qismi Britaniya muzeyida, kamroq qismi Viktoriya va Albert muzeyida saqlanmoqda. “Oks xazinasini” bugun Britaniya muzeyining eng qimmatli kolleksiyalaridan biridir.

### **Amudaryo xazinasining qimmatini nimada?**

Albatta, xazina oltin va kumushdan iboratligi uning qimmatini sanalmaydi. “Oks xazinasini”dagi qurol-yarogʻ, tangalar va zeb-ziynatlar turli mamlakatlar va qadimiy tarixiy davrlarga mansub. Xazina ikki ming yildan ortiq tarixga ega. Uning koʻp qismini asilzodalarning shaxsiy zeb-ziynatlari: qinlarning oltin qoplamalari, qalqonning kumush bezaklari, libos va askariy anjomlarning tilla bezaklari, tilla bilaguzuklar va jevaklar tashkil etadi. Eronda Ahamoniylar sulolasi davrida bunday bilaguzuklar va jevaklar podsho, uning tansoqchilari va oliy amaldorlar tantanali liboslarining ajralmas qismini sanalgan.

Xazinada mil. avv. V–III asrlarda zarb qilingan oltin va kumush tangalar bor. Ular turli mamlakatlarda – Yunoniston va Kichik Osiyoda, Ahamoniylar Eroni va Salavkiylar davlatida zarb qilingan. Ularning ayrimlarida ilgari tangalarda uchramagan yozuvlar chekilgan. Masalan, xazinadagi tangalardan birida Baqtriya podshosi Vaxshuvarning ismi zarb etilgan. Uning ismi yunonchada Oksiart kabi aytiladi – Roksananing otasi, Baqtriya podshosi, Makedoniyalik Aleksandr qaynotasining ismi shunday. Ammo koʻp olimlar fikricha, ularning “Oks xazinasini”ga mutlaqo aloqasi yoʻq. Xazinada oltin va kumush haykalchalar – jangovar aravaning mitti nusxalari va chavandozning oltin haykalchasi ham bor. Olimlar taxminicha, ular diniy eʼtiqod uchun xizmat qilgan. Boshqa buyumlar vazifasi esa (hayvonlarning oltin haykalchalari yoki odam boshining kovak tasvirlari) hozircha nomaʼlum.

### **Bu xazinani Markaziy Osiyo mamlakatlariga qaytarib berish mumkinmi?**

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari Amudaryo xazinasining hech boʻlmasa bir qismini qaytarish haqida kelishib olishga koʻp urinishgan, ammo muzokaralarning yagona natijasi shu boʻldiki, 2013-yilda Britaniya muzeyi rahbariyati Tojikistonning Milliy muzeyiga “Oks xazinasini” toʻplamidagi oltita qadimgi artefaktning nusxalarini sovgʻa qildi, xolos.

2014-yilda Britaniya muzeyining Sharq ekspozitlari boʻlimining mudiri D. Simpson Dushanba shahriga tashrifi chogʻida bunday dedi: “Bizning muzeyda XIX asr oxiriga mansub “Oks xazinasini”

saqlanmoqda. Butun shu yillar davomida kolleksiya ham Buyuk Britaniyada, ham ko'pgina mamlakatlarda millionlab tashrif buyuruvchilarga namoyish etildi. Ushbu xazina Britaniya muzeyining eng ahamiyatli eksponatlaridan biri, uni boshqa mamlakatlarga sotolmaymiz ham, berolmaymiz ham”.

Amudaryo xazinasi O'rta Osiyo zargar va hunarmandlarining buyuk mahorati hamda qadimda O'rta va Old Osiyo, O'rtayer dengizi va boshqa mamlakatlar xalqlari o'rtasida keng aloqalar yo'lga qo'yilgani haqida dalolat beradi.

### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.



### Uy vazifasi.

1. 33–34-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 49-DARS. O'RTA OSIYO AHOLISINING YUNON-MAKEDON ISTILOCHILARIGA QARSHI KURASHI

### Dars maqsadlari:

- O'rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashda qahramonligi va vatanparvarligini ko'rsatish;
- Makedoniyalik Aleksandr va boshqa istalgan istilochilar bosqinchiligi halokatli yakunga olib kelishi haqida o'quvchilarga tushuncha berish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 35–36-§, 122–127-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 16–17-b. Mil. avv. 334–325-yillarda Makedoniyalik Aleksandrning istilochilik yurishlari.

3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Transh** – bu daryo bo‘yida Makedoniyalik Aleksandrning forslar bilan ilk jangi bo‘lib o‘tgan.

**Gavgamella** – Mesopotamiyadagi qishloq, uning yonida mil. avv. 331-yilda Makedoniyalik Aleksandr forslar qo‘shinini tor-mor qilgan.

**Yunon-sharq podsholiklari** – Makedoniyalik Aleksandr Sharqda bosib olgan hududlar.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**


O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Mil. avv. IV asrda Makedoniyaning yuksalishi.
2. O‘rta Osiyo xalqlarining harbiy san‘ati.
3. Makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlari.



### **Dars mavzusi ustida ishlash.**



**O‘qituvchi darslikning asosiy mazmunini ochib berib, uni quyidagi ma‘lumotlar bilan to‘ldirishi mumkin.**

Deyarli ikki asr davomida O‘rta Osiyo xalqlari fors bosqinchilariga qarshi mardonavor jang qilganlar. Taxminan 150 yil o‘tib, O‘rta Osiyo xalqlariga yangi xavf tahdid soldi. Bu davrda Makedoniya ta‘siri keskin kuchaydi. Makedoniya podshosi Filipp II Yunonistonning katta qismini bo‘ysundirdi. Mil. avv. 337-yilda u Fors davlatiga qarshi urush e‘lon qildi. Ammo o‘sha yildayoq Filipp halok bo‘lib, hokimiyat uning o‘g‘li Makedoniyalik Aleksandrga o‘tadi.

Aleksandr otasidan ham shafqatsizroq podsho edi. U o‘sha vaqtga kelib ichki kurashlar sababli zaiflashib qolgan Ahamoniylar davlati bilan urushga tayyorgarlikni davom ettirdi.

Mil. avv. 334-yilda Granik daryosi va Iss shahri yonida bo‘lib o‘tgan janglarda yunon-makedon

qo‘shinlari Ahamoniylar lashkariga qaqshatqich talafot yetkazdi. Aleksandr Kichik Osiyo, Suriya, Falastin, Finikiya va Misrni bosib oldi. Mil. avv. 331-yilda Gavgamellada Doro III qo‘shinlari tormor qilinib, u O‘rta Osiyo chegaralari tomon qochdi. Makedoniyaliklar uni asirga tushirish niyatida ta‘qib etishdi. Bu vaqtda Ahamoniylar zodagonlari orasida fitna yetilib kelayotgan edi. Doro III hibsga olinib, qatl etiladi. Ahamoniylar podshosining qarindoshi – Bess podsho deb e‘lon qilinadi.

Bess yunon-makedon qo‘shinlariga qarshilik ko‘rsatish uchun kuch to‘plashni boshlaydi. Ammo kuchlar haddan ziyod notengligi sababli u O‘rta Osiyo hududiga chekinadi.

Bess o‘zini Baqtriya va So‘g‘diyona satrapi deb e‘lon qilib, bu hududlar aholisining Makedoniyalik Aleksandrga qarshi kurashiga boshchilik qiladi. U xalqni mustaqil davlat yaratish uchun kurashga chaqiradi. Oks orqali kechuv Aleksandr uchun qiyinchilik tug‘diradi, chunki Bess barcha qayiq va sollarni yo‘q qilishga buyruq beradi.

Daryo kechuv joyida juda keng (taxminan 1100 m) va chuqur bo‘lib, oqimi ham tez edi. Daryoning qumloq tubida ko‘priklarning tayanchlari mustahkam o‘rnashmasdi. Shu sababli Aleksandr chodirlardan meshlar tikishni, ularning ichiga o‘t to‘ldirib, tikib qo‘yishni buyurdi. Besh kun ichida Aleksandrning qo‘shinlari Oksning o‘ng sohiliga o‘tib oldi. Aleksandr Bessni ta‘qib etish uchun Ptolemey boshchiligidagi eng sara otliq askarlarini yubordi. Bessning sarkardalari unga xoinlik qilib, makedoniyaliklarga tutib berishdi. Bessni uzoq qiynab, so‘ng qatl etishdi.

Avvaliga mahalliy aholi yunonlarni forslar zulmidan ozod etuvchilar kabi qabul qildi va ularga deyarli qarshilik ko‘rsatmadi. So‘ng bir zolim o‘rniga boshqasi kelganini tushunib qolib, qattiq qarshilik ko‘rsata boshladi. Aleksandrning qo‘shinlari O‘rta Osiyo hududi bo‘ylab katta qiyinchilik bilan harakatlanardi. Aleksandr Sharqqa yurish boshlaganda, ustozi Arastuning “varvar va qul tabiatan bir xil odamlardir”, degan o‘gitlariga hamon ishonardi. Ammo u olis va noma‘lum yerlarda duch kelgan narsa uning “varvarlar” haqida tasavvurlarini ostin-ustun qilib yubordi. Bu yerda u qullarcha itoatgo‘ylik va irodasizlik emas, balki mardlik va oliy insoniy qadr-qimmat namunalarini ko‘rdi.

Yunon-makedon istilosi Zarafshon vodiysini xarob va xonavayron qildi. Bu yerda aholining ko‘p qismi qirib tashlandi. Ko‘p shaharlar vayron etildi.

Mil. avv. IV asrda Yunoniston madaniy jihatdan O‘rta Osiyodan yuqoriroq turar va undan o‘rganishga arzigulik narsalar ko‘p edi, biroq yuz minglab odamlarni qirib tashlash orqali madaniyat tarqatishni hech qanaqasiga oqlab bo‘lmaydi – bu muhim fikrni o‘quvchilar ongiga yetkazish kerak.

***Qo‘shimcha ma‘lumot***

#### **Bilasizmi...**

...Makedoniyalik Aleksandr yurishlarining eng yaxshi bayonlaridan biri – yetti kitobdan iborat “Aleksandr Anabasisi yoxud Buyuk Aleksandr yurishlari va istilolari tarixi” asari bo‘lib, u yunon tarixchisi Arrian Kvint Epiy Flaviy (milodiy I–II asrlar) tomonidan yozilgan. Bu asarda Arrian Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyoga yurishlari tarixini batafsil bayon etib, Spitaman boshchiligidagi So‘g‘d va Baqtriya aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi ko‘p yillik kurashi haqida hikoya qildi. Bu asar ilk marta Toshkentda alohida kitob ko‘rinishida 1912-yilda chop etildi.

**O‘qituvchi darslikning asosiy matniga qo‘shimcha ravishda Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishi haqida batafsil hikoya qilishi mumkin.**

Yurish boshlashdan oldin Makedoniyalik Aleksandr barcha qullari va yer-suvlarini do‘stlariga hadya qilib yubordi. Undan: “O‘zingga nima qoldi?” deb so‘rashadi. U esa: “Umid”, deb javob qiladi. Umid ismli ma‘budning o‘zi Osiyoga buyuk lashkarni boshlab boradi. U yerda, xazinalarda

fors podsholarining boyliklari yotar, u yerda, dunyo chekkasida – Hindistonda griflar (arslon boshli, arslon gavdali qushlar) oltinni qo‘riqlashar edi. Aleksandrning har bir hamrohi Sharqda orzu qilgan narsasini topishdan umid qilardi.

Qullari va oltinlari ko‘p odamlar yanada boyib ketishni xohlashdi. Hech vaqosi yo‘q odamlar qashshoqlikdan qutulish uchun biror narsaga ega bo‘lishni xohlashdi.

Aleksandrning hamrohlari orasida olimlar ham bor edi. Ular yangi yerlarni tadqiq etish, hech kim bilmagan o‘lkalarga yetib borish, noma’lum giyohlar va hayvonlarning tulumlarini uyga olib kelishdan umid qilardilar.

Jangu jadal va yurishlarning poyoni ko‘rinmasdi. Minglab aravalar g‘arbga qo‘shinlar qo‘lga kiritgan oltinlarni tashirdi. Ammo qo‘shinlarning o‘zi juldurvoqi gadoylarning ulkan to‘dasiga o‘xshab qoldi. Qilichlar o‘tmaslashdi. Otlarning tuyoqlari yuraverib yeyilib ketdi.

Aleksandrning niyati ulkan – dunyoni zabt etish edi. Agarda u yer yuzi naqadar kattaligini bilganda, bu niyati telbalikdan o‘zga narsa emasligini tushungan bo‘lardi.

U lashkar yo‘lini belgilagan xaritada dunyo chekkasi unchalik olis emasdi – buyuk daryolar Yaksart va Hindning narigi sohilida edi. Mana, Aleksandr Yaksart – Sirdaryoga yetib bordi. Uning tasavvurida bu yerda Yevropa tugaydi-yu, uning ortida esa Ummon suvlari mavjlanadi.

Ammo daryo bo‘yida turgan Aleksandr suv ummonini emas, balki o‘tlar ummoni – dashtni ko‘rdi. U yerda jangovar qabilalar – saklar va massagetlar ko‘chib yurishardi. O‘tkir uchli kigiz qalpoq kiygan chavandozlar to‘satdan paydo bo‘lib, zarba yetkazar va g‘oyib bo‘lardi. Aleksandr qo‘shinlarining orqa tarafida esa bu paytda O‘rta Osiyo qabilalari bosh ko‘tardi.

Yengilmas deya nom chiqargan va faqat olg‘a yuradigan Aleksandr esa ilk bor chekinish alamini totib ko‘rdi. U Hindistonga burildi. Uning faxriylari o‘qlar yomg‘irida qoldi, jangovar fillarning oyoqlari tagida halok bo‘ldi, kunu tun sharros quygan jala oqimlarida g‘arq bo‘ldi. Mana o‘n yildirki, ular yo‘lda, vaholanki, dunyo chekkasi ko‘rinmaydi. Aleksandr dunyoni qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘lmadi. Hatto dunyoning u ishg‘ol qilgan bir qismi ham – Italiyadan Hindistongacha bo‘lgan yerlar – uning vafotidan so‘ng parchalanib ketdi. Uning olim hamrohlari esa baxtliroq ekan. Ular fan uchun qo‘lga kiritgan bilimlar bir yoki besh yilga emas, balki asrlarga yetdi. Ular o‘z yurtiga qaytib, boshqa olimlarga ko‘rgan va kashf etgan narsalari haqida so‘zlab berishdi.

### **O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash.**

1. Xaritada Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyo hududi bo‘ylab yo‘lini ko‘rsating.
2. Makedoniyalik Aleksandr O‘rta Osiyo xalqlari ustidan o‘z hokimiyatini qanday yo‘llar bilan o‘rnatdi?
3. Mil. avv. IV–I asrlarda O‘rta Osiyo xalqlarining harbiy san’ati haqida hikoya qiling.
4. Spitan qo‘shinlari Makedoniyalik Aleksandrni qanday sharoitlarda tor-mor etishi mumkin edi?
5. Yunon-makedon qo‘shinlarining O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishi qanday oqibatlariga olib keldi?

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 35–36-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 50-DARS. O‘RTA OSIYO AHOLISINING YUNON-MAKEDON ISTILOCHILARIGA QARSHI KURASHI

### Dars maqsadlari:

- O‘rta Osiyo xalqlarining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashda qahramonligi va vatanparvarligini ko‘rsatish;
- Makedoniyalik Aleksandr va boshqa istalgan istilochilar bosqinchiligi halokatli yakunga olib kelishi haqida o‘quvchilarga tushuncha berish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘sishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 35–36-§, 122–127-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 16–17-b. Mil. avv. 334–325-yillarda Makedoniyalik Aleksandrning istilochilik yurishlari.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Granik** – Makedoniyalik Aleksandrning forslar bilan ilk jangi bo‘lib o‘tgan daryo.

**Gavgamella** – Mesopotamiyadagi qishloq, uning yonida mil. avv. 331-yilda Makedoniyalik Aleksandr forslar qo‘shinini tor-mor qilgan.

**Yunon-sharq podsholiklari** – Makedoniyalik Aleksandr Sharqda bosib olgan hududlar.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni

bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Maroqandaning bosib olinishi.
2. Spitaman qo'zg'oloni.
3. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga bosqinchilik yurishining oqibatlari.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

**O'qituvchi darslikning asosiy mazmunini yoritib, uni quyidagi ma'lumotlar bilan to'ldirishi mumkin.**

O'rta Osiyo xalqlari o'z yerlarini istilochilardan favqulodda dovyuraklik bilan himoya qildilar. Mudofaachilarning aksariyati dushman qo'lga tushmaslik uchun o'z jonlariga qasd qilishdi.

Aleksandr qarshilik ko'rsatgan aholini shafqatsiz jazoladi. Antik tarixchi Arrian yozganidek, yetti shaharning bosh ko'targan aholisidan birona odam qolmagan, hamma yo qirib tashlangan, yo qul qilib sotilgan edi. Aleksandr Maroqandani (mil. avv. 329-yil) ishg'ol qilib, shaharda garnizon qoldirdi va Farg'ona vodiysiga yo'l oldi. Ammo bu vaqtda Ustrushonada qo'zg'olon boshlandi. Uch yil davom etgan bu qo'zg'olon markazi So'g'diyona edi. So'g'diyolarga tez orada Baqtriya va Xorazm aholisi kelib qo'shildi. Bu esa Aleksandrni asosiy kuchlarni Zarafshon vodiysiga tashlashga majbur qildi. O'troq dehqonlar ham yunon-makedon istilochilariga qarshi bosh ko'tardi. Qo'zg'olon ilhomchisi Spitaman edi. U Aleksandr forslar zulmidan ozod qilish yoki mustaqillikni tiklash uchun emas, balki yanada og'ir zulm yetkazish uchun kelganini tushundi.

Spitaman katta qo'shin to'plab, So'g'diyona poytaxti – Maroqandaga yo'l oldi. Aleksandr bu yerda qo'zg'olonlarni bostirish uchun sarosimali va shafqatsiz choralar ko'rdi. Kiropol ko'chalarida qo'zg'olonchilar bilan qonli janglar bo'lib o'tdi. Aleksandr shaharga hujum qilish uchun devorteshar mashinalarni ishlatdi. Mudofaachilarning diqqati hujumning bosh yo'nalishi bilan chalg'igan bir paytda Aleksandr kichik guruh bilan birga daryoning qurigan o'zani bo'ylab shaharga kirib olib, darvozalarni ochdi. Sakkiz mingdan oshiq himoyachilar jangda halok bo'ldilar. Ammo qo'zg'olonchilar baribir janglarni davom ettirishadi. Makedoniyaliklar katta talafot evaziga mudofaani sindirib, shaharning barcha aholisini qirib tashlaydilar.

Shundan so'ng Aleksandr Sirdaryo manzilgozlarida bosh ko'targan aholini jazolaydi. Spitaman esa bu vaqtda yana Maroqandani qamal qiladi. Aleksandr qurshovda qolganlarga yordam uchun uch mingga yaqin jangchidan iborat qo'shin jo'natadi. Zarafshon daryosi bo'yida makedoniyaliklarga pistirma qo'ygan Spitaman dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Spitaman yana Maroqandaga qaytadi. Yuborgan askarlar guruhi yo'q qilinganidan xabar topgan Aleksandr o'zi Spitaman lashkarini tor-mor etishga qaror qiladi.

Yunonlarning katta kuchlari yaqinlashib kelayotganini eshitgan Spitaman qamalni qoldirib, qo'shinlarini sahro sari boshlab ketadi. Aleksandr muvaffaqiyatsizligi uchun o'ch olib, So'g'diyona aholisini shafqatsiz jazolaydi. Yunonlar ham ko'p talafot ko'rishadi. Mil. avv. 328-yil qishida Baqtriyada Aleksandr hal qiluvchi jangga tayyorlanib, qo'shinlari safini to'ldiradi, ittifoqchilar izlab saklar va xorazmliklar yo'lboshchilari bilan muzokaralar o'tkazadi.

Spitaman dushmani bir kun ham tinch qo‘ymadi. Uning uchar otliqlari bosqinchilarga hujum qilib, shafqatsiz zarbalar berishdi.

Mil. avv. 328-yil bahorida Aleksandr So‘g‘dni u chekkasidan bu chekkasiga qadar yurib o‘tib, 120 mingdan oshiq kishining yostig‘ini quritdi, o‘sha yilning kuzidayoq Spitaman va Aleksandrning Maroqanda uchun so‘nggi jangi bo‘lib o‘tadi. Bu jangda ikkala taraf katta talafot ko‘radi. Spitaman tag‘in cho‘lga chekinadi, ammo ko‘chmanchi qabilalar boshliqlari xoinlik qilib, qo‘qqisdan hujum qilishadi va antik tarixchi Arrian guvohlik berishicha, uning boshini tanasidan judo qilib, Aleksandrga yuborishadi.

Ahamoniylar davlatini zabt etgan Aleksandr So‘g‘diyodagi qo‘zg‘olonni uzoq vaqt bostirolmadi. U mahalliy zodagonlar bilan munosabat o‘rnatish yo‘llarini izladi, yunonlar hukmronligini tan olgan qabilalarni o‘lpondan ozod etishi haqida e‘lon qildi. U mahalliy kohinlar va asilzodalarga o‘z munosabatini tubdan o‘zgartirdi: ularga pul tarqatdi, ilgari tortib olgan mulklarini qaytarib berdi, o‘ziga yordam berganlar bilan o‘g‘irlangan mollarni bo‘lishdi. Hatto ishg‘ol qilingan yerlarda o‘z hukmronligini mustahkamlash uchun Spitaman safdoshlaridan birining qizi Roksanaga (Ravshanak) uylandi. Bu choralar hamda mahalliy zodagonlar xoinligi va yunon qo‘shinlarining harbiy ustunligi oxir-oqibat So‘g‘diyona xalqining qahramonona qarshiligini sindirdi.

O‘rta Osiyo yerlarini bosib olish uchun Aleksandr deyarli uch yil harakat qildi, biroq uncha katta bo‘lmagan hududni: So‘g‘d, Baqtriya va bir nechta tog‘li viloyatni bo‘ysundirdi, xolos. Xorazm va ko‘chmanchi qabilalar mustaqilligicha qoldi.

Spitaman qo‘zg‘oloni bostirildi, ammo Makedoniyalik Aleksandr uchun bu jang mag‘lubiyatga teng bo‘ldi. U Sirdaryogacha yetib borib, qo‘shinlarini va yengilmas sarkarda degan obro‘sini yo‘qotishdan cho‘chib, zaifroq dushmani izlay boshladi va mil. avv. 327-yil yozida Hindistonga lashkar tortdi.

Yunon-makedon bosqini Zarafshon vodiysini xarobazorga aylantirdi, aholining katta qismi qirib tashlandi, ko‘plab shaharlar vayron etildi.

Mil. avv. IV asrda Yunoniston madaniy jihatdan O‘rta Osiyodan yuqoriroq turar va undan o‘rganishga arzigulik narsalar ko‘p edi, biroq yuz minglab odamlarni qirib tashlash orqali madaniyat tarqatishni hech qanaqasiga oqlab bo‘lmaydi – bu muhim fikrni o‘quvchilar ongiga yetkazish kerak.

### **O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash.**

1. Xaritada Makedoniyalik Aleksandrning O‘rta Osiyo hududi bo‘ylab o‘tgan yo‘lini ko‘rsating.
2. Makedoniyalik Aleksandr O‘rta Osiyo xalqlari ustidan o‘z hokimiyatini qanday yo‘llar bilan o‘rnatdi?
4. Mil. avv. IV–I asrlarda O‘rta Osiyo xalqlarining qurollari va harbiy san’ati haqida hikoya qiling.
5. Spitaman qo‘shinlari Makedoniyalik Aleksandrni qanday sharoitlarda tor-mor etishi mumkinligi haqida o‘ylab ko‘ring.
6. Yunon-makedon qo‘shinlarining O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishi qanday oqibatlarga olib keldi?

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 35–36-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Qo‘shimcha ma’lumot

#### Spitaman – “jahonning fotihi”ga bosh egmagan qahramon

Makedoniyalik Aleksandr jang maydonida hech kimga mag‘lub bo‘lmay, ulkan saltanatlarni bo‘ysundirdi. Yagona mag‘lubiyatini ko‘chmanchi Spitaman qo‘lidan qabul qilib oldi.

*Arrian, qadimgi yunon faylasufi va tarixchisi*

#### G‘olib hukmiga topshirilgan qal’a

Oldinda Nautaka viloyati (Qashqadaryo vohasining sharqiy qismi) va Maroqanda bor edi. Nautakaning bosh darvozasi minorasida turgan hukmdorga makedoniyaliklar asir olgan yakkayu yagona qizi Chinorani ko‘rsatishdi. Oq tulporni choptirib kelgan shaxsan Aleksandrning o‘zi, agar hukmdor qarshilik ko‘rsataversa, qizi uning ko‘z oldida qatl etilishi haqida e’lon qildi. Agar qal’ani jang qilmasdan g‘olib hukmiga topshirishsa, hukmdor o‘zining, qizining va fuqarolarning hayotini saqlab qoladi.

Qal’a himoyachilari Aleksandrga ishonishdi. Darvozani ochib, Nautakaning fuqarolari va makedoniyaliklar jasadlari aralash bo‘lib uyulib yotgan maydonga chiqdilar. Aleksandrning ishorasi bilan qal’aning barcha himoyachilari qilichdan o‘tkazildi, shaharga esa o‘t qo‘yildi. Bir necha kun davomida saroylar, ibodatxonalar, minoralar, uy-joylar lovillab yondi, havoda esa qora qushlarni eslatuvchi kul qoldiqlari uchib yurdi. Nautaka turgan joyda qoraygan xarobalar qoldi, ular orasida shoqol va yovvoyi itlar to‘dalari qonli ziyofat uyushtirdi. Aleksandr Nautakada bir nechta qal’ani ishg‘ol qilib, Maroqandaga oshiqdi va mil. avv. 329-yilda uni bosib oldi.

#### Sarkardaning bolalik va o‘smirlik yillari

Spitaman ismi qadimgi fors tilidan “jasurlikda benazir” kabi o‘giriladi. U bolalik chog‘laridanoq bo‘lajak jangchi tarbiyasini oldi. Bolaligidayoq o‘q-yoy, nayza va qilich ishlatishni bilgan, poygalarda qatnashib, ot minishni mashq qilgan. O‘shandayoq ko‘chmanchi hayotga xos barcha qiyinchiliklar va muhtojliklarni boshidan kechirgan.

Turli zodagon oilalar vakillari to‘plangan va har bir odam dong taratishni xohlagan ot musobaqalarida ilk bor qatnashganda, Spitaman endigina o‘n ikkiga to‘lgan edi. Bu musobaqalarda u sovrinni qo‘lga kiritib, ko‘pni ko‘rgan chavandozlarni uyaltirdi.

Voqea bunday boshlangan edi. Spitamanning otasi o‘z o‘g‘liga Qorasoch laqabli toy sovg‘a qiladi. Bola va toy xuddi aka-ukadek birga o‘sdilar. Spitaman otasining topshirig‘i bilan allaqayerga shoshgan paytda, toy xuddi kuchukcha kabi uning ortidan ergashib chopardi.

Qorasoch Spitamanni qutqargani haqida rivoyat bor. Kunlardan bir kun olis yaylovlardan biridan qaytayotgan Spitaman kuchli jala ostida qoladi. U o‘z ortida g‘alati shovqin eshitib, sel dara bo‘ylab oqib, daraxtlarni ildizi bilan sug‘urib, ulkan xarsanglarni qum zarrasiday dumalatib ketayotganini ko‘rdi.

Sel oqimi otni qulatdi va Spitaman ustiga sariq suv yopirilib, uni toshlarga urib chilparchin qilay dedi. U bir on boshini suvdan chiqarishga ulgurdi va ot quruq yerga chiqib olganini ko‘rib, “Qorasoo-o-ch!..” deb qichqirdi va suv uni yana domiga tortdi. Spitamanning suvdan nafasi tiqilib qoldi, lekin baribir suv betiga suzib chiqib, yonida Qorasochni ko‘rdi. U jon-jahdi bilan otning yolini changallab oldi. Spitaman va ot shiddatli oqimga qarshi kurashishdi. Sharshara ham yaqinlashib qolgan edi. Lekin shunda Qorasochning tuyoqlari bir on suv tubiga tegdi va u kuchi boricha qirg‘oq tomon talpindi, yerga sakrab chiqib, hushini yo‘qotgan Spitamanni bu dahshatli joydan uzoqroqqa olib ketmaguncha to‘xtamay chopdi.

### **Makedoniyalik Aleksandr – So‘g‘diyona dushmani**

Makedoniyalik Aleksandr qo‘shinlari forslarni tor-mor qilgani haqida xabarlarni eshitgan So‘g‘d zodagonlari Maroqandada yig‘ilib, g‘arb kelgindilariga qarshilik ko‘rsatish-ko‘rsatmaslik masalasini hal qilishga kirishishdi. Qabila boshliqlari bu borada bir to‘xtamga kelolmadilar. Ba’zi oqsoqollar fikricha, Aleksandrni qo‘llab-quvvatlash – o‘z mustaqil davlatini barpo etish uchun qulay fursatdir. Boshqalar, shu jumladan, Spitaman ham Aleksandr saltanatida hech qanday mustaqil yerlar bo‘lmasligi va hukmdor yagona – Aleksandrning o‘zi bo‘lishini fahmlab turishardi. Demak, urushga tayyorlanmoq kerak. Makedoniyalik Aleksandr amalga oshirgan eng murakkab harbiy tadbirlardan biri – O‘rta Osiyoga yurish mana shunday vaziyatda boshlandi.

### **Makedoniyalik Aleksandrning ilk mag‘lubiyati**

Makedoniyalik Aleksandrning qo‘shinlari Yaksart (Sirdaryo)dan kechib o‘tib, Maroqandani bosib oldi. Aleksandr sak va massagetlarga qarshi jang qilishda tayanch nuqta sifatida Sirdaryo bo‘yida, Xo‘jand yaqinida qal‘a qurishni buyurdi. Bu qal‘a Aleksandriya Esxata (Chekka Aleksandriya) deb nomlandi. Makedoniyalik Aleksandr o‘zini oldindan g‘olib kabi his qilib, Hindistonga yurish rejalarini tuzar edi.

Ammo hammasi boshqacha bo‘ldi. Aleksandrning asosiy kuchlari Farg‘onada turganda, u mil. avv. 329-yil sentyabrda So‘g‘dionaning ko‘pgina hududlari bosqinchilarga qarshi ko‘tarilib, Maroqanda qal‘asini qurshab olgani haqida xabar topdi. O‘sha kezdayoq qo‘zg‘olonchilar sardorining ismini bilib oldi. Bu Spitaman edi.

Aleksandr qo‘shinlari yaqinlashgani haqida eshitib, Spitaman qal‘a qamalini to‘xtatib, dushmanga qarshi chiqadi. Bir necha kun davomida uning otliq askarlari yunonlarni tunu kun to‘xtovsiz hujumlar bilan bezor qiladi. Politimet (Zarafshon) daryosi bo‘yida makedoniyaliklarga pistirma qo‘ygan Spitaman dushman guruhini tamomila qirib tashlaydi. Bu jangda Makedoniyalik Aleksandrning uch mingdan ortiq askarlari halok bo‘ladi. Kamdan-kam tirik qolganlar yengilmas Aleksandrga ilk mag‘lubiyati haqida mudhish xabarni yetkazadilar.

### **Aleksandr qanotli jangchilar topsin...**

So‘g‘dionada partizanlik urushi kengayib borar edi. Spitaman boshchiligidagi askarlar qo‘qqisidan hujum qilib, Aleksandr lashkarining kichik bo‘linmalarini, kichik qal‘alar garnizonlarini yo‘q qilib, tag‘in cho‘lu biyobonga yashirinar edilar. Qo‘zg‘olonchilar dushman qo‘shinlari bilan ochiq jangga kirishmaslikka harakat qilardilar. Erksevar so‘g‘diylar qattiq qarshilik ko‘rsatishdi. Xalq o‘z mustaqilligi uchun bir tan, bir jon bo‘lib ko‘tarildi. So‘g‘dionada janglar qariyb uch yil

davom etdi. Maroqanda qarshilik ko‘rsatish markaziga aylandi.

Mil. avv. 327-yil bahorida Aleksandr Hisor tog‘ tizmasining janubiy yonbag‘irlarida joylashgan “So‘g‘d qoyasi”ni qamal qildi. “Qoya” himoyachilari oxirigacha kurashishga qaror qildilar. Makedoniyaliklarning taslim bo‘lish haqida taklifiga ular mag‘rurlik bilan: “Aleksandr qoyaga uchib chiqqa oladigan qanotli jangchilarni topsin. Oddiy odamlarning qo‘lidan kelmaydi bu”, deb javob berishdi.

Makedoniyalik Aleksandr qoyani zabt etgan jangchilarga katta mukofot e‘lon qildi. Bir guruh jangchilar zo‘r mashaqqatlar bilan tik qoyaga chiqib, mudofaachilarning orqa tarafidan bostirib kirdi. Qal‘a taslim bo‘ldi.

So‘g‘d va massagetlar hududi chegarasidagi ochiq jangda Spitaman makedon qo‘shinlarining muntazam qismlaridan yengilib, cho‘lga chekindi.

### **Spitaman raqiblarim orasida eng jasuri edi**

Qo‘zg‘olonchilar tengsiz janglarda ko‘rsatgan qahramonliklariga qaramay, makedoniyaliklar qo‘shinlari tarqoq qarshilik markazlarini birin-ketin bostirdi. Spitamanni So‘g‘d yonidan chekinishga majbur etishdi va u massagetlar orasida yashirindi. Ko‘chmanchilar boshliqlari Spitamandek mard emasligi ayon bo‘ldi. Antik muallif Arrian ta’kidlashicha, Spitaman halokati mil. avv. 328-yil dekabrda avval qo‘zg‘olonchilar guruhlarini boshlig‘ining karvonini talon-taroj qilib, so‘ng Spitamanni o‘ldirib, uning boshini Aleksandrqa yuborgan va shu tarzda shafqat so‘ragan ko‘chmanchilarning harakatlari bilan bog‘liqdir.

Dushmani halok bo‘lgani haqida xabarni eshitgan Aleksandr bunday deydi: “Spitaman raqiblarim orasida eng jasuri edi. U boshqalar kabi mendan qochmas, balki o‘zi hujum qilardi”.

### **Makedoniyalik Aleksandr uchun “sovg‘a”**

M. Qoriyev o‘zining “Spitamen” degan tarixiy romanida Spitamen o‘limini quyidagicha tasvirlaydi.

“Odatida (Spitamening xotini) oyoq uchida xonaga kirib Spitamening tepasiga kelib to‘xtadi. Spitamen xafaqonlikda ko‘p musallas ichib qo‘yganligi uchun aftidan hech narsa bilmay toshdek qotib uxlardi.

Odatida ko‘ylagi ichiga yashiringan o‘tkir xanjarni oldi-da, bir zarb bilan Spitamening kallasini kesdi. Erining kuchli gavadasi bir silkinib tushdi, boshi yerda qolib o‘zi o‘rnidan turib ketmoqchi bo‘ldi, lekin bu intilish uzoqqa cho‘zilmadi. Sarkardaning katta-katta ko‘zlari baqraygancha chiroqda yiltirardi...

Iskandarning mulozimlari shirin uyquda yotgan podshohni uyg‘otishib, juda zarur ish bilan go‘zal bir yovvoyi ayol yo‘qlayotganligini xabar qilishdi. Podshoh o‘z harbiy yurishlari davomida bunaqangi tasodifiy voqealarga o‘rganib ketganligi uchun achchig‘i ham kelmay, bemalol turib, yo‘qlayotgan ayol huzuriga chiqdi.

- Menga bevaqt va bemavrid qanday sovg‘a keltirgan eding yovvoyi ayol? – so‘radi Iskandar.
- Spitamening boshi, – dedi Odatida hayajonlanib.

Shu daqiqa ro‘molga o‘ralgan kallani ko‘tarib qul kirdi.

- Qani, ro‘molchani ko‘tar-chi, – dedi Iskandar ishonmay.

Qul qo‘lidagi boshni ochib ko‘rsatdi.

- Bu kimning boshi, – so‘radi Iskandar.
- Spitamenniki, – dedi qul.
- O‘zing kimning qulisan?
- Spitamenni...
- Anavi ayol-chi, – so‘radi Iskandar Odatidani ko‘rsatib.
- Spitamenning suyuklisi, – dedi qul.

Iskandarning miyasiga bir narsa urilgandek gangib qoldi.

– Yo‘qoting ko‘zimdan, bu jodugarni! Qarorgohimdan butunlay quvib yuboringlar!”

Shundan keyingi voqealar haqida M. Qoriyevning “Spitamen” romanini o‘qib bilib olasiz.

Garchi Spitaman qo‘zg‘oloni bostirilgan bo‘lsa hamki, bu yerda ilk bor yunon-makedon qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchradi. Aleksandr saklar va boshqa bo‘ysunmagan mahalliy xalqlarga qarshi urushni davom ettirmay, mil. avv. 327-yilda Hindistonga harbiy yurish qildi.

Spitaman halokatidan so‘ng O‘rta Osiyoda ozodlik harakati sustlashdi. Oradan bir muddat o‘tib So‘g‘d va Baqtriyadagi qo‘zg‘olonlarning so‘nggi markazlari bartaraf etildi. Shu bilan O‘rta Osiyo xalqlarining makedoniyaliklarga qarshi uch yillik kurashi nihoyasiga yetdi.

Spitaman halokatidan so‘ng uning xotirasi asrlar davomida O‘rta Osiyo xalqlarining afsona va rivoyatlarida yashab kelmoqda. Ular o‘z xalqining ozodligi uchun jon fido qilgan olijanob va dovyurak sarkardani tarannum etadi.

### **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot**

#### **Yunon-makedon istilochilariga qarshi kurash. Spitaman qo‘zg‘oloni**

Mil. avv. 334-yil – Makedoniyalik Aleksandr – Sharqqa yurish – 11 yil;

Tarixchi – Aristobul uning yurishi haqida hikoya qildi;

Akinak – xanjar Sagaris – jangovar oybolta;


Mil. avv. VII–VI asrlar – Qiziltepa, Afrosiyob, Uzunqir shahar-qal’alari;

Baqtriyaning Makedoniyalik Aleksandr tomonidan bosib olinishi – satrap Bess;

Mil. avv. 329-yil – Maroqanda bosib olindi – Spitaman qo‘zg‘oloni;

Makedoniyalik Aleksandr – O‘rta Osiyoda 12 ta shahar qurdirdi;

Politimet – Zarafshon daryosi.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 51-DARS. SALAVKIYLAR DAVLATI VA YUNON-BAQTRIYA PODSHOLIGI

### Dars maqsadlari:

- o‘quvchilarni Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi bilan tanishtirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma‘naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma‘lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta‘minlash va ma‘lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 37-§, 128–131-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 18-b. Makedoniyalik Aleksandr davlatining parchalanishi.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

### Yangi mavzuning mazmuni.


O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. So‘g‘d va Baqtriya Salavkiylar davlati tarkibida.
2. Yunon-Baqtriya podsholigi.
3. Madaniyat rivojlanishi.

### Dars mavzusi ustida ishlash.

Mavzuni o‘rganish darslik ma‘lumoti hajmida amalga oshiriladi va o‘quvchilar bilan suhbat qurish orqali o‘qituvchining hikoyasiga asoslanadi.



Makedoniyalik Aleksandrning vafotidan va diadoxlar (yunonchadan tarjimasi – “valiahd, merosxo‘r”) urushlaridan so‘ng uning davlati bir qancha o‘lkalarga parchalanib ketdi. Ular orasida Salavkiylar podsholigi ham bor edi. Makedoniyalik Aleksandrning sarkardasi Salavkka Kichik Osiyo va Ikki daryo oralig‘idan Sirdaryogacha yerlar nasib qildi. Salavkiylar davlati mil. avv. 64-yilga qadar, Rim tomonidan bosib olinguncha rivojlandi.

O‘rta Osiyo hududida Salavkiylar mil. avv. 312–250-yillarda hukmronlik qildilar. Ularning O‘rta Osiyodagi hukmronligi yunon manzilgohlarining harbiy qudratiga tayanar edi. Mil. avv. IV asr oxiri – III asr o‘rtasida Baqtriya Salavk boshqargan davlat tarkibiga kirgan. Unga So‘g‘diyona ham tegdi. O‘rta Osiyo yerlari Salavkiylarning asosiy yerlaridan juda olisda joylashgan bo‘lsa-da, muhim harbiy-strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega edi.

Davlatning eng ravnaq topgan davri mil. avv. III asrning ikkinchi yarmi – II asrning birinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Baqtriyaning satrapi – yunon Diodot qisqa vaqt, mil. avv. III asr oxiriga qadar hukmronlik qilib, So‘g‘dionaning sobiq salavkiylik satrapi Yevtidem tomonidan bosib olindi. U

Baqtriya bilan So'g'diyonani bir katta davlatga birlashtirib, uning yuksalishi uchun asos yaratdi.

Yunon-Baqtriya podsholigi haqida ma'lumotlar juda kam. Turk-Baqtriya podsholari tomonidan zarb ettirilgan tangalar bosh manba hisoblanadi. Yunon-Baqtriya san'ati yodgorliklari ham muhim manba bo'lib, ular bizgacha oltin, kumush va kuydirilgan gil (terrakota)dan yasalgan buyumlar ko'rinishida yetib keldi.

Mahalliy yunon madaniyatining Hindiston va Eron madaniyati bilan chatishmasi bu davrning madaniyati va san'atiga xosdir. Tangalardagi tasvirlar Yunon-Baqtriya podsholigida ibodatxonalar va ibodatxona haykaltaroshligi mavjud bo'lgani haqida taxmin qilishga imkon beradi.

Salavkiylarning mis tangalari Termiz, Denov va Afrosda o'tkazilgan tadqiqotlar davomida topilgan. Mil. avv. II asrning ikkinchi choragida bu yerga Markaziy Osiyodan bostirib kirgan yuechji qabilalari Baqtriyaga hujum qilgach, Yunon-Baqtriya davlati barham topdi. Yuechjilar Baqtriyaga bostirib kirgan davr mil. avv. 140–120-yillarga to'g'ri keladi.

### Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 37-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## Intellekt-xaritanani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

### Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi

Mil. avv. 323-yil – Makedoniyalik Aleksandr vafot etdi;  
Davlat Makedoniya, Misr va Suriyaga (Salavkiylar) bo'linib ketdi;

O'rta Osiyo – Ikki daryo oralig'i, Eron, Parfiya, Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona;


Mil. avv. 293-yil – Parfiya, Marg'iyona va Baqtriya hukmdori – Antiox;

Antik yoki ellinistik – qadimgi, yunon;

Yunon-Baqtriya davlati;

Hukmdorlar – Diodot – Yevtidem – Demetriy – mil. avv. III asr;

Mil. avv. 140-130-yillar o'rtasi – ko'chmanchi yuechjilar tor-mor qildi – 120 yil davom etdi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						

## 52-DARS. O'LKASHUNOSLIK DARS

### Dars maqsadlari:

- o‘quvchilarni o‘zlari yashaydigan ma’lum bir hududlarning tarixiy nomlari bilan tanishtirish va tadqiqot ishlari ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- vatanparvarlik, qadrdon o‘lkasiga mehr-muhabbat va hurmat hissini tarbiyalash.

### **Materiallar va jihozlar.**

Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Yangi mavzuning mazmuni.**

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e’lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Ekskursiya (arxeologik qazishmalar joylari bo‘ylab yoki o‘lkashunoslik muzeyiga videoekskursiya, xayoliy ekskursiya).

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning darsda ishtiroki va og‘zaki javoblari yoki ekskursiya muhokamasida faol qatnashganligi uchun baholarni e’lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 53–54-DARS. QADIMGI XORAZM, QANG‘ VA DAVAN DAVLATLARI

### **Dars maqsadlari:**

- O‘zbekistondagi qadimgi davlatlar – Xorazm, Qang‘ va Davan vujudga kelishi tarixi bilan tanishtirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘shishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 38–40-§, 132–142-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf.

3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang.**

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**


O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Xorazm tarixi va madaniyati.
2. Qang‘ davlati.
3. Davan.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

Mavzuni o‘rganish darslik ma‘lumoti hajmida amalga oshiriladi va o‘quvchilar bilan suhbat qurish orqali o‘qituvchining hikoyasiga asoslanadi.



**Davan**  
mil. avv. III –  
milodiy III asrlar

**Poytaxti: Ershi**  
**70 dan ortiq shahar, Sho‘rabashot,**  
**Uchqo‘rg‘on**

**“Samoviy otlar” tufayli Xitoy bilan**  
**urushlar**



O‘zbekiston Respublikasining shimoli-g‘arbiy qismida, gullagan bog‘lar va dalalar bepoyon cho‘l qumlari bilan almashingan yerlarda bundan ko‘p yuz yillar muqaddam Xorazm davlati joylashgan edi. Mil. avv. 5–4-mingyilliklarda bu yerda qadimgi ovchilar yashab, cho‘lda o‘z manzilgohlari izlarini qoldirishgan. Mil. avv. 1-mingyillikda bu hududda ilk davlat tashkil topib, mil. avv. IV asrda esa Xorazm elchilari Rim imperatorlari saroyiga tashrif buyurishgan. Mil. avv. XIII–X asrlarda bu yerda xorazmshohlarning boy davlati vujudga kelgan edi. Katta shaharlarda olib borilgan qazishmalar, qal‘a va minora devorlari xarobalari, tarmoqlangan kanallar izlari shundan dalolat beradi. Cho‘lning jonsiz makonlarida daryolarning qum to‘lgan o‘zanlari bugun ham ko‘rinib turadi, bu yerda ming yillar davomida hayot davom etib, turli madaniyatlar shakllangan.

XIII asrda Chingizxon qo‘shinlari Xorazm davlatini tor-mor etib, shaharlarga o‘t qo‘yishgan, kanallarni vayron qilishgan va gullagan o‘lka suvsiz sahroga aylangan edi.

Uzoq vaqtgacha qadimgi Xorazm tarixi jumboq bo‘lib kelgan. Bugunga kelibgina, yer qa‘ridan, cho‘l qumlari tagidan Xorazm madaniyatining qadimgi yodgorliklarini qazib olayotgan arxeologlar tufayligina asta-sekin afsonalar barham topib, zamonaviy o‘zbeklar va qoraqalpoqlarning ajdodlari – qadimgi xorazmliklarning haqiqiy tarixini bilib olmoqdamiz. Hammasi bunday boshlangan...

1937-yilda S. P. Tolstov ekspeditsiyasi janubiy Qoraqalpog‘iston cho‘llarida qazishmalarga kirishdi. Bepoyon sahro bo‘ylab tuyalarda qiyin va xavfli yo‘l boshlandi. Tuyalar qumtepalardan ehtiyotkorlik bilan yurib borishardi. Bu safarning cheki yo‘qdek tuyulardi. Ammo yo‘l boshlovchi dadil odimlardi: u yerda qal‘alarning xarobalari bo‘lishi kerak. To‘g‘ri, ularga ogohlantiruvchi nomlar qo‘yilgan: “Qo‘yqirilganqal‘a”, “Qumbosganqal‘a”. Ammo hatto “Borsa kelmas” kabi qo‘rqinchli nom ham arxeologlarni cho‘chitmadi. Yuzni og‘ritib savalagan va kuydirgan qum bo‘roni ham, qaynoq qum bulutlari ham ishni to‘xtatmadi. Arxeologik yodgorliklarni izlash davom etaverdi.

To‘rt yil ichida 1500 kilometrlik qidiruv yo‘nalishlaridan o‘tildi, 400 yangi yodgorlik va 14 ta manzilgoh qazib ochildi, Xorazm davlatining chegaralari belgilandi, qadimgi kanallarning o‘zanlari topildi, qazishmalar amaliyotida ilk bor qo‘llangan aviatsiya esa ekspeditsiyaga sun‘iy sug‘orish tarmog‘ini o‘rganishga va uni qadimgi Xorazm xaritasiga tushirishga, manzilgohlar va shaharlar rejalarini tuzishga, ikki yuzdan oshiq yangi arxeologik yodgorliklarni topishga imkon yaratdi.

Bu o‘lkada mil. avv. IX–VIII asrlarda Amirobod madaniyatining chorvador qabilalari yashagan. Uning eng yirik arxeologik yodgorligi Yakka Porson manzilgohidir. Bu yerda yarim yerto‘lalar ko‘rinishidagi yigirmadan ziyod uy-joylar, ko‘plab metall buyumlar: turli zeb-ziynatlar, bronza ko‘zgular, igna va bigizlar topilgan. Shunday qilib, arxeologlar qadimgi Xorazm tarixida yangi sahifa ochishdi.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 38–39-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### *Qo‘shimcha ma‘lumot*

#### **Farg‘onaning “samoviy otlari”**

Farg‘onada mil. avv. I-mingyillikning ikkinchi yarmida Davan davlati mavjud bo‘lib, uning yuksalish davri mil. avv. II–I asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davlat haqida ma‘lumotlar xitoy solnomalaridan olingan. Davlat taxminan 600–800-yil davomida muttasil rivojlangan, ammo ko‘proq vaqt bo‘lishi ham mumkin, chunki bu mamlakat tarixida “oq dog‘lar” juda ko‘p. Olimlar taxminicha, Davan davlati shaharlar yoki voha-davlatlar ittifoqidan iborat bo‘lgan. Mil. avv. II asrda Ershi shahri Davan poytaxti sanalgan. Xitoy manbalari xabar qilishicha, Davanda 70 ga yaqin katta va kichik shaharlar, ko‘p ming sonli aholi bo‘lgan. Davan xo‘jaligining bosh xususiyati – miniladigan otlarning o‘ziga xos naslini ko‘paytirish edi. Bu otlar barcha yaqin mamlakatlarda mashhur edi.

Davan Xitoy va G‘arb mamlakatlari bilan xalqaro savdo-sotiqda muhim o‘rin egallagan. Ayniqsa, Farg‘onaning zotdor otlari Xitoy hukmdorlari e‘tiborini jalb etgan. Otlar naslining bir turi baquvvat va chopqirligi uchun unga hatto “samoviy” deb nom berishgan.

Xitoy solnomachilarining Davan mil. avv. II–I asrlarda ko‘p sonli aholiga, yaxshi qurollangan va o‘rgatilgan qo‘shinlarga ega yuqori darajada rivojlangan davlat ekanligi haqida ma‘lumotlarini arxeologik topilmalar tasdiqladi. Sho‘rabashot, Uchqo‘rg‘on va boshqa dehqonchilik manzilgohlari Davan tarkibiga kirgan. Olimlar taxminicha, milodiy II asrda Davan ko‘chmanchi qabilalar tomonidan bosib olindi.

#### **Chjan Szyanning Davanga sayohati**

Mil. avv. 139-yilda imperator U Di O‘rta Osiyoga sayohatchi va elchi Chjan Szyan (mil. avv. 200–114-yillar) boshchiligida katta guruhni yuboradi. Bundan maqsad – ko‘chmanchi hunlarga qarshi yuechji qabilalari bilan ittifoq tuzish edi. Chjan Szyan kuchli, mustaqil va qadimgi Davan davlati mavjudligi haqida bilardi. Davan so‘zining qadimgi turk tilidan tarjimasi – “juda chiroyli, xushmanzara joy”.

Chjan Szyan yaqinlari bilan xayrlashib, qaytish imkoniyatlari juda ozligini tushunardi. Axir u imperator U Diga “samoviy otlar” keltirish uchun olis va noma‘lum Davanga otlangan edi.

Chjan Szyan sayohati o‘n uch yilga cho‘zildi. U katta hududni kezib chiqib, O‘rta Osiyo va Hindistonning ko‘pgina davlatlari, ularning boyliklari va savdo yo‘llari haqida ma‘lumotlar to‘pladi. Ammo sayohatining ilk 10 yilini hunlar qo‘lida tutqunlikda o‘tkazdi, so‘ng u yerdan qochishga muvaffaq bo‘lib, mil. avv. 128-yildagina Davan davlatiga yetib keldi.

Mana, g‘aroyib sarguzashtlarni boshidan kechirgan Chjan Szyan Davan poytaxti – Ershi shahri qarshisida turibdi. Shu payt qal‘a darvozalari ochilib, ichkariga qordek oq otlar yugurib kirdi. Chjan

Szyan ularni ko‘rib, shuncha chekkan azob-uqubatlari behuda ketmaganiga amin bo‘ldi. Uning ko‘z oldida tabiiy go‘zallik, joziba, bejirim harakatlar va olijanoblikni ifodalagan otlar shiddat bilan yelardi. Bunday kuchni jilovlash ilojisizdek tuyulardi. Kuch, shiddat, ulug‘vor va tabiiy go‘zallik, erksevarlik kishini o‘ziga jalb etib, zavq uyg‘otardi! Poda boshidagi ot yolini shamolda o‘ynatib va quyundek yelib, ortidan qolgan otlarni ergashtirib borardi. U go‘yoki temirdan yasalgandek taassurot uyg‘otardi. Ko‘p otlar qizg‘ish qon dog‘lari va oppoq ko‘pik bilan qoplangan, ularning pishqirib nafas olishi va ko‘tarilib-tushayotgan biqinlari esa bunday yugurish oson kechmayotganini ko‘rsatardi. Ammo ular baribir yeldek uchishardi. Bu jonivorlarning tashqi go‘zalligida erkinlik va yovvoyi tabiat qudrati sezilib turardi.

Chjan Szyan otlar g‘oyib bo‘lmaguncha ulardan ko‘zini uzolmay turdi.

Chjan Szyan ko‘rgan-kechirganlari haqida imperator U Diga bunday deb yozadi: “Davanda ajoyib otlar bisyor, ularni bu mamlakat poytaxti Ershi shahrida boqib, saralashadi, ammo yot ko‘zlardan asrashadi va Xan elchisiga berishga rozi bo‘lishmaydi. Bu otlar juda baquvvat va chidamli, yugurganlarida qonli ter chiqadi, bu esa ularning ilohiy kelib chiqishini yaqqol isbotlaydi”.

### **“Samoviy otlar” haqida afsona**

Afsonaga ko‘ra, Davan otlari ma‘budlarga tegishli tulporlardan kelib chiqqan. Tik gavdasi, chiroyli yugurishi, chopqirligi va chidamkorligi borasida ularning tengi yo‘q edi. Otlarning barcha bilimdonlari fikricha, Davan otlaridan ko‘ra qimmatliroq mol va sovg‘a yo‘q edi. Xitoyliklar esa ularni “barhayotlik mamlakati”ga zumda yetkazadigan “samoviy otlar” deb hisoblardi.

Chjan Szyandan bu ma‘lumotlarni olgan Xitoy imperatori U Di bu otlar yordamida hunlar ustidan g‘alaba qozonishi mumkinligini tushundi. Bundan tashqari, U Di keksayib qolganligi sababli barhayotlik masalalariga jiddiy qiziqar edi. Afsonalarda esa Xitoydan g‘arbda barhayot insonlar mamlakati haqida hikoya qilingan. Shu sababli “samoviy otlar” uzoq umr ko‘ruvchi mavjudotlar deb tushunilgan. Imperator o‘z ilohiy nasl-nasabini tasdiqlash va barhayotlikka erishish uchun “samoviy otlar”ni qo‘lga kiritishni judayam xohlardi. Buning uchun esa ilohiy otlar qo‘shilgan aravada osmonga ko‘tarilish kerak edi. U Davanga safar uyushtirib, mahalliy otlarni olib kelishga farmon beradi.

### **“Samoviy otlar” uchun Davan – Xitoy urushi**

Ammo Farg‘ona vodiysi aholisi xitoyliklarga otlarni berishdan bosh tortib, ularni yashirib qo‘yishdi. Shundan so‘ng xitoyliklar bir necha otni sotib olishga urinishdi, ammo ularni mamlakatdan olib chiqib ketishga imkon bermadilar.

Xitoy elchisi qattiq turib talab qilib, davanliklarga po‘pisa qilgach, hamrohlari bilan birga o‘ldirildi. Bu voqea Davanga urush e‘lon qilinishiga sabab bo‘ldi. Mil. avv. 104-yilda U Di Davanga 6 ming otliq va bir necha ming nafar piyoda jangchilarni yubordi. Ammo qo‘shinlar chegara shahri uchun jangda askarlarning ko‘p qismini yo‘qotib, Xitoyga qaytishga majbur bo‘ldi.

Mil. avv. 102-yilda imperator U Di Davanga ikkinchi yurishni boshladi. Bu safar 60 000 otliq va 30 000 piyoda jangchilardan iborat katta lashkar Davanga yo‘l oldi. Ular Ershi shahrini qamal qildi. Shaharga keladigan suv yo‘lini to‘sdi va qamalning qirqinchi kunida shaharning tashqi devorini buzdi. Davan hukmdori sulh to‘g‘risida muzokaralar boshladi. Xitoyliklarga arg‘umohlardan berishga rozilik bildirdi. Aks holda, barcha arg‘umohlarni qirg‘in qilmoqchi bo‘ldilar. Xitoyliklar sulhga rozi bo‘ldi. Xitoy lashkari qariyb ikki yuz bosh otni olib, o‘z vataniga qaytdi. “Samoviy otlar” uchun

bo‘lib o‘tgan to‘rt yillik urush shu bilan tugadi.

Mana shunday qilib, Davanning afsonaviy otlari Xitoyda paydo bo‘ldi. Xitoyliklar ularni afsonaga ko‘ra ayg‘ir otlar tushgan osmono‘par tog‘lar (xitoycha Tyan-Shan – samoviy tog‘lar degani) sharafiga samoviy deb atadilar.

### “Samoviy otlar” siri

“Samoviy otlar” Xitoyda e‘zozlanib, shoirlar ular haqida qasidalar yozib, go‘zalligini tarannum etishgan. Chiroyli afsonani yo‘qqa chiqarishni xohlamasdik, lekin mutaxassislar ta’kidlashicha, bu otlarning “qonli terlashi” siri shundaki, ularning terisini juda mayda hasharotlar kemirgan, bu esa ozroq qon ketishiga sabab bo‘lgan.

Shuni ham aytish kerakki, tarixchilar ham bu afsonani yo‘qqa chiqarmoqdalar va harbiy yurishning asosiy sababi – ko‘chmanchi hunlarga qarshi urush olib borish zaruriyati, deb ta’kidlashmoqda. Hunlarda, hamma ko‘chmanchilar kabi, ajoyib qurollangan otliq askarlar bo‘lib, xitoylik chavandozlar o‘zlarining kichkina va nimjon otlarida ularga qarshilik ko‘rsata olmasdilar. Shu sababli xitoyliklarga o‘sha vaqtda eng yaxshi zotlardan sanalgan O‘rta Osiyo arg‘umoqlari juda zarur edi.

### Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot

#### Qadimgi Xorazm, Qang‘ va Davan

Qadimgi Xorazm:

Mil. avv. IV – milodiy III asrlar.

Qal’a-shaharlar: Jonbosqal’a, Qo‘yqirilganqal’a


Tuproqqal’a, Qal’aliqir

Qang‘ (Qang‘yuy) (Toshkent viloyati):

- Mil. avv. III – milodiy III asrlar
- Poytaxt Qang‘diz (Bityan)
- Milodiy III asrda ko‘chmanchilar bosib olgan.

Davan – mil. avv. III – milodiy II asrlar (Farg‘ona):

- Poytaxti Ershi (Erish);
- “Samoviy otlar” tufayli Xitoy bilan urushlar;
- Sho‘rabashot, Uchqo‘rg‘on shahar-qal’alari.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



### 55-DARS. KUSHON PODSHOLIGI

#### Dars maqsadlari:

- Kushon podsholigi tashkil topishi tarixi bilan tanishtirish;
- kushonlar iqtisodiyoti va madaniyati rivojlanishi haqida hikoya qilish;

- Kushon podsholigining Oʻrta Osiyo tarixida tutgan oʻrnini koʻrsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash koʻnikmalarini hosil qilish;
- oʻquvchilarga oʻz fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni oʻrganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bogʻlashni oʻrgatish;
- mediavositlardan maʼlumotlarni topish, saralash, oʻzgartirish, saqlash koʻnikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni taʼminlash va maʼlumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy koʻnikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 41-§, 143–147-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 26-b. Kushon podsholigi.
3. Konturli xarita, 14-b. Kushon podsholigi.
4. Tarqatma material: testlar toʻplami, lugʻat bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Oʻrganilgan bilimlarni takrorlash.**

Oʻrganilgan mavzuni takrorlash oʻquvchilardan ommaviy soʻrash yoki mavzuning mazmuni boʻyicha savollarga ogʻzaki javoblarni eshitish tarzida oʻtkaziladi.

### **Darsning yangi mavzusi mazmuni.**

Oʻqituvchi dars mavzusi va maqsadini eʼlon qiladi, shuningdek, oʻquvchilar mazkur mavzuni oʻrganish orqali egallaydigan bilim va koʻnikmalarni sanab oʻtadi.

### **Dars rejasi:**

1. Kushon podsholigining tashkil topishi.
2. Yozuv.
3. Diniy eʼtiqod.
4. Meʼmorchilik va sanʼat.



### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

Mavzuni oʻrganish darslik maʼlumoti hajmida amalga oshiriladi va oʻquvchilar bilan suhbat qurish orqali oʻqituvchining hikoyasiga asoslanadi.



## Darsga yakun yasash.

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

### Uy vazifasi.

- 41-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
- 14-betdagi konturli xaritani to'ldirish.
- O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

## Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

### Kushon podsholigi

Milodiy I–III asrlar – Kushon podsholigi;


Kushonlar – yuechji;

Kushon qirolligi shaharlari – Dalvarzintepa, Ayritom, Xolchayon, Zartepa, Qoratepa Hukmdor – Kanishka – yuksalish cho'qqisi Hukmdorlar – Kudzula Kadfiz – Vima Kadfiz;

Dinlar – zardushtiylik, buddaviylik;

Milodiy III asr – Kushon podsholigining parchalanishi;

Chig'ir – suv chiqaradigan moslama.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 56-DARS. BUYUK IPAK YO'LI

### Dars maqsadlari:

- Buyuk ipak yo'lining dunyodagi qadimgi davlatlar va O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirishda tutgan o'rnini ko'rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

- Darslik, 42, 148–150-b.
- “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 27-b. Buyuk ipak yo'li.
- Konturli xarita, 15-b. Buyuk ipak yo'li.

4. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi.




### **Dars rejasi:**

1. Buyuk ipak yo'li va uning tarmoqlari.
2. Buyuk ipak yo'li Chjan Szyan tavsifida.
3. Buyuk ipak yo'lining ahamiyati.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

Asosiy material o'quvchilarga ma'lum va mavzuni o'rganishning asosiy usuli sifatida o'quvchilarning matn va xarita bilan mustaqil ishlashi tavsiya etiladi.



### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 42-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. 15-betdagi konturli xaritani to'ldirish.
3. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
4. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.



### **Buyuk ipak yo‘li sirlari**

Buyuk ipak yo‘li – O‘rtayer dengizi va Xitoy o‘rtasida joylashgan Yevroosiyoning madaniy va savdo markazlarini bog‘lagan karvon yo‘llari tizimidir. U mil. avv. II asrdan milodiy XVI asrga qadar mavjud bo‘lib, uzunligi 10 000 kilometrdan oshgan. Bu yo‘l Sharq bilan G‘arbni bog‘lagan asosiy tarmoq hisoblangan. Uzoq asrlar davomida bu yerda yangi shaharlar barpo etilib, butun boshli sivilizatsiyalar paydo bo‘lgan va tanazzulga uchragan, ammo Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab odamlar dunyoni va o‘zlarini o‘zgartirish uchun kashfiyotlarni tarqatishda davom etganlar.

### **Buyuk ipak yo‘liga asos solgan inson**

Mil. avv. 138-yilda Xitoy imperatori ko‘chmanchi qabilalar bilan kurashda ittifoqchilar topish uchun o‘z elchisi Chjan Szyanni shimolga xavfli safarga jo‘natadi. Elchi hunlar qo‘liga asir tushadi va o‘n yilcha hibsda yotadi. U asirlikdan qochib, imperator topshirig‘ini bajarish va o‘z mamlakati uchun yangi ittifoqchilar topish maqsadida yo‘lini davom ettiradi. U xitoyliklardan birinchi bo‘lib O‘rta Osiyoda – So‘g‘diyona va Baqtriyada bo‘ladi, xitoy mollari qanchalik xaridorgir ekanligini ko‘radi va bevosita savdo aloqalarini o‘rnatish naqadar foydali bo‘lishini tushunib yetadi.

Chjan Szyan vataniga qaytadi va imperatorga ko‘rgan-bilganlarini so‘zlab beradi. Mil. avv. 121-yilda ipak va bronza ko‘zgular ortilgan ilk tuyalar karvoni tog‘lar va Tyan-Shan tizmasi bo‘ylab Farg‘ona vodiysi sari yo‘lga tushadi. Buyuk ipak yo‘li shunday boshlanadi.

Ko‘p asrlar davomida qimmatbaho mollar yuklangan karvonlar Chan’an shahridan – Xitoyning Tan sulolasi poytaxtidan chiqib, Yevropaga yo‘l olgan. Bu xavfli sayohatda asosiy mol – ipak edi. Shu munosabat bilan nemis geografi va geologi Ferdinand fon Rixtgofen Sharq bilan G‘arbni bog‘lagan karvon yo‘llarini “Ipak yo‘llar” deb atadi. Ammo karvonlarda nafaqat ipak, balki bronza, chinni, jun, kobalt va boshqa mollar tashilgan.

### **Buyuk ipak yo‘lidagi xavf-xatarlar**

Cho‘llar orqali yo‘l bosgan savdogar va sayohatchilar duch kelgan eng katta muammo – karvonlarni suv bilan ta‘minlash edi. Shu maqsadda maxsus karvonsaroilar barpo etilib, u yerda sayohatchilar dam olib, zaxiralarini to‘ldirib olishlari mumkin edi. Bu joylarda sayohatchilar o‘rtasida savdo-sotiq qizigan. Bunday bekatlar o‘rtasidagi masofa odatda tongdan tungacha bosiladigan bir kunlik yo‘ldan oshmasdi, bu esa doimo bo‘lmasa-da, Ipak yo‘lining ofati sanalmish qaroqchilar hujumlaridan omon qolishga imkon berardi. Ularning bosqinidan so‘ng o‘nlarcha karvonlar odamlari, tuyalari va qimmatbaho yuklari bilan birga izzsiz g‘oyib bo‘lardi.

### **Ipak tayyorlash siri**

Qadim zamonlardayoq Xitoyda ipak qurtini xonakilashtirib, uning pillasidan (urug‘idan) iplar ajratib olishni bilganlar. Bu iplardan matolar to‘qilgan. Ipak qurti urug‘ini mamlakatdan olib chiqib ketganlik uchun o‘lim jazosi belgilangan. Xitoylik ustalar ipakning qimmat bahosini tushirmaslik uchun uni tayyorlash texnologiyasini sir saqlashgan.

Uzoq yillar davomida turli mamlakatlarda ipak tayyorlash sirini bilib olishga ko‘p urinishgan. Bir rivoyatga ko‘ra, Xo‘tan shahrining hokimi sep o‘rnida ipak tayyorlash siridan voqif bo‘lish niyatida pekinlik xitoy malikasiga uylanishga qaror qilgan. Ota-ona unga qizini uzatishga rozi bo‘lishgan.

To‘y arafasida hokimning yordamchisi malikaga bo‘lajak erining vatanida yashil nefritdan

yasalgan zeb-ziynatlar ko'pligi haqida aytadi. Shu bilan birga, agar qiz to'ydan oldin kiyganidek chiroyli liboslar tutishni, buning ustiga, bu ko'ylaklar nefrit toshlar bilan bezatilgan bo'lishini xohlasa, u o'zi bilan birga ipak qurti pillasi va tut daraxti urug'larini olib ketishi lozimligini uqtiradi. Qiz bu taklif ustida ko'p o'ylamadi, undan so'ralgan hamma narsani – pillalarni turmagida, urug'larni esa dorivor giyohlar orasida yashirib Xo'tanga olib keldi.

Bundan tashqari, qiz xizmatkorlar niqobi ostida ipak qurti va tut daraxtini yetishtiruvchi mutaxassislarni hamda bog'bonni olib keldi.

Boshqa afsona ham bor. VI asrda Vizantiya imperatori Yustinian ikki rohibga Xitoyda ipak qurtining qimmatbaho urug'ini olib kelishni buyuradi. Rohiblar "xazina"ni bambuk tayoq ichiga yashirib olib kelishadi. Agar xitoyliklar pillalarni topishganda bormi, ikkala rohibning ham kallasi ketardi.

Aslida qanday bo'lganini hozir aytish qiyin, ammo ipak yetishtirishning yuz yillab saqlangan siri oxiri fosh etildi. Ko'p o'tmay ipak tayyorlash siri O'rta Osiyo, Hindiston va Sharqning boshqa mamlakatlariga ma'lum bo'ldi.

### **Nega qadimda ipak oltindan qimmat edi?**

Buning siri oddiy: axir qadimdayoq odamlar bu yupqa va chiroyli mato dezinfeksiya xususiyatlariga egaligini, ya'ni, ipak kiyimda bit va burga yashamasligini bilganlar. Ipak matolar osib qo'yilgan xonalarda taxtakana yashamaydi. Bu hasharotlar odamlarga qancha noqulaylik va azoblar yetkazganini bugun tasavvur qilish qiyin. Shu sababdan nafaqat manmanlik va hashamatga intilish odamlarni ipak kiyimlarga pul sarflashga majbur qilgan. Ipak hayotiy zaruriyat edi. Ammo qimmatligi tufayli uni faqat boylarning hamyoni ko'tarardi.

Bundan tashqari, ipakning yengilligi tufayli tashish uchun qulayligi, qimmatbaholigi yevropalik va arab savdogarlarini savdo yo'llariga jalb etardi. Ularning foydasi ming foiz ko'payardi.

### **Buyuk ipak yo'lida dorivor va ziravorlar**

Ipakdan tashqari, Sharqdan G'arbiy Yevropaga ziravorlar ham tashilardi. Ularni nafaqat ovqatga qo'shimcha, balki dori sifatida ishlatishgan. Dolchin, murch, hil, zanjabil, tropik aloe, muskat yong'og'i, dafna bargi, za'faron buyuk antik olim Gippokrat, antik tibbiyotning yirik namoyandasi Galen, O'rta Osiyolik olim va tabib Abu Ali ibn Sinoning asarlarida ko'p eslatilgan. Sog'lom bo'lish uchun ziravorlar evaziga oltin va kumush tangalar to'langan.

Masalan, bugun istalgan qahvaxona stolida turadigan murch o'sha zamonlarda zarrachalab sanalib, tilla bahosida sotilgan. Uning qimmatligi shu qadar baland bo'lganki, ko'p shaharlar va davlatlar uni asl metall o'rnida ishlatishgan. Murchga yer maydonini sotib olish mumkin edi, murch bilan qalin puli to'langan. Bir funt (2,2 kg) muskat yong'oq evaziga uch-to'rt bosh qo'y yoki sigir berilgan. Zanjabil, dolchin, xina po'stlog'i va kamforani zargarlik va dorixonalarida tortishgan, yelvizak qimmatbaho zarrachani uchirib ketmasligi uchun eshik va derazalarni berkitib qo'yishgan.

Za'faron – xushbo'y va yoqimli ta'mga ega ziravor shunchalik qimmatli sanalganki, masalan, Venetsiya hokimlari uni juda qimmatli narsa sifatida sovg'a o'rnida olishi taqiqlangan va aksincha, dolchinni Rim papalari, qirollar va imperatorlarga eng qimmatli sovg'a sifatida berishdan uyalishmagan.

### **Buyuk ipak yo'lining ahamiyati**

Bu yo'lining ahamiyati ulkandir. Buyuk ipak yo'li bo'ylab mehmonxonalar va ombor vazifasini

o‘tgan karvonsaroylarni o‘z ichiga olgan shaharlar qad ko‘targan. Bu yo‘l bo‘ylab nafaqat ipak, balki chinni, choy va ziravorlar tashilgan. Xitoydan Yevropaga porox, kompas va qog‘oz, Sharqqa esa oltin va qimmatbaho toshlar olib o‘tilgan. Talay odamlar – sarbonlar, soqchilar, tilmochlar, soliq yig‘uvchilar va boshqalar savdo yo‘llarida xizmat ko‘rsatib kun kechirishgan. Nafaqat mollar, balki yangi g‘oyalar, ixtirolar, bilimlar bilan ayirboshlash yuz bergan. Sharq va G‘arb o‘rtasidagi yo‘l asta-sekin yangi va turli-tuman dunyoni yaratgan.

Ammo oradan vaqt o‘tib, dengiz savdosi rivojlana boshladi. Dengiz bo‘ylab bitta kemada minglab tuyali karvonga ortilgan yuklar tashilgan. Fors ko‘rfazidan Xitoyga yetib borish uchun dengizchilar atigi 150 kun suzishgan, karvon esa Azov dengizidan Pekingacha yo‘lni 300 kunda bosib o‘tgan, buning ustiga, yo‘lda doimo xavf-xatarlar uchragan. Shu tarzda Buyuk ipak yo‘li asta-sekin tanazzulga uchradi. Shunga qaramay, O‘rta Osiyo va Xitoy o‘rtasidagi karvon savdosi faqat XVII asrdagina tugatildi.

Buyuk ipak yo‘li tarixi bizning kunlarda turli mamlakat va xalqlarning o‘zaro manfaatli savdo va madaniy aloqalarining qimmatli tajribasi sifatida baholanmoqda. 1987–1997-yillarda YUNESKOning “Ipak yo‘li – muloqot yo‘li” nomli dasturi amal qilib, u Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklash rejasiga tayyorgarlik vazifasini o‘tadi. Endilikda bu loyiha “Bir makon, bir yo‘l” nomi ostida rivojlanib, 80 dan ortiq mamlakatni birlashtirmoqda.

### **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot**

#### **Buyuk ipak yo‘li**

Mil. avv. II – milodiy XVI asrlar;


Xitoy elchisi Chjan Szyan ochgan – imperator

U Di yuborgan;

12 ming km – O‘rta Osiyo, Eron, Ikki daryo oralig‘i, Old Osiyo;

“Lojuvard yo‘li”, “Shoh yo‘li” (Doro I);

Savdo-sotiq, fan va madaniyat rivojlanishi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						

### **57-DARS. TAKRORIY-UMUMLASHTIRUVCHI**

#### **Dars maqsadlari:**

- o‘quvchilarning bilimlarini tartibga solish jarayonini davom ettirish;
- o‘quvchilarning mazkur mavzuga oid aniq bilimlarini umumlashtirish va mustahkamlash;
- o‘quvchilarning ommaviy chiqish ko‘nikmalarini takomillashtirishni davom ettirish.

#### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 37–42-§, 128–150-b.
2. Mavzuga oid multimedia vositalari.
3. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

O'tgan darslarda o'rganilgan barcha asosiy atamalar va tushunchalar.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi**

Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### *Qo'shimcha ma'lumot*

#### **Baqtriya oltinlari siri**

Baqtriya hozirgi Afg'onistonning shimoliy va markaziy viloyatlarida, O'zbekiston va Tojikistonning janubiy hududlarida, Amudaryoning yuqori oqimida joylashgan edi. Mil. avv. VI asrda Baqtriya Ahamoniylar saltanati tarkibiga kirdi. So'ngra Makedoniyalik Aleksandr Baqtriyani o'z podsholigi tarkibiga kiritdi. Keyinroq Baqtriya Salavkiylar davlatiga kirdi, undan keyinroq esa Salavkiylar davlati hududida Yunon-Baqtriya podsholigi vujudga keldi. Salavkning o'g'li va valiahdi Antiox mil. avv. 292-yilda sharqiy viloyatlar (satrapiyalar)da otasining noibi etib tayinlandi. Antiox poytaxt etib Baqtra (hozir Balx) shahrini tanladi. Antioxning vorisi, baqtriyalik satrap Diodot taxminan mil. avv. 250-yilda o'zini Baqtriyaning mustaqil hukmdori deb e'lon qildi. O'rta Osiyodagi bu davlat yuz yildan ortiq vaqt rivojlandi. Qisqa yuksalish davrida (taxminan mil. avv. 180-yil) Hindiston shimoligacha kengayib, mil. avv. II asrning ikkinchi yarmida ko'chmanchilar tomonidan vayron qilindi. Bu davlat haqida yozma manbalar deyarli yo'q. Fanga ma'lum hamma narsa – arxeologik topilmalar – hunarmandlar yasagan buyumlar va numizmatika ashyolaridir.

Qariyb ikki ming yil muqaddam ko'chmanchilar Baqtriyani bosib olib, bu davlatni yer yuzidan yo'q qilishdi. Ammo butunlay yo'q qilib tashlamadilar – bugun arxeologlar va tarixchilar bu mamlakat o'tmishini o'rganayotib ochayotgan sirlar haqida hikoya qilamiz.

1979-yil Afg'onistonda fuqarolar urushi boshlandi.

...Ko'chada yarim tun. Qo'llarida ketmon va belkuraklar ushlagan, yelkalariga ryukzaklar osgan bir guruh odamlar rus arxeologlari qazishmalar olib borgan Tillatepa manzilgohining shimoliy yon bag'riga yo'l oldilar. Ular shovqin solmaslikka tirishib, arxeologlar ochishga ulgurmagan qabrlarni qaziy boshladilar. Tez orada ketmon metallga urilib jarangladi va: "Oltin! Bir talay oltinlar!" degan xitob eshitildi.

Afg'oniston, Pokiston va O'rta Osiyo shaharlarining bozorlarida ko'p miqdorda paydo bo'lgan "Baqtriya oltinlari" voqeasi shunday boshlanadi.

#### **Tillatepada "Baqtriya oltinlari" topilishi**

Baqtriya hududidagi arxeologik tadqiqotlar XX asrning 60-yillarida Shimoliy Afg'onistondagi Shibargan shahri yaqinida tabiiy gazning boy konlari ochilgandan so'ng boshlandi. Gaz quvurlarini yotqizish boshlanishi bo'lajak trassa hududida himoya ostidagi qazishmalarni o'tkazishni talab qildi. So'ng Baqtriya zaminiga qo'shma sovet-afg'on arxeologiya ekspeditsiyasi olimlari keldi.

Qurilish vaqtida xumcha va idish siniqlari ko'p topildi. Joyga yetib kelgan arxeologlar

qazishmalarni boshlab yuborishdi. Tez orada olimlar bu joylarda bir vaqtlar Baqtriyaning qadimgi poytaxti – Baqtra bo‘lganini aniqlashdi.

1978-yil 15-noyabrda Tillatepa manzilgohi yonida arxeolog Viktor Sarianidi va toshkentlik arxeolog Zafar Hakimov boshchiligidagi guruh noyob qabrlarni topishdi. Bu qabrlar tilla buyumlarga to‘ldirib yuborilgan edi. Oltin shu qadar ko‘p ediki, odamlarning suyaklari zeb-ziynatlar uyumi ostida ko‘rinmay qolgandi. Hammasi bo‘lib arxeologlar qablardan 20 mingdan oshiq oltin buyumlar qazib olishdi. Mutaxassislar aniqlashicha, ular ikki ming yildan ziyod vaqt muqaddam yasalgan ekan.

### **Qotil chumolilar haqida rivoyat**

Nega Baqtriya oltinlari 200-yildan oshiq vaqtgacha topilmagan edi? Tarix “otasi” Gerodot Baqtriyada qabristonlar qanday himoya qilingani haqida yozadi: “Baqtriya juda boy davlat, bu yerda bir necha soatda shuncha tilla topish mumkinki, uni faqat tuyalar karvoniga yuklab olib ketish mumkin. Ammo bunday qilish oson emas – kattaligi itday keladigan bahaybat chumolilar xazinani qo‘riqlab, oltinga ko‘z olaytirgan istalgan odamni tilka-pora qilib tashlaydi”. U yana bunday maslahat beradi: “Oltin topishning birgina usuli bor. Quyosh tikkaga kelganda, soqchi chumolilar ulkan xarsanglar tagida jaziramadan jon saqlashadi. Bu vaqtda oltin yotgan joyga sezdirmay yaqinlashib, bo‘talog‘i uyda qoldirilgan, yaqinda tuqqan tuyaga oltin qumni tez ortish kerak. So‘ng boshqa tuyani minib, qochib qolish lozim. Chumolilar uyg‘onib, oltin o‘g‘irlanganini bilib qolishgach, quvishni boshlashadi. Ular o‘g‘rilarga deyarli yetib olay deganda boshqa urg‘ochi tuyani minib, o‘z tuyasini yirtqich chumolilarga qoldirish kerak. Chumolilar tuyaga tashlanib, undan qoq suyak qolmaguncha ketishmaydi. Shundan so‘ng chumolilar yana oltin o‘g‘rilari ketidan quvib ketishadi, ammo u vaqtga kelib o‘g‘rilar olislab ketishadi – bo‘talog‘ini qo‘msagan ona tuya shunaqangi tez chopadiki, chumolilar uni quvib yetolmaydi”.

Gerodot bunday usulda bir martada ko‘p oltin olib ketish qiyinligi haqida ogohlantiradi va ochko‘zlikning oqibati voy, deya uqtiradi – ko‘zi to‘ymay, ko‘proq oltin qum olib ketish niyatida ushlanib qolgan odam qotil chumolilarga yem bo‘ladi...” Aslida esa hammasi oddiyroq edi.

### **Baqtriya hukmdorlari qabrlarining siri**

Qazishmalar paytida arxeologlarni bir narsa hayratga soldi: qimmatbaho tilla bezaklar shohona deb atash qiyin bo‘lgan oddiy qabrlarga qo‘yilgan edi – ular shoshilinch va maxfiy ravishda, tun qa‘rida qazilgandek taassurot uyg‘onardi. Ehtimol, shundaydir, ammo bu qabrlarga kimlar ko‘milgani va Baqtriyaning qadimgi zamini shuncha asrlardan beri qanday sirni yashirib kelganini endi bilish qiyin.

Olimlar taxminicha, Baqtriyada dafn marosimi boshqa davlatlardagidan farq qilgan. Marhumni kechqurun dafn qilishgan. Saroy yaqinida qullar go‘r qazishgan va shunday mo‘ljal qilishganki, unda marhumga narigi dunyoda asqatadigan hamma narsa joylashishi kerak bo‘lgan. Qullar go‘rlarni qaziy turib uyog‘iga nima bo‘lishini tasavvur ham qilmasdilar. Ular dafn marosimidan so‘ng qabr joyini bilgan hammani o‘ldirishlaridan bexabar edilar. Shuningdek, marhumning yaqinlariga mozor boshiga kelish taqiqlanib, u qayerda joylashgani haqida boshqalarga aytish kechirilmas gunoh sanalgan. Shu tarzda mamlakat hukmdorlari va ularning yaqinlari uchun qabristonlar go‘yoki mavjud emasdi, shu sababli boylikka to‘la qabrni hech kim talon-taroj qilolmasdi.

Maxfiy mozorlar uchun bunday joy tanlangani sababi shu ediki, u saroydan shundoq ko‘zga tashlanib turar va uni o‘g‘rilardan oson himoya qilish mumkin edi. Bu tepalikda paydo bo‘lgan

istalgan odamni o'ldirishgan. Vaqt o'tishi bilan tepalikda hukmron oila dafn qilingani batamom esdan chiqib, maxfiy qabrlar bizning kunlargacha bus-butun yetib keldi.

Shu tarzda Tillatepaning g'arbiy yon bag'rida qariyb 400-yil davomida kichik maxfiy qabriston paydo bo'ldi. Aynan shu yerda yettita qabr aniqlanib, ularning oltitasi qazib ochildi.

### **Baqtriya oltinlari topilishi tarixidan**

Arxeologik qazishmalar 1978-yil noyabrdan 1979-yil fevralga qadar, rossiyalik taniqli arxeolog Viktor Sarianidi va toshkentlik arxeolog Zafar Hakimov rahbarligida olib borildi. Barcha qabrlar mil. avv. I – milodiy I asrlarga mansub edi. Ammo yangi sir paydo bo'ldi – ilgari topilgan ibodatxona bu qabristondan qariyb ming yil avval qurilgan edi. Buni qanday izohlash mumkin? Olimlar taxminicha, qadimgi Baqtriya manzilgohi xarobalarida yashagan ko'chmanchilar ulardan qabriston sifatida foydalanishgan. Qablardan topilgan ko'p buyumlar Yunon-Baqtriya podsholigi davridayoq yasalgan edi. Boshqa buyumlar Yunon-Baqtriya davlati bo'linib ketib, uning o'rniga Kushon podsholigi hukmdorlari kelgan davrga mansub edi.

Bugun “Baqtriya oltinlari” bahosi hatto taxminan ham baholanmagan, qolaversa, mazkur buyumlarning narxini belgilash mushkul – ularning tarixiy ahamiyati bebahodir. Bu yerda haqiqiy xazina topilgani avval-boshdanoq ma'lum edi.

Qazishmalar paytida oltita qabr va ular ichidagi 20 mingdan ziyod oltin zeb-ziynatlar topildi. Yettinchi qabr ham aniqlangan edi, ammo ekspeditsiya 1979-yilda tugatilib, qabristondagi ishlar to'xtatib qo'yildi, uni bir necha oydan keyin yana qazish reja qilindi. Ammo urush boshlanib, mamlakat tinimsiz bombardimonlar ostida qoldi, hukumat almashdi. Arxeologlar shoshilinch ravishda Afg'onistonni tark etishdi, topilgan bebaho xazinalar esa sirli ravishda g'oyib bo'ldi.

### **“Baqtriya oltinlari” ortidan**

1989-yilda sovet qo'shinlari Kobuldan chiqib ketishi arafasida zeb-ziynatlarni Rossiya yoki betaraf mamlakatlardan biriga olib ketish mo'ljallandi, ammo Najibulla rejimi bu ishdan bosh tortib, Baqtriya xazinasining vatanda qolishi – Afg'oniston barqarorligi timsoli, deb ma'lum qildi.

V. Sarianidi arxeologik topilmalar qanday saqlangani haqida hikoya qiladi. Dastavval qablardan olingan oltin buyumlar qoyada o'yilgan va po'lat eshiklar bilan himoyalangan yerto'lada saqlangan. Qulflarning kalitlari yetti kishida bo'lib, ularning ko'pchiligi 1996-yilga kelib, ya'ni, toliblar Kobulni bosib olishganda, yo'q edilar yoki halok bo'lishgandi. Qorovullardan biri – 50 yashar Askerzai eslashicha, o'n nafar mulladan iborat delegatsiya yerto'lani ko'zdan kechirish uchun kelgan ekan.

To'pponchalar ostida Askerzai markaziy bank aktivlari – qariyb 50 mln dollarlik oltin quymalar saqlangan omborning kodli qulfini ochdi. Askerzai aytishicha, mullalar “Baqtriya oltinlari”ni izlab o'tirishmadi, chunki ular uchun “Baqtriya” va “Afg'onistonning arxeologik merosi” so'zlari ahamiyatsiz edi.

Ammo mullalar baribir prezident saroyi yerto'lalarida yashirib qo'yilgan xazina haqida eshitishgan ekan, chunki qorovuldan bu yerda yana oltin bormi-yo'qmi, deb so'rashadi. Askerzai rad javobi beradi. Uni qamoqqa tashlab, uch oydan ziyod vaqt davomida so'roq qilishadi va qiynashadi, ammo u “Baqtriya oltinlari” sirini ochmaydi.

1996-yilda toliblar hukumat boshiga kelgandan so'ng “Baqtriya oltinlari” izlari o'n yilga yo'qolib ketdi. Taxminlarga ko'ra, oltin yashirincha Rossiyaga olib ketilgan yoki toliblar urush vaqtidayoq xazinadagi buyumlarni qurol-yarog'ga ayirboshlashgan. Xazina o'g'irlanib, xususi kolleksionerlarga

sotib yuborilgani haqida taxmin ham bor.

Toliblar rejimi qulagach, Afgʻonistonning yangi tashqi ishlar vaziri Abdulla Parijda oʻtgan YUNESKO bosh konferensiyasi yigʻilishida muhim yangilikni xabar qiladi: “Baqtriya oltinlari” Kobuldagi prezident saroyi omborlarida bus-butun holda topilgan. 2004-yilda Kobulga kelgan Viktor Sarianidi zeb-ziynatlarining haqiqiylikini tasdiqladi. Shu tarzda, qorovulning mardligi tufayli toliblarning oltinlarni qoʻlga kiritishga barcha urinishlari muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi.

### “Baqtriya oltinlari” hozir qayerda?

2006-yildan boshlab Baqtriya kolleksiyasi “Afgʻoniston. Yashirin xazinalar” koʻrgazmasi tarzida Parij, Rim, Amsterdam, Nyu York, Turin, London, Melburn, Vashington, Tokio, Seul, Stokgolm va boshqa shaharlarda namoyish etildi. Koʻrgazma juda katta qiziqish uygʻotdi. Yevropa va Amerika shaharlaridan yuz minglab odamlar unga tashrif buyurdi. Bu esa mamlakat byudjetini toʻldirib olishga imkon berdi. Endilikda, Afgʻoniston va AQSH hukumatlari oʻrtasida tuzilgan bitimga muvofiq, Afgʻonistonda beqarorlik hukm surayotgani sababli xazina buyumlari vaqtincha AQSHda saqlanmoqda.

## V BOʻLIM. Qadimgi Rim



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja boʻyicha sana						
Amalda						



### 58-DARS. QADIMGI ITALIYA VA UNING AHOLISI

#### Dars maqsadlari:

- Qadimgi Rimning iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga taʼsir koʻrsatgan Apennin yarimorolining tabiiy sharoitlariga taʼrif berish;
- Rimga asos solinishi va Qadimgi Rimda ijtimoiy munosabatlar shakllanishi haqida hikoya qilish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash koʻnikmalarini hosil qilish;
- oʻquvchilarga oʻz fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni oʻrganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bogʻlashni oʻrgatish;
- oʻzini oʻzi kamol toptirishga – ruhiy, maʼnaviy, intellektual va ijodiy oʻsishga, oʻz ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan maʼlumotlarni topish, saralash, oʻzgartirish, saqlash koʻnikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni taʼminlash va maʼlumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy koʻnikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

#### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 43-§, 151–153-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 20-b. Mil. avv. VIII–VI asrlarda Qadimgi Italiya.

3. Konturli xarita, 11-b. Mil. avv. VIII–VI asrlarda Qadimgi Italiya.
4. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
5. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Italiya** – Apennin yarimoroli hududini egallagan; “Italiya” so‘zining tarjimasi – “buzoqchalar mamlakati”.

**Italiklar** – Apennin yarimorolida yashagan qadimgi qabilalar.

**Etrusklar** – O‘rta Italiyaning g‘arbiy qismida yashagan qabilalar.

**Kapitoliy tepaligi** – Rimdagi eng baland tepalik.

**Imperiya** – podshoning cheklanmagan hokimiyati joriy etilgan davlat.

**O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.**

### Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Hududi va tabiiy sharoitlari.
2. Rimga asos solinishi.
3. Qadimgi Rimda boshqaruv.

### Dars mavzusi ustida ishlash.



Mil. avv. 753-yil – Rimga asos solinishi –  
Romul va Rem

ligurlar, italiklar, etrusklar

Mil. avv. 509-yil  
Rim – respublika

**O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda Kapitoliy haqida batafsil hikoya qilishi mumkin.**

Mangu shaharning yetti tepaligidan eng past va maydoni kichik bo‘lgan Kapitoliy Rimning ilk markazi hisoblanadi. Rivoyat qilinishicha, uning nomi etrusk jangchisi Toli ismidan kelib chiqqan. Tepalik cho‘qqisida Yupiter ibodatxonasi qurilgan paytda Tolining bosh chanog‘i topilgan edi.

Qadimda Kapitoliy bir vaqtning o‘zida qal‘a, diniy va siyosiy-ma‘muriy markaz – Rimning o‘ziga xos akropoli hisoblangan. Uning ikki cho‘qqisining birida mil. avv. VI asr oxirida etrusklar podshosi Mag‘rur Tarkviniy qurdirgan Yupiter ibodatxonasi yuksalib turar edi. Ibodatxona etrusk ustasi Bulki ishlagan Yupiter va Gerkulesning sopol haykallari bilan bezatilgan edi. Shu ustaning o‘zi Rim ramziga aylangan mashhur “Kapitoliy ona bo‘risi” haykalini bronzadan quygan. U mil. avv. V asrda Rim tarixidagi buyuk voqea – etrusk podsholari sulolasining ag‘darilishi va Rim respublikasi

eʼlon qilinishi sharafiga Kapitoliy tepaligida oʻrnatilgan edi. Mil. avv. 65-yilda haykalni yashin urgan va uning orqa panjalarida hanuzgacha erigan joylarni koʻrish mumkin (Ona boʻri haykalining asl nusxasi bugun Kapitoliy muzeyida saqlanadi).

Kapitoliy tepaligi toʻrt burchak minorasiga ega qalʼa devorlari bilan ishonchli himoyalangan edi. Uning uchta tomoni tikka boʻlib, Kapitoliyga faqat Rim forumi maydonidan koʻtarilish mumkin edi, chunki bu maydondan tepalik choʻqqisiga Muqaddas yoʻl olib chiqardi. Bu yoʻldan tantanali yurishlar Respublikaning bosh ibodatxonasi – Yupiter ibodatxonasiga koʻtarilib, u yerda qurbonlik keltiril, triumfator esa qurbongohga dafna gulchambarini qoʻyardi. Ibodatxona oldidagi hovlida ziyofatlar uyushtirilgan.

Yupiter ibodatxonasidan bizning kunlarga faqat poydevor qoldiqlari yetib kelgan boʻlib, ular bugun qazib ochilgan va oynavand vitrina bilan himoyalani, ommaga namoyish etilmoqda.

Kapitoliyning boshqa choʻqqisida Yunona Moneta ibodatxonasi joylashgan edi. Bu ibodatxonada respublika davrida zarbxona mavjud boʻlgan.

Kapitoliy tepaligining ikki choʻqqisi oʻrtasida shahar maydoni joylashgan. Bu yerda muhim davlat masalalari muhokama qilingan, Respublika senati qabul qilgan farmoyishlar eʼlon qilingan, bozor tashkil etilgan.

Xuddi shu yerda “gʻozlar Rimni qutqargan”, ular gallar yaqinlashganda shovqin koʻtarishgan. Bu yerda Sezar oʻldirilgandan soʻng Brut rimliklar oldida nutq soʻzlagan, bu yerda Sivilla imperator Avgustga Iso paygʻambar tugʻilishini bashorat qilgan.

Bugun Kapitoliy tepaligida oʻsha davrdan bizning kunlarga yagona saqlanib qolgan imperator Mark Avreliyning bronzadan yasalgan otliq haykali turibdi. U shuning uchun ham butun qolganki, uni uzoq vaqt davomida yanglishib ilk xristian imperator Konstantin sharafiga oʻrnatilgan yodgorlik deb oʻylashgan. Haykal taxminan 170-yilda quyilgan. Uni Kapitoliy tepaligida XVI asrda buyuk haykaltarosh va rassom Mikelanjelo oʻrnatgan, u oʻsha yillarda Rim markazini tubdan qayta taʼmirlagan edi. Avvallari yodgorlik zarhal qatlam bilan qoplangan boʻlib, uning izlari hamon koʻrinib turadi. Rimda “Mark Avreliy haykali yana zarrin nur sochganda qiyomat qoyim boshlanadi”, degan naql yuradi. Keyinchalik bu haykaldan namuna olib, Yevropaning koʻpgina shaharlarida otliq haykallar oʻrnatildi.

### **Darsga yakun yasash.**

1. Oʻqituvchi darsga yakun yasab, oʻquvchilarning yozma ishlari va ogʻzaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni eʼlon qiladi.

2. Oʻqituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 43-§ boʻyicha savollarga javob berishga tayyorlanish.

2. 11-betdagi konturli xaritani toʻldirish.

3. Oʻrganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

4. Keyingi darsda oʻrganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## **Intellekt-xaritani yaratish va tarix boʻyicha sinfdan tashqari toʻgarak ishi uchun qoʻshimcha maʼlumot**

### **Qadimgi Italiya**

Apennin yarimoroli – ligur qabilalari;

Italiya – tarjimasini – “buzoqchalar mamlakati”;  
 Mil. avv. VIII–VI asrlar – Italiyaning ilk aholisi;  
 Qabilalar – latinlar, samnitlar, sabinlar, etrusklar;  
 Mil. avv. VIII asr – Italiyada 12 ta shahar-davlat tuzildi;  
 Mil. avv. 753-yil – Romul va Rem tomonidan Tibr daryosi bo‘yida Rim shahriga asos solinishi;  
 Mil. avv. 509-yil – Rim respublikasi tashkil topishi, Mag‘rur Tarkviniyning ag‘darilishi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 59-DARS. RIM RESPUBLIKASI

### Dars maqsadlari:

- Rimdagi respublika tuzumiga ta’rif berish, “respublika” tushunchasini izohlash;
- nafaqat Rimda, balki Yunoniston polislarida mavjud bo‘lgan respublika boshqaruvi shakliga xos umumiy xususiyatlarni ko‘rsatish;
- Rim respublikasining qonunchiligi bilan tanishtirish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘sishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 44-§, 154–157-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 20-b. Mil. avv. VIII–VI asrlarda Qadimgi Italiya.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Senat** – lotinchadan tarjimasini – “oqsoqollar kengashi”.

**Patritsiylar** – senatorlar avlodlari.

**Aristokratiya** – Rim zodagonlari.

**Plebeylar** – oddiy xalq, shaharliklar, kambag‘allar.

**Respublika** – lotinchadan tarjimasini – “xalq ishi, umumiy ish”.

**Konsullar** – Rim respublikasining asosiy mansabdor shaxslari.

**Diktator** – Rim respublikasida favqulodda holatlar ro‘y berganda tayinlangan yakka hukmdor.

**Xalq tribuni** – Senatda xalq vakili, u qabul qilinayotgan qonunga veto (taqiq) qo'yishi mumkin edi.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.

1. Qadimgi Italiya aholisining asosiy mashg'ulotlarini ayting (dehqonchilik va chorvachilik)
2. Yunoncha "Italiya" so'zining tarjimasi? ("buzoqchalar mamlakati")
3. Apennin yarimoroli hududidan oqib o'tadigan katta daryo? (Po daryosi)
4. Apennin yarimorolida yashagan barcha qabilalar qanday atalgan? (italiklar)
5. Italiyaning g'arbiy qismida yashagan qabilalar? (etrusklar)
6. Rim shahri qaysi daryo bo'yida barpo etilgan? (Tibr daryosi bo'yida)
7. Rim shahriga qachon asos solingan? (mil. avv. 753-yilda)
8. Rimga kim asos solgan? (Romul va Rem)
9. Patritsiylar – bu... (Rimning qadimgi aholisi avlodlari)
10. Plebeylar – bu... (oddiy xalq, shaharliklar, kambag'allar)
11. Rim respublikasi tashkil topishiga qanday voqea asos bo'lgan? (Mag'rur Tarkviniy hokimiyati

ag'darilishi)

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Respublika boshqaruvi.
2. 12 jadval qonunlari.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

Mavzu o'quvchilar uchun bir oz murakkablik qiladi. Shu sababli mazkur ma'lumotni, o'qituvchi qonunlarni sharhlab o'qishi va ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha suhbat tarzida o'rganish tavsiya etiladi.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O'qituvchi darsga yakun yasab, o'quvchilarning yozma ishlari va og'zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.
2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 44-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.





Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 60-DARS. RIM RESPUBLIKASIDA HAYOT

### Dars maqsadlari:

- Rim respublikasi davrida aholi hayotiga ta'rif berish;
- qadimgi rimliklarning e'tiqodlari va dini bilan tanishtirish, diniy marosimlar va ularning yunonlarning qadimgi e'tiqodi bilan aloqasini ko'rsatish;
  - tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
  - o'quvchilarga o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
  - o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
    - mediavositlardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
    - umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 45-§, 159–160-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 20-b. Mil. avv. VIII–VI asrlarda Qadimgi Italiya.
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Kohin-pontifiklar** – diniy rasm-rusumlar o'tkazilishini nazorat qiluvchi maxsus o'rgatilgan odamlar.

**Kohin-avgurlar** – Rimda kelajak bashoratchilari.

**Kohina-vestachilar** – ibodatxonada muqaddas olovni saqlovchilar.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi:

1. Rim respublikasi boshqaruvining oliy organini ayting. (Xalq majlisi)
2. “Respublika” so'zining lotinchadan tarjimasini? (res – “ish”, publika – “xalq”)
3. Liktorlar – bu... (konsulning faxriy qorovullari)
4. Rim respublikasida qancha konsul saylangan? (ikki)
5. Senat necha kishidan iborat edi? (300)
6. “Veto” so'zining ma'nosi... (“taqiqlayman”)
7. Kandida – bu... (konsullikka o'z nomzodini qo'ygan odamning oq harir libosi)
8. Diktator – bu... (favqulodda holatlar ro'y berganda tayinlangan Rim hukmdori)
9. Rim respublikasida xususiy mulkni daxlsiz deb e'lon qilgan qonun qanday atalgan? (“12

jadval”)

10. Rimning barcha aholisi teng huquqlarga ega deb e’lon qilgan qonun qachon qabul qilingan? (mil. avv. III asrda)

### Yangi mavzuning mazmuni.

O’qituvchi dars mavzusi va maqsadini e’lon qiladi, shuningdek, o’quvchilar mazkur mavzuni o’rganish orqali egallaydigan bilim va ko’nikmalarni sanab o’tadi.

### Dars rejasi:

1. Rim shaharlaridagi hayot.
2. Rimliklarning ma’budlari.
3. Diniy marosimlar.

### Dars mavzusi ustida ishlash.



### O’qituvchi darslik matniga qo’shimcha ravishda Pompey shahri haqida batafsil hikoya qilishi mumkin.

“Italiyaga tarixda bo’lmagan kulfatlar yog’ilmoqda: Kampaniyaning gullagan sohillari dengizda g’arq bo’ldi, lava va kul ostida ko’mildi...” – deb yozadi rimlik tarixchi Korneliy Tatsit. Nafaqat u, balki uning barcha yurtdoshlari milodiy 79-yilda sodir bo’lgan fojeadan larzaga keldilar: Italiyadagi bir qancha shaharlar, shu jumladan, gullagan Pompey Vezuviy vulqoni otilishi oqibatida yo’q bo’lib ketdi.

Ko’p asrlar davomida Vezuviy tinch vulqon sanalgan. Uning otilishlari haqida xotiralar ma’buda Geyaning o’g’illari – gigantlar isyoni haqida rivoyatga o’xshab, allaqachon afsonaga aylangan. Gigantlar Olimp xudolari tomonidan zindonga tashlangani sababli vulqon otilib, zilzila yuz bergan. Ammo Vezuviy ko’pdan beri kuchga kirmagani uchun odamlar uning etagida xotirjam yashab kelishdi. Masalan, mil. avv. VIII asrda bu yerda kichik manzilgoh vujudga kelgan, taxminlarga ko’ra, u shaharga nom bergan Pompeylar sulolasiga qarashli edi. Pompey yuksalar va tanazzulga uchrar, ko’p urushlarni boshidan kechirardi. Ammo ofat sira kutilmagan yoqdan keldi.

62-yil 5-fevral kuni peshinda shahar ahli to’satdan mudhish guvillagan tovushni eshitdi. So’ngra birin-ketin favqulodda kuchli yer silkinishlari yuz berdi. Ayrim joylarda chuqur jarliklar paydo bo’lib, ulardan biriga olti yuz boshli qo’y podasi quladi. Pompeyda va Kampaniyaning boshqa shaharlarida ibodatxonalar va uy-joylar vayron bo’ldi, shahar chekkasidagi hashamatli hovli-joylar xarobalarga aylandi. Vezuviy uyg’ondi.

Vulqonning ilk uyg’onishi unchalik ham xavotir tug’dirmadi. Shaharliklar tinchlanib, uylariga qaytdilar, Rim senati esa zilzila oqibatida talafot ko’rgan shaharlarni tiklash to’g’risida farmoyish e’lon qildi. Pompey fuqarolari eng dahshatli narsa oldinda kutib turganini xayollariga ham keltirmay, shaharlarini qurish va bezatish bilan band bo’lib, uyg’onganini bironta tutun bilan bildirmagan Vezuviy atrofidagi zaytunzorlar soyasida yayrab dam olishardi.

Holbuki, vulqon ichida bosim o’sib borardi. 79-yil avgust oyining boshlarida Kampaniya shaharlarining aholisi tag’in kuchsiz yer osti silkinishlarini his etdilar. Pompeyda quduqlardagi suv yer qa’riga singib ketdi. 20-avgustda silkinishlar kuchayib, dahshatli yer osti guvillashlari eshitildi.

Yer titrab, yorila boshladi, dengizda to‘lqinlar ko‘tarildi. Kutilmaganda hamma yoq tinchib qoldi.

Keyingi ikki kun – 22–23-avgust ham tinch o‘tdi. Ammo shunga qaramay, hamma qandaydir falokat bo‘lishini sezib turardi. Itlar uvillab, og‘illarda sigirlar bezovta bo‘lib ma‘rardi. Eng ehtiyotkor odamlar uylarini tark eta boshlashdi.

24-avgust tongi nihoyatda issiq bo‘ldi. Quyosh charaqlab nur sochar, ammo kun tunga aylanadigan vaqtgacha sanoqli lahzalar qolgandi. Nihoyatda kuchli yer silkinishidan hamma yoq titrab ketib, quloqni qomatga keltiruvchi gulduros yangradi.

Vezuviy cho‘qqisi ikki qismga bo‘linib, hosil bo‘lgan vulqon og‘zidan olov ustuni ko‘tarildi. Xuddi ulkan zambarakdan otilgandek olov, ko‘piktosh parchalari, toshlar, yer va shlak kesaklari osmonga uchib chiqdi. Tutun va kul quyosh yuzini berkitdi. Vezuviy yon bag‘ridan dengizga qarab cho‘g‘day qizigan loyqa oqdi. Vulqon og‘zidan uchib chiqayotgan tosh bombalar uylarni vayron qildi, qaynoq kul xarobalarni ko‘mib yubordi. Shaharliklarning aksariyati qochishga ulgurdi. Shaharning yigirma minglik aholisidan taxminan o‘ndan bir qismi, ya‘ni, ikki ming kishi halok bo‘ldi. Uydan chiqishga ulgurmagan, kuch-quvvat tark etgan, bisotidan ayrilgisi kelmagan odamlar nobud bo‘ldi.

Qirq sakkiz soat o‘tib, Pompey, Gerkulanum, Stabiy shaharlari savlat to‘kib turgan, patriitsylarning oq marmardan qurilgan bog‘li koshonalari yorqin janub o‘simliklari orasida ko‘milib turgan joyda kulrang jonsiz yaydoq dala yastanib yotardi. O‘n sakkiz kilometr tevarakda hamma narsa yo‘q qilinib, kul va qotgan loyqa bilan qoplangan edi. Oltingugurtning nafasni o‘yib yuboruvchi hidi hamma yoqni tutib ketgandi. Vezuviy yon bag‘irlari taqirga aylanib, qorayib ketgan vulqon og‘zidan zaharli bug‘lar ko‘tarilardi.

Pompeyni tiklash haqida gap bo‘lishi ham mumkin emasdi. Falokatdan so‘ng ilk damlarda omon qolgan odamlar mol-mulkini va halok bo‘lgan yaqinlarini axtarib topish uchun xarobalarga qaytishdi. Shahar ma‘muriyati farmoyishiga ko‘ra ma‘budlar va faxriy fuqarolarning haykallari qazib olinib, olib ketildi. Ammo vaqt o‘tgan sayin tosh qotgan jinsni qazib ochish tobora qiyinlashardi. Oradan ko‘p yillar o‘tib Pompey degan nomning o‘zi unutilib, shahar turgan joyda o‘tloqlar ko‘karib, bog‘lar gulladi.

XVII asrda italiyalik muhandis Domeniko Fontana Pompey xarobalariga tasodifan duch keladi. U o‘z topilmasining ahamiyatini baholay olmadi, hatto u topgan “Pompey” degan lotincha yozuv ham uni ishontirmadi: Fontana shunchaki rimlik sarkarda Pompeyning hovli-joyini topdim, deb o‘ylagan.

Pompey va Gerkulanumda qazishmalar faqat 1738-yildagina boshlandi. Italiyalik olimlar hatto vayron bo‘lgan narsalardan ko‘pginasini qayta tiklashga muvaffaq bo‘ldilar, chunki qulagan ustunlar va tom to‘siqlari o‘z joyi yaqinida yotardi. Chirib ketgan yog‘och to‘sinlar o‘rnidagi bo‘shliqlarga gips to‘ldirib, shu tarzda olingan gips nusxalar yangi to‘sinlarni yasash uchun namuna bo‘lib xizmat qildi va ular eski joylariga o‘rnatildi.

Qazishmalar ko‘rsatishicha, Pompey vulqon jinslarining qo‘sh qatlami ostida ko‘milib ketgan ekan: vulqon otilishi boshlanganda shaharga ko‘piktosh parchalari tushib, ular 7 metrgacha qalinlikdagi qavatni, so‘ngra 1–2 metr qalinlikdagi kul qavatini hosil qilgan. Arxeologlar tosh qotgan kul qatlamlarida paydo bo‘lgan bo‘shliqlarga e‘tibor qaratishdi. J. Fiorelli taklifi bo‘yicha bo‘shliqlarga gips quyilganda, ular falokat paytida halok bo‘lgan odamlar jasadlarining aniq gips nusxalari ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ularning kulga ko‘milgan jasadlari vaqt o‘tishi bilan chirib ketib, bo‘shliqlarni hosil qilgan.

Halokat joylari, marhumlar qotib qolgan holatlar, ularning yuz ifodasi, ular yonida yotgan buyumlar va uy hayvonlari jasadlari tadqiqotchilarga shaharning so‘nggi soatlarining haqiqiy manzarasini juda batafsil, hattoki halok bo‘lgan odamlarning ismlarigacha qayta tiklashga imkon yaratdi.

Vulqon otilishi pompeyliklar ayni stol atrofida to‘plangan paytda boshlandi: kimdir nonushta qilishga, kimdir marhum qarindoshini xotirlash ziyofatiga hozirlik ko‘rardi. Bu ziyofatlarning

barcha qatnashchilari shu asno uyni tark etishga ulgurmadilar va stol atrofida qolib ketdilar. Isida ibodatxonasi kohinlari so‘nggi kun tongini tuxum va baliqdan iborat oddiy nonushta bilan qarshi oldilar. Vulqon otilganda ular Isida haykali va muqaddas anjomlarni qutqarishga otildilar. Tabarruk buyumlar bilan to‘ldirilgan og‘ir bo‘z xalta ko‘targan bir kohin ibodatxonaning yonginasida halok bo‘ldi. Qolgan kohinlar esa sochilib yotgan buyumlardan ayrimlarini bir amallab yig‘ishtirib olib, Uchburchak forumga qarab yurdilar, ammo shu yerda ularning ustiga bino ustunlari ag‘darildi. Yaralangan kohinlar yaqin oradagi uyda berkinishga urinib ko‘rishdi, ammo bu uy ularning umumiy qabriga aylandi.

Gerkulanum darvozasi oldidagi maydon chinakam qabristonga aylandi. Uy bisotlariga to‘la qoplardan bukchaygan odamlarning jasadlari bu yerda aralash-quralash bo‘lib yotardi. Ular orasida uch bolali ona ham bor: u chaqalog‘ini bir parcha mato bilan yopib, bag‘riga bosgan, ikki qizchasi esa ona ko‘ylagini tutganча yugurmoqda.

Ko‘p shaharliklar buyumlarga o‘chligi sababli qurbon bo‘ldilar. Pompeylik Publiy Korneliy Teget yunon bronza haykalidan ajralgisi kelmay, u bilan birga kulga ko‘milib ketdi. “Favn uyi” sohiblari oltin qadah va laganlarni o‘rab-joylashga vaqt sarflashdi. Ular o‘zlariga kelgach, uylari naq tomiga qadar kulga ko‘milganini payqab qolishdi...

O‘nlab odamlar uy yerto‘lalarida jon saqlashga urindi, ammo bu yerto‘lalar ularning umumiy mozoriga aylandi. Bir uyda o‘ttiz to‘rt kishining jasadlari topildi. Bu yerda halok bo‘lgan bir erkak yerto‘laga echki yetaklab kelgan edi. Jonivorning bo‘ynida qo‘ng‘iroqcha osilib turardi.

Etni junjiktiruvchi bu manzaralar muhrlangan gips quymalarni bugun Pompey muzeyida va shaharning restavratsiya qilingan xarobalari orasida ko‘rish mumkin. Ochiq havodagi bu muzey ko‘chalarida o‘tmish jonlanib, yaqin muyulishdan rimcha togalar kiygan odamlar yoki legionerlar guruhi hozir chiqib keladigandek tuyuladi.

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

1. 45-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.



## **Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot**

### **Qadimgi Rim ma‘budlari**

1. Mars – urush ma‘budi;
2. Neptun – dengiz hukmdori;
3. Morfey – uyqu ma‘budi;
4. Diana – ov ma‘budasi;
5. Vulkan – temirchilar va hunarmandlar ma‘budi;
6. Venera – bahor va sevgi ma‘budasi;
7. Baxus – uzumchilik ma‘budi;



8. Yustitsiya – adliya ma’budasi;
9. Fortuna – taqdir ma’budasi;
10. Furiya – Rim qasos ma’budasi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo’yicha sana						
Amalda						



## 61-DARS. QULLAR VA GLADIATORLAR

### Dars maqsadlari:

- Rimda quldorlik tuzumi nafaqat qullar sonini oshirish oqibatida, balki bosh soha – qishloq xo’jaligida qullar mehnati ustunlik qilishi munosabati bilan ravnaq topganini ko’rsatish;
- Rimda qullar ko’payib ketganidan ularga doim ham ish topilmaganini va ulardan gladiatorlar janglarida foydalanishganini ko’rsatish;
- Spartak qo’zg’oloni haqida hikoya qilish va u qadimgi dunyoda qullarning eng ommaviy va uyushgan qo’zg’olonlaridan biri bo’lganini ko’rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko’nikmalarini hosil qilish;
- o’quvchilarga o’z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o’rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog’lashni o’rgatish;
- o’zini o’zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o’sishga, o’z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositalardan ma’lumotlarni topish, saralash, o’zgartirish, saqlash ko’nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko’nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 46-§, 161–164-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 21-b. Spartak boshchiligidagi qullar qo’zg’oloni.
3. Tarqatma material: testlar to’plami, lug’at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

Gladiatorlar – maxsus o’rgatilgan qullar, ular bir-biri yoki yovvoyi hayvonlar bilan jang qilganlar.  
 Amfiteatr – teatr tomoshalari va gladiatorlar janglari uchun mo’ljallangan maxsus bino.  
 Kolonlar – yerga biriktirilgan nomustaqil dehqonlar yoki qullar.

## Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Yangi mavzuning mazmuni.


O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Rimda quldorlik.
2. Gladiatorlar janglari.
3. Spartak qo‘zg‘oloni.



### Dars mavzusi ustida ishlash.



### O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda Kolizey haqida batafsil hikoya qilishi mumkin.

75-yilda Flaviylar sulolasi namoyandasi imperator Vespasian davrida Neronning Oltin uyi bog‘laridagi sun‘iy ko‘l joyida Flaviylar amfiteatri qurilishi boshlanib, 80-yilda imperator Tit davrida yakunlangan edi. Bu Rim imperiyasi davriga mansub eng buyuk yodgorliklardan biri bo‘lib, jahon miqyosida tarixiy ahamiyatga ega. U butun dunyoga Kolizey nomi bilan ma‘lum (lotincha “kolosseum” – ulkan so‘zidan olingan). Darvoqe, ko‘pgina tadqiqotchilar fikricha, bu ta‘rif dastlab amfiteatrga emas, balki shu yaqin orada turgan Quyosh ma‘budi qiyofasida tasvirlangan imperator Neronning 30 metrlik ulkan haykaliga taalluqli bo‘lgan.

Kolizey bunyod etilgan vaqtga kelib, imperiyaning ko‘pgina shaharlarida allaqachon katta amfiteatrlar mavjud bo‘lib, rimlik me‘morlar ularni qurish borasida yetarli tajriba to‘plagan edilar. Ammo Kolizey bu inshootlarni dog‘da qoldirdi. Rim shoiri Marsial uni dunyo mo‘jizasi kabi tarannum etgan. Kolizeyni qullar qurishgan, ular orasida 70-yilda Yahudiy podsholigi zabt etilganidan so‘ng Rimga keltirilgan asirlar ko‘p edi. Hatto tunda ham to‘xtamagan murakkab ishlarga me‘mor Kvintiy Ateriy rahbarlik qilgan.

Flaviylar amfiteatri ulkanligi bilan hayratga soladi. Uning oval maydoni 54 va 86 metrlik o‘qlarga ega. Bino o‘qlarining uzunligi – 156 va 188 metr, tashqi devor balandligi – 48,5 metr. Kolizey bir vaqtning o‘zida 50 minggacha tomoshabinni sig‘dirgan, ular 80 ta kirish va chiqish joylari orqali o‘rinlarni tez to‘ldirishi va bo‘shatishi mumkin edi.

So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik qazishmalar ko‘rsatishicha, Kolizey 13 metr qalinlikdagi baquvvat tosh poydevor ustida joylashgan. Bu poydevor sun‘iy ko‘lning quritilgan tubini beton bilan to‘ldirib qurilgan, amfiteatrning mustahkamligi, ko‘p asrlardan beri saqlanib turganligining

siri shunda. Kolizey konstruksiyasi antiqa va shu bilan birga oddiydir. Pastda ulkan idish tubi kabi maydon yastanib yotadi. Maydondan 80 ta radial devor har yoqqa yoʻnalgan boʻlib, ular yettita halqa devor bilan kesishadi. Halqa devorlarning eng balandi – tashqi devordir. Radial va halqa devorlar tomoshabinlar oʻrinlari tayanadigan konstruksiya sinchini hosil qiladi.

Kolizey qurilishida turli-tuman ashyolar ishlatilgan: oʻrindiqlar marmardan, konsentrik devorlar – travertindan, radial devorlar – tuf va betondan, ayrim arkalar – gʻishtdan qurilgan. Tashqi devor bloklardan tiklangan. Qoplama sifatida marmar plitalar va mozaikali pannolar ishlatilgan. Amfiteatrning ichki tomoni uch qavatli: birinchi, keng podiumda imperator lojasi va senatorlarning marmar kursilari joylashgan. Uyogʻiga Rim fuqarolari uchun moʻljallangan uch qavat marmar oʻrindiqlar joylashgan. Undan ham yuqorida qolgan xaloyiq uchun yogʻoch oʻrindiqlar va turib tomosha qiluvchilar uchun galereya joylashgan. Ikkinchi va uchinchi qavatlar arkalarining ostida marmar haykallar turgan. Toʻrtinchi, yopiq qavat keyinroq, II asrda qurib bitkazilgan. Cheksiz takrorlanuvchi arkalar binoga oʻziga xos dabdaba va mahobat bagʻishlaydi.

Issiq yoki seryomgʻir kunlarda maydon ustida baland ustunlarga mahkamlangan soyabon tortilgan. Maydon yogʻochdan yasalgan, odatda qum sepiladigan harakatchan polga ega boʻlib, uni koʻtarib, tushirish mumkin edi. Baʼzan pol binoga yaqin akveduk tarmogʻi yordamida suv bilan toʻldirilgan, shunda Kolizey maydonida dengiz janglari oʻtkazilgan. Kolizey maydoni oʻlchamlari unga bir vaqtning oʻzida 3 ming nafargacha gladiatorlarni chiqarishga imkon yaratgan.

Kolizey ochilishi yuz kun bayram qilingan. Yangi amfiteatr maydonida talay gladiatorlar va 5 ming yovvoyi hayvon oʻldirilgan. Oddiy janglardan tashqari, bu yerda tegishli dekoratsiyalardan foydalanish ov sahnalari namoyish etilgan. Dekoratsiyalar maxsus qurilmalar yordamida yer osti galereyalaridan yogʻoch maydon yuzasiga koʻtarilgan.

249-yilda Rimning ming yilligiga bagʻishlangan shodiyonalar paytida Kolizey maydonida minglab gladiatorlar, 40 yovvoyi ot, 20 yovvoyi eshak, 10 yoʻlbars, 30 qoplon, 10 jirafa, bir nechta zebra, 32 fil va 6 gippopotam oʻldirilgan. Bu qonli tomoshalar imperator Gonoriy tomonidan 405-yilda man etilgan. Bunga xristian rohibi Telemaxning harakati sabab boʻlgan, u qotilliklarni toʻxtatish uchun maydonga otilganida, tomoshaga oʻch dargʻazab olomon tomonidan tilka-pora qilib tashlangan edi.

Imperiya qulagach, Kolizey uzoq vaqtgacha huvillab qolib, asta-sekin nurab borgan. Oʻrta asrlarda u feodal qasri sifatida ishlatilgan, uni hatto selitra tayyorlaydigan sexga ham aylantirishgan. Uygʻonish davrida saroylar, cherkovlar va maqbaralar qurish uchun amfiteatrdan koʻp miqdorda tosh plitalar va bloklar tashib ketilgan. Keyinchalik amfiteatr xarobalari daydilar va uysizlar uchun boshpanaga aylangan.

Kolizey xarobalarini chunonam oʻt bosib ketganidan hatto bir ingliz botanigi “Kolizey oʻsimliklari” degan ikki jildlik ilmiy asar ham yozgan.

XVIII asrda papa Benedikt XIV Kolizeyni batamom vayron boʻlishdan qutqargan. U Kolizey maydonida majusiy imperatorlar buyrugʻi bilan qoni toʻkilgan koʻplab xristian jafokashlar xotirasiga bu joyni muqaddas deb eʼlon qilgan. Kolizey podiumida xoch oʻrnatilib, oʻn ikkita mehrob barpo etilgan. Ularni ziyorat qilish uchun Pasxa bayramida har yili salb yurishi amalga oshiriladi.

Kolizey Rim ramziga aylangan. Garchi qadimiy binodan bizning kunlarga yarmidan kamrogʻi saqlanib qolgan boʻlsa hamki, u avvalgidek ulugʻvor va mahobatli koʻrinadi. Rimliklarda bir ibora bor: “Kolizey turguncha Rim ham turadi, Kolizey qulasa, butun dunyo qulaydi”.

### **Darsga yakun yasash.**

1. Oʻqituvchi darsga yakun yasab, oʻquvchilarning yozma ishlari va ogʻzaki javoblari

bajarilganligi uchun baholarni e'lon qiladi.

2. O'qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 46-§ bo'yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O'rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

## Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo'yicha sinfdan tashqari to'garak ishi uchun qo'shimcha ma'lumot

Rim qullari va gladiatorlari;

Qullar – “gapiruvchi mehnat qurollari” – mehnatdan manfaatdorlik hissi bo'lmagan;

Kolonlar – kulba solish, oila qurish va yerni ijaraga olish ruxsat berilgan qullar (mayda ijarachilar) – “kulbali qullar”;

Gladiator – lotinchadan tarjimasi “gladius” – qilich;

Gladiatorlar – rimliklarning ko'nglini xushlash uchun jang qilgan qullar yoki jinoyatchilar;

Amfiteatr – gladiatorlar janglari o'tkazilgan ulkan stadion Kolizey – Rimdagi eng katta amfiteatr.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo'yicha sana						
Amalda						



## 62-DARS. RIM RESPUBLIKASINING QULASHI

### Dars maqsadlari:

- siyosiy tuzumlar o'zgarishi Rim davlati rivojlanishining qonuniy natijasi bo'lganini ko'rsatish: kuchli hokimiyat – harbiy diktatura o'rnatish zarur edi;
- imperiya o'rnatilishi Rim imperiyasini mustahkamlaganini, ammo sarkardalar o'rtasida hokimiyat uchun o'zaro kurashni keltirib chiqarganini ko'rsatish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko'nikmalarini hosil qilish;
- o'quvchilarni o'z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o'rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;
- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalarga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 47-§, 165–168-b.
2. “Qadimiy dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 22-b. Mil. avv. III – milodiy I asrlarda Rim davlatining

yuksalishi.

3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Triumvirat** – amalda Rim hukmdorlari hisoblangan uch sarkarda – Pompey, Krass va Sezarning Senatga qarshi bitimi.

**Sezar diktaturasi** – Sezarning yakkahokimligi.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.


1. “Kulbali qul” – bu... (ijaraga yer olgan, kulba solish va oila qurish ruxsat berilgan qul)
2. Gladiatorlar jang qilgan bino qanday atalgan? (amfiteatr)
3. “Gladiator” atamasi qaysi lotincha so‘zdan olingan? (gladius – “qilich”)
4. Rimdagi eng katta amfiteatr qanday atalgan? (Kolizey)
5. Mil. avv.74-yilda Rimda qullar qo‘zg‘oloniga kim boshchilik qilgan? (Spartak)
6. Spartak boshchiligidagi qullar qo‘zg‘olonining bosh maqsadini ayting. (qullikka barham berish)
7. Spartak kim edi? (frakiyalik qul)
8. Qo‘zg‘olon ko‘targan qullar qarorgohi joylashgan tog‘ni ayting. (Vezuviy)
9. Qo‘zg‘olon ko‘targan qullarga qarshi rimliklar qo‘shinlariga kim boshchilik qildi? (Krass)
10. Krass va Spartak qo‘shinlarining hal qiluvchi jangi qachon bo‘lib o‘tdi va qanday yakun topdi? (mil. avv. 71-yil bahorida; Spartak lashkari tor-mor etildi, uning o‘zi ana shu jangda halok bo‘ldi).

### Yangi mavzuning mazmuni.


O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

1. Respublika qilishi sabablari.
2. Sezar hokimiyatining qaror topishi.
3. Hokimiyat uchun kurashning oqibatlari.



## Dars mavzusi ustida ishlash.



### O'qituvchi darslik matniga qo'shimcha ravishda qullik mohiyati haqida hikoya qilishi mumkin.

Zo'rlar nafaqat atomlar olamida, balki davlatda ham birinchi o'rinda turishlari lozim. Kambag'allar hokimiyatga munosib emas. Barcha badavlat quldorlar shunday fikrlagan. Demokrit ham shunday fikrda edi. Afina ozod odamlar shahridir. Unda nega Afina ko'chalarida quldorlik tamg'asi bosilgan odamlarni ko'p uchratasiz? Nega don yanchayotgan anavi ayolning bo'yniga chambarak osilgan?

Bozorda tumonat bo'lib turgan odamlar kim va nega hamma xuddi namoyishga qo'yilgandek xorijiy liboslar kiygan odamlar turgan taxtasupaga tikiladi?

Bu odamlarning og'ziga qarashadi, mushaklarini paypaslab ko'rishadi. Ozod inson bilan ham shunday muomala qilish mumkinmi? Yo'q, bu odamlar – qullar. Afinada ular ozod insonlardan ham ko'proq. Qayoqqa qarama, qullar. Ular ovqat pishirib, bola boqishadi. Ustaxonalar va qurilishlarda ishlaydi. Bo'yniga chambarak mahkamlangan o'sha ayol – cho'ri.

Chambarak ayol og'ziga don solmasligi uchun xizmat qiladi. Bozordagi odamlar boshqa har qanday mol kabi namoyishga qo'yilgan. Ho'kiz ellik dirham, odam unchalik qimmat emas – yuz yoki yuz ellik dirham turadi. Ustaxona sotiladigan bo'lsa, qullarni anjomlar qatoriga qo'shadilar: ikki sandon, uch bolg'a, besh qul. Sandon ko'pchilikka kerakmas. Qullar esa hammaga kerak. Qul temirchi, to'quvchi, kulol, tegirmonchi bo'lishi mumkin-da axir.

Eng dono afinalik ham qullarsiz hech narsa qilib bo'lmasligini aytadi. Negaki qul – jonli qurol. Qurolsiz nimadir qilib bo'ladimi? Darg'a uchun kemanding ruli – jonsiz qurol, kema burnida bedor turgan dengizchi esa – jonli qurol. Qul – jonli mol – eng mukammal quroldir.

Hech bir afinalik bu so'zning tagiga yetmaydi: jonli qurol. Ya'ni, ruhi bor qurol. O'zini anglaydigan mol. Bu uning xo'jayini uchun qulay, ammo qul o'zining mol ekanligini anglashi osonmi?

Sandon zarbani sezmaydi. Bolg'a ham ozodlik neligini bilmaydi. Inson esa tutqunligini his etadi, azob chekadi, anglaydi. Qul o'z qismatini qanchalik chuqurroq his etsa, uning erki xojasining erkiga shunchalik qarshilik qilaveradi. Bolg'a itoat etishni bas qilib, o'zi bilan yomon muomala qilayotgan xojasining boshiga urolmaydi. Sandon kechqurun temirchi ustaxonasidan qochib ketib, o'rmonda yashirinolmaydi. Inson esa shunday qilishi mumkin!

Shu tariqa mol va uning egasi o'rtasida, jonli qurol va quldor o'rtasida urush boshlanadi. Qullar bosh ko'taradi. Ustaxonalardan, tosh konlaridan qochib ketadi. Konda ishlaydiganlarning yo'qotadigan narsasi yo'q. Ular o'limga mahkum. Ular yer tagidagi qorong'i va badbo'y konlarda nafas ololmay bo'g'iladilar. Qurollar qochadi. O'rmon va tog'larda yashirinadi. Ularni izlab topib, tamg'a bosadilar. Mol yo'qolmasligi uchun unga tamg'a bosish kerak. Kechasi qochib ketmasligi uchun qamab qo'yish kerak. Qochoq qulni qutiga o'xshagan qamoqqa solishadi. Bu qutida qadni rostlash yoki oyoqlarni

cho‘zishning iloji yo‘q. Jonli inson gavdasini xuddi temirdan yasalgandek bukishadi. Qochoq qullar ozodlik nafasini unutilshari uchun ikkitalab birlashtirishadi: ikki boshni bir yog‘och kundaga solib, oyoqlarini birga bog‘lab qo‘yishadi. Biri oyoqqa turganda, boshqasi yiqiladi. Yana bu ishni ozodlikni shunchalik sevadigan va inson gavdasi go‘zalligidan shunchalik zavqlanadigan afinaliklar qilishiga nima deysiz!

### Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 47-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.



### Intellekt-xaritanani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot

Rim Respublikasining qulashi

Sabablari:

- Qullar qo‘zg‘oloni;
- Senatorlar davlatni boshqarishni ta‘minlay olmadilar;
- Yollanma askarlar Rimni himoya qilishdan manfaatdor emasdi;

– Krass va Pompey o‘rtasida hokimiyat uchun kurash – Yuliy

Sezar g‘alabasi;


“Rubikondan o‘tish” – ortga yo‘l yo‘q;

“Qur’a tashlandi” – uzil-kesil qaror qabul qilindi;

“Sen hammi, Brut?” – Yuliy Sezarga suiqasd uyushtirildi;

Kleopatra – Misr malikasi – asirga tushmaslik uchun o‘z joniga qasd qildi;

Mil. avv. 29-yil – Oktavian Rim imperiyasiga asos soldi (Oktavian Avgust) – Kaligula – Neron – Trayan – Konstantin – Romul – Rim imperiyasining parchalanishi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 63-DARS. RIM IMPERIYASINING TANAZZULI VA HALOKATI

### Dars maqsadlari:

- Rim imperiyasida quldorlik tuzumi inqirozi boshlanishiga ta‘rif berish;
- bevosita iste‘molchilar o‘z mehnati natijalaridan manfaatdorlik hosil qilishi uchun kolonatga o‘tilganini ko‘rsatish;
- Rim imperiyasining tanazzuli va halokati sabablarini ochib berish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarga o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan

bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog'lashni o'rgatish;

- o'zini o'zi kamol toptirishga – ruhiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy o'sishga, o'z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma'lumotlarni topish, saralash, o'zgartirish, saqlash ko'nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta'minlash va ma'lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko'nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### **Materiallar va jihozlar.**

1. Darslik, 48-§, 169–172-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 22-b. Mil. avv. III – milodiy I asrlarda Rim davlatining yuksalishi.
3. Tarqatma material: testlar to'plami, lug'at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### **Asosiy tushunchalar va atamalar.**

**Imperator** – janglarda g'alabalar qozongan Rim sarkardalari shunday atalgan.

**Pretorianlar** – Rim lashkarining maxsus sara qismlari.

**Metsenat** – Rim imperiyasidagi shoir va olimlarga yordam bergan rimlik boy.

### **Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O'rganilgan bilimlarni takrorlash.**

O'rganilgan mavzuni takrorlash o'quvchilardan ommaviy so'rash yoki mavzuning mazmuni bo'yicha savollarga og'zaki javoblarni eshitish tarzida o'tkaziladi.


### **Yangi mavzuning mazmuni.**


O'qituvchi dars mavzusi va maqsadini e'lon qiladi, shuningdek, o'quvchilar mazkur mavzuni o'rganish orqali egallaydigan bilim va ko'nikmalarni sanab o'tadi.

### **Dars rejasi:**

1. Imperiyaning tanazzuli.
2. Rimning gotlar tomonidan bosib olinishi.
3. G'arbiy Rim imperiyasining qulashi.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**





**O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda Vizantiya Rim imperiyasidan keyin qancha vaqt rivojlangani haqida hikoya bilan to‘ldirishi mumkin.**

V asrda Konstantinopol Bolqon yarimoroli va Yaqin Sharqda yastanib yotgan ulkan imperiyaning poytaxti edi. Hatto Rim gullab-yashnagan davrlarda ham u o‘lkalarda Rim emas, balki yunon madaniyati ta’siri sezilib turardi. Rim imperiyasi zavolga uchraganidan so‘ng yuz yil yoki shunga yaqin vaqt o‘tib, u yerda hech qanaqa “rimcha” narsa qolmadi. Ayrim mamlakatlar fuqarolari Konstantinopol imperiyasi aholisini yunonlar deb atagan. Biz odatlanib qolgan Vizantiya degan nom esa Qadimgi Yunonistonning Vizantiya shahri nomiga borib taqaladi, u yunon imperatori Konstantin tomonidan qayta qurilib, uning sharafiga Konstantinopol deb nomlangan edi.

Vizantiya 1453-yilgacha mavjud bo‘ldi, ya’ni, Rim imperiyasidan keyin yana ming yil rivojlandi.

**Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e’lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

**Uy vazifasi.**

1. 48-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

**Intellekt-xaritani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma’lumot**

**Rim imperiyasining tanazzuli va halokati**

- 330-yil – Rim imperiyasining poytaxti – Vizantiy – Konstantinopol – Stambul;
- 395-yil – imperator Feodosiy Rim imperiyasini G‘arbiy va Sharqiy qismlarga bo‘lib tashladi
- Trayan – bosqinchilik urushlarini to‘xtatdi;
- 410-yil – Alarix boshchiligidagi gotlar Rimni bosib olib, talon-taroj qildilar;
- 455-yil – vandallar Rimni bosib oldi;
- 476-yil – Rimning so‘nggi imperatori Romul taxtdan ag‘darildi – G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi – qadimgi dunyo tarixining yakunlanishi – o‘rta asrlar tarixi boshlanishi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



## 64-DARS. QADIMGI RIM MADANIYATI

### Dars maqsadlari:

- Rim imperiyasidagi o‘ziga xos hayot sharoitlarini yoritish;
- qullikning Rim fuqarosining ma’naviy qiyofasiga salbiy ta’sirini ko‘rsatish;
- qadimgi Afina bilan qiyoslaganda rimliklar madaniyati va qiziqishlari pastroq saviyada bo‘lganligini ko‘rsatish (gladiatorlar janglari va h.k.);
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarni o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 49–50-§, 173–177-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 22-b. Mil. avv. III – milodiy I asrlarda Rim davlatining yuksalishi.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.
4. Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

**Rim imperiyasining “Oltin asri”** – II asr – ichki urushlar to‘xtab, xo‘jalik va madaniyat yuksalgan davr.

**Kolizey** – Rimda 80-yilda qurilgan amfiteatr.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi.

1. Rim imperiyasida qaysi vaqtdan boshlab imperatorni armiya sayladi? (III asrdan)
2. Rim imperiyasiga shimoli-g‘arbdan bostirib kirgan ko‘chmanchi qabilalar qanday atalgan? (varvarlar)
3. Qachon va qaysi hukmdor davrida Rim imperiyasining poytaxti Rimdan Vizantiyga ko‘chirilgan? (Konstantin hukmronligi davrida)
4. Rim imperiyasining yangi poytaxtiga qanday nom berilgan? (Konstantinopol)

5. Qachon va qaysi hukmdor davrida Rim imperiyasi Gʻarbiy va Sharqiy qismlarga boʻlingan? (Feodosiy hukmronligi davrida, 395-yilda)
6. Rimning soʻnggi imperatori qachon taxtdan agʻdarildi? (470-yilda)
7. Rimni kim va qachon bosib olgan? (Alarix boshchiligidagi gotlar 410-yilda)
8. Rimning soʻnggi imperatorini ayting. (Romul)
9. Gʻarbiy Rim imperiyasining qulashi qachon yuz bergan? (476-yilda)
10. Qadimgi dunyo tarixi qanday voqea bilan yakunlandi? (476-yilda Gʻarbiy Rim imperiyasining qulashi bilan)

### **Yangi mavzuning mazmuni.**

Oʻqituvchi dars mavzusi va maqsadini eʼlon qiladi, shuningdek, oʻquvchilar mazkur mavzuni oʻrganish orqali egallaydigan bilim va koʻnikmalarni sanab oʻtadi.

### **Dars rejası:**

1. Rimliklarning turmush tarzi.
2. Meʼmorchilik va haykaltaroshlik.

### **Dars mavzusi ustida ishlash.**

**Oʻqituvchi darslik matniga qoʻshimcha ravishda Trayan forumi haqida hikoya qilishi mumkin.**

Trayan forumi – Qadimgi Rimning dabdabali maydonlaridan biridir. Bu ulugʻvor majmua oʻz koʻlami, puxta va bejirim kompozitsiyasi, haykallar serobligi, qimmatbaho ashyolari va serhasham pardozi bilan ajralib turadi. Rimlik tarixchi Ammian Marsellin bu maydon butun dunyoda yagona va xudolar hayratiga sazovor, deb taʼkidlagan.

Forum imperator Trayanning (98–117-yillarda hukmronlik qilgan) dak qabilalari ustidan gʻalabalari sharafiga bunyod etilgan. Uning qurilishi 108-yilda boshlanib, besh yildan soʻng yakunlangan. Shundan keyin Rim forumidan bu yerga shaharning siyosiy hayoti koʻchib oʻtgan. Trayan forumining bunyodkori – damashqlik mashhur muhandis va meʼmor Apollodor. U imperatorning yaqin ayonlaridan biri edi.

Trayan forumi 11 695 kvadrat metr maydonni ishgʻol qilib, unga rangli marmar plitkalar yotqizilgan edi. Hordiq va koʻngil xushlash uchun maxsus xonalar boʻlib, u yerda kutubxona, gimnastika maydonchalari, sport zallari joylashgan edi. Markaziy bino atrofida xiyobonlari, gulzorlari, favvorlari va hovuzlari boʻlgan katta bogʻ bor edi, uning yaqinida stadion joylashgan edi. Rim moʻjizalaridan biri hisoblangan Karakalla termalari esa gotlar tomonidan VI asrda vayronaga aylantirilgan edi. Shundan soʻng maydon huvillab qolib, koʻp asrlar davomida keyingi qurilishlar uchun ashyolar manbai boʻlib xizmat qilgan. Masalan, bu yerdan olingan ulkan granit vannalar Rimdagi Farneze maydonidagi favvoralarni qurishda ishlatilgan.

1937-yilda tartibga keltirilgan va qisman qayta tiklangan termalarda Rim opera teatrining yozgi maydonchasi joylashdi. Ulkan sahnada (1800 kvadrat metr) ajoyib tomoshalar koʻrsatilgan. 1995-yilda qadimgi yodgorlikni saqlab qolish uchun bu tomoshalar man etildi.

### **Darsga yakun yasash.**

Oʻqituvchi darsga yakun yasab, oʻquvchilarning yozma ishlari va ogʻzaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni eʼlon qiladi.

### Uy vazifasi.

1. 49–50-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.
3. Keyingi darsda o‘rganiladigan mavzuning mazmuni bilan tanishish.

### Intellekt-xaritanani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma’lumot

#### Qadimgi Rim madaniyati

Termalar – Rim hammomlari (termos);

“Barcha yo‘llar Rimga boradi” – rimliklar o‘z shahrini dunyoning markazi deb hisoblashgan;

Panteon – Rimdagi barcha xudolar ibodatxonasi;

Tit Liviy – tarixchi, “Rim tarixi”;


Tatsit – “Tarix”;

Plutarx – “Qiyosiy hayotnomalar”;

Stil – yozish uchun tayoqcha;

Ritorika – notiqlik san’ati;

Rimliklar ixtirosi – beton.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						



### 65-DARS. XRISTIANLIKNING VUJUDGA KELISHI

#### Dars maqsadlari:

- Rim imperiyasida xristianlikning vujudga kelishi tarixi haqida hikoya qilish;
- tarixiy voqelikni anglash va uni mantiqiy izchillikda izohlash ko‘nikmalarini hosil qilish;
- o‘quvchilarni o‘z fikr va qarashlarini bayon qilganda tarixni o‘rganish orqali olingan bilimlaridan foydalanish hamda bu bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lashni o‘rgatish;
- o‘zini o‘zi kamol toptirishga – ruhiy, ma’naviy, intellektual va ijodiy o‘rishga, o‘z ustida muntazam ishlashga intilishni rivojlantirish;
- mediavositlardan ma’lumotlarni topish, saralash, o‘zgartirish, saqlash ko‘nikmalarini hosil qilish, xavfsizlikni ta’minlash va ma’lumotlardan foydalanish qoidalariga rioya qilish;
- umummadaniy ko‘nikmalarni hosil qilish – vatanparvarlik hissini tarbiyalash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatni singdirish.

#### Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 49–50-§, 176–177-b.
2. “Qadimgi dunyo tarixi” atlas, 6-sinf, 22-b. Mil. avv. III – milodiy I asrlarda Rim davlatining yuksalishi.
3. Tarqatma material: testlar to‘plami, lug‘at bilan ishlash uchun kartochkalar, topshiriqlar yozilgan kartochkalar.

### Asosiy tushunchalar va atamalar.

Iso Masih – Vifleem shahrida tug‘ilgan, Xudo oyatlari haqida hikoya qilgan, ammo mahalliy ruhoniylar uni mavjud diniy haqiqatlarni buzib talqin etishda ayblab, chormixga tortishga hukm qildilar.

Xristianlar – Iso payg‘ambarning izdoshlari.

Apostollar – Iso payg‘ambarning shogirdlari.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

O‘rganilgan mavzuni takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki mavzuning mazmuni bo‘yicha savollarga og‘zaki javoblarni eshitish tarzida o‘tkaziladi:

### Yangi mavzuning mazmuni.


O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejasi:

Xristianlikning vujudga kelishi.



### Dars mavzusi ustida ishlash.



O‘qituvchi darslik matniga qo‘shimcha ravishda Iso Masih chormixga tortilganiga oid taxminlar haqida hikoya qilishi mumkin.

### Hasad tufayli

O‘sha davrning diniy peshvolari Iso payg‘ambar o‘limini shu qadar xohlashganiga sabab – hasadgo‘ylikdir. Ruhoniylar va siyosiy yetakchilar nimaga hasad qilishgan? Bir narsaga – Iso Masih ortidan doimo ko‘p odamlar ergashgan. Odamlar unda dardlaridan shifoni ko‘rishgan.

Oxir-oqibat ularning hasadgo‘yligi shungacha yetdiki, Iso payg‘ambarni o‘ldirishga ahd qildilar. U xoinlarcha qo‘lga olingan. Hibsga olish paytida o‘sha davrda amal qilgan jamiki Rim qonunlari buzilgan. Soxta guvohlar topilib, ular Iso payg‘ambarga qo‘yilgan noqonuniy ayblarni yanada chuqurlashtirishdi. Pilat ikki qonunbuzardan qay birini qo‘yib yuborish lozim, deb so‘raganda, aynan oliy ruhoniylar jinoyatchi Varavvani qo‘yib yuborib, Iso Masihni chormixga tortish kerak, deb javob berdilar.

## **Xristianlikni yo‘q qilish uchun chormixga tortishdi**

Misrlilar isroilliklarni g‘isht va ohak bilan tinka quritadigan mehnatga va og‘ir dala ishlariga majbur qilib, ularning hayotini zaharladilar. Misr podshosi doyalarga bunday dedi: “Yahudiy ayollarga tug‘ruq paytida yordam berganingizda qiz tug‘ilsa, tirik qoldiring, o‘g‘il bola tug‘ilsa, o‘ldiring!”

Iso Masih tug‘ilganda, podsho Irod barcha o‘g‘il bola chaqaloqlarni o‘ldirish haqida farmoyish beradi, chunki o‘z taxtidan ajralishdan qo‘rqadi. Isoning otasi Yusuf qoshiga farishta kelib, Isoni qutqarish kerakligini aytadi. Iso butun oilasi bilan Misrga jo‘naydi. U yerda podsho Irod o‘limiga qadar yashaydilar. So‘ng Iso Masih qaytib, xudo yo‘lidagi xizmatlarini boshlaydi. O‘sha vaqtda u 30 yoshda edi.

Iso Masihni chormixga tortish – xristianlikni yo‘q qilishga urinishdir. Isoni go‘daklik chog‘idayoq o‘ldira olishmadi. Ammo xristianlik yo‘q bo‘lish uyoqda tursin, balki aksincha, Iso Masihning chormixga tortilishi va keyin tirilishi butun xristian dini uchun asosiy g‘oyaga aylandi. Iso Masihning dushmanlari eng qo‘rqan narsalarini o‘z qo‘llari bilan amalga oshirdilar – ular bu dinning tarqalishiga yordam berdilar.

Iso Masih chormixga tortilgani sababi – u o‘zini Xudoga tenglashtirgan. Nega yahudiylar uni o‘ldirishni xohlashardi? Iso o‘zini Xudoga tenglashtirgani ularning g‘azabini keltirardi. Yahudiylar fikricha, hech kim o‘zini Xudo deb hisoblashga haqli emas!

### **Darsga yakun yasash.**

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### **Uy vazifasi.**

Takroriy-umumlashtiruvchi darsga tayyorlanish.

## **Intellekt-xaritanani yaratish va tarix bo‘yicha sinfdan tashqari to‘garak ishi uchun qo‘shimcha ma‘lumot**

### **Xristianlikning vujudga kelishi**

I asr – Iso Masih tug‘ilishi;

30 yosh – payg‘ambar bo‘ldi;

12 shogird – apostollar – Falastin (Isroil) bo‘ylab sayohat qildilar;


Pontiy Pilat – Rim noibi – Iso payg‘ambarni chormixga tortishni buyurdi;

Golgofa – Iso payg‘ambar dafn qilingan tog‘;

Ilk inson – Odam Ato – bu tog‘da Iso Masih chormixga tortildi;

I asr – xristianlikning vujudga kelishi;

313-yil – imperator Konstantin Rimda xristianlikka ruxsat berdi.



Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						

## 66-DARS. TAKRORIY-UMUMLASHTIRUVCHI

### Dars maqsadlari:

– o‘tgan darslarda o‘rganilgan bilimlarni umumlashtirish.

Materiallar va jihozlar.

1. Darslik, 1–50-§.

2. Mazzuga oid multimedia vositalari.

Asosiy tushunchalar va atamalar.

O‘quv yili davomida o‘rganilgan barcha asosiy tushunchalar va atamalar.

O‘rganilgan bilimlarni takrorlash.

**Takrorlash o‘quvchilardan ommaviy so‘rash yoki ularning og‘zaki javoblarini eshitish tarzida o‘tkaziladi.**

**1-variant.** Dars o‘tgan darslar mavzulari bo‘yicha suhbat tarzida o‘tkaziladi.

**2-variant.** Dars o‘yin (viktorina, “Baxtli voqea” o‘yini namunasiga ko‘ra savollarga javob berish va hokazo) tarzida o‘tkaziladi.

### Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, o‘quvchilarning yozma ishlari va og‘zaki javoblari bajarilganligi uchun baholarni e‘lon qiladi.

Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						

## 67-DARS. O‘LKASHUNOSLIK DARS

### Dars maqsadlari:

- o‘quvchilarni o‘zlari yashaydigan ma’lum bir hududlarning tarixiy nomlari bilan tanishtirish;
- tadqiqot ishlari ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- vatanparvarlik, qadrdon o‘lkasiga mehr-muhabbat va hurmat hissini tarbiyalash.

### Materiallar va jihozlar.

Rangli qalamlar, rasm daftari, ish daftari.

### Tashkiliy ish. Kirish darsiga qarang. Yangi mavzuning mazmuni.

O‘qituvchi dars mavzusi va maqsadini e‘lon qiladi, shuningdek, o‘quvchilar mazkur mavzuni o‘rganish orqali egallaydigan bilim va ko‘nikmalarni sanab o‘tadi.

### Dars rejas:

Ekskursiya (arxeologik qazishmalar joylari bo‘ylab yoki o‘lkashunoslik muzeyiga videoekskursiya, xayoliy ekskursiya).

### Darsga yakun yasash.

1. O‘qituvchi darsga yakun yasab, darsda qatnashganlik va o‘quvchilarning og‘zaki javoblari uchun baholarni e‘lon qiladi.
2. O‘qituvchi savollarga javob beradi.

### Uy vazifasi.

1. 1–50-§ bo‘yicha savollarga javob berishga tayyorlanish.
2. O‘rganilgan mavzuning asosiy mazmunini aytib berish.

Sinflar	“A” sinfi	“B” sinfi	“V” sinfi	“G” sinfi	“D” sinfi	“Y” sinfi
Reja bo‘yicha sana						
Amalda						

## 68-DARS. YAKUNIY UMUMLASHTIRUVCHI DARS

### Dars maqsadlari:

O‘quvchilarning yil davomidagi ishlariga yakun yasash.

O‘qituvchi o‘quvchilarning yil davomidagi ishlariga yakun yasab, chorak va yil uchun baholarni e‘lon qiladi va sharhlaydi. Agar vaqt qolsa, qadrdon o‘lka tarixi bo‘yicha videofilm namoyish etish mumkin.

### Yil davomidagi barcha mavzularni takrorlash uchun ma’lumotlar

To‘g‘ri tashkil etilgan takrorlash o‘quvchilarga eski narsalarda qandaydir yangilikni ko‘rishlariga; ular o‘rganayotgan ma’lumot bilan ilgari o‘rganilgan ma’lumot o‘rtasida mantiqiy bog‘lanish o‘rnatishga yordam beradi; o‘quvchilarning xotirasini umumlashtiradi; ularning dunyoqarashini kengaytiradi; o‘quvchilarning bilimlarini tartibga keltiradi; o‘quvchilarni intizomga o‘rgatadi; ularda berilgan savolga javob berish uchun zarur ma’lumotni topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi; mas’uliyat hissini tarbiyalaydi.

### Sivilizatsiya boshlanishi

Qadimgi yozuvlarni o‘rganadigan fan? (epigrafika)

Tangalarni o‘rganadigan fan? (numizmatika)

Arxeologlar nimalarni o‘rganadilar? (ibtidoiy makonlar, qabristonlar va manzilgohlarda qazishmalar olib borishadi)

Antropologlar nimalarni o‘rganadilar? (qadimgi odamlarning skelet va bosh chanoqlarini o‘rganib, ularning tashqi ko‘rinishini tiklaydilar)

Etnograflar nimalarni o‘rganadilar? (hozirda yashayotgan xalqlarni, qadimgi odamlarning saqlanib qolgan urf-odatlarini o‘rganadilar)

Tarixiy manbalar qanday guruhlariga bo‘linadi? (moddiy va yozma manbalar)

“Ilk sivilizatsiya” nima? (shaharlar va davlatlar vujudga kelgan davr)

Ilk sivilizatsiyalar qayerda vujudga kelgan? (Qadimgi Sharqda va Yunonistondagi Krit orolida)

Qadimgi dunyo tarixi nimadan boshlanadi? (Yerda odam paydo bo‘lishidan)

Yilnoma – bu...? (voqealar yilma-yil qayd etib borilishi)

Qaysi kitob misrliklar tarixi haqida hikoya qiladi? (“Piramidalar matnlari”, “Marhumlar kitobi”).

Qaysi kitob Oʻrta Osiyo xalqlari tarixi haqida hikoya qiladi? (“Avesto”)

Avestoda qaysi xalqlar madaniyati haqida soʻz boradi? (Qadimgi Baqtriya, Soʻgʻdiyona, Xorazm)

Behistun yozuvlari qayerda joylashgan? (Erondagi hozirgi Kermonshoh shahri yaqinidagi

Behistun togʻlarida)

Behistun yozuvlari qaysi tillarda yozilgan? (qadimgi fors, babil, elamiy tillarida)

Behistun yozuvlarida Oʻrta Osiyoning qaysi shaharlari eslatilgan? (Soʻgʻdiyona, Baqtriya, Xorazm)

Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot qachon yashagan va qanday kitob yozgan? (mil. avv. V asrda – “Tarix”)

Gerodotning kitobi nimaga bagʻishlangan? (Yunon-fors urushlariga)

Gerodotni qanday atashgan? (“Tarix otasi”)

Qadimgi xitoy tarixchisi Sima Syan qachon yashagan va qanday asar yozgan? (mil. avv. II asr oxiri – I asr boshida – “Tarixiy xotiralar”)

Qadimgi yunon tarixchisi va geografi Strabon qachon yashagan va qanday asar yozgan? (mil. avv. I asr oxirida – “Geografiya”)

Qadimgi Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf qachon yashagan va qanday asar yozgan? (milodiy I asrda – “Makedoniyalik Aleksandr tarixi”)

Qadimgi yunon tarixchisi Arrian qachon yashagan va qanday asar yozgan? (milodiy II asrda – “Aleksandr yurishi” (“Aleksandr Anabasis”))

Barcha xalqlar tarixi nimadan boshlangan? (eng qadimgi urugʻchilik tuzumidan)

Eng qadimgi urugʻchilik tuzumi nima? (insoniyat tarixida barcha mehnat qurollari umumiy boʻlgan va hamma birga mehnat qilgan ilk davr)

Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichi? (ibtidoiy toʻda)

Urugʻ nima? (qarindoshlar jamoasi)

Urugʻ jamoasi nima? (bir necha urugʻlar)

Insoniyat taraqqiyotining qaysi davrida odamlar ona atrofida birlashishni boshlagan? (urugʻ jamoalari davrida)

Qaysi davr patriarxat vujudga kelishi bilan yakunlangan? (eng qadimgi urugʻchilik tuzumi)

Eng qadimgi mehnat qurollari qayerda topilgan va qaysi davrga mansub? (Olduvay darasi, Sharqiy Afrika (Tanzaniya)da joylashgan – mil. avv. 3–2-mln. yil)

Tasviriy sanʼatga nima asos boʻlib xizmat qilgan? (odamning tevarak olamni tushunishga intilishi)

Buyuk muzlik davri qachon boshlangan? (ilk paleolitning soʻnggi davrlarida)

Muzlik davri qachon tugagan? (mezolit davri boshida)

Eng qadimgi tosh qurollar Oʻrta Osiyo hududining qayeridan topilgan? (Selengur, Koʻlbuloq)

Chopperlar – bu... (bir tomoni urib oʻtkirlangan qoʻpol tosh qurollar)

Odamni oʻrab turgan muhitdagi har bir narsaning joni va ruhi borligiga ishonish qanday ataladi? (animizm)

Biror buyumlar omad keltirishiga ishonish qanday ataladi? (fetishizm)

Diniy eʼtiqodlar hamda marhumlarning qadimgi qabrlari qachon paydo boʻlgan? (oʻrta paleolitda)

Fanda qadimgi odamlarning qoyatosh rasmlari qanday ataladi? (petrogliflar) Petrogliflar qachon paydo boʻlgan? (soʻnggi paleolitda)

Odami oʻrta paleolit davrida nimani oʻrganib olgan? (olov saqlashni)

O'zlashtiruvchi xo'jalik nima? (termachilik va ovchilik)

Ishlab chiqaruvchi xo'jalik nima? (dehqonchilik va chorvachilik)

Qaysi davrda o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tilgan? (neolit davrida)

Qaysi davrda odamlar urug' jamoalariga ajralib, qabilaga aylanishgan? (so'nggi paleolit davrida)

Qabila – bu... (bir joyda yashaydigan bir nechta urug' jamoasi)

So'nggi paleolit davri odamlarining eng muhim kashfiyotlari? (uy-joy qurish, olovdan foydalanish)

Mezolit davrida odamlar nimani o'rganib olishgan? (o'q-yoy yasashni, hayvonlarni qo'lga o'rgatishni)

Mezolit davri oxirida Old Osiyoda qanday yangi xo'jalik tarmoqlari vujudga kelgan? (omoch bilan yer haydash va ibtidoiy chorvachilik)

Nima neolit davri boshlanishi deb hisoblanadi? (dehqonchilik paydo bo'lib, sopol idish kashf etilishi)

Odamlar mikrolitlar yasashni qachon boshlashgan? (neolit davrida)

Odamlar toshga ishlov berishning oldin ma'lum bo'lmagan silliqlash, arralash, sayqallash, teshiklarni parmalash usullarini qachon qo'llashni boshlagan? (neolit davrida)

Odamlar paxsadan uylar qurishni qachon boshlashgan? (neolit davrida)

Urug' jamoalarining o'troq manzilgohlari qachon shakllana boshlagan? (neolit davrida)

Kasb-hunarlar rivojlanishi uchun nima asos bo'lib xizmat qilgan? (o'troq turmush tarziga o'tish)

Neolit davrining muhim kashfiyotlari? (kulolchilik, to'quvchilik)

Qachon misdan foydalanish boshlangan? (neolit davri oxirida)

Qadimgi Sharqda ilk davlatlar qachon paydo bo'lgan? (mil. avv. 4-mingyillikda, eneolit)

Eneolit davrida nima paydo bo'lgan? (sug'orma dehqonchilik, xom g'ishtdan qurilgan ko'p xonali uylar, xumdonlar)

Qishloq xo'jaligida ortiqcha mahsulot qachon paydo bo'lgan? (bronza davrida)

Patriarxat davri qachon boshlangan? (bronza davrida)

Don saqlangan idish qanday atalgan? (xum)

Bronza davrida nimalar ixtiro qilingan? (kulolchilik charxi, g'ildirak)

Temir buyumlardan birinchi bo'lib kimlar foydalangan? (xetlar Kichik Osiyoda mil. avv. XIV–XIII asrlarda)

Temirdan avval nimalar yasalgan? (bezaklar)

Ilk temir bezaklar qayerda topilgan? (Tutanxamon maqbarasida va Kavkazdagi Maykop qo'rg'onida)

O'rta Osiyoda ilk temir qurollar nechanchi asrga mansub? (mil. avv. IX–VIII asrlar, ammo ko'p qismi mil. avv. VII–VI asrlarga mansub)

Sharq dehqonchiligi Yevropa dehqonchiligidan nimasi bilan farq qilgan? (Sharqda dehqonchilik sun'iy sug'orish asosida rivojlangan)

Urug' jamoasi hududiy qo'shni jamoa bilan qachon almashgan? (temir davrida)

Harbiy demokratiya qaysi davrda tarqalishni boshlagan? (temir davrida)

Mil. avv. 1-mingyillikdan boshlab O'rta Osiyo aholisi qanday guruhlarga bo'lingan? (4 guruhga: kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar)

Mil. avv. IX–VIII asrlarda nima jamiyatning asosi hisoblangan? (katta patriarxal oila)

Shakllanayotgan ijtimoiy tuzumning bosh belgisi qanday edi? (aholini urug'-qabila emas, balki hududiy tamoyilga ko'ra bo'linishi)

O'rta paleolit davrida kim yashagan? (Neandertal odami)

O'rta Osiyo hududida 8–9 yashar neandertal odamini qayerda, qachon va kim topgan? (Teshiktosh g'orida – Boysun tog'lari, A. P. Okladnikov 1938-yilda topgan).

So'nggi paleolit davrida kim yashagan? (kromanyon odami)

So'nggi paleolit davriga mansub qoyatosh rasmlar qayerda topilgan? (Altamir g'orida (Ispaniya), Lasko g'orida (Fransiya), Kapova g'orida (Boshqirdiston))

O'rta Osiyo hududida mezolit davrida yashagan odamlarning manzilgohlarini ayting. (Obishir, Qo'shilish, Machay, Farg'ona vodiysining tog' oldi va tog' hududlari, Toshkent viloyati va O'zbekiston janubi)

O'rta Osiyo hududida mezolit davriga mansub qoyatosh rasmlar qayerda topilgan? (Surxondaryo vohasidagi Zarautsoy darasida)

Neolit davri? (mil. avv. 6–4-mingyilliklar) Eneolit davri? (mil. avv. 4-mingyillik – 3-mingyillik o'rtasi)

Bronza davri? (mil. avv. 3–2-mingyillik o'rtasi)

Bronza davri dehqonlarining manzilgohlari. (Zamonbobo (mil. avv. 2-mingyillik – Zamonbobo ko'li, Buxoro viloyati), Sopollitepa (mil. avv. 2-mingyillik – Surxondaryo vohasi, Sherobod yaqinida)

### Qadimgi Misr

Qadimgi yunonlar Nilning quyilish joyini qanday atashgan? (“delta”)

Odamlar Misr hududiga qachon ko'chib joylashgan? (mil. avv. 4-mingyillikda)

Nil sohili bo'ylab unumdor yerning kengligi? (3–22 km)

Nil uzunligi? (6 ming km )

Misrliklar o'z vatanini qanday atashgan? (“qora tuproq”, “Nil in'omi”)

Misrliklar hosil terimini qachon boshlashgan? (qishda)

Oddiy misrliklar uylarini nimadan qurishgan? (loy bilan qotirilgan papirus poyalaridan)

Boy misrliklar uylarini nimadan qurishgan? (quyoshda quritilgan g'ishtlardan)

Podsholarning ibodatxonalari va saroylari nimadan qurilgan? (toshdan)

Misrdagi kichik davlatlar qanday atalgan? (nomlar)

Misrda “nomlar” qachon paydo bo'lgan? (mil. avv. 4-mingyillik oxirida)

Birlashgan Misrning ilk fir'avni kim? (Menes (Yuqori Misr) mil. avv. 3000-yil)

Yagona davlat poytaxti. (Memfis)

Misr tarixi qanday qismlarga bo'linadi? (5 qismga: Ilk, Qadimgi, O'rta, Yangi va So'nggi podsholiklar)

O'rta podsholik davrida Misrning poytaxti. (Fiva)

Misrga qo'shni davlatlarni ayting. (Nubiya (Sudan), Liviya, Falastin, Suriya)

Qaysi hukmdor davrida Yangi podsholik yuksak qudratga erishadi? (Yaxmos hukmronligi davrida)

Misrning qaysi hukmdori Falastindan tashqari barcha qo'shni davlatlarni bosib olgan? (Tutmos II mil. avv. 1500-yilda)

Falastinni kim bosib olgan? (Tutmos III)

Misr qachon yana birlashgan? (mil. avv. VII asrda)

Misrni kim va qachon zabt etgan? (fors podshosi Kambiz mil. avv. 525-yilda)

Memfis shahrining xudosi. (Ptax)

Ptaxning yerdagi timsoli qanday atalgan? (Apis)

Yer timsolidagi Apisning ko'rinishi qanday edi? (peshanasi va yag'rinida oq xollari bo'lgan qora buqa)

Quyosh xudosi? (Amon-Ra)  
 Fiva shahrining homiysi? (Amon)  
 Quyosh xudosi Raning ibodatxonasi qayerda joylashgan? (Geliopol (Baalbek))  
 Nil xudosi? (Xapi)  
 Yer osti saltanati xudosi? (Osiris)  
 Afsonaga ko‘ra o‘z xalqiga dehqonchilikni kim o‘rgatgan? (Osiris)  
 Osirisni kim o‘ldirgan? (Set)  
 Osirisni kim tiriltirgan? (Isida – uning xotini)  
 Oy, donishmandlik va tabobat xudosi? (Tot)  
 Marhumlar va mumiyolanganlar xudosi? (Anubis)  
 Haqiqat va adolat ilohasi? (Maat)  
 Musiqa, go‘zallik va sevgi ilohasi? (Xatxor)  
 Mushuk qiyofasidagi go‘zallik xudosi? (Bastet)  
 Eng mashhur piramidalar? (Xufu, Xafra, Menkaura)  
 Eng katta piramida? (Xufu (Xafra))  
 Xafra piramidasining balandligi? (147 m )  
 Piramidani qo‘riqlaydigan afsonaviy maxluqlar qanday atalgan? (sfinkslar)  
 Sfinkslar haykallarining tashqi ko‘rinishi qanday? (tanasi sherniki, kallasi odamniki bo‘lgan tosh haykal)  
 Piramidalar qurilishi qachon to‘xtatilgan? (Yangi podsholik davrida)  
 Mumiyolash necha kun davom etgan? (70 kun)  
 Misrliklar o‘z yozuvini qanday atashgan? (“toshga chekilgan muqaddas bitiklar”, “ma’budlar kalomi”)  
 Qadimgi yunonlar misrliklarning yozuvini qanday atashgan? (“iyerogliflar” – tarjimasi: “Muqaddas bitiklar”)  
 Misrliklar alifbosi qancha iyeroglifdan tashkil topgan? (750 ta)  
 Misr iyerogliflarini kim va qachon o‘qishga muvaffaq bo‘lgan? (Jan Fransua Shampolyon 1822-yilda)  
 Shampolyonga iyerogliflar ma’nosini o‘qishga nima yordam bergan? (Rozett bitiktoshi)  
 Rozett bitiktoshi hozir qayerda saqlanadi? (Londondagi Britaniya muzeyida)  
 “Podsho tirsagi” uzunligi? (52,5 cm )  
 Misrliklar qanday soatdan foydalanishgan? (suv soati)

## Mesopotamiya

Yunonlar qaysi hududni Mesopotamiya deb atashgan? (Dajla va Frot daryolari o‘rtasidagi vodiy)  
 “Mesopotamiya” so‘zi yunonchadan tarjima qilinganda qanday ma’no beradi? (“Ikki daryo oralig‘i”)  
 Mesopotamiya aholisi xurmo daraxtini nima deb atagan? (“hayot daraxti”)  
 Mesopotamiyada shumerlar manzilgohi qachon paydo bo‘lgan? (mil. avv. 4-mingyillikda)  
 Shumerlar Mesopotamiyaning qaysi qismiga ko‘chib joylashgan? (Janubiy qismi)  
 Mesopotamiyaning shimoliy qismiga kimlar ko‘chib joylashgan? (akkadlar)  
 Akkadlar butun Mesopotamiyaga qachon ko‘chib joylashganlar? (mil. avv. 3-mingyillik oxirida)  
 Mesopotamiyada og‘irlik o‘lchovi qanday atalgan? (mino – 550 gr kumush)  
 Shumerlar yozuvi qanday ataladi? (mixxat)  
 Mesopotamiyaning ilk shahar-davlatlari nomlarini ayting (Uruk, Eridu, Lagash, Ur)  
 Mesopotamiyaning ilk shahar-davlatlari qachon paydo bo‘lgan? (mil. avv. 4-mingyillik oxirida)

Quyosh ma'budi? (Shamash)

Oliy hakam kim edi? (Shamash)

Oy ma'budi? (Sin)

Suv ma'budi? (Ea)

Dehqonchilik, hosildorlik va sevgi ilohasi? (Ishtar)

Ur qachon eng qudratli shumer shahriga aylandi? (mil. avv. 3-mingyillikda)

Lagash shahri qachon yuksalishni boshlagan? (mil. avv. 3-mingyillik o'rtasida)

Ikki daryo oralig'i rivoyatlarining eng sevimli qahramoni? (Gilgamish)

Gilgamish qaysi shaharning hukmdori edi? (Uruk)

Gilgamishning sodiq do'sti? (Enkidu)

Kim tarixda ilk bor muntazam qo'shinlarni tuzgan? (Sargon I, mil. avv. 3-mingyillikning ikkinchi yarmida)

Sargon I Akkad va Shumerni qachon o'z hokimiyati ostida birlashtirdi? (mil. avv. 3-mingyillikning ikkinchi yarmida)

Sargon I qanday unvonga sazovor bo'lgan? ("to'rt iqlim mamlakati podshosi")

Shumer-Akkad davlati qachon parchalandi? (mil. avv. 2-mingyillikda)

Bobil qachon yuksalishni boshlagan? (mil. avv. 2-mingyillikda)

"Bobil" so'zi nimani anglatadi? ("xudolar darvozasi")

Bobilning bosh ko'chasidagi darvoza qanday atalgan? (iloha Ishtar darvozasi)

Qaysi podsho hukmronligida Bobil eng qudratli davlatga aylandi? (Xammurapi hukmronligida)

Xammurapi podsholik qilgan yillar? (mil. avv. 1792–1750-yillar)

Nega Xammurapi qonunlari so'zsiz bajarilishi lozim edi? (chunki ular xudolarning xohishi sanalgan)

Xammurapi vafotidan so'ng Bobilni kim bosib olgan? (kassiy qabilalari)

Yangi Bobil podsholigi qachon tashkil topgan? (mil. avv. VII asrda)

Qaysi hukmdor davrida Yangi Bobil podsholigi yuksak qudratga erishadi? (Navuxodonosor II hukmronligida)

Navuxodonosor II qanday hududlarni qo'shib olgan? (Misrni, shuningdek, Ierusalimni vayron qilgan)

Forslar Bobilni qachon zabt etishgan? (mil. avv. 539-yilda)

Forslarni Bobildan kim quvg'in qilgan? (Makedoniyalik Aleksandr)

Aleksandr vafotidan so'ng Bobil qaysi davlat tarkibiga kirgan? (Salavkiylar davlati tarkibiga)

Mesopotamiyada qanday rivoyatlar yaratilgan? (dunyo yaralishi, Bobil minorasi, dunyo to'foni haqida).

### Old Osiyo davlatlari va ularning qo'shnilari

Mil. avv. 2-mingyillikda Old Osiyo hududida joylashgan davlatlarni sanab o'ting (Xett, Mitanni, Ossuriya, Urartu, Finikiya, Falastin)

Xett davlati qachon va qayerda tashkil topgan? (mil. avv. XVIII asrda Turkiya hududida)

Xett podsholigining poytaxti? (Xattusa)

Xattusani qaysi davlat bosib olgan? (Mitanni podsholigi)

Xett podsholigini kim va qachon tor-mor etgan? ("dengiz xalqlari", mil. avv. XIII asrda)

Mitanni podsholigi qaysi davlat hududida tashkil topgan? (Suriya hududida)

Ossuriya davlati qayerda va qachon tashkil topgan? (Iroq hududida, mil. avv. XX asrda)

Ossuriya podsholigining poytaxti? (Ashshur, keyin Nineviya)

Ossuriya qachon va qaysi hukmdor davrida davlati eng katta qudratga erishgan? (Salmanasar hukmronligi davrida mil. avv. XIII asrda)

Ossuriya poytaxti Nineviya qanday atalgan? ("sherlar makoni")

Ossuriyaning qaysi hukmdori Old Osiyoda eng yirik kutubxona to'plagan? (Ashshurbanipal)

Bobil va Midiya Ossuriyadan qachon ajralib ketgan? (mil. avv. 627-yilda)

Bobil va Midiya qachon birlashib, Ashshur va Nineviyani zabt etgan? (mil. avv. 612-yilda)

Bobil va Midiya qachon Ossuriyani tamomila zabt etgan? (mil. avv. 605-yilda)

Urartu davlati qayerda joylashgan edi? (Kavkazortidagi Van, Urmiya va Sevan ko‘llari orasida – Turkiyaning sharqiy qismi va Armaniston)

Urartu aholisi qanday atalgan? (urartlar)

Urartu qachon va qaysi hukmdor davrida o‘z ravnaqining cho‘qqisiga erishgan? (Sardur I hukmronligi davrida, mil. avv. IX asrda)

Urartuning poytaxti? (Tushpa)

Urartuning eng yirik qal’asi? (Teyshebaini)

Urartu qaysi voqeadan keyin zaiflashgan? (mil. avv. 714-yilda Ossuriya qo‘shinlari urartlar lashkarini tor-mor etgandan so‘ng)

Urartuni kim va qachon batamom tor-mor etgan? (skiflar va Midiya mil. avv. 590-yilda)

Qadimda Finikiya qayerda joylashgan? (Livan hududida va Suriyaning bir qismida)

Finikiyaliklarning asosiy mashg‘uloti? (savdo)

Finikiya nimasi bilan boy edi? (kedr o‘rmonlari)

Finikiyaliklarning yirik savdo shaharlari? (Tir, Sidon, Ugarit)

Tir-Sidon podsholigini kim va qachon bosib olgan? (Ossuriya mil. avv. VII asrda)

Finikiyaliklar qachon va qayerda koloniyalarga asos solishgan? (mil. avv. 2-mingyillikda Kipr orolida va Kichik Osiyo bo‘yida, Shimoliy Afrika, Ispaniya, Sardiniya, Sitsiliyada)

Finikiyaliklarning alifbosi qachon yaratilgan? (mil. avv. X asrda)

Finikiyaliklar alifbosining xususiyati? (faqat 22 undosh harflar)

Qadimgi yahudiy qabilalari Falastinga qachon ko‘chib joylashgan? (mil. avv. 2-mingyillik o‘rtasida)

Isroil podsholigi qayerda va qachon vujudga kelgan? (Falastin hududida mil. avv. XI asrda)

Yahudiy podsholigining eng dono shohi? (Sulaymonshoh)

Isroil podsholigini kim bosib olgan? (ossuriyaliklar)

Yahudiy podsholigini kim va qachon zabt etgan? (Bobil mil. avv. 586-yilda)

### Ahamoniylar davlati (Fors podsholigi)

Ahamoniylar davlati qayerda va qachon tashkil topgan? (mil. avv. VI asrda Eron hududida)

Ahamoniylar davlati hududida qanday qabilalar yashagan? (forslar, elamiylar, kassiyar, midiyaliklar)

Midiyaliklar va forslar Fors podsholigi hududiga qachon ko‘chib joylashgan? (mil. avv. IX asrda)

Ahamoniylarning janubi-sharqida qanday davlat vujudga kelgan? (Elam)

Elam qachon vujudga kelgan? (mil. avv. 3-mingyillikda)

Elamning poytaxti? (Suza)

Janubi-g‘arbda qanday davlat vujudga kelgan? (Midiya)

Midiya davlati qachon vujudga kelgan? (mil. avv. IX asrda)

Midiya podsholigi qachon va qaysi hukmdor davrida o‘z ravnaqining cho‘qqisiga erishgan? (Kiaksar hukmronligi davrida, mil. avv. VII asr oxirida)

Kim va qachon forslarni yagona davlatga birlashtirgan? (Kir II, mil. avv. 558-yilda)

Kir II mil. avv. 539-yilda qanday davlatlarni zabt etgan? (Armaniston, Lidiya, Bobil)

Kir II qanday halok bo‘lgan? (massagetlar malikasi To‘maris bilan jangda, mil. avv. 530-yilda)

Kir II ning bosqinchilik siyosatini kim davom ettirgan? (Kambiz II va Doro I)

Misrni Ahamoniylar davlatiga kim va qachon qo‘shib olgan? (Kambiz II mil. avv. 525-yilda)

Doro I hukmronligi yillari? (mil. avv. 522–486-yillar)

Doro I qanday islohotlar o‘tkazgan? (davlatni satrapiyalarga bo‘lib yuborgan, yagona tanga – “darik”ni muomalaga kiritgan)

Yunon-fors urushlarini nima boshlab bergan? (yunon koloniyalarining forslar tomonidan bosib

olinishi)

Fors podsholigining yirik shaharlari? (Suza, Ekbatana, Persepol)

Ahamoniylar davlatini kim va qachon zabt etgan? (Makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 330-yilda)

Ahamoniylar davlati necha yil mavjud bo'lgan? (200 yildan ortiq)

### Hindiston

Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasi qayerda va qachon vujudga kelgan? (Hind va Gang daryolari oralig'ida mil. avv. 3-mingyillikda)

Hindlarni shimoli-sharqdan qaysi tog'lar himoyalagan? (Himolay tog'lari)

Hindistonning ilk sivilizatsiyasi qanday atalgan? (Xarapp sivilizatsiyasi)

Xarapp sivilizatsiyasining ilk shaharlari? (Moxenjodaro, Xarappa)

Hindistonning ilk sivilizatsiyasini kim yo'q qilgan? (ko'chmanchi oriy qabilalari mil. avv. 1500-yilda)

Oriylar Hindistonga bostirib kirishdan oldin qayerda yashaganlar? (Sharqiy Yevropada)

Momaqaldoq ma'budi? (Indra)

Donishmandlik ma'budi? (fil boshli Ganesha)

Qadimgi Hindiston diniy e'tiqodlarining asosida nima turgan? (barcha jonli mavjudotlarga yaxshilik va rahm-shafqat qilish)

Aholining maxsus guruhlari qanday atalgan? (kastalar yoki varnalar)

Kohinlar qanday atalgan? (brahmanlar)

Jangchilar qanday atalgan? (kshatriylar)

Dehqon, hunarmand va savdogarlar qanday atalgan? (vayshiyalar)

Xizmatkor va qullar qanday atalgan? (shudralar)

Hindlarning muqaddas hayvoni? (sigir)

Tabaqalardan birortasiga ham mansub bo'lmagan odamlar qanday atalgan? ("hazar qilinadiganlar")

Mil. avv. VII–VI asrlarda Hindistonda vujudga kelgan davlatlarni sanab o'ting? (Magadha, Koshala, Malla)

Makedoniyalik Aleksandr qachon Hindistonga (Panjobga) bostirib kirgan? (mil. avv. 327-yilda)

Makedoniyalik Aleksandr Bobilga qachon qaytgan? (mil. avv. 325-yilda)

Makedoniyalik Aleksandrning qo'shinlarini kim va qachon batamom quvib chiqargan? (Chandragupta mil. avv. 318-yilda)

Chandragupta asos solgan davlat qanday atalgan? (Maurya)

Maurya poytaxti? (Pataliputra)

Qaysi podsho hukmronligida Maurya davlati yuksalish cho'qqisiga erishadi? (Ashoka hukmronligida mil. avv. III asrda)

Qadimgi hindlarning ixtirolarini sanab o'ting. (arab raqamlari, shaxmat, nol raqami, shakarqamishdan shakar olish)

Hindlarning adabiy tili qanday ataladi? (sanskrit)

Sanskritda yozilgan dostonlar? ("Mahabharat", "Ramayana")

Buddaviylikka kim asos solgan? (Siddhartha Gautama)

Budda ismining ma'nosi? ("ma'rifatlangan")

Budda qachon yashagan? (mil. avv. VI asrda)

Buddaviylik boshqa dinlardan nimasi bilan farq qilgan? (insonning o'rni na kastalarga, na uning jamiyatdagi mavqeiga bog'liq bo'lgan)

Buddaviylik qachon dunyo dinlaridan biriga aylandi? (mil. avv. III asrda)

### Xitoy

Xitoyda ilk sivilizatsiyalar qachon va qayerda vujudga kelgan? (Xuanxe va Yanszi daryolari oralig'ida, mil. avv. 4–3-mingyillikda)

Xitoylar Xuanxeni qanday atashgan? ("sariq daryo", "daydi daryo", "ming ofat daryosi")

Shan davlati qachon tashkil topgan? (mil. avv. 2-mingyillik oʻrtasida)

Shan davlatining bosh shahri? (Shan shahri)

Chjou Shan davlatini qachon bosib olgan? (mil. avv. 2-mingyillikda)

Hukmdorlar Chjou davlatini qanday atashgan? (“Osmon osti podsholigi”, “Oʻrta davlat”, oʻzlarini esa “osmon oʻgʻillari” deb atashgan)

Mil. avv. 2-mingyillikda Pekinning nomi? (Szi)

Mil. avv. VII–V asrlar davri qanday ataladi? (“kurashayotgan podsholiklar” yoki “koʻp podsholiklar” davri)

Xitoyni markazlashtirilgan davlatga kim va qachon birlashtirdi? (Sin Shixuandi, mil. avv. III asrda)

Sin Shixuandi hukmronlik qilgan yillar? (mil. avv. 246–210-yillar)

Sin Shixuandi davlatni nechta viloyatlarga boʻlgan? (36 ta)

Sin Shixuandi maqbarasi necha yil qurilgan? (37 yil – 720 000 kishi)

Imperator bilan birga qancha sopol haykal dafn qilingan? (6 000)

Buyuk Xitoy devori qurilishi qaysi hukmdor davrida boshlangan? (Sin Shixuandi davrida)

Xitoyliklar Buyuk Xitoy devorini qurish uchun qanday mehnat qurollaridan foydalanishgan? (belkurak, choʻkich, zambilgʻaltak)

Sin sulolasi oʻrniga qaysi sulola kelgan? (Xan)

Xan sulolasi qaysi hukmdor davrida yuksak qudratga erishadi? (U Di)

U Di hukmronligi yillari? (mil. avv. 140–87-yillar)

Xan sulolasi qaysi yilgacha mavjud boʻlgan? (milodiy 220-yilgacha)

Ogʻir sharoitlarga qarshi eʼtiroz sifatida boshlangan qoʻzgʻolon qanday nom olgan? (“qizil qoshlilar qoʻzgʻoloni”)

Milodiy II asrda Xitoydagi eng yirik qoʻzgʻolon? (“sariq roʻmollilar” qoʻzgʻoloni)

Xitoyliklar bambuk oʻrniga ipakdan qachon foydalanishni boshlashgan? (milodiy VI asrda)

Qogʻoz qachon ixtiro qilingan? (mil. avv. I asrda)

### Oʻzbekiston hududidagi qadimiy davlatlar

Soʻgʻdiyalar qayerda yashagan? (Zarafshon va Qashqadaryo vodiysida)

Soʻgʻdiyona turli manbalarda qanday atalgan? (Soʻgʻda (“Avesto”), Soʻgʻuda (Behistun yozuvlari), Soʻgʻdiyona (Arrian, Strabon, Kursiy Ruf asarlari))

Xorazmliklar qayerda yashagan? (Amudaryoning quyi tomonida)

Xorazm turli manbalarda qanday atalgan? (Xvarizam (“Avesto”), Xvarazmish (Behistun yozuvlari), Xorasmiya (Arrian va Strabon asarlari))

Soʻgʻdiylarning yaqin qoʻshnilari? (baqtriyaliklar)

Baqtriyaliklar qayerda yashagan? (Surxondaryo vohasida, shimoliy Afgʻonistonda va Janubiy Tojikistonda)

Baqtriya turli manbalarda qanday atalgan? (Baxdi (“Avesto”), Baqtrish (Behistun yozuvlari), Baqtriya (yunon-rim mualliflari))

Amudaryoning qadimgi nomi? (Oks)

Amudaryo boʻyida qanday xalqlar yashagan? (massagetlar)

Saklar qayerda yashagan? (dasht, choʻl va togʻ hududlarida)

Saklarning asosiy mashgʻuloti? (chorvachilik)

Saklar va massagetlar qachon qabilalar ittifoqini tuzishgan? (mil. avv. VI asrda)

Saklar qanday guruhlarga boʻlingan? (saka-tigraxauda (“oʻtkir uchli kigiz qalpoq kiyib yuruvchi saklar”), saka-taradarayya (“daryoning narigi tomonida yashovchi saklar”), saka-xaumovarka

(“xaomaga sig‘inuvchi saklar”)

Saka-tigraxaudalar qayerda yashagan? (Toshkent viloyati va Janubiy Qozog‘iston)

Saka-taradarayyalar qayerda yashagan? (Orol dengizi bo‘yida va Sirdaryoning quyi tomonida)

Saka-xaumovarkalar qayerda yashagan? (Pomir va Farg‘onaning tog‘ hududlarida)

Sirdaryo qadimda qanday atalgan? (Yaksart)

O‘rta Osiyoda ilk shaharlar rivojlanishining tezkor jarayoni qaysi asrlarda yuz bergan? (mil. avv. VII–VI asrlarda)

Zarafshon daryosi qadimda qanday atalgan? (Politimet)

O‘zbekistonning eng qadimgi shaharlari? (Afrosiyob (Samarqand), Uzunqir, Qiziltepa, Yerqo‘rg‘on)

Qadimgi Baqtriya davlati qachon tashkil topgan? (mil. avv. VII asrda)

O‘zbekistondagi eng qadimgi shaharlar qachon vujudga kelgan? (kamida 2700 yil avval)

Qadimgi Xorazmning yirik markazi? (Ko‘zaliqir)

O‘zbekiston hududida ilk temir davriga qachon o‘tish boshlangan? (mil. avv. IX–VII asrlarda)

O‘zbekiston hududida qachon ilk davlatlar vujudga kelgan? (mil. avv. VII–VI asrlarda)

Afrosiyob shahri qachon vujudga kelgan? (mil. avv. VIII–VII asrlarda)

### Zardushtiylik

Zardushtiylik dini qachon paydo bo‘lgan? (mil. avv. 1-mingyillikda)

Zardushtiylik nimaga sig‘ingan? (Quyosh, suv, yer, Oy, yulduzlarga)

Qadimgi yunonlar Zaratushtrani qanday atashgan? (Zoroastr)

“Zoroastr” nomining yunonchadan tarjimasini...? (“yulduz”)

Zaratushtra necha yoshida payg‘ambar bo‘lgan? (30 yoshida)

“Avesto” so‘zining tarjimasini? (“qat‘iy belgilangan qonunlar”)

Avestoning qadimgi qismlari qachon paydo bo‘lgan? (mil. avv. IX–VIII asrlarda)

Zaratushtraning barcha va‘zlari 21 kitobga qachon jamlangan? (mil. avv. III asrda)

Avestoga sharhlar qanday ataladi? (“zend”)

Avestoning ilk tarjimoni? (fransuz olimi Dyupperon)

Zardushtiylarning oliy xudosi? (Ahuramazda)

Quyosh va yorug‘lik ma‘budi? (Mitra, u Ahuramazda va odamlar o‘rtasida bosh vositachi ham bo‘lgan)

Yovuzlik va o‘lim ma‘budi? (Ahriman)

Hosildorlik va sevgi ma‘budasi? (Anaxita)

Baxt va boylik ma‘budasi? (Xumo)

Zardushtiylarda nima eng dahshatli yovuzlik hisoblangan? (O‘lim)

Zardushtiylarda suyakdon qanday atalgan? (Ossuariy)

Zardushtiylik nimani insonning asosiy burchi deb hisoblashgan? (adolatli turmush tarzi)

### Qadimgi Yunoniston

Yunoniston joylashgan yarimorol nomini ayting? (Bolqon yarimoroli)

Bolqon yarimorolining qancha qismi tog‘lardan iborat? (1/3)

Yunonistonning ilk sivilizatsiyalari qayerda vujudga kelgan? (janubda – Miken sivilizatsiyasi; Krit orolida – Minoy sivilizatsiyasi)

Minoy sivilizatsiyasini kim va qachon vayron qilgan? (axeylar mil. avv. 1450-yilda)

Miken sivilizatsiyasini kim va qachon vayron qilgan? (doriylar mil. avv. 1200-yilda)

Doriylar qaysi davlatni bunyod etishgan? (Sparta)

Mil. avv. IX–VIII asrlarda Qadimgi Yunonistonda qanday shahar-davlatlar vujudga kelgan? (Afina, Sparta)

Qadimgi Yunonistonning shahar-davlatlari qanday atalgan? (polislar)

Yunon qo‘shinlarining asosini tashkil etgan og‘ir qurollangan piyoda jangchilar qanday atalgan? (goplitlar)

Goplitlarning to‘rtburchak shaklida saflanishi qanday atalgan? (falanga)

Yunonlarning Akropol qal‘asi qachon va qayerda vujudga kelgan? (Attika g‘arbida mil. avv. 2-mingyillikda)

Akropol atrofida qanday shahar vujudga kelgan? (Afina)

Attika aholisi qanday guruhlarga bo‘lingan? (qullar, meteklar, fuqarolar)

Kimlar Afina fuqarosi hisoblangan? (ota-onalari ozod afinaliklar bo‘lgan erkaklar)

Qaysi asrdan boshlab davlat mahkamalarida ishlaganlik uchun haq to‘langan? (mil. avv. V asrdan – Perikl hukmronligida)

Afinaning bosh bandargohi? (Pirey)

“Pedagog” so‘zining yunonchadan tarjimai? (“bolani yo‘lda kuzatib boruvchi”)

Ta‘lim necha yoshdan boshlangan? (7 yoshdan)

Yozish uchun temir tayoqcha qanday ataladi? (stil)

Puldor shaharlikning bolalari qayerda o‘qishni davom ettirishgan? (palestrada)

“Disk uloqtiruvchi” haykalini kim ishlagan? (haykaltarosh Miron)

“Nayzabardor” haykalini kim ishlagan? (haykaltarosh Poliklet)

Afinada nimadan so‘ng biror lavozimni egallash mumkin edi? (oliy ma‘lumot olgandan so‘ng)

Spartani kim va qachon bunyod etgan? (doriylar mil. avv. XII asrda)

Spartaliklar qulga aylantirgan mahalliy aholi qanday atalgan? (ilotlar)

Spartaning to‘la huquqlarga ega bo‘lmagan fuqarolari qanday atalgan? (periyeklar)

Yunonlar o‘zlarini va mamlakatini qanday atashgan? (o‘zlarini – ellinlar, mamlakatni – Ellada deb atashgan)

Yunonlar koloniyalar atrofida yashaydigan yunon bo‘lmagan aholini qanday atashgan? (varvarlar)

Buyuk yunon koloniyalashtirishi qaysi asrlarda amalga oshirilgan? (mil. avv. VIII–VI asrlar)

Yunonlar O‘rtayer va Qora dengizlar sohilida qanday koloniyalarni barpo etishgan? (Olviya, Xersones, Pantikapey, Tanais, Fasis, Trapezund)

Mil. avv. VIII asrda Finikiya alifbosi asosida yaratilgan yunon alifbosining xususiyati nimada? (ilk bor unli harflar paydo bo‘lgan)

Hunarmandchilik va savdo-sotiq yuksalishiga nima sabab bo‘ldi? (koloniyalar va yunon shaharlari o‘rtasida mahsulot ayirboshlash)

Afinada xalq yig‘inlari qayerda o‘tkazilgan? (agorada, Akropol markazida)

Fuqarolar agorda necha marta yig‘in qilishgan? (oyda 4 marta)

Qaysi davlat mahkamasi hokimlar va sudyalarni saylagan? (“Oqsoqollar kengashi”)

Afina hukmdorlaridan qaysi biri va qachon xalq boshqaruvini bekor qilgan? (Drakont mil. avv. 621-yilda)

Xalq Drakont qonunlari haqida nima degan? (go‘yoki ular “siyoh qolib, qon bilan yozilgan”)

Afina hukmdorlaridan qaysi biri va qachon xalq boshqaruvini tiklagan? (Solon mil. avv. 594-yilda)

Fuqarolar necha yoshdan boshlab xalq majlislarida ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan? (20 yoshdan)

Fuqarolar necha yoshdan boshlab xalq sudi ishida qatnashish huquqiga ega bo‘lgan? (30 yoshdan)

Qaysi davlat mahkamasi kundalik joriy masalalarga yechim topgan? (“Beshyuzlar kengashi”)

Beshyuzlar kengashiga kim rahbarlik qilgan? (strateg)

Beshyuzlar kengashi qarorlarini kim tasdiqlagan? (Xalq yig'ini)  
Qaysi hukmdor davrida Afinada demokratiya o'z yuksalish cho'qqisiga erishdi? (Perikl hukmronligida)  
Perikl qanday buyuk yunonlar bilan do'st tutingan? (Gerodot, Fidiy bilan)  
Perikl qatorasiga necha marotaba strateg etib saylangan? (15 marotaba)  
Parfenon bu... (Akropoldagi iloha Afina ibodatxonasi)  
Parfenon qaysi hukmdor davrida qurilgan? (Perikl hukmronligida)  
Perikl shaharni spartaliklardan himoyalash uchun nima qilgan? (Afinadan Pirey dengiz bandargohiga qadar mudofaa devorini qurdirgan).

### Yunon-fors urushlari

Yunon-fors urushlari qaysi yillarda bo'lib o'tgan? (mil. avv. 490–449-yillar)  
Yunon-fors urushlariga nima sabab bo'lgan? (forslar yunonlarning Kichik Osiyodagi polislarini bosib olishgan)  
Doro I elchilari yunon polislaridan nima talab qilishgan? (yer va suv)  
Yunon qo'shinlariga kim qo'mondonlik qilgan? (Miltiad)  
Fors qo'shinlariga kim qo'mondonlik qilgan? (Doro I, keyin Kserks)  
Kserksning hukmronlik yillari? (mil. avv. 486–465-yillar)  
Forslar va yunonlarning ilk jangi qayerda va qachon bo'lib o'tgan? (mil. avv. 490-yil sentyabrda Marafon tekisligida)  
Marafon jangi qanday yakunlangan? (yunonlar g'alaba qilgan)  
Forslar Shimoliy Yunonistonga qaysi bo'g'oz orqali bostirib kirishgan? (Gellespont bo'g'ozi orqali)  
Fermopil darasi mudofaasiga kim qo'mondonlik qilgan? (Sparta podshosi Leonid, mil. avv. 480-yilda)  
Forslar tor-mor etilgan hal qiluvchi dengiz jangi qachon va qayerda bo'lib o'tgan? (Salamon bo'g'ozida mil. avv. 480-yilda)  
Yunonlarning harbiy kemalari qanday atalgan? (triyera)  
Yunon kemalari qanday tezlikda suzgan? (18 km/soat)  
Salamon jangida yunonlarda qancha kema bor edi? (200 kema)  
Fors qo'shinlari qaysi jangda va qachon batamom tor-mor etilgan? (Plateya shahri yonida mil. avv. 479-yilda)  
Yunon-fors urushlari qancha vaqt davom etgan? (40 yildan ziyod)  
Yunon-fors urushlaridan so'ng kim Yunonistonga hujum qilgan? (Makedoniya podshosi Filipp II).  
Filipp II qo'shinlari falangasi nechta qatordan tashkil topgan edi? (16 qatordan, oltinchi qatordagi nayza birinchi qatordagi jangchini himoya qilgan)  
Yunonlarni Filipp II ga qarshi jang qilishga kim da'vat etgan? (notiq Demosfen)  
Afinaliklarning makedoniyaliklarga qarshi ittifoqiga qaysi shahar qo'shilgan? (Fiva)  
Makedoniyaliklar yunonlarni qayerda va qachon batamom tor-mor etishgan? (mil. avv. 338-yil 2-avgustda Xeroniya shahri yonidagi Beotiya degan joyda).  
Xeroniya shahri ostonasida yunonlar ozodligi halok bo'lganlar bilan birga dafn qilindi, deb kim aytgan? (Demosfen)  
Filipp II o'zini kim deb e'lon qilgan? (birlashgan qo'shinlarning bosh qo'mondoni)  
Yunon polisleri Makedoniya hokimiyati ostida qanday ittifoqqa va qachon birlashgan? (Korinf ittifoqiga, 337-yilda)  
Korinf ittifoqiga kim a'zo bo'lmagan? (Sparta)  
Polislar o'rtasidagi ziddiyatlar qayerda hal qilingan? (yunon shahar-davlatlari kengashida)  
Yunonlar va makedoniyaliklarning forslarga qarshi yurishi nega amalga oshmagan? (Filipp II mil. avv. 336-yilda o'ldirilgan).

## Yunoniston madaniyati

O'spirinlar necha yil harbiy tayyorgarlik ko'rishgan? (2 yil)

Erkaklar necha yoshgacha urushga chaqirilgan? (30 yoshgacha)

Ilk Olimpiya o'yinlari qachon o'tkazilgan? (mil. avv. 776-yilda)

Olimpiya o'yinlari asoschisi kim hisoblangan? (Gerakl)

Olimpiya o'yinlari kimning sharafiga o'tkazilgan? (bosh xudo Zevs sharafiga)

Sportchi Olimpiada o'z haykalini o'rnatirishi uchun necha karra Olimpiada o'yinlari g'olibi bo'lishi kerak edi? (uch karra)

Olimpiya o'yinlari qachon va nega to'xtatildi? (milodiy 394-yilda, chunki xristianlik davlat dini deb e'lon qilingan)

Olimpiya o'yinlari qachon qayta tiklangan? (1896-yilda)

Yunonlar Troyaga qachon yurish qilishgan va u qayerda joylashgan edi? (mil. avv. 1200-yilda – Kichik Osiyoda)

Yunonlar Troyani necha yil qamal qilishgan? (9 yil)

Gomerning "Iliada" dostonida qanday voqea tasvirlangan? (Troya urushining so'nggi yili)

Gomer qanday asarlar yozgan? ("Iliada", "Odissey")

Kim yunonlarga Troya otini yasashni maslahat bergan? (Itaka podshosi – Odissey)

"Troya oti" iborasi nimani anglatadi? (shubhali sovg'a).

"Iliada" dostonining bosh qahramoni kim? (Axilles)

Axillesning mangu barhayot bo'lishini istagan ona uni qaysi daryoga botirib oladi? (Stiks daryosiga)

"Axilles tovoni" iborasi nimani anglatadi? (insonning zaif joyi)

Troya joylashgan yerni kim va qachon topgan? (Genrix Shliman 1870-yilda)

Troya qayerda topilgan? (Turkiyada, Gissarlik shahri yaqinida)

Yunonistonda teatr qachon paydo bo'lgan? (2,5 ming yil avval)

"Teatr" so'zining yunonchadan tarjimai? (tomoshalar uchun joy)

Afina teatri necha kishiga mo'ljallangan edi? (17 000 kishiga)

Qadimgi Yunonistonda tragediyalarni kim yozgan? (Sofokl)

Qadimgi Yunonistonning eng mashhur tragediyalari? ("Shoh Edip", "Antigona")

Yunonistonda komediyalarni kim yozgan? (Aristofan)

Yunonistonning eng mashhur komediyalari qaysilar? ("Arilar", "Qushlar", "Qurbaqalar")

Qaysi asrdan boshlab Yunonistonda ibodatxonalarni toshdan qurish boshlangan? (mil. avv. VII asrdan)

Afinada Parfenon qurilishini kim boshqargan? (haykaltarosh Fidiy)

Fidiy yaratgan dunyo mo'jizalaridan biri qanday atalgan? (Olimpiyalik Zevs haykali)

Podsho Minos uchun mashhur saroy-labirintni kim qurgan? (Dedal)

Qaysi yunon faylasufi yer yuzidagi hamma narsa olovdan kelib chiqqan, deb ta'kidlagan? (Geraklit)

Geraklit qanday hikmatlarni aytgan? ("Bir daryoga ikki marta tushish mumkin emas", "Hamma narsa oqadi, hamma narsa o'zgaruvchadir")

Qaysi qadimgi yunon olimi bizni qurshab turgan hamma narsa atomlardan tashkil topgan deb ta'kidlagan? (Demokrit)

Qaysi qadimgi yunon faylasufi insonda hech qanday ehtiyojlar bo'lmasligi shart, deb ta'kidlagan? (Diogen)

Arastu fanga qanday hissa qo'shdi? (to'plangan bilimlarni ajratdi va mustaqil fanlar sifatida

ta'rifladi)

Kim "Evrrika" deb xitob qilgan? (Arximed)

Arximed tug'ilib o'sgan shaharning nomi? (Sirakuza)

Kim o'zining dono hikmatlari tufayli Afina shahrining eng aqlli kishisi deb e'lon qilingan?  
(Suqrot)

"Shuncha o'qib-o'rganib bildimki, hech narsani bilmas ekanman", degan so'zlarni kim aytgan?  
(Suqrot)

Suqrotning sevimli hikmati? ("O'z-o'zingni angla" – Delfiya ibodatxonasidagi bitik)

Suqrot qanday nuqsonlarni tanqid qilgan? (ochko'zlik va molparastlik)

Suqrot ta'limotini kim yozib olgan? (Aflotun)

Qaysi yunon faylasufi ideal davlat – "Atlantida" haqida ta'limot yaratdi? (Aflotun)

Sirenalar – bu...? (yarim qush, yarim ayollar)

Qadimgi yunonlarning qaysi xudolari birinchi bo'lib paydo bo'lgan? (Geya va Uran)

Qadimgi Yunonistonda yer ilohasi ... (Geya)

Osmon xudosi – ... (Uran)

Kim osmon gumbazini yelkasida suyab turgan? (Atlas)

Gerakl necha marta jasorat ko'rsatgan? (12 marta)

Yunonlarning bosh xudosi? (Zevs)

Dengiz xudosi? (Poseydon)

Marhumlar saltanati xudosi? (Aid)

Past tabaqali ma'budlar ... (Satiralar va nimfalar)

Satiralar va nimfalar qayerda yashashgan? (o'rmon, daryo, tog'larda)

Donishmandlik ilohasi ... (Afina)

Yorug'lik, donolik va she'riyat xudosi ... (Apollon)

Quyosh xudosi ... (Gelios)

Dehqonchilik va hosildorlik ilohasi ... (Demetra)

Adliya ilohasi ... (Femida)

Temirchilar va hunarmandlar xudosi ... (Gefest)

Sevgi va go'zallik ilohasi ... (Afrodita)

Urush xudosi ... (Ares)

Uzumchilik xudosi ... (Dionis)

Savdo-sotiq xudosi ... (Germes)

G'alaba ilohasi ... (Nika)

Ov ilohasi, o'rmonlar homiysi ... (Artemida)

Uyqu xudosi ... (Gipnos)

### Mil. avv. VI–III asrlarda O'rta Osiyo

Ahamoniylardan kim birinchi bo'lib O'rta Osiyoni zabt etishga uringan? (Kir II mil. avv. VI asr o'rtasida)

Kir II massagetlar ustiga yurish qilishdan oldin qaysi davlatlarni va qachon bosib olgan? (Parfiya, Marg'iyona, Baqtriyani, mil. avv. 545–540-yillarda)

Kir II ning massagetlar ustiga yurishi haqida kim hikoya qilgan? (Gerodot)

Doro I ga qarshi qo'zg'olonga kim va qayerda boshchilik qilgan? (Frada mil. avv. 522-yilda Marg'iyonada)

Frada qachon qatl qilingan? (mil. avv. 521-yilda)

Doro I saklar ustiga yurishni qachon amalga oshirgan? (mil. avv. 519-yilda)

Shiroqning jasorati haqida kim hikoya qilgan? (Yunon tarixchisi Poliyen (mil. avv. II asr))  
Oʻrta Osiyo forslar tomonidan nechta satrapiyaga boʻlingan? (uch satrapiyaga)  
Saklar, soʻgʻdiyalar, baqtriyaliklar qaysi hukmdor lashkarining safiga qoʻshilgan? (Kserks)  
“Forslar” tragediyasini kim yozgan? (Eksil)  
Oʻrta Osiyo xalqlari Ahamoniylardan qachon ozod boʻlganlar? (mil. avv. IV asrda)  
Oʻrta Osiyo xalqlarining Ahamoniylarga qaramligi necha yil davom etgan? (200 yildan oshiq)  
Mil. avv. VII–IV asrlarda Oʻrta Osiyoning yirik hunarmandchilik markazlari? (Qiziltepa, Yerqoʻrgʻon, Uzunqir, Afrosiyob, Koʻzaliqir)  
Oʻrta Osiyoda ilk tangalar qachon paydo boʻlgan? (mil. avv. V–IV asrlarda)  
Amudaryo xazinasi qachon topilgan? (1877-yilda)  
Bugun Amudaryo xazinasi qayerda saqlanmoqda? (Londondagi muzeyda)  
Makedoniyalik Aleksandr necha yoshida podsho boʻlgan? (20 yoshida)  
Makedoniyalik Aleksandr Sharqqa yurishni qachon boshlagan? (mil. avv. 334-yilda)  
Sharqqa yurish necha yil davom etgan? (10 yil)  
Makedoniyalik Aleksandr Sharqda qaysi davlatlarni bosib olgan? (Suriya, Misr, Eron, Hindiston)  
Makedoniyalik Aleksandrning sharqqa yurishlari haqida kim hikoya qilgan? (yunon tarixchisi Aristobul)  
Oʻrta Osiyolik jangchilar quroli – xanjar qanday atalgan? (akinak)  
Jangovar oybolta qanday atalgan? (sagaris)  
Makedoniyalik Aleksandr Oʻrta Osiyoda birinchi boʻlib qaysi shaharni bosib olgan? (Baqtra)  
Baqtra shahrining qadimgi nomi? (Zariaspa)  
Makedoniyalik Aleksandr Baqtriyani zabt etganda bu shaharning satrapi kim edi? (Bess)  
Makedoniyalik Aleksandr Samarqandni ishgʻol qilish uchun qaysi viloyatdan oʻtishi kerak edi? (Nautaka (Qashqadaryo))  
Makedoniyalik Aleksandr Samarqandni qachon ishgʻol qilgan? (mil. avv. 329-yilda)  
Kir II Oʻrta Osiyo hududida qaysi shaharga asos solgan? (Kurushkat (Kiropol))  
Makedoniyalik Aleksandr qaysi qarshilik koʻrsatgan? (Spitaman)  
Makedoniyalik Aleksandr saklar bilan kurashishda tayanch nuqtasi sifatida qaysi qalʼani va qayerda qurdirgan? (Aleksandriya Esxata (Chekka), Xoʻjand shahri yaqinida, Sirdaryo boʻyida)  
Spitaman va Makedoniyalik Aleksandrning hal qiluvchi jangi qachon boʻlib oʻtgan? (mil. avv. 328-yilda)  
Yunon-makedon qoʻshinlari qayerda ilk bor magʻlubiyatga uchragan? (Soʻgʻdiyona)  
Makedoniyalik Aleksandr Oʻrta Osiyoni istilo qilishga necha yil uringan? (3 yil)  
Makedoniyalik Aleksandr qaysi hududlarni bosib olgan? (Margʻiyona, Baqtriya, Soʻgʻd)  
Makedoniyalik Aleksandr qaysi hududlarni bosib ololmagan? (Xorazm, Toshkent vohasi va Fargʻona)  
Makedoniyalik Aleksandr Oʻrta Osiyoda qancha shahar qurdirgan? (12)

### Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi

Makedoniyalik Aleksandr qachon vafot etgan? (mil. avv. 325-yil 13-iyunda)  
Makedoniyalik Aleksandr podsholigi qaysi davlatlarga boʻlinib ketgan? (Makedoniya, Misr, Suriya (Salavkiylar))  
Salavk Suriya davlatining yakka hukmdoriga qachon aylangan? (mil. avv. 312-yilda)  
Salavkiylar tarkibiga qaysi davlatlar kirgan? (Ikki daryo oraligʻi, Eron, Parfiya, Baqtriya, Soʻgʻdiyona, Margʻiyona)  
Salavk Margʻiyona, Soʻgʻdiyona, Baqtriya hukmdori etib kimni va qachon tayinlagan? (oʻzining oʻgʻli Antioxni mil. avv. 293-yilda)  
Antiox Salavkiylar davlatining yakka hukmdoriga qachon aylandi? (mil. avv. 280-yilda)

Kim 312-yildan boshlab Suriya davlatining yakka hukmdoriga aylangan? (Salavk)  
 Antiox necha yil hukmronlik qilgan? (20 yil)  
 Salavkiylarning O'rta Osiyodagi yirik shahar-davlatlari? (Baqtriya, Maroqanda, Marg'iyona Antioxiysi (Marv), Termiz)  
 Yunon va sharq madaniyatlari aralashuvi jarayoni qanday ataladi? (ellinizatsiya)  
 Yunon-Baqtriya podsholigi qanday qilib va qachon tashkil topgan? (mil. avv. 250-yilda Salavkiylardan Baqtriya ajralib chiqqan)  
 Parfiya qachon va qanday qilib vujudga kelgan? (mil. avv. 250-yilda Salavkiylardan ajralib chiqqan)  
 Yunon-Baqtriya podsholigi hukmdorlari? (Diodot, Yevtidem, Demetriy)  
 Yunon-Baqtriya podsholigi qaysi hukmdor davrida o'z qudratining cho'qqisiga erishgan? (Demetriy hukmronligi davrida)  
 Demetriyning hukmronlik yillari? (mil. avv. 199–167-yy.)  
 Yunon-Baqtriya podsholigi tarkibiga qaysi hududlar kirgan? (Baqtriya, Marg'iyona, So'g'diyona)  
 Parfiyaning qaysi hukmdori Marg'iyonani bosib olgan? (Mitridiat I) Yunon-Baqtriya podsholigi necha yil mavjud bo'lgan? (120 yil)  
 Yunon-Baqtriya davlatini kim bosib olgan? (yuechji qabilalari mil. avv. 140–130-yillarda)

### Qadimgi Xorazm. Qang'. Davan

Xorazm Ahamoniylarga qaramlikdan qachon ozod bo'lgan? (mil. avv. IV asrda)  
 Xorazmliklarning asosiy mashg'uloti? (dehqonchilik)  
 Xorazmning qadimgi shaharlari? (Ko'zaliqir, Qal'aliqir, Jonbosqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a)  
 Qal'aliqir qachon qurilgan? (mil. avv. V–IV asrlarda)  
 Xorazmning qaysi qal'asida astronomiya kuzatishlari olib borilgan? (Qo'yqirilganqal'a)  
 Jonbosqal'a va Qo'yqirilganqal'a qachon qurilgan? (mil. avv. III–II asrlarda)  
 Tuproqqal'a qachon qurilgan? (milodiy II–III asrlarda)  
 O'rta Osiyodagi eng qadimgi yozuvlar qayerdan topilgan? (Oybo'yirqal'a yaqinida – mil. avv. V–IV asrlarda)  
 Xorazmda tangalarni zarb qilish qachon boshlangan? (mil. avv. I asrda)  
 Mil. avv. III asrda O'zbekiston hududida qaysi davlatlar tashkil topgan? (Qang' (Qang'yuy), Davan (Parkana))  
 Qang' davlatiga kim va qachon asos solgan? (sak qabilalari mil. avv. III asrda)  
 Qang'xa poytaxti? (Qang'diz (Bityan))  
 Qang'diz qayerda joylashgan edi? (Toshkent vohasining Oqqo'rg'on tumanida)  
 Qang' qachon yuksak qudratga erishgan? (mil. avv. II asrda)  
 Qang' qayerda joylashgan edi? (Toshkent va Chimkent viloyatlarida, Sirdaryo bo'yida)  
 Qang'xa aholisi qanday atalgan? (qang'arlar)  
 Mil. avv. II asrda qaysi davlat yuksak qudratga erishgan? (Qang')  
 Qang'arlar kim bilan urush olib borgan? (Xitoy bilan)  
 Qang'ni kim va qachon bosib olgan? (ko'chmanchi qabilalar milodiy III asrda)  
 "Samoviy otlar" qayerda ko'paytirilgan? (Davanda (Farg'ona))  
 Davan mavjud bo'lgan yillar? (mil. avv. III asrdan milodiy II asrgacha)  
 Davan poytaxti? (Ershi (Erish))  
 Davan nechta shaharni birlashtirgan? (70) Xitoyliklar Fors davlatini qanday atashgan? (Ansi)  
 Davanda qaysi xitoy tarixchisi bo'lib, u to'g'risida hikoya qilgan? (Chjan Szyan)  
 Davan dehqonlarining yirik manzilgohlari? (Sho'rabashot, Uchqo'rg'on)

Davan qachon va kim tomonidan zabt etilgan? (ko'chmanchi qabilalar tomonidan milodiy II asrda)

Davan qayerda joylashgan edi? (Farg'ona vodiysida).

### Kushon podsholigi

Kushon podsholigiga kim va qachon asos solgan? (ko'chmanchi yuechji qabilalari mil. avv. 140–130-yillarda Yunon-Baqtriya podsholigini zabt etishgan)

Kushon podsholigi mavjud bo'lgan yillar? (I asrdan III asrgacha)

Kushon hukmdorlaridan qaysi biri kushonlarning besh mulkini birlashtirgan? (Kudzulla Kadfiz)

Kudzulla Kadfiz qaysi hududlarni qo'shib olgan? (Afg'oniston va Kashmir)

Kushon podsholigi hukmdorlari? (Kudzulla Kadfiz, Vima Kadfiz, Kanishka)

Kanishkaning hukmronlik yillari? (78–123-yy.)

Kushon podsholigi qaysi hukmdor davrida o'z ravnaqining cho'qqisiga erishgan? (Kanishka hukmronligida)

Vima Kadfiz qanday islohotlar o'tkazgan? (pul islohotini o'tkazib, hukmdor ismi ko'rsatilgan tangalarni zarb etishni boshlagan)

Kushon podsholigi shaharlari? (Xolchayon, Dalvarzintepa, Ayritom, Zartepa, Qoratepa) Kushon podsholigida qanday yozuv turlari mavjud edi? (kushon shaklli yozuvi, oromiy, xorazm va so'g'd yozuvlari)

Kushon davlatining qayerida yunon tilidagi yozuvlar topilgan? (Surxko'talda, Qunduz shahri yaqinida – Afg'oniston)

Friz – bu ... (devorning yuqori qismidagi hoshiyaga chizilgan naqsh yoki rasm)

O'rta Osiyoda VIII asrgacha bir vaqtning o'zida nechta din mavjud bo'lgan? (zardushtiylik, buddaviylik)

Kushon podsholigida qaysi hukmdor davrida buddaviylik tarqalgan? (Kanishka hukmronligida).

### Qadimgi Rim

Italiya so'zining yunonchadan tarjimasi? ("buzoqchalar mamlakati")

Apennin yarimorolidagi eng katta daryo? (Po daryosi)

Apennin yarimorolining qadimiy fuqarolari qanday atalgan? (ligurlar)

Ligurlar nima bilan shug'ullanishgan? (chorvachilik)

Qadimda Italiyada qanday qabilalar yashagan? (latinlar, samnitlar, sabinlar, etrusklar)

Etrusklar nima bilan shug'ullanishgan? (dehqonchilik va chorvachilik)

Sitsiliya qachon yunonlar tomonidan koloniyaga aylantirilgan? (mil. avv. VI–VIII asrlarda)

Qadimgi Italiyadagi barcha qabilalar qanday umumiy nom bilan atalgan? (italiklar)

Etrusklar qachon 12 shahar-davlat ittifoqini tuzishgan? (mil. avv. VIII asrda)

Karfagen va etrusklar qachon yunonlarga qarshi kurash boshlagan? (mil. avv. VII asrda)

Rim shahriga kim va qachon asos solgan? (aka-uka Romul va Rem mil. avv. 753-yilda)

Rim shahri qaysi daryo bo'yida joylashgan? (Tibr daryosi bo'yida)

Rim qachon aholisi ko'p shaharga aylangan? (mil. avv. VI asrda)

Rimning bosh qal'asi joylashgan tepalik qanday ataladi? (Kapitoliy tepaligi)

Kim va qachon xalq boshqaruvini ag'darib, yakka hukmronlikni o'rnatishga uringan? (Mag'ur Tarkviniy mil. avv. 509-yilda)

Rim qachon Respublika deb e'lon qilingan? (mil. avv. 509-yilda)

Rim aholisi qanday tabaqalarga bo'lingan? (patritsiylar, plebeylar, qullar)

Patritsiylar kim? (Rimning tub aholisi)

Plebeylar kim? (ko'chib kelgan odamlar)

Rimning qaysi davlat mahkamasi mamlakatdagi muhim ishlarni muhokama qilgan? (xalq majlisi)  
Xalq majlisi qanday vakolatlarga ega edi? (urush e'lon qilish, sulh tuzish, qonunlarni bekor qilish, mansabdor shaxslarni tayinlash vakolatlari)

Rimning qaysi mahkamasi xalq majlisi qarorlarini tasdiqlagan? (Senat)

“Senat” so‘zining lotinchadan tarjimasi? (Oqsoqollar kengashi)

“Respublika” so‘zining italyanchadan tarjimasi? (“xalq ishi, umumiy ish”)

Senat necha kishidan iborat bo‘lgan? (300 kishi)

Davlatni bevosita kim boshqargan? (ikki konsul)

Urush boshlanganda kim mamlakat rahbari etib tayinlangan? (diktator)

Diktator qancha vaqt hukmronlik qilgan? (yarim yildan ortiq emas)

Diktatorning o‘rinbosari kim edi? (otliq qo‘shinlar boshlig‘i)

Konsullarning 12 kishidan iborat faxriy qorovuli qanday atalgan? (liktorlar)

Senatda qashshoq rimliklar manfaatini kim himoya qilgan? (Xalq tribuni)

Xalq tribuni Senatda qanday huquqqa ega edi? (veto huquqi)

Rimning ilk yozma qonunlar majmuasi qanday atalgan? (“12 jadval qonunlari”, mil. avv. V asr o‘rtasi)

12 jadval qonunlarining xususiyati nimada? (ularga muvofiq xususiy mulk daxlsiz deb e’lon qilingan)

Barcha rimliklarni teng huquqli deb e’lon qilgan qonunlar qachon qabul qilingan? (mil. avv. III asrda)

Rangli shisha parchalaridan ishlangan surat qanday ataladi? (mozaika)

Xom suvoqqa ishlangan rasmlar qanday ataladi? (freska)

Rimda xalq yig‘ilishlari o‘tkazilgan markaziy maydon qanday atalgan? (forum)

Shaharga suv keltiradigan inshoot qanday atalgan? (akveduk)

Rimliklar libosi qanday atalgan? (toga)

O‘g‘il bolalar necha yoshdan boshlab voyaga yetgan shaxs deb hisoblangan? (14 yoshdan boshlab)

Rimliklarning bosh ma’budi? (Yupiter – Rim davlatining homiysi)

Urush ma’budi ... (Mars)

Dengiz ma’budi ... (Neptun)

Uyqu ma’budi ... (Morfey)

Ov ma’budasi ... (Diana)

Olov va temirchilar ma’budi ... (Vulqon)

Bahor va sevgi ma’budasi ... (Venera)

Uzumchilik ma’budi ... (Baxus)

Adliya ma’budasi ... (Yustitsiya)

Taqdir ma’budasi ... (Fortuna)

Xonadon o‘chog‘i homiysi ... (Vesta)

Xudolarga qurbonlik keltirilgan baland joy qanday atalgan? (qurbongoh)

Rim ruhoniylari qanday atalgan? (kohin-pontifiklar)

Kohin-pontifiklar hay’ati necha kishidan iborat edi? (5 dan 15 kishigacha)

Kohin-pontifiklarga kim rahbarlik qilgan? (Buyuk pontifik)

Rimliklarda barcha muhim ishlar nimadan boshlangan? (kohin-avgurlar bashoratidan)

Xonadon o‘chog‘i ma’budasi – Vesta ibodatxonasida muqaddas olovni kim saqlab turgan? (kohina-vestachilar)

Necha yoshdagi erkaklarni qo‘shinlar safiga olishgan? (17 dan 46 yoshgacha)

80 kishidan iborat jangchilar guruhi qanday atalgan? (senturiya)

Bir necha senturiya qanday atalgan? (kogorta)  
 10 kogorta qanday atalgan? (legion)  
 Rimliklarda harbiy xizmat muddati? (25 yil)  
 “Triumf” soʻzining lotinchadan tarjimasi? (“tantana”)  
 Rim sarkardalari butun Italiyani qachon zabt etishgan? (mil. avv. III asr oʻrtasida)  
 Puni urushlari nima sababdan boshlangan? (Karfagen hukmdorlari Sitsiliyani bosib olishgan)  
 Karfagen ustunligi nimada edi? (kuchli floti boʻlgan)  
 Rimliklar Karfagenni necha marotaba zabt etmoqchi boʻlganlar? (uch marotaba)  
 Karfagen qoʻshinlariga kim boshchilik qilgan? (Gannibal)  
 Gannibal qoʻshinlari rimliklarni qachon va qayerda tor-mor etgan? (mil. avv. 216-yilda, Kann ostonasidagi jangda)  
 Gannibal qoʻshinlarini kim, qachon va qayerda tor-mor etgan? (mil. avv. 202-yilda Zama shahri yaqinida, rimlik sarkarda Ssipion)  
 Puni urushlari qanday yakun topgan? (Karfagen magʻlub etilgan, mil. avv. 146-yilda)  
 Karfagen qamali necha yil davom etgan? (ikki yil)  
 Puni urushlari tugagach, Rim imperiyasi tarkibiga qaysi hududlar kirgan? (Sitsiliya, Korsika, Sardiniya, Ispaniya)  
 Rimliklar istilo qilingan mamlakatlarni qanday atashgan? (provinsiyalar)  
 Provinsiyalarga kim rahbarlik qilgan? (prokonsullar)  
 Rimdagi eng katta amfiteatr? (Kolizey – 50 000 tomoshabin)  
 Mayda yer ijarachilari qanday atalgan? (kolonlar)  
 Kulba solish va oila qurish ruxsat etilgan qullar qanday atalgan? (kulbali qullar)  
 Rim hukmdorlari qudratining ramzi? (burgut)  
 Spartak qoʻzgʻoloni qaysi yillarda va qayerda boʻlib oʻtgan? (mil. avv. 74–71-yillarda, Kapuyada)  
 Spartak qayerdan kelgan? (Frakiyadan)  
 Spartak lashkarini kim va qachon tor-mor etgan? (sarkarda Mark Krass)  
 Spartak lashkarining ayrim guruhlari necha yil qarshilik koʻrsatishda davom etgan? (10 yil)  
 Spartak qoʻzgʻoloni bostirilgandan soʻng Rimda kimlar oʻrtasida hokimiyat uchun kurash boshlangan? (Krass va Pompey oʻrtasida)  
 Krass va Pompeyning kurashi qanday yakun topdi? (Sezar gʻolib boʻadi)  
 Sezar qaysi yillarda hukmronlik qilgan? (mil. avv. 49–44-yy.)  
 Qaysi voqeadan keyin Sezar “Qur’a tashlandi” degan? (mil. avv. 49-yilda Rubikon daryosidan kechib oʻtilgandan keyin)  
 Sezar Rimda hokimiyatni qoʻlga olib, oʻziga qanday unvon bergan? (imperator)  
 Sezarga qarshi fitnaga kim boshchilik qilgan? (Brut)  
 Mil. avv. 44-yilda Sezarning hukmronligi qanday yakun topgan? (fuqarolik urushi boshlangan)  
 Rim imperiyasining asoschisi kim? (Oktavian)  
 Sezardan soʻng kim Rim hukmdoriga aylandi? (Uning jiyani Oktavian)  
 Oktavian Brutga qarshi kurashish uchun kim bilan birlashgan? (Mark Antoniy bilan)  
 Antoniy kimga uylangan? (Kleopatraga)  
 Oktavian va Antoniy oʻrtasida hal qiluvchi dengiz jangi qachon va qayerda boʻlib oʻtgan? (mil. avv. 31-yilda Yunoniston sohillarida)  
 Oktavian qachon imperator boʻldi va senat unga qanday ism qoʻydi? (mil. avv. 29-yilda – Avgust)  
 Oktavian hukmronligida qoʻshinlar soni? (300 000 jangchi)  
 Oktavian qachon vafot etgan? (14-yilda)  
 Rim imperiyasi tanazzuli qaysi imperatorlar hukmronligida boshlangan? (Kaligula va Neron)

hukmronligida)

Qaysi davr Rim imperiyasining “Oltin asri” deb ataladi? (II asr)

Rim imperiyasida kimning hukmronligida yolgʻon chaqimlarga koʻra qatllar bekor qilingan?  
(Trayan hukmronligida)

Trayan qachon imperator boʻlgan? (98-yilda)

Qaysi voqea sharafiga Trayanning 40 metrlik ustuni oʻrnatilgan? (Trayanning dak qabilalari ustidan gʻalabasi sharafiga)

Daklar qayerda yashagan? (Dunay boʻyida)

Trayan qaysi hududlarni boʻysundirgan? (Suriya va Mesopotamiya)

Trayan qaysi davlat bilan muvaffaqiyatli urush olib borgan? (Parfiya bilan)

Milodiy III asrdan boshlab Rimda imperatorni kim saylashni boshlagan? (armiya)

Kimning hukmronligida va qachon Rim imperiyasi poytaxti Vizantiy shahriga koʻchirilgan?  
(imperator Konstantin hukmronligida, milodiy 330-yilda)

Konstantin Vizantiy shahrini qanday nomlagan? (Konstantinopol)

Qachon va qanday voqeadan soʻng Rim imperiyasi Gʻarbiy va Sharqiy qismlarga boʻlingan?  
(395-yilda imperator Feodosiyning vafotidan soʻng)

Rimni 410-yilda kim talon-taroj qilgan? (Alarix boshchiligidagi got qabilalari)

Gotlar Rimni necha kun talon-taroj qilganlar? (uch kun)

Rimni 452-yilda kim tor-mor etgan? (Attila boshchiligidagi hunlar)

Milodiy 455-yilda Rimni kim talon-taroj qilgan? (vandal qabilalari).

**QADIMGI MISR TARIXIDAN QIZIQ DALILLAR**

Qadimgi Misr – insoniyat tarixidagi ilk sivilizatsiyalardan biridir. U yer yuzidagi eng uzun daryo – Nil bo‘yida dunyoga kelib, 3000-yildan ortiq vaqt gullab-yashnagan.

**1. Ilohiy Panteon.**

Qadimgi misrliklar ko‘plab ma’bud va ma’budalar aks etgan afsonalar yaratishgan. Bugungi kunda bizga 1500 ga yaqin ma’budlar ma’lum. Ular misrliklar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ma’budlar ko‘pincha kundalik hodisalar va Nil bo‘yida yashovchi hayvonlarni gavdalantirishgan. Misrliklarda bosh ma’bud – Amon bo‘lib, qolganlari ikkinchi darajali hisoblangan.

**2. Mumiyolash.**

Misrliklarning deyarli barcha dafn marosimlari va urf-odatlari barhayotlikka ishonch va narigi dunyodagi hayot bilan bog‘liq. Mumiyolash ana shulardan biri. Avvaliga u tabiiy edi – mayit oftobga qo‘yilar va quritilardi. Keyin jarayon ancha murakkablashdi va san’at darajasiga ko‘tarildi. Asosan saroy ayonlari va asilzodalar mumiyolanar edi. Ichki a’zolar ham (mumiyolangan holatda) marhum yoniga qo‘yilar, shunda u narigi dunyoda qayta tirilishi mumkin edi.

**3. Qadimgi Misr sivilizatsiyasining yoshi.**

Qadimgi Misr sivilizatsiyasining yoshi hurmatga loyiq. Ilk sulolalar davri taxminan mil. avv. 3000-yilda boshlanib, bu davr Ptolyemeylardan so‘nggisi – malika Kleopatraning mil. avv. 30-yilda vafot etishi bilan yakun topdi. Sivilizatsiya yoshi 3 ming yilga yaqin. Bu esa qadimgi dunyoda Misr qanchalik qudratli bo‘lganini anglatadi.

**4. Piramidalar.**

Piramidalar bugungi kunda ham Qadimgi Misrning o‘lmas merosi hisoblanadi. Ushbu mahobatli tosh inshootlar podsholarning maqbarasi va qudratining ramzi sifatida xizmat qiladi. Ular olimlar hanuzgacha ochib berolmayotgan jumboqlarga to‘la. Misrda hozir 130 dan ziyod piramidalar mavjud.

**5. Ilk sulh shartnomasi.**

Ha, uni ham misrliklar tuzgan. Bu mil. avv. 1259-yili sodir bo‘lgan. Sulh qo‘shni xetlar bilan qariyb 200 yildan ziyod urush olib borgan misrliklar uchun havodek zarur edi. O‘sha paytda ikkala tomon ham sulh tuzishga rozi edi, negaki ularning yangi dushmanlari paydo bo‘lgan edi. Misrliklarda – “dengiz xalqlari” bosqini, xetlarda – ossuriyaliklar istilosi edi. Ushbu sulh shartnomasi “abadiy tinchlik” sifatida ma’lum.

**6. Fayans.**

Fayans sifatida mashhur sopol turini ham aynan misrliklar birinchi bo‘lib yaratganini bilasizmi? Bu kuydirilgan kvarzli sopol bo‘lib, yashil va ko‘k ranglarda tovlanib, yorqin jilva taratgan. U ozroq sirga ham o‘xshab ketib, idish-tovoqdan tortib zargarlik bezaklari va haykaltaroshlikda keng qo‘llangan.

**7. Taom.**

Misrliklar taomi ko‘pincha non va pivodan, shuningdek, oz miqdordagi meva-sabzavotlardan iborat edi. Go‘shni bayramlardagina iste’mol qilishgan. Yana baliq va uy parrandasini ham tanovul qilishgan. Ularning pivosi biznikiga o‘xshash emas. U pyure yoxud bo‘tqani eslatib, juda to‘yimli va kaloriyali bo‘lgan.

## **8. Tibbiyot.**

Misrning ilk, eng qadimgi podsholari mayib bo'lganda, og'ir kasallikdan so'ng yoxud keksaygach, maxsus marosimda qurbon keltirilgan. Soppa-sog' podshogina hukmronlik qila olgan. Ular ma'budlar sanalmagan, bu sig'inish ko'p yuz yilliklardan keyin paydo bo'lgan.

Qadimgi misrliklarning tibbiy bilimlari zamonasidan o'zib ketgan edi. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot Qadimgi Misr tibbiyoti haqida mukammal hikoya qilgan. U, Misr tabiblari aynan bir tana a'zosini davolashga ixtisoslashgani haqida yozadi. Stomatologiya ham Qadimgi Misr tibbiy amaliyotining muhim qismi hisoblangan.

## **9. Ismlar.**

Misrda oddiy odamlarning ismlari bo'lmagan, ismlar keyinroq, Makedoniyalik Aleksandr istilosidan so'ng paydo bo'lgan. Bizga tarixdan ma'lum ismlar – biror hukmdorni bildiruvchi so'zlar bo'lib, ularni farqlash uchungina qo'yilgan. Ayrim fir'avnlarning ismiga yuzlab so'zlar va unvonlar qo'shib aytilgan. Oila va yaqin ayonlar davrasida ularning boshqa ismlari bo'lgan, ammo xizmatkor, asilzodalar va oddiy xalq fir'avnlarni tantanali unvonlar va nomlar bilan atagan.

## **10. Yashash qoidalari.**

Misrliklarning butun hayoti aholining katta qismi so'zsiz rioya etib yashaydigan qonun-qoidalarga bo'ysungan. Hayotdagi barcha holatlar uchun qonun-qoidalar tuzilgan. Hattoki narigi dunyodagi hayot ham aniq belgilangan. Shu bois qonunshunos eng sharafli kasb sanalgan.

## **11. Pardoz-andoz.**

Qadimgi Misrda erkaklar ham xuddi ayollar kabi pardoz-andoz qilishgan. Ular ishlatgan ko'p buyumlar kabi, pardoz-andoz ham ma'naviy ahamiyatga ega bo'lib, u sehrli shifobaxsh xususiyatga ega, deb ishonishgan.

## **12. Ma'budlar.**

Qadimgi misrliklar 2000 dan ziyod ma'budlarga sig'inishgan. Ular tabiiy kuchlarni namoyon etib, har birining o'z vazifasi bo'lgan. Bu kuchlar tabiiy tarzda ishlashi uchun ma'budlarga qurbonlik keltirilgan.

## **13. Umri uzoqlik.**

Qadimgi misrliklar o'rtacha 40 yosh umr ko'rishgan. Gerodotga ko'ra, "Misr Nil in'omi edi". Darhaqiqat, Nil Qadimgi Misr vujudga kelishida yuksak ahamiyatga ega bo'ldi. Shunga qaramay, u bir qancha muammolarni ham yuzaga keltirdi. Daryo bo'yida istiqomat qilishgani uchun qadimgi misrliklar chivinlar tashiydigan bezgak kabi kasalliklarga, shuningdek, boshqa yuqumli parazitli infeksiyalarga ko'p chalingan.

## QADIMGI YUNONISTON TARIXIDAN QIZIQ DALILLAR

### 1. Yunonlar suvdan qo‘rqishgan.

Qadimgi yunonlar dengizdan qo‘rqishgan va suzishni bilishmagan. Ular qirg‘oq yoqalab suzishgan, ochiq dengizga chiqishmagan. Agar qirg‘oq ko‘rinmay qolsa, sarosimaga tushib, xudodan qutqarishni iltijo qilishgan. Ularning suvga daxldor xudolari ko‘p bo‘lgan.

### 2. Qabristondagi jilmaygan haykallar.

Qabristonlarga o‘rnatilgan yigitlar haykallarining (ularning nima maqsadda qo‘yilgani noma‘lum) barchasi jilmayadi. Hatto bu borada “arxaik tabassum” degan ibora bor. Miloddan avvalgi V asrda toshga boshqacha ishlov berishni bilishmagani sababli ham o‘sha zamondagi haykallarning ko‘zlari qiyiq va yuzlari do‘mboq edi.

### 3. Yunon haykallari bronzadan yasalgan.

Keyinroq rimliklar haykallarni marmardan yasay boshladilar, chunki ularga qora rangdan ko‘ra oq rang ko‘proq yoqardi. Yunonlar bronzadan haykal yasashining yana bir boisi – ular oftobda qorayib ketgan edilar. Yunonlar o‘zlarini sovuq oq marmar holida tasavvur qilolmasdilar.

### 4. Teatr.

Teatrda faqat erkaklar o‘ynagan. Agar aktyor go‘zal qizni o‘ynasa, u oq niqob taqib olardi. Xunuk qizni o‘ynasa, sariq niqob ishlatardi. Tomoshabinlar ham faqat erkaklar bo‘lishgan.

### 5. Gigiyena.

Yunonlar kamdan-kam yuvinganlar, ba‘zan umuman yuvinmaganlar. Suv o‘rniga zaytun moyidan foydalanishgan – moyni surtib, so‘ng qirg‘ich bilan badandagi kirlarni qirtishlab tozalashgan. Uch yoqlama foyda: kirlaring ketdi, yaltiraysan va mazali hid taratasan.

### 6. Sharob va suv.

Yunonlar sharobni suv qo‘shibgina ichishgan: bir qism sharobga yetti qism suv qo‘shib iste‘mol qilishgan. Uni kun davomida chanqovbosdi ichimlik sifatida ichishgan. Sharob suvni dezinfeksiya qilgan va yoqimli ta‘m bergan.

### 7. Parfenon.

Afina Akropolida Fidiy tomonidan qurilgan mashhur Parfenon turibdi. Parfenon tarixi – bu jafokash tarixidir (qolaversa, uning yaratuvchisi tarixi ham shunday). U yerda porox ombori bo‘lib, u portlagan. Parfenon tomsiz qolgan, ammo turib bergan. Inglizlar Parfenon haykallarga munosib joy emas degan qarorga kelib, ularni Britaniya muzeyiga olib ketishgan. Haykallar sinsa ham, inglizlar ularni qismlab olib ketishgan. Xristianlar Parfenondan cherkov o‘rnida, turklar – masjid o‘rnida foydalandilar.

### 8. Adolat kosasi.

Yunonistonda bugun ham “Pifagor qadahi” nomli faqat aniq bir o‘lchamgacha suyuqlik quyish mumkin bo‘lgan idish sotiladi. Agar ko‘proq quyib yuborilsa, suyuqlik oqib chiqadi. Matematik buni barcha qullar bir xil miqdorda suv ichishlari uchun o‘ylab topgan. Pifagor tug‘ilib o‘sgan orol – Samosda suv tanqis bo‘lgan. Idishning yana bir – “Adolat kosasi” degan nomi bor.

### 9. Bo‘yindagi sirtmoq.

Yunonistonning eng birinchi mashhur qonun chiqaruvchi va sudyalardan biri Zalevk shaxsiy va ijtimoiy hayotdagi axloqiy me‘yorlarni tartibga soluvchi juda qat‘iy qonunlarni joriy etgan. Ammo qonunlar mavjud bo‘lgan 300 yil davomida ularga ikki marotabagina o‘zgartirishlar kiritilgan. Buning

boisi, o'zgartirish kiritayotgan odam bu ishni bo'yniga sirtmoq osgan holda bajarishi kerak edi – agar o'zgartirish ma'qullanmasa, u shu zahoti o'zini osishga majbur bo'lgan.

#### **10. Anesteziya.**

Qadimgi Yunonistonda tabiblar jarrohlik amaliyoti paytida anesteziya, ya'ni, og'riqsizlantirish qo'llashgan. Albatta, o'sha davr anesteziyasi hozirgisiga o'xshamasdi: bemorni og'riqsizlantirish uchun uning operatsiya qilinadigan joyiga elektr skatni qo'yib, tok urdirishgan.

#### **11. Yunonlar poytaxtining nomi.**

Yunoniston poytaxti ellinlar ma'budasi Afina sharafiga nomlangan. Afina donishmandlar va jangchilarning homiysi edi. U shahar uchun zaytun mevalarini tugadigan daraxt in'om etgan. Shahar aholisiga boshqa ma'budlar tomonidan berilgan sovg'alar yoqmagan va ular Afinani tanlashgan.

#### **12. Diogen.**

Sinoplik Diogen antik davrning eng alomat donishmandi edi. Aflotun bilan bahslashishni xush ko'rgan bu yunon faylasufi ko'chada ovqatlanib, sopol ko'zada uxlagan. U ko'pgina afinaliklarni tanqid qilgan, o'zini esa “dunyo fuqarosi” deb e'lon qilgan.

#### **13. Pedagoglar.**

Qadimgi Yunoniston birinchi pedagoglar yetishib chiqishi bilan ham mashhur. Ammo o'sha davrda ular boy oila farzandlarini maktabgacha kuzatishar va o'quv qurollarini ko'tarib borishardi. Boy ellinlar og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullana olmaydigan keksa xorijiy qullarni pedagog qilib yollashgan. Pedagoglar bolaga odob qoidalarini o'rgatishgan, ammo ko'pincha o'zlari savodsiz bo'lgan.

#### **14. Yunonlarning ilk kompyuteri.**

Qadimgi yunonlar mil. avv. I asrda dunyodagi birinchi kompyuterdan foydalanaganlar. Bu astrologik soat bo'lib, u sayyoralar harakatini ko'rsatgan. O'lchovlar shunchalik aniq bo'lganki, foydalanuvchi Oy tutilishi va uning fazalarini bashorat qilishi va Olimpiya o'yinlarini o'tkazish vaqtini kuzatishi mumkin edi.

#### **15. Poyabzal**

Yunonlar shippak yoki yumshoq tufli kiyishgan, lekin ko'pincha yalangoyoq yurishni xush ko'rishgan. Tarixchilar fikricha, yunonlar o'z yurtida biror marta ham poyabzal kiymay xotirjam umr kechirishi mumkin edi.

### 1. Rim imperiyasi eng kattami?

Ko'pchilik Rim imperiyasini eng katta deb sanaydi, holbuki, u barcha imperiyalar ichida 28-o'rinda turadi. Rim imperiyasi o'z qudrati cho'qqisiga chiqqan vaqtda dunyo aholisining 12 foizi shu yerda yashagan. Buyuk Britaniya imperiyasi eng yirik edi, undan so'ng Mo'g'ul imperiyasi turadi.

### 2. 721 yillik urush.

Insoniyat tarixida eng uzoq cho'zilgan urush rimliklar va forslar o'rtasida bo'lib, 721 yil davom etgan. Katta hududni egallashga uringan forslar bu urushni keltirib chiqargan degan taxminlar mavjud.

### 3. Rim suv quvurlari.

Rim suv quvurlari tizimini joriy etgan ilk sivilizatsiya bo'ldi. Suv quvurlaridan umumiy hammom va hojatxonalarni suv bilan ta'minlash uchun foydalanilgan. Shuningdek, ular favvoralarni ta'minlash uchun ham qo'llangan. Rimlik boylar uyida sovuq suv aylanib yuradigan quvurlar o'rnatilgan. Bu o'z o'rnida jaziramada xona haroratini pasaytiruvchi konditsioner vazifasini bajargan.

### 4. Rim yo'llari.

Buyuk Britaniya hududida hozirgacha rimliklar tomonidan 2000 yil ilgari qurilgan yo'llar saqlanib qolgan.

### 5. Gladiatorlar jangi.

Qadimgi Rimda eng qonli tomoshalardan biri – bu gladiatorlar jangi edi. Halok bo'lgan gladiatorlarning qoni tezda yig'ib olinib, dori sifatida sotilardi.

### 6. Sog'liq uchun zahar.

Qadimgi Rim imperatorlari har kuni juda kichik miqdorda turli zaharlar ichishgan, bundan maqsad – kelajakda zaharlanishdan ehtiyot chorasi sifatida immunitet hosil qilish edi.

### 7. Rim – Konstantinopol – Istanbul.

Rim imperiyasi ikki qismga – Sharqiy va G'arbiy imperiyalarga ajralib ketgan. Sharqiy Rim imperiyasining poytaxti Rim, G'arbiy Rim imperiyasining poytaxti Konstantinopol edi. Keyinchalik uni usmoniy turklar zabt etib, shahar nomini Istanbul deb o'zgartirishdi.

### 8. Tabiblar uchun jazo.

Qadimgi rimlik jarroh bemorni qutqara olmasa, ikki qo'li kesib tashlanishi mumkin edi. Albatta, har doim ham emas, balki bemor aynan tabibning uquvsizligi sababli vafot etganda shunday qilingan.

### 9. Barcha yo'llar Rimga boradi.

“Barcha yo'llar Rimga boradi” iborasining mazmuni shundaki, milodiy V asrgacha rimliklar butun imperiya bo'ylab qariyb 85 000 kilometrlik yo'llar qurishgan.

### 10. Rim gerbidagi SPQR yozuvi.

Rim gerbidagi, haykallari va binolaridagi SPQR yozuvining ma'nosi: “senatus populusque romanus”, ya'ni, “Senat va Rim ahli” degan ma'noni bildiradi.

### 11. Jangovar aravalar poygasi.

Gladiatorlar jangi deganda Rim ko'z oldimizga keladi, ammo “sport”ning bu shafqatsiz turi eng ommabop emasdi. Ayrim tarixchilar ta'kidlashicha, jangovar aravalar poygasi eng ko'p tomoshabinlarni to'plagan. Kolizey 50 000 kishini sig'dirgan, holbuki, bu poyga uchun maxsus qurilgan Katta sirk 250 000 kishini sig'dirgan!

### 12. Qadimgi Rim to'g'onlari bugun.

Ispaniyada ikkita Qadimgi Rim to'g'oni bor, ulardan hamon foydalanishadi. Qurilganidan so'ng

1900 yil o‘tib ham ular hanuzgacha nihoyatda balandligi bilan hayratga soladi, chunki so‘nggi O‘rta asrlarga qadar quruvchilar bunday baland inshootlarni barpo eta olishmagan.

### 13. Rimning beton binolari.

Rim me‘morchilik obidalarining shuncha asrlardan buyon turib berishining bir sababi bor – qurilishda beton ishlatilgan. Rim imperiyasi qulagandan so‘ng beton tayyorlash texnologiyasi qariyb 1000 yilgacha yo‘qotilgan. Rimliklar tomonidan qurilgan beton inshootlar shu qadar mustahkamki, mana, deyarli 2000 yildan buyon sezilarli shikastlarsiz turibdi.

## Tarix darslarida o‘qituvchining ish usullari tizimi

<b>Dars boshlanishi</b>	<b>Darsga nostandart kirish</b>
Dars boshlanishini oqilona uyushtirish nafaqat o‘quvchilarning o‘qituvchiga e‘tiborini tortishga, ularni qiziqtirishga, balki mashg‘ulotning ilk daqiqalaridan boshlab ularni faol fikrlashga jalb etishga imkon yaratadi.	Assotsiativ qator Kechiktirilgan topish Hayratga sol E‘lon qilinmagan mavzu Assotsiativ qator Fantastik qo‘shimcha Sening fikring?
<b>Kechiktirilgan topish</b>	
<b>O‘qituvchi:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• yangi bilimlarni yaratish uchun yetarli o‘rganilgan harakatlar usullarini aktuallashtirishni, ularni umumlashtirish va belgili qayd etishni;</li> <li>• sinov o‘quv harakatiga motivatsiyani (“kerak” – “qurbim yetadi” – “xohlayman”) va uni mustaqil amalga oshirishni tashkil etadi.</li> </ul>	Assotsiativ qator Ha – yo‘q Chavandoz va ot Fikrga qo‘shilaman – fikrga qo‘shilmayman Oldin va keyin G‘oyalar, tushunchalar, ismlar savati O‘yin maqsadi Soxta alternativa
<b>Yangi ma‘lumotni o‘rganish</b>	
O‘qituvchi mazkur bosqichda o‘quvchilarning o‘quv faoliyati orqali yangi ma‘lumotni o‘rganishni tashkil etadi  Ping-pong “Ism – ma‘no”	Ping-pong “Ism – ma‘no” Xatoni top Insert Aloqalar Eshitish – kelishib olish – muhokama Yaxshi – yomon Zigzag

### **Muammolar muhokamasi va yechimi**

Mazkur bosqichda o'quvchilar kommunikativ shaklda kelgusi o'quv harakatlari loyihasini o'ylaydilar: maqsad qo'yadilar (maqsad – yuzaga kelgan qiyinchilikni bartaraf etishdir), dars mavzusi haqida kelishib oladilar, usulni tanlaydilar, maqsadga erishish rejasini tuzadilar va vositalar – algoritmlar, modellar va hokazolarni aniqlaydilar. Bu jarayonni o'qituvchi boshqaradi: ilk damlarda mavzuga yaqinlashtiruvchi suhbatdan, so'ng undovchi va tadqiqot usullaridan foydalanadi.

“Fishboun” strategiyasi  
Yaxshi – yomon  
Kuch tahlili Generatorlar – tanqidchilar  
Venn diagrammasi Generatorlar – tanqidchilar  
Teskari aqliy hujum.

**Faqat o'quvchilarning mustaqil ishi bilimlarni chuqur egallash va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.**

**O'quvchining qurbi yetadigan hamma ishlarni uning o'zi qilishiga qo'yib bering.**

**K. D. Ushinskiy**

# Tarix darslarida ish usullari tizimini qo‘llashga oid tavsiyalar

## 1. Dars boshlanishi

### “Jozibali maqsad” usuli

O‘quvchilar oldiga oddiy va tushunarli maqsad qo‘yiladi, ular bu maqsadni bajarish orqali o‘quv harakatlarini amalga oshiradilar.

### “Sening fikring?” (fikrlar shkalasi) usuli

O‘qituvchi muammoli masalani ifodalab, o‘quvchilardan fikr bildirishni so‘raydi: ma’qullayman; ko‘proq ma’qullayman; ko‘proq qarshiman; qarshiman.

O‘quvchilar yakka holda yoki o‘xshash fikrli guruhlariga bo‘linib, darslik materiallaridan yoki tarixiy hujjatlardan foydalanib, o‘z fikrlarini isbotlashlari kerak.

### “Keyin nima bo‘ladi?” usuli

Mavzu e‘lon qilinib, o‘quvchilarga bashorat qilish taklif etiladi. Hikoya nomiga qarab urush yoki voqea yakuni taxmin qilinadi.

### “Darsga nostandart kirish” usuli

O‘qituvchi darsni mavjud bilimlarga asoslanib tushuntirish qiyin bo‘lgan ziddiyatli faktdan boshlaydi.

### “Assotsiativ qator” usuli

Dars mavzusi yoki aniq tushunchasi bo‘yicha so‘zlar-assotsiatsiyalarni ustuncha qilib yozish kerak. Agar qator nisbatan to‘g‘ri bo‘lsa, yozilgan so‘zlardan foydalanib, ta’rif berish tayinlanadi; so‘ng yangi so‘zlarni eshitib, lug‘atdagi variant bilan solishtirib, assotsiativ qatorga qo‘shish mumkin; yozuvni doskada qoldirish, yangi mavzuni tushuntirish, dars oxirida qaytib, biror narsani qo‘shish yoki o‘chirish kerak.

## 2. Bilimlarni aktallashtirish

### “Chavandoz va ot” usuli

Tavsifi. Sinf ikki guruhga bo‘linadi: “chavandozlar” va “otlar”. Birinchi guruh savollar yozilgan, ikkinchi guruh – to‘g‘ri javoblar yozilgan kartochnalarni olishadi. Har bir “chavandoz” o‘zining “oti”ni topishi kerak. Bu usul hatto yangi material o‘rganiladigan darslarda qo‘llanadi. Uning eng yoqimsiz xususiyati – o‘quvchilarning butun jamoasi bir vaqtning o‘zida sinfxona bo‘ylab yurishi kerak, bu esa muayyan xulq-atvor madaniyatini talab qiladi.

**Misol.** 6-sinfda tarix darsida “Qadimgi Yunoniston diniy e’tiqodlari” mavzusi o‘rganilganda bir jamoaga (“chavandozlarga”) qadimgi yunon ma’budlari ismlari yozilgan kartochnalar, boshqa jamoaga – bu ma’budlar nimalarning homiysi ekanligi yozilgan kartochnalar tarqatiladi.

### “Qadam-baqadam” usuli

Tavsifi. Oldin olingan bilimlarni faollashtirish uchun qo‘llanadi. O‘quvchilar doska oldiga kelib, oldin o‘rganilgan materialdagi atama, tushuncha, hodisa va hokazolarni qadam-baqadam ataydilar.

### “Ha – yo‘q” usuli

Tavsifi. O‘quvchilarni faollashtiradi. Quyidagi universal o‘quv harakatlarini:

- tarqoq faktlarni yagona manzaraga birlashtirish qobiliyatini;
- mavjud axborotni tartibga solish qobiliyatini;
- bir-birini eshitish qobiliyatini shakllantiradi.

Misol. O‘qituvchi topishmoq aytadi (son, predmet, adabiy qahramon, tarixiy shaxs va boshqalar haqida). O‘quvchilar savollar berib, javob topishga harakat qilishadi, bu savollarga o‘qituvchi faqatgina “ha”, “yo‘q”, “ha desa ham bo‘ladi, yo‘q desa ham” deb javob beradi.

### “To‘g‘ri – noto‘g‘ri fikr” usuli

Tavsifi. Fikrlar kutilmagan va mantiqsiz bo‘lishi mumkin. O‘quvchining vazifasi – bu fikrlarga qo‘shilish yoki qo‘shilmaslik, “plyus” yoki “minus” qo‘yishdan iborat.

#### Misol:

- amaldorlar maqbaralarda dafn qilingan (ha);
- amaldorlar ovqati non, piyoz va qoq baliqdan iborat bo‘lgan (yo‘q);
- fir‘avn amaldorni tayoq bilan urishni buyurishi mumkin edi (ha);
- amaldor fir‘avn taxti oldiga yaqinlashib, yuz tuban yiqilgan (ha);
- amaldor o‘z tomorqasida yer chopgan (yo‘q);
- amaldor ishlamagan (yo‘q).
- amaldor ko‘p zeb-ziynatlar taqib yurgan (ha).

### “Ma‘naviy qator” usuli

O‘quvchilar (guruhlarda ishlash mumkin) atamalarning ma‘lum bir qatori uchun umumiy tushuncha berishlari kerak.

#### Misol.

- Urush, mushtlashish, janjal, inqilob, bahs (nizo).
- Qonun, me‘yor, harakatlar tartibi, etiket (qoida).
- Majburlash, shafqatsizlik, tahdid, bosim (zo‘rlik).
- Shartnoma, kelishuv, qo‘shma qaror (bitim).
- Televideniye, radio, gazetalar, internet (OAV).
- Monoteizm, politeizm, butparastlik (din).

### “To‘rtinchi ortiqcha” usuli

O‘qituvchi o‘quvchilarga to‘rt so‘zni taklif etadi, ulardan birini istisno qilish kerak, buning uchun qolgan uch so‘zni birlashtirib turgan asosni mustaqil aniqlash lozim. Muammo muhokamasi

va yechimi.

### “Venn diagrammasi” usuli

Tavsifi. Doska (varaq) uch ustunga bo‘linadi. Birinchi ustunda bolalarga ikki tushuncha o‘rtasidagi umumiy xususiyatlarini yozish, qolgan ikki ustunda esa har bir tushunchaning farqlovchi jihatlarini yozish taklif etiladi.

Misol.

#### Ko‘mir, tuz

Umumiy xususiyatlari	Farqlovchi jihatlar
Foydali qazilma	Mineral modda – organik modda
Mahsulot	Oziq-ovqat sanoati mahsuloti – tog‘-kon sanoati mahsuloti
Tovar	Bug‘lantirish orqali olinadi – konlarda qazib chiqariladi

### 3. Yangi materialni o‘rganish. “Xatoni top” usuli

Tavsifi. O‘quvchilarning diqqat-e’tiborini faollashtiruvchi universal usul.

- axborotni tahlil qilish qobiliyatini;
- nostandart vaziyatda bilimlarni ishlatish qobiliyatini;
- olingan axborotni tanqidiy baholash qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga noma’lum miqdorda xatolarni o‘z ichiga olgan axborotni taklif etadi. O‘quvchilar yakka holda yoki guruhlariga bo‘linib xato izlaydilar, bahslashadilar, maslahatlashadilar. Guruh ma’lum bir fikrga kelib, spikerni tanlaydi. Spiker natijalarni o‘qituvchiga beradi yoki topshiriqni va uning yechimini butun sinfga e’lon qiladi. Muhokama cho‘zilmasligi uchun unga oldindan vaqt ajrating.

Misol. O‘quvchilar mualliflarga havola qilingan iqtiboslarni olishadi. Qay holda iqtibos mazkur muallifga tegishli bo‘lmasligini aniqlaydilar. O‘z fikrlarini isbotlaydilar. Yoki “Eng qadimgi urug‘chilik tuzumi” mavzusi yoki darsda o‘tilayotgan mavzu bo‘yicha xatolari bor matn olishadi.

### “Klaster” usuli

Tavsifi.

1. Matnni o‘qib chiqib, unda katta va kichik ma’noviy birliklar ajratib ko‘rsatiladi.
2. Ma’noviy bloklar ta’riflari muhokama qilingach va aniqlangach, to‘g‘riburchak ramkalarda qabul qilingan nomlar yozib qo‘yiladi.
3. Har bir ramka atrofida doirachalarga (“shoxchalarga”) ma’noviy bloklarga mos keluvchi ma’lumotlar qisqacha yoziladi.
4. Klasterning alohida bloklari va “shoxchalari” o‘rtasida aloqalar o‘rnatiladi va ular strelkalar bilan birlashtiriladi.
5. Muhokamadan so‘ng klasterlar yangi “shoxchalar” bilan to‘ldiriladi.

### “Donolik daraxti” usuli

Tavsifi. O‘quvchilar o‘rganiladigan materialga savollar berishni o‘rganishadi. Darsda bolalarga

topshiriq beriladi: tushuntirish jarayonida yoki matn bilan ishlash paytida uchta varaqda murakkabligi jihatidan uchta turlicha savol yoziladi. Material o'rganilgandan so'ng savollar topshiriladi. Eng qiziq savollar baholanadi, "olmalar" yoki "yaproqlar" ko'rinishida tuziladi va "Donolik daraxti"ga birlashtiriladi. (qizillar – 5, sariqlar – 4, yashillar – 3). Keyingi darslarda o'quvchilar meva yoki varaqni "uzib olib", javob berishadi.

### **“Tadqiqot fartugi”**

Tavsifi. Bolalarda A4 bichimli varaq bor, unda fartuk chizma tarzida tasvirlangan, yuqori qismida mavzu yozilgan, quyi qismi “cho'ntaklar”ga ajratiladi, masalan, asosiy tushunchalar, sanalar, ismlar; bolalar uy bekasi rolini o'ynab, cho'ntaklariga hamma muhim narsalarni solib qo'yadilar, dars davomida bolalar cho'ntaklarini to'ldiradilar, so'ng o'qituvchi fartuklarni yig'ib olib, kim eng yaxshi beka ekanligini baholaydi.

### **Tushunchalar bilan ishlash**

Tavsifi.

1. O'quvchilarga (yakka holda yoki guruhlariga bo'linib) dars mavzusiga oid biror bir tushunchaga ta'rif berish taklif qilinadi. O'qituvchi (o'quvchi) barcha kelib tushayotgan takliflarni doskaga yozadi, keyin muhokama boshlanadi. Erkin munozaradan so'ng o'quvchilar umumlashtirilgan ta'rif berishadi.

2. O'quvchilarga (guruhlariga bo'linib) so'zlar beriladi, ulardan biror bir tushunchani ta'riflaydigan jumla tuzish kerak. O'quvchilar jumla-ta'rifni to'g'ri tuzishlari va tushunchani aytishlari kerak.

**Misol.** So'zlar: faoliyat, o'rganuvchi, fan, ilmiy, xo'jalik; ta'rif – tangalarni va ularning xususiyatlarni o'rganuvchi fan; tushuncha – numizmatika.

3. Bolalarga ta'rifga tushirib qoldirilgan so'zlarni kiritish taklif etiladi. O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab yo ularga so'zlar taklif etiladi (so'zlar topshiriqni bajarish uchun keragidan ortiq bo'lishi mumkin), yo bolalar so'zlarni mustaqil eslab qoladilar (bolalarga tushunchani mustaqil aytishni taklif etib, topshiriqni murakkablashtirish mumkin).

**Misol.** “O'g'rilik – bu ..., ya'ni, ... va atrofdagi odamlarga bildirmay ... mulkini o'g'irlashdir”. Quyidagi ta'rif hosil bo'lishi kerak: “O'g'rilik – bu yashirincha, ya'ni, jabrlanuvchiga va atrofdagi odamlarga bildirmay o'zgarar mulkini o'g'irlashdir”.

Bolalardan nega aynan shu so'zlar bilan bo'shliqlarni to'ldirishganini tushuntirib berishlarini so'ragan ma'qul.

4. O'qituvchi yoki o'quvchi biror bir tushunchaga 2–3 assotsiatsiya taklif etadilar va bu tushunchani aytish kerak. Masalan, “So'zni top” o'yini, “Iqtisodiy soha” bo'limi bo'yicha jamiyatshunoslik darsi, “Ma'noviy qator” o'yini, “Ijtimoiy ixtilof” mavzusi bo'yicha jamiyatshunoslik darsi).

## **4. Nazorat**

### **“Olti shlyapa” usuli**

Tavsifi. Bu ryefleksiv usul darsda refleksiya hosil qilishga yordam beradi.

- o‘z tajribasiga baho berish qobiliyatini;
- voqea-hodisalar, faktlarga shaxsiy baho berish qobiliyatini;
- tevarak olamni va o‘z-o‘zini qadrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

O‘quvchilarni guruhlariga bo‘lib, shlyapalardan birini xarid qilishni taklif etish mumkin. Shlyapa sohiblari rangga qarab voqea-hodisalarga, faktlarga, faoliyat natijalariga baho berishlari kerak.

**Misol:** Oq shlyapa his-hayajonsiz aniq muhokamalarni ifodalaydi. Sariq shlyapa – ijobiy fikrlardir. Qora shlyapa – muammo va qiyinchiliklarni ifodalaydi. Qizil shlyapa – izohlarsiz hissiy fikrlardir. Yashil shlyapa – ijodiy fikrlar, takliflardir. Ko‘k shlyapa – aytilganlarni umumlashtirish, falsafiy qarashdir.

### “Ha – Yo‘q” jismoniy tarbiya daqiqasi

Tavsifi. O‘qituvchining gaplariga “ha” yoki “yo‘q” deb javob berib, partalar yonida turgan bolalar ma’lum harakatlarni bajaradilar (masalan, “ha” javobi qo‘llarni yuqoriga ko‘tarishni, “yo‘q” javobi – o‘tirib-turishni talab qiladi).

**Misol.** “Qadimgi yunonlarning diniy e’tiqodlari” mavzusida og‘zaki viktorina

- Yunonlar fikricha, ma’budlar Olimp tog‘i cho‘qqisidagi oltin qasrlarda yashashgan. (ha)
- Zevs oliy xudo va marhumlarning yer osti saltanati hukmdori bo‘lgan. (yo‘q)
- Olimlar Gomerni “Iliada” va “Odisseya” dostonlarining muallifi deb hisoblaydilar. (ha)

Tavsifi.

**I variant** – o‘rganilgan mavzuga kiritish mumkin bo‘lgan ismlarni darhol aytish;

**II variant** – daftarda ishlash uchun 5 daqiqa beriladi. Ismlarning ma’lum soni uchun baho (“5”) belgilanadi. Bilimlari eng mukammal o‘quvchi yutadi.

### “Tarixiy futbol” usuli

Tavsifi. Sinf jamoalarga bo‘linadi (odatda qatorlar bo‘yicha), har bir jamoa ma’lum bir material bo‘yicha savollar tuzish topshirig‘ini oladi: ikkita oddiy savol (kim, nima, qachon) va bitta murakkab savol (nega, nima uchun, farqi nimada; agarda shunday bo‘lsa; tushuntiring va h.k.) tuziladi. Odatda ish yakka holda daftarlarda bajariladi, guruhga mansublik esa faqat savol navbati aniqlanganda kerak: 1-qator 2-qatorga, 2-qator – 3-qatorga, 3-qator – 1-qatorga savollar beradi. Agar jamoadan hech kim savolga javob berolmasa, u holda butun qator 1 tur davomida savol berish huquqidan mahrum bo‘ladi, binobarin, reytingi tushib ketadi.

### “Ism, sana, voqea” usuli

Tavsifi. Topshiriq mantiqiy fikrlashni va tarixiy voqealar orasida mantiqiy aloqalarni ko‘rishni rivojlantiradi, diqqatni rivojlantiradi va amaldagi ma’lumotlar bilan ishlashni o‘rgatadi; tarixga oid bilimlarning xronologik asosi mustahkamlanadi.

## 5. Refleksiya Sinkveyn usuli

Tavsifi.

- Birinchi qatorga o‘rganilayotgan mavzudan olingan bir so‘z – ot yoziladi. Sinkveyn mavzusi

xuddi shudir.

- Ikkinchi qatorga sinkveyn mavzusini ochib beradigan ikki sifat yoziladi.
- Uchinchi qatorga sinkveyn mavzusiga taalluqli harakatlarni tavsiflaydigan uch fe'l yoziladi.
- To'rtinchi qatorga bir necha so'zdan iborat jumla yoziladi. Bu so'zlar yordamida o'quvchi mavzuga o'z munosabatini aytadi. Bu mavzuga oid ibora, iqtibos yoki o'quvchi tuzgan jumla bo'lishi mumkin.
- So'nggi qator – bu so'z-xulosa bo'lib, u mavzuni yangicha talqin qiladi, unga shaxsiy munosabatni bildirishga imkon beradi. Sinkveyn mavzusi imkon qadar hissiy bo'lishi kerak.

### **“Telegramma” usuli**

Tavsifi. Subyektiv tajribani aktuallashtirish usuli. Juda qisqa yozish. Misol. Darsdan tushungan eng muhim narsalarini partadoshiga tilaklar bilan birga qisqacha yozish va yuborish (almashish). Telegrammada asar yoki she'r qahramoniga tilak yozish. Darsda o'rganilgan bilimlar va hokazolar nuqtayi nazaridan o'ziga tilak yozish.

### **“Rangli hoshiyalar” usuli**

Tavsifi. Darsda qulay ruhiy sharoitni yaratish maqsadida qo'llanadi. O'quvchi yozma ishni bajara turib hoshiyalarga rangli qalamlar bilan chizadi va bu ranglar ma'lum bir ma'no bildiradi: qizil – “Iltimos, hammasini tekshiring va hamma xatolarni to'g'rilang”, – bu o'qituvchiga murojaat, yashil – “Iltimos, hamma xatolarni belgilang, o'zim tuzataman”, ko'k – “Xatolar sonini ko'rsating, o'zim topib, tuzataman”, qora – “Iltimos, bu ishga jiddiy qaramang, uni shoshilib bajardim” va hokazo.

**Misol.** Nazorat diktantida va xatolar ustida ishlashda qo'llash mumkin.

### **“Ryukzak” usuli**

Tavsifi. Refleksiya usuli ko'pincha katta bo'lim o'tilgandan so'ng qo'llanadi. Uning mohiyati – o'qishdagi siljishlarini, ehtimol, boshqalar bilan munosabatlaridagi siljishlarni qayd etish. Ryukzak bir o'quvchidan boshqasiga o'tadi. Har bir o'quvchi nafaqat muvaffaqiyatni qayd etadi, balki aniq misol keltiradi. Agar fikrlarni jamlab olish kerak bo'lsa, “yurishni o'tkazib yuboraman” deyish mumkin.

**Tushuntiruvchi-ko'rgazmali usullar** – bunda bilimlar tayyor ko'rinishda taklif etiladi. O'qituvchi bu bilimlarning samarali qabul qilinishini uyushtiradi. O'quvchilar bilimlarni qabul qilishadi va anglab yetishadi, axborotni ko'rgazmali qabul qilish orqali eslab qolishadi; o'quv jarayoni oqilona tashkil etiladi.

**Reproduktiv usullar** – (mashqlar, laboratoriya ishlari orqali erishiladi) bunda o'quvchilar bilimlarni ongli o'zlashtirishadi, tushunishadi va eslab qolishadi, bilimlar ko'p marotaba takrorlanadi. Usulning o'ziga xos jihatlari: harakatlarning o'sish jarayonlarini va tamoyillarini, harakatlarni bajarish algoritmlarini kuzatish, topshiriqlar, testlarning mashqiy banki; uyushgan, ko'p marotaba takrorlanuvchi, maxsus, sharhlangan, og'zaki, yozma harakatlar.

**Muammoli usullar** – bunda mustaqil va faol fikrlash qobiliyati rivojlanadi. O'ziga xos jihatlari: ishni nazariy anglab yetish, topshiriq, namoyish, yo'l-yo'riq, sinov, topshiriqlarni bajarish, nazorat, natijalarni baholash, tahlil. Bilim va bilimsizlik o'rtasidagi ziddiyatni anglab yetish, ichki qiyinchiliklar va samarali bilimsizlik.

**Tadqiqot usullari** – bunda o'qituvchi o'quvchilarni muammolar yechimini mustaqil izlashga, bilimlarni ijodiy qo'llashga va nostandart vaziyatlarda mustaqil harakat qilishga undaydi.

**Qisman-izlash usullari** – bunda o'qituvchi o'quvchilar oldiga muammo qo'yadi va ziddiyatlarni ochib berib, o'zi uning yechimini ko'rsatadi.

O'ziga xos jihatlari: muammoni ilmiy anglab yetish va ilmiy hal qilish namunalarini ko'rsatish.

Hamkorlik pedagogikasining asosiy qoidalari – o‘quvchilar bilan hamkorlik va o‘zaro aloqa munosabatlaridir; majburlamasdan o‘qitish, qiyin maqsad, tayanch, erkin tanlov, o‘zib ketish, yirik bloklar, o‘zini o‘zi tahlil etish va o‘zini o‘zi baholash g‘oyalaridir; jamoada yuqori intellektual muhitni, shaxsiy yondashuvni yaratish, o‘quvchilarning o‘zini o‘zi ijobiy boshqarishidir.

O‘qituvchi istalgan qiyin vaziyatda yordamga keluvchi insondir. U qo‘llab-quvvatlaydi va haqiqat yo‘lini ko‘rsatadi. Bola sinfdoshlariga ham yordam so‘rab murojaat etishi mumkin.

Pedagog har bir o‘quvchiga bir xil vaqt ajratadi va ularning barcha muvaffaqiyatlaridan quvonadi.

O‘qituvchining yaxshi so‘zi – darsda xayrixoh ruhiy munosabatlarni o‘rnatib, shu orqali rivojlantiruvchi muhitni yaratishning ajoyib usulidir.

## MUNDARIJA

Kirish	
Zamonaviy darsga talablar .....	3
1-dars. Kirish darsi .....	9
<b>I BO‘LIM. Eng qadimgi tuzum</b>	
2-dars. Qadimgi tarix – taraqqiyotning boshlanishi .....	11
3-4-dars. Eng qadimgi odamlarning rivojlanish bosqichlari .....	17
5-dars. Urug‘chilik jamiyati .....	24
6-dars. Eneolit va bronza davri madaniyati .....	32
7-dars. Bronza davrining ilk dehqonlari .....	35
8-9-dars. Temir davriga o‘tishda O‘rta Osiyoning rivojlanishi .....	40
10-dars. O‘lkashunoslik darsi .....	42
11-dars. Takroriy-umumlashtiruvchi .....	45
<b>II BO‘LIM. Qadimgi Sharq va O‘rta Osiyo</b>	
12-dars. Nil vodiysi va uning aholisi .....	50
13-dars. Qadimgi Misr va qo‘shni xalqlar .....	53
14-dars. Qadimgi Misrda din .....	57
15-16-dars. Piramidalar va daxmalar .....	59
17-dars. Qadimgi Misr madaniyati .....	63
18-dars. Mesopotamiya sivilizatsiyalari .....	67
19-dars. Mesopotamiya sivilizatsiyalari .....	69
20-21-dars. Bobil podsholigi .....	72
22-dars. Old Osiyo davlatlari .....	76
23-dars. Ahamoniylar davlati .....	79
24-dars. Qadimgi Hindistondagi ilk sivilizatsiya .....	84
25-dars. Qadimgi Hindiston madaniyati .....	86
26-dars. Qadimgi Xitoy sivilizatsiyalari .....	90
27-dars. Miloddan avvalgi III asrda Xitoy .....	92
28-dars. O‘zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar .....	97
29-dars. O‘zbekiston hududidagi qadimiy davlatlar .....	101
30-31-dars. Zardushtiylik va “Avesto” .....	103
32-dars. Takroriy-umumlashtiruvchi .....	107
<b>III BO‘LIM. Qadimgi Yunoniston</b>	
33-dars. Antik tarixning boshlanishi .....	110
34-dars. Qadimgi Yunonistonning yuksalishi .....	111
35-dars. Qadimgi Yunonistonning yuksalishi .....	115
36-dars. Yunon koloniyalari .....	120
37-dars. Afinada demokratiya .....	122

38-dars. Yunon-fors urushlari .....	124
39-dars. Makedoniyaning Yunonistonni bosib olishi .....	128
40-dars. Yunon fuqarolari tarbiyasi .....	130
41-dars. Qadimgi Yunoniston madaniyati .....	131
42-43-dars. Qadimgi Yunoniston olimlari va mutafakkirlari .....	135
44-dars. Qadimgi Yunoniston afsonalari .....	140
45-dars. Qadimgi yunonlarning xudolari .....	143
46-dars. Takroriy-umumlashtiruvchi .....	146

#### **IV BO‘LIM. Mil. avv. VI – mil. III asrlarda O‘rta Osiyo**

47-dars. Ahamoniylarning O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari .....	148
48-dars. Ahamoniylarning O‘rta Osiyoga bosqinchilik yurishlari .....	156
49-dars. O‘rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi .....	162
50-dars. O‘rta Osiyo aholisining yunon-makedon istilochilariga qarshi kurashi .....	166
51-dars. Salavkiylar davlati va Yunon-Baqtriya podsholigi .....	173
52-dars. O‘lkashunoslik darsi .....	175
53-54-dars. Qadimgi Xorazm, Qang‘ va Davan davlatlari .....	176
55-dars. Kushon podsholigi .....	181
56-dars. Buyuk ipak yo‘li .....	183
57-dars. Takroriy-umumlashtiruvchi .....	187

#### **V BO‘LIM. Qadimgi Rim**

58-dars. Qadimgi Italiya va uning aholisi .....	191
59-dars. Rim respublikasi .....	194
60-dars. Rim respublikasida hayot .....	196
61-dars. Qullar va gladiatorlar .....	200
62-dars. Rim respublikasining qulashi .....	203
63-dars. Rim imperiyasining tanazzuli va halokati .....	206
64-dars. Qadimgi Rim madaniyati .....	209
65-dars. Xristianlikning vujudga kelishi .....	211
66-dars. Takroriy-umumlashtiruvchi .....	214
67-dars. O‘lkashunoslik darsi .....	214
68-dars. Yakuniy umumlashtiruvchi dars.....	215
<b>Yil davomidagi barcha mavzularni takrorlash uchun ma’lumotlar</b> .....	215
Tarix darslarida o‘qituvchining ish usullari tizimi.....	240
Tarix darslarida ish usullari tizimini qo‘llashga oid tavsiyalar .....	242

Qadimgi dunyo tarixi 6 [Matn]: o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma /  
A. S. Sagdullayev, V. A. Kostetskiy – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. –  
252 b.

*O'quv nashri*

# **O'QITUVCHILAR UCHUN METODIK QO'LLANMA**

*Umumiy o'rta ta'lim maktablarining  
6-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma*

Muharrir: Ilhom Kasimov

Texnik muharrir: Akmal Sulaymanov

Dizayner: Konstantin Kostaskiy

Sahifalovchi: Abror Omonov

Musahhih: Dilbar Haydarova

Bosishga ruxsat etildi 00.00.2022 Bichimi 60x84 1/8.  
Times New Roman garniturasida. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.  
Shartli bosma tabog'i 00,00 Nashriyot-hisob tabog'i 00,00  
Adadi \_\_\_\_\_ nusxa. Buyurtma № \_\_\_\_.